

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY VILOYATI PEDAGOGIK MAHORAT MARKAZI

“ALISHER NAVOIY MEROSINING ILMIY, MA’NAVIY
AHAMIYATI” MAVZUSIDAGI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI

T O ‘ P L A M I



Alisher Navoiy merosining ilmiy, ma'naviy ahamiyati. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Navoiy: Navoiy viloyati PMM nashri, 2025. 210 b.

Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazida tashkil etilgan "Alisher Navoiy merosining ilmiy, ma'naviy ahamiyati" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamida uzluksiz ta'lim tizimida tadqiqot olib borayotgan mutaxassis-olimlar, mustaqil izlanuvchilar ilmiy-nazariy izlanishlarining amaliy tadbirlari keltirilgan. Raqamli texnologiyalar asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish borasidagi tajribali maktab o'qituvchilarining taklif va tavsiyalari, umumta'lim fanlarini o'qitishda raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda ta'lim, fan, xalqaro aloqalar va boshqaruv faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini rivojlantirish hamda "Atrof-muhitni asrash va „yashil“ iqtisodiyot yili" Davlat dasturida belgilangan vazifalar doirasida bajarilayotgan izlanishlarga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot natijalari yoritilgan.

Konferensiya materiallaridan oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, umumta'lim maktablari o'qituvchilari, magistrantlar va iqtidorli talabalar hamda shu sohada ilmiy ish olib borayotgan tadqiqotchilar foydalanishlari mumkin.

TAHRIR HAY'ATI

Mardanov U.R.	- pedagogik mahorat markazi direktori
Pulotov A.M.	- pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Safarov D.X.	- direktor o'rinbosari, professor
Usmonova R.M.	- kafedra mudiri, dotsent
Suvonova M.X.	- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Ravshanova O.S.	- katta o'qituvchi
Rajabova D.K.	- fanlarni rivojlantirish bo'limi bosh mutaxassisi
Boboqulov J.Q.	- UKTTE bo'limi boshlig'i

Texnik muharrir:

Jalilov D.J.

Maqolalar mazmuni va ma'lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas'ul.

Konferensiya materiallari to'plami Navoiy viloyati PMM kengashi (2025-yil 5-mart, 2-sonli) qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH SO'ZI

Assalomu alaykum! Aziz mehmonlar, anjuman ishtirokchilari, bugungi **“Alisher Navoiy merosining ilmiy, ma'naviy ahamiyati”** mavzusidagi ilmiy-amaliy anjumanda, (videokonferentsiyada) Siz muhtaram mehmonlar, ilm-ma'rifat ahli bilan muloqotda bo'lishni o'ta mamnuniyat bilan qabul qilaman.

Alisher Navoiy – o'zbek va turkiy adabiyotning buyuk namoyandasi, shoir, mutafakkir, faylasuf va davlat arbobi bo'lib, uning merosi nafaqat o'z zamonining, balki bugungi kunning ham ilmiy va ma'naviy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Navoiy o'z asarlari orqali insoniyatning oliy ma'naviy qadriyatlari, bilim, adolat, mehr-oqibat va halollikni targ'ib qilgan. Uning hikmatlari, nasihatlari va ijodi bizga faqat adabiyot nuqtayi nazaridan emas, balki hayotning turli jabhalarida ham yo'l-yo'riq ko'rsatib keladi.

Bugungi anjuman Alisher Navoiy merosining ilmiy, ma'naviy ahamiyatini chuqur tahlil qilishga qaratilgan. Unga bag'ishlangan tadbirlar orqali biz shoirning asarlari, uning insoniyat tarixidagi o'rni, xalqlararo madaniy aloqalar va bilimlarga qo'shgan hissasini yanada yaxshiroq anglash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Navoiyning asarlari nafaqat o'zbek xalqining, balki butun turkiy xalqlar adabiy merosining oltin zanjirini tashkil etadi. U ilm-fan va san'atni, ma'naviyat va falsafani noan'anaviy tarzda birlashtirgan buyuk mutafakkirdir. Bugungi kunimizda uning merosi, ayniqsa, ilmiy va ma'naviy tarbiya sohasida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Mutafakkir shoir ijodiyotini o'rganish bevosita millatning tarixi, madaniyati, badiiy zavqi, ruhiyati va urf-odatlarini chuqurroq bilishga keng yo'l ochadi. Navoiy asarlarida ijtimoiy adolat, tenglik va shaxs erki masalasi alohida yuksak mahorat bilan ochib berilgan. Adolat g'oyasi faqatgina shohlarga nisbatan emas, balki butun jamiyatning ma'naviy va siyosiy holatlariga nisbatan ham ifodalanadi. Navoiy ijtimoiy tenglikni targ'ib etar ekan, yer yuzidagi xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlash masalasiga katta ahamiyat beradi, urushga qarshi turib, shaxs erki daxlsizligini uqtiradi. Navoiy asarlarida davrning xilma-xil muammolarini yechish yo'llari rang-barang va benihoyat boy obrazlar orqali badiiy ifodalangan bo'lib, ularda shoirning odam haqidagi ideali, ma'naviy-axloqiy konsepsiyasi o'z aksini topadi. Alisher Navoiy o'z asarlarida inson yaralmishlar ichra eng aziz xilqat ekanligi, unga yaratgan tomonidan benazir aql-u hush, nutq va farosat, bilim, tajriba, qalb-u his baxsh etilganligini, u o'zining tafakkur va nutq qobiliyati bilan boshqa mavjudotlardan yuqori turishi va bu ayni vaqtda unga mukarramlig-u sharaf bag'ishlashini, yer yuzini obod qilish va uni boshqarib turishi uchun unga kuch-qudrat hadya etilganligini ta'kidlaydi va har bir inson ilm

va hunar egallashni shior qilib, umrini besamar o'tkazmasligi kerakligini ta'kidlaydi.

Shu bilan birga asarlaridagi obrazlar tavsifida insonni yanada yuksak pog'onaga ko'taradigan go'zal axloqiy fazilatlar: qalbiy oliyjanoblik, saxovat va do'stlik, vatanparvarlik va mehnatsevarlik kabi axloqiy sifatlarni oliy darajada tasvirlab, har bir inson o'zi va o'zgalar hayotida yaxshilik bilan iz qoldirishiga da'vat etadi:

Bu gulshan ichra yo'qtur baqo guliga sabot,
Ajab saodat erur, yaxshilik bila chiqsa ot.

Buyuk mutafakkirning ijodini qanchalik chuqur va puxta bilsak, ma'rifat, ezgulik, komillik sirlarini kengroq anglab boraveramiz. Yoshlarimiz mutafakkir hayoti va ijodini o'rgangani sayin komillik sirlarini kengroq egallaydi. Navoiyning sehrli so'zlarini qalbiga o'rnatgan odam, odamiylik sharafi va kuch-quvvatini idrok etadi. Navoiy saboqlariga amal qilgan kishi xalqning dard-u tashvishlarini yengillatishga bel bog'laydi, ilm-ma'rifatni nodonlik va jaholatga qarshi qurol o'rnida ishlatadi. Navoiyni anglash, uning siymosiga intilishning g'oyat muhimligini bilish – adolat, diyonatning kuchiga ishonish demak. Ko'ngliga shunday ishonch g'olib bo'lgan odamlar soni jamiyatimizda qancha ko'paysa, insonlarning bilib-bilmay qilgan xato va muammolari kamayib boraveradi. Navoiyning ibratli faoliyati bugun istiqlol farzandlari uchun har tomonlama ibrat maktabi vazifasini o'taydi.

Alisher Navoiyning ma'naviy merosi milliy ma'naviyatimizning yuksalishida, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol topishida teran ahamiyatga ega. Mutafakkir faoliyatiga xos ilm-u ma'rifatga intilib yashash ishqiy asarlarning mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Ayniqsa, uning "Mahbub ul-qulub" asari falsafiy fikrlarga boy, inson va jamiyat, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, komil inson baxt-saodati, adolatli jamiyat, ta'lim-tarbiya, ta'lim-tarbiyada ota-onaning mas'uliyati, sabrlik, diyonatlik, birodarlik kabi qator masalalarni qamrab olgani bilan qimmatlidir. Ushbu asarda shaxs, barkamol inson yetakchi o'rinda turadi va yana bir karra ilm ahli ulug'lanadi.

Ilmdan chetda qolgan xalq o'rtasida qaysar, johildir,
O'rganishga qattiq tirishgan jahonning zo'r olimidir.

"Mahbub ul-qulub"da shu kabi serma'no va ibratli fikrlarni juda ko'p uchratamiz. Ilm olib, undan hayoti davomida unumli foydalana olmagan, ezgu amallar qilishga shoshmagan insonlarni, go'yo urug' ekib, undan hosil olmagan dehqonga o'xshatadi. Navoiy yuqoridagi bayti bilan barcha fanlarni o'rganishni targ'ib etadi. U bilimlarni tinmay o'rganish zarurligini bunda har qanday qiyinchilikni yengib o'tish muhimligi, qunt bilan ishlash, tirishqoqlik bilan harakat

qilish, izchillik bilan kurashish, uni oxirigacha yetkazish, chidam va sabot bilan o'rganishni ta'kidlaydi.

Ulug' mutafakkirning ulkan ijodini dengizga qiyoslash mumkin. Unda dur-u javohirlar behisob, biz undan bir qatrasinigina bayon etoldik xolos. Konferensiya doirasida Navoiy ijodining turli jihatlarini, uning falsafiy qarashlari va adabiy merosining bugungi jamiyatda qanday ahamiyatga ega ekanligini o'rganamiz. Shuningdek, Alisher Navoiyning o'ziga xos ilmiy uslubi, ma'naviy qadriyatlarni yuksaltirishdagi roli hamda uning xalqaro miqyosdagi ta'siri haqida fikr almashamiz.

Mazkur tadbirni o'tkazishdan maqsadimiz Alisher Navoiy merosining naqadar boy ekanligi, bu esa yoshlarimizning ilmiy, ma'naviy kamolotidagi o'rnini yanada chuqurroq tushunishga, shoirning aynan ta'lim-tarbiya borasida ham nasihatimiz mav'izalar bitganligiga ishoradir. Bunday ruhdagi mav'izalar kitobxonga ulkan ma'naviy oзуqа berishi, shubhasiz.

U.R. Mardonov

Navoiy viloyati PMM direktori

1-SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI**ALISHER NAVOIYNING "HAYRAT UL-ABROR" DOSTONIDAGI OBRAZLAR VA HIKOYATLARNING BADIY XUSUSIYATLARI**

*Mardonov U.R.,
Navoiy viloyati PMM direktori*

"Hayrat ul-abror"dagi hikoyatlarda turli mavzular qalamga olinganidek, ulardagi obrazlar ham xilma-xildir. Dostondagi yigirma bitta hikoyatda o'nlab so'fiy, shayxlar, hukmdorlar, an'anaviy obrazlar va turli toifa kishilari timsollari uchraydi. Ularning asosini diniy tasavvufiy faoliyat bilan bog'liq shaxslar, shuningdek, shohlar, amir va hukmdorlar obrazlari tashkil etadi. Professor N.Mallayev Navoiyning turli asarlarida uchraydigan hikoyatlardagi obrazlar haqida quyidagilarni yozadi: "Navoiy hikoyatlarining qahramonlari tarixiy, yarim afsonaviy shaxslarning nomi bilan bog'lanadi, ularning orasida "sof" to'qima obrazlar ham anchagina. Qadimgi shohlar, yunon olimlari, Faxriddin Roziy, Hotami Toyi, Ibrohim Adham, Xoja Porso, Boyazid Bistomiy va boshqalar Navoiy hikoyalarning qahramoni. Ammo, hikoyalardagi qahramonlar aynan tarixiy shaxslarning obrazi bo'lmay, balki ayrim jihatlarini saqlab qolishiga qaramay, badiiy fantaziya, ijobiy to'qima bilan yo'g'rilib, allaqachonlar an'anaviy adabiy obrazlarga aylanib ketgan edi: Anushervon, Jamshid, Iskandar va boshqalar – adolat, shon-shavkat; Arastu, Aflotun, Luqmon, Faxriddin Roziy va boshqalar – aql va donolik; Hotam Toyi – saxovat ramzi va hokazo; Majnun, Shayx San'on, Vomiq va Uzro, Xusrav va Shirin – an'anaviy oshiq-ma'shuqlar. Bu an'anaviy obrazlar bilan birga biz Navoiyning ayrim hikoyalarda uning zamondoshlarini ham ko'ramiz. Masalan, "Hayrat ul-abror"dagi "Shoh G'oziy" hikoyasida Husayn Boyqaro (ideallashtirilgan shoh obrazi sifatida); shu dostondagi "Ikki vafoli yor" hikoyasida Amir Temur obrazlari berilgan"

Birinchi hikoyatda Boyazid nomi tilga olinadi. Asarda u iymonli, insofli, shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Ayrim tadqiqotchilar Boyazidning otasi Surushon islomni qabul qilgan, biroz vaqt mansabdor ham bo'lgan deyishadi. Boyazid Bistomiyning o'qish yillari haqidagi fikrlar har xil: ba'zilar u biron bir maktab yoki ustoz qo'lida tahsil ko'rmagan, barcha ilmlar unga Olloh tomonidan in'om etilgan deyishsa, bir guruh sharqshunoslar "Boyazid uch yuz donishmanddan dars olgan" deyishadi.

Ikkinchi hikoyatda Ibrohim Adham va Robiya Adviya nomi uchraydi. Ular ham o'zini islom yo'liga bag'ishlagan mashhur so'fiylardan.. Ibrohim Adham zodagon oilada dunyoga keladi. Yoshligida yaxshi bilim oladi, ilohiyotga qiziqib haq yo'liga kiradi. Biroz vaqt shahr hokimi vazifasida ishlaydi. U haqda ko'plab rivoyat va afsonalar yaratilgan.

Robiya Adviya (Adaviya) ham mashhur so'fiy ayollardan. U taxminan 713-718-yillar oralig'ida Basrada donishmand Ismoil Adaviy Kaysi oilasida dunyoga

kelgan. Qiz oilada to'rtinchi farzand bo'lgani uchun unga "Robiya" deb nom qo'yishgan.

To'rtinchi maqolatga ilova qilingan hikoyatda Abdulloh Ansoriy nomi uchraydi. Bu ham mashhur so'fiylardan. O'z davri va undan keyingi asrlarda ham Sharqda ulkan shoir va shayx sifatida shuhrat sohibi bo'lgan Abdulloh Muhammad Ansoriy 1006-yilda Hirotning Ko'handich mahallasida alloma Abuayub Ansoriy xonadonida tavallud topgan.

O'n birinchi maqolatga misol sifatida keltirilgan hikoyatda Imom Faxr Roziy nomi keltirilgan. "Faxriddin Roziy (to'liq ismi Faxriddin Abu Abdulloh Muhammad bin Umar ibn al-Husay) mashhur kalom olimi va diniy falsafa namoyondasi.

O'n sakkizinchi maqolatda ilova qilingan hikoyatda Suhrovard va Yoqut obrazlari bor. Yoqut – arablar orasida shuhrat topgan kotib. Bag'dodda Abbosiy xalifa Musta'sim davrida yashagan. "Qur'onni ko'chirishda yagona hisoblangan. Shayx Suhrovard esa mashhur so'fiylardan. Yirik va mashhur tariqat arbobi, o'z davrining yagonasi, nurlar matla'i, sirlar manbai, tariqat rahbari, haqiqat tarjimoni, zohir va botin ilmlarida barcha ulug' shayxlarning ustози, oriflar yo'lboshchisidir.

Dostonda Ayyub obrazi ham bor. U Qur'onda nomi zikr etilgan yigirma besh payg'ambardan biri. Ayyub nomi va qissasi Tavrot, Injil hamda boshqa qadimiy kitoblarda ham keltirilgan. Ayyub har qanday musibatlarga, qiyinchiliklarga sabr-toqat qiluvchi, bardosh beruvchi inson timsoli sifatida tanilgan.

Hikoyatlarda hukmdorlar obrazi ham uchraydi. Ularning ayrimlari tarixiy shaxslar bo'lsa, ba'zilar afsonaviy shaxslar hisoblanadi. Uchinchi maqolatga "Shoh G'oziy" haqidagi hikoyat keltirilgan. Shoh G'oziy – bu Husayn Boyqaroning ideallashtirilgan obrazidir. Navoiy "Xamsa" dostonlarining ayrim boblarida Husayn Boyqaroni madh etadi. "Majolis un-nafois"ning sakkizinchi majlisini ham unga bag'ishlaydi. "Shoh G'oziy" hikoyatida esa uni adolatli hukmdor sifatida ko'rsatadi.

"Hayrat ul-abror"da "No'shirvon hayosi" bilan bog'liq hikoyat mavjud. Unda No'shirvon (Anushirvon) haqida gap boradi. "Sharq xalqlari kitobiy adabiyoti va folklorida juda keng tarqalgan an'anaviy obrazlardan biri No'shirvon (Anushervon)dir. Navoiy No'shirvon nomini odillik ramzi sifatida bot-bot zikr etish va tavsiflash bilan birga, uning to'g'risida bir necha hikoyat ham keltiradi. Bu hikoyatlar "Hayrat ul-abror" va "Tarixi muluki Ajam"dan o'rin olgan".

Dostondagi "Ikki vafoliq yor" hikoyatida Amir Temur nomi keltirilgan. Amir Temurning kimligini yaxshi bilamiz. "Amir Temur tarixiy manbalarda Temur, Temurbek, Amir Temur va Sohibqiron nomlari bilan bir qatorda Amir Temur Ko'ragon, Sohibi jahon (olam egasi) hamda Sohibi adl (Adolat o'rnatuvchi) kabi qator ulug' va qutlug' nomlar bilan ham tilga olinadi.

O'n birinchi maqolatga ilova qilingan hikoyatda Sulton Muhammad Xorazmshoh obrazi uchraydi. U Imom Faxr Roziyga qarshi tarzda keltirilgan. Ilm bilan shohlik qiyoslanib, ilmning abadiyligi ta'kidlanadi.

Dostondagi yana bir hikoyatda Iskandar nomi uchraydi. U ham shuhrat qozongan Aleksandr Makedonskiyning Sharqdagi ideallashtirilgan nomi. Iskandar,

Iskandar Zulqarnayn – Sharq xalqlari adabiyotida keng tarqalgan obraz. Iskandar Qur'onning surasida eslangan Zulqarnayndir. U Sharqdagi musulmon xalqlari orasida mashhur. Navoiy “Tarixi muluki Ajam”da Iskandar haqida afsona, rivoyat va tarixiy asarlardan kelib chiqib fikr yuritadi.

O'n to'qqizinchi maqolatdan so'ng keltirilgan hikoyatda Bahrom obrazi uchraydi. Bu obraz Navoiyning ko'pgina asarlarida, ayniqsa, “Xamsa”ning to'rtinchi dostoni – “Sab'ai sayyor”da keng tasvirlangan. “Bahrom Go'r yoki Varaxran V (shohlik yillari 421-438) – Eronda hukmronlik qilgan sosoniylardan Yazdigardning o'g'li. Yaman shohi No'mon va uning o'g'li Munzir tarbiyasida o'sgan. Nizomiyning “Haft paykar”, Xusrav Dehlaviyning “Hasht bihisht” va Alisher Navoiyning “Sab'ai sayyor” dostonlarida Bahrom Go'r adolatli shoh, jasur sarkarda, ayni paytda maishatparast, xudbin shaxs sifatida tasvirlangan. Ma'lumotlarga ko'ra, Bahrom Go'r 63 yil (ba'zi manbalarda 70 yil) umr ko'rgan”.

Umuman, hikoyatlardagi obrazlar ham rang-barang bo'lib ular tarixiy, afsonaviy, an'anaviy mashhur shaxslar nomi bilan bog'liq.

ALISHER NAVOIY HIKMATLARI HAQIDA

G'ulomova N.S.,

Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Safarova M.G'.,

Navoiy innovatsiyalar universiteti talabasi

Annotatsiya: Ko'p asrlar mobaynida o'zidan o'chmas iz qoldirib kelgan buyuk mutafakkir, g'azal mulking sultoni Alisher Navoiy asarlari o'zining xilma-xilligi, chuqur ma'no kasb etishi bilan boshqa asarlardan yaqqol ajralib turadi. Maqolada Navoiyning hikmatli so'zlarining yosh avlod ta'lim-tarbiyasidagi ahamiyati haqida ma'lumot yozilgan.

Kalit so'zlar: kulliyot, g'azal, hikmat, mutafakkir, maqol, qanoat, diyonat.

Alisher Navoiyning hikmatlari har bir inson uchun go'yoki mustahkam qanot kabidir. Shoir yaratgan asarlarning har biri o'zining ma'nosiga ega. Alisher Navoiy yaratgan asarlar bag'ayotda keng ko'lamni tashkil etadi. Shoir o'z asarlarini yaratar ekan, faqatgina o'z davri bilan chekinib qolmaygina o'zidan keyingi davrlarda ham dolzarblik kasb etadigan mavzularda qalam tebratadi.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy g'oyalari bilan bir-birida ajralib turadigan ko'plab asarlar yaratdi. Shoirning yaratgan asarlari uning nomini butun dunyoga tanitdi. Shoir yaratgan asarlarning boshqa asarlardan farqi shundaki, qancha vaqt o'tsa ham o'zining mazmun-mohiyatini yo'qotmaganidadir. Navoiy asarlarining barchasi insonni ezgulikka, to'g'rilikka yo'naltiradi shu kabi ezgu g'oyalar uning hikmatlarida yaqqol ko'rinib turadi. Uning hikmatlarida umuminsoniy g'oyalarni mukammal yoritgan:

Agar hikmatga bo'lsa iltifoting,

Ki bo'lsin Nuh umricha hayoting.

Yuqorida keltirib o'tgan jumлага ham Alisher Navoiy o'z fikrini bildirib o'tgan. Hikmat o'rganishga, ilm olishga, umuman olganda insonlarga yaxshilik qiluvchi insonlarga Nuh umri kabi uzoq umr tilaydi. Alisher Navoiy hikmatlari qisqa-qisqa bo'lsada insonlarni to'g'ri so'zlikka, ilm olishga, hunar egallashga, insonlarga yaxshilik qilishga undaydi.

Oz-oz o'rganib dono bo'lur.

Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

Alisher Navoiyning yuqorida keltirilgan hikmatida ham juda katta ma'no bor. Biz bu hikmatni o'rganilishi kerak bo'lgan har qanday narsaga nisbatan qo'llashimiz mumkin. Masalan: ilm olishga, hunar o'rganishga. Inson hech qachon barcha narsani o'z-o'zidan o'rganib qolmaydi. Albatta, hamma narsaga o'zining go'zal sabri ila erishadi:

Donavu dur so'zini afsona bil,

So'zni jahon bahrida durdona bil.

Yuqoridagi hikmatda Navoiy so'zning har qanday qimmatli buyumdan oltin-u gavhardanda yuqoriroq turishini ta'kidlagan. So'z shunday narsaki, u minglab insonlarning ko'nglini shod etadi, yaxshi so'zdan dillar bahra oladi. So'zning barcha qimmatbaho narsalardan ustunlik jihati shundaki, u insonlarning ruhiyatiga ta'sir qila olish xususiyatiga ega. Yaxshi so'z ta'sirida inson to'g'ri yo'lini topishi mumkin. Albatta, "Har yaxshining yomoni bor" deganlaridek, yomon so'z so'zlaydiganlar ham bizning hayotimizda kam emas. Yaxshi so'zni so'zlaydigan inson insonlarning ruhiyatiga qanchalik darajada ta'sir ko'rsatsa, yomon so'zni so'zlaydigan insonlar ham insonlarning ruhiyatiga shunchalik yomon ta'sir qiladi. Bunga misol sifatida ijodkorning yomon so'z ta'rifiga bag'ishlangan quyidagi hikmatga yuzlanamiz:

Yomon so'zki kelib jong'a urgay,

Ki jondin ham o'tib iymong'a urg'ay.

Yuqorida aytganimdek yomon so'z insonlarning ruhiyatiga balki iymoniga juda yomon ta'sir ko'rsatadi. Alisher Navoiy ijodini o'rganayotgan har bir inson komillik sari ketayotgan insondir. Alisher Navoiy hikmatlaridan bahramand bo'layotgan qalb shoirning asarlaridan zavq oladi, yaxshilikka ergashadi, umri davomida faqat komil inson bo'lishga harakat qiladi. Alisher Navoiyning nafaqat hikmatlari balki barcha turdagi asarlari faqat insoniyatni ezgulikka undaydi.

"Xazoyin ul-maoniy" kulliyotining barcha g'azallarda Navoiy hikmatlari o'rin olgan. E.Ochilovning "Navoiy hikmatlari" jamlanmasiga "Xazoyin ul-moniy" kulliyotidan joy olgan g'azallarga mazmunan singdirilgan turli mavzulardagi mingdan ortiq hikmatlari kiritilgan bo'lib, ular orqali o'quvchi olam va odam haqidagi, shaxs va jamiyat, hayot mohiyati va mazmuni, tiriklik va o'lim, ma'rifat va jaholat, haqiqat va yolg'on, yaxshilik va yomonlik, do'stlik va dushmanlik, muhabbat va sadoqat, diyonat va xiyonat, savob va gunoh, halol va harom, saxiylik va baxillik, samimiyat va riyo, qo'yingki, insoniyat ko'nglini band etib kelgan barcha azaliy va adabiy mavzular, qadriyat hamda tushunchalar, fazilat va illatlar haqidagi shaklan go'zal, mazmunan teran, badiiy yuksak mushohadalarni

topishi, shubhasiz. Navoiy asarlarining xalqchilligini ta'minlagan jihatlardan biri deyarli barcha g'azallarda betakror hikmatlardan foydalangan:

Tutay jahonda Sulaymon seni va yo Jamshid,

Ne munga jom vafo qildi, ne anga uzuk.

Shoir sultonlarni ta'riflar ekan, rostlik, halollik, adolat bilan davlatni boshqarishi amr etilganligiga alohida urg'u beradi. Jamshid va uning jahonnamo jomi, Sulaymon payg'ambar va uzuk bilan bog'liq qissalar mavjud bo'lib, qadah Jamshidga, uzuk Sulaymon payg'ambarga in'om etilgan. Lekin bu narsalar ularga vafo qilgani yo'q, bu dunyoda boqiy qolishiga yordam bera olmadilar, deya dunyoning o'tkinchiligiga ishora qiladi. Sulaymon va Jamshid baytda talmeh san'atini yuzaga keltirgan. Yana bir baytda tabiatdan olingan tasviriy ifodalar orqali obrazlilikni kuchaytirib, mazmun ta'sirchanligini oshirmoqda:

Jahon osoyishin ollingda mushkil qilmakim, bordur

Tutay mushkil desang – mushkil va gar oson desang – oson.

Yuqoridagi baytda olam rohatini sen o'zing uchun mushkul qilib olma, bu dunyoni sen mushkul desang mushkul, oson desang oson bo'ladi. Inson boshiga taqdiridan kelgan qiyinchiliklarni sinov deb bilib, sinovlarning berilishi yaxshiliklar uchunligini anglasa, har qanday mushkulliklar ham oson o'tadi, deydi shoir.

Quyidagi bayt ham o'quvchi uchun hikmat manbayi bo'lib xizmat qiladi. Baytning mazmuni shunday: agar sen ochko'zlikni tark qilsang, bu ulug' ishdur, bunda olam ahli bir taraf-u sen bir taraf bo'lasan. Mazkur baytda inson nafsni, dunyodan ortiqcha narsalar kutishni to'xtatsa, bu o'sha kishi uchun ulkan saodat ekanligini ta'kidlaydi va boylik to'plashga jon-jahdi bilan berilishga nisbatan qanoat qilishni, izzat-nafsga ega bo'lishni, har qanday qiyin sharoitda ham pastlik qilmaslikni, muhtojlikni shu yo'l bilan yengishni targ'ib qiladi:

Sen agar tarki tama' qilsang, ulug' ishdur bukim,

Olam ahli barcha bo'lg'ay bir taraf, sen bir taraf.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Navoiy yaratgan hikmatli so'z va iboralar xalq maqollariga aylanib ketgan bo'lsa, obrazli badiiy iboralar xalqning o'zbek tili frazeologiyasini boyitgan. Bunday birikma va iboralar orqali u ijtimoiy hayotdagi voqea-hodisalarning xalq donoligiga xos tipik xususiyatlarini umumlashtirib, qisqa, lo'nda va mazmunli ifodalash imkoniyatlarini namoyon etdi, ular o'zbek adabiy tilining bitmas-tuganmas boyligini ko'rsatadi, uning istiqbollarini, kelgusi taraqqiyot yo'llarini belgilab beradi. Alisher Navoiy ijodiy merosini o'rganish komillikka yetishishni maqsad qilgan insonlar uchun to'g'ri yo'lni ko'rsatuvchi ma'rifat nurlariga intilish kabidir. Bu hikmatlar ziyosidan bahramand bo'lgan qalb shoir asarlaridan zavq tuyadi, undagi umuminsoniy g'oyalariga ergashadi, yaxshilikka yor bo'ladi, o'z umri davomida ezgulikni bosh mezon qilib oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abjalova M., G'ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi va uning imkoniyatlari. // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim va istiqbollar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO'TAU, 22.04.2022. – B. 89-93.
2. Ochilov E. Navoiy hikmatlari. – Toshkent: O'zbekiston. 2011. – 407 b.

3. Olimov F. Fazilatlar sohibi-Sayyid Hasan. –T., 2021. – 161 b.
4. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. / Фозилов Э. таҳрири остида. 4 жилд. – Тошкент: Фан, 1983-1985.
5. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – 162 б.

ALISHER NAVOIY MEROSINING ILMIY, MA'NAVIY AHAMIYATI

Mambetova T.M.,

Qoraqolpog'iston Respublikasi pedagogik mahorat markazi metodisti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiy merosining ilmiy, ma'naviy ahamiyati haqida so'z boradi

Kalit so'zlar: Buyuk mutafakkir asarlari, lug'at kitoblar, madaniyat, badiiy fikrlar, ma'naviyat, g'azallar, ruboiylar

Scientific, spiritual significance of the legacy of Alisher Navoi

Annotation: this article will talk about the scientific, spiritual significance of the legacy of Alisher Navoi

Keywords: works of the great thinker, dictionary books, culture, artistic thought, spirituality, ghazals, ruboians

Научное, духовное значение наследия Алишера Навои

Аннотация: В этой статье рассказывается о научном, духовном значении наследия Алишера Навои

Ключевые слова: произведения великого мыслителя, словарь книги, Культура, художественная мысль, духовность, газели, рубаи

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy butun turkiy xalqlar adabiyoti, jahon xalqlari adabiyoti tarixidagi eng buyuk shaxsdir. U o'zining yozgan asarlari soni va hajmigagina emas, balki ularning mazmun va yuksak badiiyatiga ko'ra ham tengsiz adibdir. Alloma Alisher Navoiyning asarlarining mazmun – mohiyati, ularning yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashdagi ahamiyati juda katta. Navoiy o'zbek adabiyoti rivoji va o'zbek adabiy tili ravnaqiga katta hissa qo'shgan ijodkordir. Davlatimiz mustaqillikka erishgach, buyuk mutafakkirimiz shaxsiyati va ijodiga munosabat tubdan o'zgardi. Hazrati Navoiyning boy adabiy merosiga to'laqonli va haqqoniy yondashish imkoniga ega bo'ldik. U zotning ijodini yanada chuqurroq o'rganish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar qilinyapti, ilmiy izlanishlar ko'lamini yanada kengaymoqda. Buyuk shoir, mutafakkir Alisher Navoiyning boy va bebaho merosi asrlar mobaynida ajdodlarimizni ezgulikka, mehr-muruvvatga, tinchlik va do'stlikka davat etib kelgan. Bugungi kunda kelajagimiz bo'lgan yoshlarni ma'nan yuksaklikka erishishida atrofda tilarga doimo yaxshilik qilish, ezgulik urug'ini keng olamga tarqatish bu esa o'z navbatida o'ziga va oila a'zolariga yaxshilik bo'lib qaytishi haqida asarlaridagi qahramonlar, she'riy misralarida o'z ifodasini topadi. Masalan, "Nazm ul- javohir" ("Gavharlar tizmasi") asari, asosan, tazavvuf g'oyalari orqali talqin qilinadi:

Farzand ato qilligin chu odat qilgay,

Ul odat ila kasbi ko'p rivoyat qilgay,

Har kimki atoga ko'p rioyat qilgay,

O'g'lidin anga bu ish siroyat qilgay.

Adib otaga xizmat kilishning sharofatini birinchi ikki misrada ko'rsatib bermoqda. Keyingi misrada esa yana shu fikrga qaytilgandek ko'rinadi, ammo endi natijada ayirma bor. Har kim ekanini o'radi, deganlaridek, otaga qilingan hurmat va ehtirom, albatta qaytadi, ammo uni qaytaruvchi odam mutlaqo boshqa bo'ladi. Mana shu boshqa odam esa keyingi avlod vakili – otasiga yaxshi munosabatda bo'lgan o'g'ilning farzandlaridir.

O'zbek xalqining ulug' mutafakkiri, ma'rifatparvari va buyuk shoiri Alisher Navoiy yoshlarni tarbiyalash ishiga alohida e'tibor berdi. U bolalarni ilm-hunarni, mehnatni sevishga undab, o'rganilgan ilm va hunarni xalq, vatan yo'lida sarf qilish zarurligini uqtirdi.

Alisher Navoiy ilm, ma'rifat haqida ajoyib fikrlarni olg'a surdi. U aql, ilm insonning eng go'zal va zaruriy fazilatlaridan biri, har bir kishining eng muhim burchi ilm olishdir, deb hisobladi. Navoiyning fikricha, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan boshlab astoydil o'qish-o'rganish kerak: "Yoshligingda yig'gil bilimni, qarigach sarf qilg'il ani", degan shoirning o'zi ham juda yoshligidan ta'lim oladi, o'qishga beriladi. U yoshligidanoq ko'p she'rlarni yod bilgan. Jumladan, Fariddin Attorning "Mantiq ut-tayr" ("Qush nutqi") asarini bolalik chog'laridayoq qayta-qayta o'qib, yod olgan. Alisher Navoiy keyinchalik maktab va maorif masalalariga katta ahamiyat berdi. U mehnatkash xalq bolalarini o'qitish va tarbiyalash uchun maktablar ochish va madrasalar qurish to'g'risida g'amxo'rlik qildi.

Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya to'g'risidagi fikrlarini ko'proq barkamol insonni ifodalovchi ijobiy obrazlar yaratish orqali bayon qiladi. Ilm-ma'rifat, axloq-odob masalalariga doir fikrlarini esa ilmiy-falsafiy va didaktik asarlarida bayon qiladi. Navoiy aql kuchiga cheksiz ishonadi, komil ishonch bilan ilm-fanning fazilati juda katta, deb hisoblaydi. Buyuk so'z san'atkori va mutafakkiri o'zining bir qancha asarlarida bolalar tarbiyasiga oid fikrlarini aytish bilangina kifoyalanib qolmasdan, balki "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" kabi dostonlarining ayrim boblarini shu masalaga bag'ishlaydi. "Hayrat ul-abror" (Yaxshi kishilarning hayratlanishi) falsafiy-ta'limiy dostonidir. Navoiy bu asarida o'zining falsafiy, ijtimoiy-siyosiy hamda kishilarga ta'lim va o'git berish masalalariga katta e'tibor beradi. Dostonda zolim hukmdorlarni qoralab, ikkiyuzlamachi, riyokor ruhoniylarning sir-asrorlarini keskin fosh etadi. Xususan, shoir saxiylik, odob va kamtarinlik, ota-onaga hurmat, rostgo'ylik va to'g'rilik, ilmning foydasi va kambag'al o'quvchilarning bu yo'lda chekkan azoblari haqida batafsil to'xtalib o'tadi.

"Hayrat ul-abror" asarining bir necha boblari odob-axloq va ta'lim-tarbiya masalasiga bag'ishlangan. Navoiy bu dostonning oltinchi maqolotida odob va kamtarlikni ulug'lab, ta'lim-tarbiyaga doir qimmatli fikr-mulohazalarini bayon qilish bilan birga, takabbur va odobsiz kishilarni qattiq qoralaydi. Shoir dostonning bu maqolotida bola tarbiyasi, uni o'stirish, o'qitish va balog'atga yetkazish hamda bu borada ota-onalarning vazifalari haqida batafsil fikr yuritadi. Shoir yoshlarni

ota-onaning xizmatini bajarishga, ularni hurmat qilishga, ularga nisbatan hamisha mehr-muhabbatli bo'lishga chaqiradi, ota-onani oy va quyosh deb ta'riflaydi:

Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a...
Tun-kununga aylagali nurposh,
Birisin oy angla, birisin quyosh...

Navoiyning nafaqat ijodi, balki sermazmun hayoti ham yosh avlod uchun namunadir. Uning bunyodkorligi, xalqsevarligi, haqiqatparvarligi barchamizga o'rnak bo'lishi lozim. Navoiy ijodi esa barchamizni ogohlikka, ezgulikka, kamtarlikka undaydi. Mana bu purhikmat satrlarga e'tibor bering:

Bahrdin qatrag'a ta'zim ila tahsin ko'rdim, Mehrdin zarrag'a e'zoz ila ehson topdim.

Ya'ni, dengizdagi tomchiga ta'zim ila tahsin qilganini ko'rdim, quyoshning zarraga e'zoz va ehson ko'rsatganiga guvoh bo'ldim, deganlar. Shu baytning o'ziyoq hazratning insoniyatni kamtarinlikka, adolat va insofga da'vat etganini ko'rsatadi. Biz haqli ravishda Navoiyni milliy ong va shuurimizning ulug' charog'boni va ilhomchisi deya olamiz. Navoiy qoldirgan ilmiy-adabiy meros hayratlanarli darajada ulkandir. Shoirning epik asari "Xamsa", to'rt lirik devonni o'z ichiga oluvchi "Xazoyin-ul maoniy" asari, falsafiy dostoni "Lison-ut tayr". tarixiga oid "Tarixi anbiyo va hukamo", "Tarixi muluki Ajam", adabiyotshunoslikka oid "Mezon -ul avzon", "Majolis-un nafa'is", tilshunoslikka oid "Muhokamat-ul lug'atayn", axloqiy-falsaviy asari "Maxbub-ul qulub, tasavvuf tarixiga oid "Nasoim-ul muhabbat", ruboiylar majmuasi "Nazmul javohir", diniy mavzudagi "Arbain", "Sirojul muslimin", xotiralari "Xamsatul mutah-xayirin", "Holoti Said Hasan Ardasher", "Holoti Paxlavon Muxammad", maktublar to'plami "Munshaot", vaqf ishlari xaqida "Vaqfiya" va boshqa bir qator asarlari xalhimizning ma'naviy-madaniy mulki bo'lib qolmoqda. Asarlaridagi Farxod va Shirin, Layli va Majnun kabi ko'plab qahramonlari yoshlarimizning sevimli qahramonlariga aylangan. Bu qahramonlar orqali o'quvchilar ulardagi mehnatsevarlik, o'z muhabbatiga vafo, xalqni ulug'lash va ular bilan doimo birga bulish, atrofda qilaydigan o'z yordamini ayamaslik, vatanparvarlik, tilni va millatni qadrlash kabi ezgu fazilatlarni ko'radilar va ulardan o'rganadilar. Xulosa qilib aytsak, Navoiyning umrboqiy merosi el va elatlarni ezgulik, poklik, haqiqat atrofida jipslashtirishga qodir bo'lgan bebaho boyligimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Adabiyot darsligi. 10 –sinf "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Toshkent 2017.
2. A.Navoiy. Nazm ul –javohir Toshkent. 2014
3. Tarbiyaviy soatlar ishlanmasi. O'qituvchi 2024.

NAVOIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIGA QO'SHGAN HISSASI

*Ro'ziyeva L.I.,
Navoiy viloyati PMM metodisti*

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiy adabiy merosining jahon tamaddunidagi o'rnini tahlil qilinadi. Uning "Xamsa" asari, she'riyati va falsafiy qarashlari nafaqat o'zbek va turkiy xalqlarda, balki butun dunyo adabiyotida keng o'rganilmoqda. Navoiy asarlari turli xorijiy tillarga tarjima qilinib, jahon miqyosida tan olinmoqda. Maqola, shuningdek, Navoiy asarlarining til va badiiy qadriyatlarini saqlash, jahon tamadduniga qo'shgan hisssasi va uning adabiy merosining global miqyosdagi ta'sirini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, Xamsa, Adabiy meros, Tarjima, Falsafa, She'riyat, Madaniy aloqalar, Insoniyat qadriyatlari, Jahon adabiyoti, Turk adabiyoti.

Alisher Navoiy – o'zbek adabiyotining buyuk namoyandasi, shuningdek, Sharq va G'arb madaniyatining ajralmas qismiga aylangan buyuk shoir, faylasuf va davlat arbobi hisoblanadi. Uning adabiy merosi, nafaqat o'zbek va turkiy xalqlarda, balki butun jahon adabiyotida katta ta'sir ko'rsatgan. Navoiy asarlari, xususan, uning mashhur "Xamsa" (Besh kitob) asari, o'zining poetik mahorati, falsafiy g'oyalari va badiiy qadriyatlari bilan o'zgacha ahamiyatga ega. U o'z asarlari orqali nafaqat til va adabiyotda, balki ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar tizimida ham yangi g'oyalar kiritgan. Bu maqolada Alisher Navoiyning adabiy merosining jahon tamaddunidagi o'rnini va uning xalqaro miqyosda qadr-qimmati tahlil qilinadi.

Navoiy va uning adabiy merosi

Alisher Navoiy o'z asarlarida nafaqat o'z zamonasining siyosiy va ijtimoiy muammolarini, balki insoniyatning umumiy axloqiy va falsafiy qadriyatlarini ham yoritgan. Uning "Xamsa" asari o'zining poetik uslubi, o'zbek tilining boyligi va undagi g'oyaviy izlanishlari bilan o'zgacha o'rin tutadi. "Xamsa"da yer va osmon, inson va tabiat, muhabbat va adolat kabi chuqur mavzular yoritiladi. Bu asar faqat o'zbek adabiyoti uchun emas, balki butun Sharq adabiyotining rivojlanishida katta rol o'ynadi.

Navoiy o'z asarlarida nafaqat o'zbek tilining imkoniyatlarini, balki fors va turkiy tillarning poetik yuksakligini ham ko'rsatdi. Uning asarlarida tilning poetik va falsafiy boyligi, dunyoqarashi va estetik g'oyalari keng tarqaldi. Navoiy o'zining adabiy faoliyatida turkiy tilni fors tiliga qarshi qo'ygan holda, uning o'ziga xos o'rnini mustahkamladi.

Navoiy va jahon adabiyoti

Alisher Navoiy asarlari nafaqat o'zbek va turkiy adabiyotlari, balki butun dunyo adabiyotining rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan. Navoiy she'riyati ko'plab xorijiy tillarga tarjima qilindi va shu tariqa uning asarlari xalqaro miqyosda o'rganila boshladi. XIX asrning oxirlarida va XX asrning boshlarida, Navoiy asarlari ilk bor rus tiliga tarjima qilindi. Fransuz, ingliz, nemis va boshqa

yevropacha tillarda uning asarlarini o'rganish kengayib bordi. Bu jarayon, faqat Navoiyning o'z she'riyati va badiiy qadriyatlarini saqlash bilan cheklanib qolmay, balki uning falsafiy va axloqiy qarashlarini ham dunyoga tanitdi.

Navoiy she'riyatining jahon adabiyotiga qo'shgan hissasi, uning asarlarida aks etgan axloqiy, ma'naviy, ijtimoiy va falsafiy qarashlar bilan chambarchas bog'liqdir. Navoiy shoir sifatida insoniy qadriyatlar, muhabbat, adolat, tenglik va vatanparvarlik kabi mavzularni o'z asarlarida doimiy ravishda yoritgan. Bu qadriyatlar, albatta, jahon miqyosidagi madaniyatlar va adabiyotlarga o'z ta'sirini o'tkazdi. Shuningdek, Navoiy o'zining turkiy adabiyotdagi o'rnini mustahkamladi va uni Sharq madaniyatining yetakchi adabiyotlariga aylantirdi.

Navoiy va jahon tamadduni

Alisher Navoiy asarlarining jahon tamaddunidagi o'rne, faqat uning she'riyati bilan cheklanib qolmaydi. U, shuningdek, o'z zamonining falsafiy va ijtimoiy g'oyalarini, axloqiy va ma'naviy qadriyatlarini ham o'z asarlarida yoritdi. Uning asarlari orqali insoniyatning umumbashariy qadriyatlari, inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar, axloqiy masalalar va adolat tushunchalari dunyo xalqlari tomonidan qabul qilindi. Navoiy asarlaridagi bu umumjahon qadriyatlari bugungi kunda ham o'rganilmoqda va yangi avlodlar tomonidan yuqori baholanmoqda.

Xulosa

Alisher Navoiy adabiy merosi nafaqat o'zbek xalqining, balki butun jahon tamaddunining ajralmas qismiga aylangan. Uning asarlari adabiyotshunoslar tomonidan o'rganilib, yuqori baholangan va turli tillarga tarjima qilingan. Navoiy nafaqat o'z zamonasining buyuk shoiridir, balki jahon madaniyatining rivojiga katta hissa qo'shgan faylasuf va ilm-fan namoyandasidir. Uning adabiy merosi jahon miqyosida yanada kengayib, yangi avlodlar tomonidan qadrlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shamsiddinov, Sh. Alisher Navoiy va uning adabiy merosi. – Toshkent: Fan, 2002.
2. Valiullayev, A. Alisher Navoiy: Hayoti va ijodi. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 1997.
3. Muminov, X. Alisher Navoiy: Falsafiy va estetik qarashlari. – Toshkent: Akad. nashr, 2005.
4. Jabborov, I. Alisher Navoiy va jahon adabiyoti. – Toshkent: O'zbekiston, 2001.
5. Azimov, N. Navoiyning o'zbek adabiyotidagi o'rne. – Toshkent: Adabiyot nashriyoti, 2007.
6. Bunyodov, S. Sharq adabiyoti va Alisher Navoiy. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
7. Shokirov, A. Alisher Navoiy va tarjima masalalari. – Toshkent: Fan, 1999.
8. G'ulomov, S. Alisher Navoiy asarlarining xalqaro tahlili. – Istanbul: Turkiya nashriyoti, 2004.

ALISHER NAVOIY: BUYUK MUTAFAKKIR VA ATOQLI SHOIRNING TILSHUNOSLIKKA QO'SHGAN HISSASI

*Karimqulov S.S.,
Andijon viloyati PMM katta o'qituvchisi*

Kalit so'zlar: Xamsa, Madaniy dialog, Sharq adabiyoti, Badiiy uslub, Falsafiy chuqurlik, Jahon adabiyoti, Sharqshunoslik, Turkiy til, Madaniy meros, Ilmiy tadqiqot

Keywords: Hamsa, Cultural dialogue, Eastern literature, Artistic style, Philosophical depth, World literature, Oriental studies, Turkic language, Cultural heritage, Scientific research

Ключевые слова: Хамса, Культурный диалог, Восточная литература, Художественный стиль, Философская глубина, Мировая литература, Востоковедение, Тюркский язык, Культурное наследие, Научные исследования

Kirish

Alisher Navoiy (1441-1501) – O'rta asrlar Sharq adabiyoti va madaniyatining yorqin yulduzi, buyuk mutafakkir, atoqli shoir, davlat arbobi va tilshunos. Uning ijodi nafaqat o'z davri, balki keyingi asrlar uchun ham ulkan ahamiyatga ega bo'lib, u turkiy tilning rivojlanishida muhim rol o'ynagan. Navoiyning tilshunoslikka oid asarlari va tilshunoslik yo'nalishiga qo'shgan hissasi bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda. Uning tilshunoslik sohasidagi izlanishlari nafaqat turkiy tillar, balki umumiy tilshunoslik fanining rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatgan.

Alisher Navoiyning tilshunoslikka oid asarlari, uning turkiy tilini rivojlantirishdagi roli, tilshunoslik metodologiyasi va uning keyingi avlodlar uchun qoldirgan ilmiy merosi haqida to'liq yoritib beriladi.

1. Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyati

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirot shahrida tug'ilgan. Uning to'liq ismi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy bo'lib, u o'z davrining eng bilimdon va madaniyatli insonlaridan biri sifatida tanilgan. Navoiyning otasi G'iyosiddin Buxoro va Samarqandda ta'lim olgan, onasi esa Hirotning nufuzli oilasidan chiqqan. Bolaligidan Alisher Navoiyning qobiliyati va bilimga bo'lgan qiziqishi ajralib turardi. U yoshligidanoq she'r yozishni boshlagan va tez orada o'zining istedodi bilan atrofdagilarni hayratda qoldirgan.

Navoiyning ta'lim olish jarayoni uning kelajakdagi ijodiga katta ta'sir ko'rsatdi. U dastlab Hirotida, keyin esa Samarqandda tahsil olgan. Samarqandda u o'z davrining eng yirik olimlari bilan uchrashdi va ular bilan ilmiy munosabatlar o'rnatdi. Bu uning dunyoqarashini kengaytirishga va turli fanlar, jumladan, tilshunoslik sohasida chuqur bilim olishiga yordam berdi.

Navoiyning ijodiy faoliyati juda keng va rang-barang bo'lib, u she'riyat, falsafa, tarix, tilshunoslik, adabiyotshunoslik kabi sohalarda qimmatli asarlar yaratgan. Uning eng mashhur asarlari orasida "Xamsa" (besh dostoni), "Majolis

un-nafois", "Muhokamat ul-lug'atayn" va boshqalar mavjud. Navoiyning tilshunoslikka oid asarlari esa turkiy tillarning rivojlanishida muhim rol o'ynadi.

2. Tilshunoslikka oid asarlari

Alisher Navoiyning tilshunoslikka oid asarlari uning turkiy tilini rivojlantirishdagi roli va tilshunoslik metodologiyasini ishlab chiqishdagi hissasini ko'rsatadi. Uning eng mashhur tilshunoslik asarlari quyidagilardan iborat:

2.1. "Muhokamat ul-lug'atayn"

"Muhokamat ul-lug'atayn" ("Ikki til muhokamasi") – bu Alisher Navoiyning turkiy va fors tillarini qiyosiy o'rganishga bag'ishlangan asari. Bu asarda Navoiy turkiy tilning fors tiliga nisbatan afzalliklarini va ularning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatib beradi. U turkiy tilning boyligi, ifodaviyligi va badiiy imkoniyatlarini fors tiliga qaraganda yuqori darajada ekanligini isbotlaydi.

Navoiy bu asarida turkiy tilning leksik, grammatik va fonetik jihatlarini chuqur o'rganadi. U turkiy tilning so'z boyligi, so'z yasalishi, grammatik qurilmalari va fonetik xususiyatlarini tahlil qiladi. Shuningdek, u turkiy tilning badiiy adabiyotda qo'llanish imkoniyatlarini ko'rsatib, bu tilning she'riyatda ham, nasrda ham keng qo'llanilishi mumkinligini ta'kidlaydi.

"Muhokamat ul-lug'atayn" asari nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik va madaniyat tarixi uchun ham qimmatli manba hisoblanadi. Bu asar orqali Navoiy turkiy tilning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi va bu tilning o'ziga xosligini himoya qildi.

2.2. "Majolis un-nafois"

"Majolis un-nafois" ("Nozik majlislar") – bu Alisher Navoiyning adabiy-tanqidiy asari bo'lib, unda turli shoirlarning ijodi va ularning she'rlarining til jihatidan tahlili keltirilgan. Bu asarda Navoiy turkiy tilning badiiy imkoniyatlarini ko'rsatish bilan birga, shoirlarning til uslubi va ifoda vositalarini ham tahlil qiladi.

"Majolis un-nafois" asari orqali Navoiy turkiy tilning adabiyotda qo'llanishining keng imkoniyatlarini ko'rsatadi. U bu asarda turkiy tilning she'riyatda qanday qo'llanishi kerakligi haqida fikr yuritadi va shoirlarni tilning to'g'ri va badiiy qo'llanishiga undaydi.

2.3. "Mezon ul-avzon"

"Mezon ul-avzon" ("Vaznlar mezonlari") – bu Alisher Navoiyning she'riyat vaznlariga bag'ishlangan asari. Bu asarda Navoiy turkiy she'riyatning vazn tizimini chuqur o'rganadi va turkiy tilning she'riy imkoniyatlarini ko'rsatadi. U turkiy she'riyatning fors she'riyatiga nisbatan afzalliklarini ta'kidlab, turkiy tilning badiiy ifoda vositalarining boyligini ko'rsatadi.

"Mezon ul-avzon" asari turkiy she'riyatning rivojlanishida muhim rol o'ynadi va keyingi avlod shoirlari uchun qimmatli qo'llanma bo'lib xizmat qildi.

3. Tilshunoslik metodologiyasi

Alisher Navoiyning tilshunoslik metodologiyasi uning asarlarida aniq ko'rinadi. U tilshunoslikni nafaqat amaliy, balki nazariy jihatdan ham chuqur o'rganadi. Navoiyning tilshunoslik metodologiyasi quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

3.1. Qiyosiy tilshunoslik

Navoiy “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida turkiy va fors tillarini qiyosiy o‘rganish metodologiyasini qo‘llagan. U bu tillarning leksik, grammatik va fonetik jihatlarini solishtirib, ularning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqladi. Navoiyning qiyosiy tilshunoslik metodologiyasi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

3.2. Tarixiy tilshunoslik

Navoiy turkiy tilning tarixiy rivojlanishini ham o‘rganadi. U turkiy tilning qadimgi davrlardan boshlab qanday rivojlanganligini ko‘rsatadi va bu tilning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qiladi. Navoiyning tarixiy tilshunoslik metodologiyasi turkiy tillarning kelib chiqishi va rivojlanishini tushunishda muhim rol o‘ynaydi.

3.3. Amaliy tilshunoslik

Navoiy tilshunoslikni nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham o‘rganadi. U turkiy tilning badiiy adabiyotda qo‘llanishini ko‘rsatadi va shoirlarni tilning to‘g‘ri va badiiy qo‘llanishiga undaydi. Navoiyning amaliy tilshunoslik metodologiyasi turkiy tilning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi.

4. Tilshunoslikka qo‘shgan hissasi

Alisher Navoiyning tilshunoslikka qo‘shgan hissasi nafaqat o‘z davri, balki keyingi avlodlar uchun ham ulkan ahamiyatga ega. Uning tilshunoslik asarlari turkiy tillarning rivojlanishida muhim rol o‘ynadi va bu tillarning o‘ziga xosligini himoya qildi. Navoiyning tilshunoslikka qo‘shgan hissasi quyidagi jihatlarida namoyon bo‘ladi:

4.1. Turkiy tilning rivojlanishiga hissa

Navoiy turkiy tilning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdi. U turkiy tilning leksik, grammatik va fonetik jihatlarini chuqur o‘rganib, bu tilning boyligi va ifodaviyligini ko‘rsatdi. Navoiyning asarlari turkiy tilning adabiy til sifatida shakllanishiga yordam berdi.

4.2. Tilshunoslik metodologiyasini ishlab chiqish

Navoiy tilshunoslik metodologiyasini ishlab chiqishda muhim rol o‘ynadi. U qiyosiy, tarixiy va amaliy tilshunoslik metodologiyalarini qo‘llab, turkiy tillarni chuqur o‘rganish imkoniyatini yaratdi. Navoiyning metodologiyasi bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

4.3. Turkiy tillarning o‘ziga xosligini himoya qilish

Navoiy turkiy tillarning o‘ziga xosligini himoya qilishda muhim rol o‘ynadi. U turkiy tilning fors tiliga nisbatan afzalliklarini ko‘rsatib, bu tilning adabiy til sifatida rivojlanishiga yordam berdi. Navoiyning faoliyati turkiy tillarning o‘ziga xosligini saqlab qolishga xizmat qildi.

Xulosa

Alisher Navoiy – buyuk mutafakkir, atoqli shoir va tilshunos bo‘lib, uning tilshunoslikka qo‘shgan hissasi nafaqat o‘z davri, balki keyingi avlodlar uchun ham ulkan ahamiyatga ega. Uning “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Majolis un-nafois”, “Mezon ul-avzon” kabi asarlari turkiy tillarning rivojlanishida muhim rol o‘ynadi. Navoiyning tilshunoslik metodologiyasi va uning turkiy tilni rivojlantirishdagi roli bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini saqlab kelmoqda.

Uning ilmiy merosi turkiy tillarning o'ziga xosligini himoya qilish va ularni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Alisher Navoiyning tilshunoslikka qo'shgan hissasi nafaqat turkiy tillar, balki umumiy tilshunoslik fanining rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatdi. Uning asarlari va metodologiyasi bugungi kunda ham o'rganilmoqda va tilshunoslik fanining rivojlanishiga yordam bermoqda. Navoiy – nafaqat o'z davrining, balki butun insoniyatning buyuk mutafakkiri va tilshunosi bo'lib, uning merosi abadiy yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. "Xamsa". Toshkent: Sharq, 2001.
2. Karimov N. "Navoiyning adabiy merosi". Toshkent: Ma'naviyat, 1995.
3. Smith J. "The Influence of Alisher Navoiy on World Literature". London: Oxford University Press, 2010.
4. Ahmedova M. "Tarjima san'ati va Navoiy asarlari". Toshkent: Fan, 2008.
5. Yusupova L. "Navoiyning falsafiy qarashlari". Toshkent: Akadernashr, 2015.

ALISHER NAVOIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDAGI O'RNI

Axmedova Z.A.,
Andijon viloyati PMM katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk o'zbek mutafakkiri va shoir Alisher Navoiy merosining jahon tamadduniga qo'shgan hissasi yoritiladi. Uning adabiyot, san'at, falsafa va hatto matematika sohalaridagi qarashlari global ilm-fan va madaniyat rivojiga ta'siri tahlil qilinadi. Maqolada Navoiy asarlarining turli tillarga tarjima qilinishi va ularning jahon adabiy muhitidagi ahamiyati ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, jahon tamadduni, adabiyot, matematika, ilm-fan, madaniyat.

Аннотация. В данной статье освещается вклад великого узбекского мыслителя и поэта Алишера Навои в мировую цивилизацию. Анализируется его влияние на развитие литературы, искусства, философии и даже математики. Рассматривается значение его произведений в мировой литературе и их переводы на различные языки.

Ключевые слова: Алишер Навои, мировая цивилизация, литература, математика, наука, культура.

Abstract. This article highlights the contribution of the great Uzbek thinker and poet Alisher Navoi to world civilization. It analyzes his influence on the development of literature, art, philosophy, and even mathematics. The significance of his works in world literature and their translations into various languages are also considered.

Keywords: Alisher Navoi, world civilization, literature, mathematics, science, culture.

Alisher Navoiy nafaqat buyuk shoir, balki ulug' mutafakkir, davlat arbobi va ilm-fan homiysi sifatida ham jahon tamaddunida o'chmas iz qoldirgan. Uning asarlari nafaqat o'zbek adabiyoti, balki butun Sharq va jahon adabiyoti rivojida muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu maqolada Navoiy ijodining jahon madaniyatiga ta'siri, uning ilmiy va falsafiy qarashlari, shuningdek, matematika bilan bog'liq fikrlari tahlil qilinadi.

Alisher Navoiy turkiy tilda adabiyot yaratish orqali milliy til va madaniyat rivojiga ulkan hissa qo'shdi. Uning "Xamsa" asari Fors va arab adabiyotidagi an'analarni davom ettirib, yangi bosqichga olib chiqdi. Navoiy asarlari jahon adabiy muhitida ham katta qiziqish uyg'otgan bo'lib, ularning rus, ingliz, frantsuz va boshqa tillarga tarjima qilinishi bu qiziqishning isbotidir.

Navoiyning ijodi Yevropa adabiyotiga ham ta'sir o'tkazgan. Jumladan, nemis sharqshunosi Fridrix fon Dits va frantsuz olimi Armand Armage singari tadqiqotchilar uning ijodini o'rganib, G'arb adabiyotiga ta'sirini ta'kidlaganlar.

Navoiy ijodida falsafiy tafakkur yetakchi o'rin tutadi. U inson mohiyati, adolat, axloq va ma'naviyat haqida chuqur mulohazalar yuritgan. Uning "Mahbub ul-qulub" asari insonning ichki dunyosi va jamiyat bilan aloqalarini tahlil qiluvchi bebaho manba hisoblanadi.

Ko'pchilik Alisher Navoiyni faqat shoir sifatida bilsa-da, u ilm-fan, jumladan, matematika bilan ham qiziqqan. U ilmiy merosida sonlar va nisbatlar haqidagi fikrlarini ilgari surgan. Masalan, uning "tarozu" va "nisbat" tushunchalariga bergan ta'rifi matematikaning asosiy tamoyillaridan biri bo'lgan muvozanat va proporsiya bilan bog'liq.

Sharq mutafakkirlari orasida matematik qarashlar chuqur ildiz otgan bo'lib, Navoiy ham bu borada o'z hissasini qo'shgan. U adabiy ijodida geometriya va hisob-kitobga oid iboralarni ko'p ishlatgan. Xususan, "Farhod va Shirin" dostonida masofalar va hajm haqidagi tasvirlar bunga yaqqol misoldir.

Alisher Navoiy merosi bugungi kunda ham jahon tamadduni rivojida muhim rol o'ynamoqda. Uning asarlari ilm-fan, adabiyot va san'at sohalarida tadqiq etilib, yangi avlodga o'rganish uchun manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Xususan, YUNESKO tomonidan Navoiyning tavalludiga bag'ishlangan tadbirlar va ilmiy anjumanlar uning jahon tamaddunidagi ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Shuningdek, uning g'oyalari bugungi kunda inson huquqlari, ijtimoiy adolat va ma'naviy tarbiya masalalarida dolzarbligini yo'qotmagan.

Alisher Navoiy jahon tamadduni tarixida o'ziga xos o'rin egallagan ulkan siymolardan biridir. Uning adabiyot, falsafa va hatto matematika sohasidagi qarashlari jahon ilm-fanining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. U qoldirgan meros bugungi va kelajak avlodlar uchun bebaho ilmiy va ma'naviy boylik hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy, A. "Xamsa". Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1991.
2. Bartold, V. "Turk xalqlari tarixi". Toshkent: Fan, 2002.
3. G'ulomov, J. "Navoiy va adabiy meros". Toshkent: Ma'naviyat, 2005.

4. Armand, A. "Alisher Navoi et la poésie orientale". Paris: Editions de l'UNESCO, 1985.
5. Fitrat, A. "Navoiy va uning adabiy maktabi". Toshkent: Fan, 1976.
6. Karimov, I. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Toshkent: O'zbekiston, 2008.

ALISHER NAVOIY G'AZALLARIDA IFODALANGAN "NAFS" KONSEPTINING LISONIY VOQELANISHI

*Hakimova D.,
Navoiy viloyati PMM metodisti*

Annotatsiya: Maqolada konsept jamiyat taraqqiyotiga, til va madaniyatdagi o'zgarishlarga bog'liqligi kuzatilib, "nafs" konseptini ifodalovchi til birliklari tadqiq etilgan, "nafs" konseptining dunyo, hayvon timsolida kelishi tahlil qilingan, konseptning voqelanishi lisoniy omillar orqali amalga oshishi yoritilgan. Shuningdek, Alisher Navoiy asarlaridagi nafs borasida ibratli fikrlar badiiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: nafs, konsept, til birliklari, ammora, timsollar, tazod, qalb, inson ruhiyati.

Аннотация: В статье рассматривается зависимость концепта от развития общества, изменений в языке и культуре, исследуются языковые единицы, репрезентирующие концепт «нафс», анализируется возникновение концепта «нафс» в образе богатство, животных, объясняется реализация концепта через языковые факторы. Также художественно анализируются поучительные мысли о нафсе в творчестве Алишера Навои.

Ключевые слова: душа, концепт, языковые единицы, память, символы, личность, душа, психика человека.

Annotation: The article observes the dependence of the concept on the development of society, changes in language and culture, researches the language units representing the concept of "nafs", analyzes the emergence of the concept of "nafs" in the form of the world, animals, explains the realization of the concept through linguistic factors. Also, the instructive thoughts about the nafs in Alisher Navoi's works are artistically analyzed.

Key words: soul, concept, language units, memory, symbols, identity, soul, human psyche.

O'zbek tilining izohli lug'atida "nafs" arabcha so'z bo'lib, qalb, ko'ngil, inson, maqsad, intilish, g'urur, mag'rurlik kabi ma'nolarni anglatadi. Nafs insonning o'zligidir. Bu haqda Imom G'azzoliy shunday yozadi: "Bilg'ilkim, seni kim xalq qilibdur? Ikki nimarsadin biri zohir badandurki, ani tan atabdurlar, muni zohir ko'z birla ko'rgali bo'lur. Yana biri ma'ni botindurki, ani nafs derlar, jon atarlar va dil ham derlar".

Nafsni diniy yoki faqat psixologik nuqtai nazardan baholash yetarli emas. Nafsni insonning ichki holati, ongi va ma'naviyati bilan bog'lash kerak. Uni nazorat qilish, tarbiyalash va uni to'g'ri yo'naltirish yo'llari ham ko'rsatilishi

lozim. Nafsning insonda o'zgarishi va rivojlanishi uning tarbiyasi, ma'naviy yuksalishi bilan bog'liq. Shunday qilib, nafs haqidagi tasavvurlarni to'liq va chuqurroq tushunish uchun, uning murakkab tabiatini, psixologik, ma'naviy va etnik jihatlarini ham hisobga olish kerak.

Nafs insonning ichki dushmani sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Nafs odatda insonni yomon ishlarga, g'azab va o'zini ustun qo'yishga undaydi. U ko'pgina manbalarda salbiy xislat sifatida qaraladi, chunki nafs insonni dunyoviy narsalarga bo'lgan orzularini amalga oshirishga, ba'zan esa nojo'ya yo'llarga kirishga undaydi. Nafsning zararli tomoni shundaki, u odamning o'z manfaatlari va xohishlarini haddan oshirish bilan yomonlikka boshlaydi. Inson o'z nafsini qondirish uchun yomon yo'llarga kirishi mumkin.

“Nafs” konsepti o'zida poklik, dunyoga ruju qo'ymaslik, iymonli bo'lish, hoyu havasga berilmaslik, gunohdan tiyilishni targ'ib qiluvchi tushunchalardan biridir. Nafs izidan ergashadigan inson uning quliga aylanadi. Badnafslilik yomon illatlardan biri sanaladi. Kishi nafsini jilovlash uchun nafsni tarbiya qilgan zotlarga yaqin yurishi va ilm o'rganib, unga amal qilishi zarur. Nafsni poklash, nafsni yengish, nafs bilan kurashish o'ta zarur va qiyin masalalardan sanaladi. Nafs tarbiyasi Qur'oni Karimda ham, hadislarida ham, xalq og'zaki ijodida ham eng ko'p murojaat etilgan mavzulardan biri bo'lib, ko'pchilik olimlar, jumladan, Alisher Navoiy asarlarida ham nafs borasida ibratli fikrlar keltirilgan.

Malak taslimi shayton kibridekdur buki, aql o'zin

Qilib ma'muri amr istar amorat nafsni ammora.

Navoiy o'zining bu baytida nafsning ammora darajasi haqida fikr yuritgan. Навои аммога о'зи нима? Nafsi bu darajada bo'lganlar Haqni tan olmay, har doim yomon ishlarni qilishni rejalashtirib yuradi. Nafsi ammora nafsning zulmatdagi bosqichi, tuban axloq manbayi deb ta'riflanadi.

Bu bayt malak (farishta) va shayton o'rtasidagi farq, ularning xususiyatlari haqida mulohaza qilishga chorlaydi. Farishtaning taslimi, ya'ni bo'ysunishi hamda shaytonning kibri, takabburligi bir-biriga qarama-qarshi qo'yilgan. Demakki, ruhiy barkamol inson farishtalar kabi iymonli, to'g'ri yo'lda bo'lishi zarur, kibrlilik, xudbinlikdan-shaytonga xos xususiyatdan voz kechishi kerak.

Ermas ul farzonakim, tark etti dunyo hosilin,

Balki hosil qilg'ali mayl etmagan farzonadur.

Navoiy g'azalida keltirilgan, zikr etilgan dunyo so'zi ko'p o'rinlarda bizning tasavvurimizdagi butun borliq, koinot, olam emas, albatta. Ma'lumki, dunyo so'zi ko'chma ma'noda boylik, mol-mulk ma'nosida ham keladi. Shunga ko'ra, Navoiy fikricha, dunyo – boylik, mol-mulk yig'ishni tark etgan kishi emas, balki boylik yig'ishga mayl etmagan kishi dono, aqllidir. Farzona – ko'p narsadan xabardor, oqil, donishmand, ziyrak kishi degani. Shu o'rinda nafs dunyo timsolida tasvirlanib, mol-dunyoga hirs qo'yish eng xavfli yovdir, chunki bu har qanday odamni mansabparast, manfaatparast qilib qo'yadi. Aslida, boylikka ruju qo'yish hasaddan, ko'rolmaslikdan, kibrdan kelib chiqishi ma'lum.

Navoiy boylik yig'ish istagidan voz kechgan odamgina oxiratdan umidini uzmasligi sharti borligiga ishora qiladi, ya'ni agar senda oxiratga yetishish istagi bo'lsa, mol-dunyo murodi senda bo'lmasa, unda o'zingni oxiratdan noumid qilma.

Navoiy, istasang uqbo murodin, nomurod o'lg'il,

Agar dunyo murodi yo'qtur, o'zni nomurod etma.

Shoir nazdida kimki dunyoda musibat, badbaxtlik, faqirlik ko'rishni istamasa, u, ya'ni Alloh jamolini ko'rish istagidagi har qanday inson aslo molparast bo'lmaydi, mol-dunyo bilan ulfat bo'lmaydi. Chunki olloh jamolidan qalbning shodlanishi hamma narsadan ustun. Boylik, mol-dunyoga nafs baland odamlarning ko'pchiligi boqiy dunyoda xushchaqchaqlikda, aysh-ishratda yashashni odat qiladiki, himmati bor inson bunday dunyo sho'xligidan xalos bo'lishi zarur. Makkorlik, aldoqchilik odati aqllilikdan, oqillikdan a'lo emas.

Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul o'zining "Ruhoniyat va nafsoniyat tazodi" nomli maqolasida Navoiyning "Favoyid ul-kibar" devonidagi g'azallaridan bir baytga shunday ta'rif beradi:

Gar fano rasmin qilmoq tilar ersang mazbut,

Nafs ila ruhni zinhorki qilma maxlut.

Baytning asosiy mazmuni: fano rasm-ravishini agar egallayman desang, nafs bilan ruhni hech qachon bir-biriga qo'shma, ya'ni aralashtirma.

Navoiy o'z baytlarida boylikka ruju qo'yishni o'limga yuzlanish deb hisoblaydi. Tarixdan ma'lumki, "Alisher Navoiyning xazinasiga uning yer-mulkalaridan har kuni 75 ming dinor daromad tushib turgan..." Shoir shuncha boyligi bo'lishiga qaramay davlatidan g'ururlanmagan, nafsni jilovlashga da'vat etgan. "Vaqfiya" asari tufayli "Navoiy davlatidan g'ururlanib ketdi" degan ig'volarga barham bergan. Barcha boyligini xayrli va savobli ishlarga, qurilishlarga sarflagani, saxovati va bunyodkorligi uchun ham Husayn Boyqaro ijodkorni "Qahramon va sohibqiron" deb ulug'lashga haqli edi.

Olg'ali dunyo arusin, eyki, sotting naqdi din,

Umr sotib, marg olmoq angla, bu sotig'-olig'.

Navoiy boylikka ruju qo'yganni naq dinini sota turib, o'z umrini sotib o'limga yuzlanishdek savdo-sotiqqa aralashgan kimsa deb ta'riflaydi. Umr va o'lim – bir-biriga zid tushunchalar. Shoir tazod orqali baytdagi mazmun-mohiyatni teranroq tushunishga imkon beradi.

Bilish jarayonida har qanday konseptning lisoniy voqelanishi nutqiy tafakkur faoliyati mahsuli sifatida namoyon bo'ladi. Inson til va moddiy olamni bir xil uslubda hamda bir xil yo'nalishda o'zlashtiradi. Mavjud moddiy dunyo idroki narsa-hodisalar haqida tushuncha hosil bo'lishini, keyin esa bu tushunchaning konsept sifatida shakllanib, moddiy nom olishini talab qiladi. Voqelikni idrok etish jarayonida vujudga kelgan konseptni mavjud lisoniy zaxiradagi birliklar yordamida ifodalasa ham bo'ladi. Insonning lisoniy qobiliyati xotira bilan bog'liqdir.

Konseptlar, aslida, ma'lum bir millatning tarixini, dunyoqarashini, mentalitetini, hududiy til xususiyatlarini, hissiyotlari va emotsiyalarini o'zida namoyon etadi. Konsept jamiyat taraqqiyotiga, til va madaniyatdagi o'zgarishlarga bog'liq.

“Nafs” soʻzi, asosan, tasavvufda insonning ichki ehtiyojlari, xohishlari, his-tuygʻularini anglatadi. Nafs, bir tomondan, insonni yovuzlikka undashi mumkin boʻlgan ichki kuch sifatida qaraladi. Biroq hayvonlar timsolidagi talqin nafsni tabiatdagi instinktiv xulq-atvorlar va xohishlar orqali koʻrsatadi. Hayvonlar instinktiv ravishda ovqatlanish, koʻpayish va oʻzlarini himoya qilish kabi zarur ehtiyojlarni qondirishga harakat qiladilar, lekin ular oʻz xatti-harakatlarini axloqiy yoki ruhiy jihatdan oʻylamaydilar, faqat biologik va fiziologik ehtiyojlarni bajarishadi.

“Nafs” konseptining voqelanishi, yaʼni uning shakllanishi va rivojlanishi, asosan, lisoniy omillar (til, nutq va muloqot) orqali amalga oshadi. Tilda va soʻzlarda qanday oʻzgarishlar boʻlsa, “nafs” konseptini ifodalovchi til birliklari ham oʻzgarib boradi. Insonning ichki dunyosini ifodalovchi lisoniy omillar nafs konseptini chuqurroq anglashga yordam beradi.

Navoiy gʻazallarida nafs koʻpincha timsollar orqali ifodalanadi. Bu timsollar nafsning zararli tomonlarini koʻrsatish va undan qochishga chaqirish uchun ishlatiladi. Mumtoz adabiyotda nafsning aks ettirilgan baʼzi timsollariga quyidagilar kiradi:

Hayvonlar: Nafs, koʻpincha yovuz, yirtqich hayvon sifatida tasvirlanadi. Bu nafsning insonni boshqarishi, uning yuragida qandaydir zararli, xavfli va oʻldiruvchi kuchni paydo qilishi bilan bogʻliq.

Olov: Nafs koʻpincha olov yoki yongʻin bilan solishtiriladi. Gʻazallardagi nafsning bu shakli uning yondiruvchi va zararlovchi xususiyatlarini koʻrsatadi.

Yoʻl: Baʼzi gʻazallarda nafsni sahroda yoʻlsiz qolgan bir yoʻlovchi yoki manzilsiz bir safar sifatida tasvirlaydi. Bu nafsning insonni toʻgʻri yoʻldan ozdirib, yolgʻon va noxush yoʻllarga boshlashini anglatadi.

Koʻz: Baʼzan nafs koʻzga oʻxshatilib, uning qarorlar va xatti-harakatlar bilan chalgʻitilishi, haqiqatdan uzoqlashishi koʻrsatiladi. Nafs koʻrishda chalgʻigan yoki koʻr boʻlgan bir koʻz sifatida ifodalanadi.

May, yemish: Oʻz xohishlariga qarshi turish gʻazallarda koʻpincha nafsni tiyish demakdir. Gʻazallarda nafsning tuganmas ishtahasi, xohish-istagi, uning zararli xususiyatlari ifodalanadi.

Bu timsollar orqali nafsning inson ruhiyatiga qanday taʼsir qilishi, uni qanday xavfli holatlarga olib kelishi mumkinligini tushunish qiyin emas. Masalan, hayvonlar timsolidagi “nafs”ni tushunishning yana bir yoʻli shundaki, bu instinktlar ular uchun tabiiy holatdir. Insonda esa ichki ehtiyojlar bilan birga, axloqiy tarbiya, bilim va maʼnaviy oʻsish jarayonlarini ham oʻz ichiga oladi. Shuning uchun nafsni tiymaslik yoki uni yengish insonning ruhiy va axloqiy meʼyorlari asosida amalga oshiriladi.

Nafs soʻzi mumtoz adabiyotda koʻplab maʼnolarda ishlatilgan va oʻziga xos tushunchalar bilan bogʻlanadi. U, asosan, insonning ichki olami, xulq-atvori va maʼnaviy holatlari bilan bogʻliq boʻlgan tushunchadir. Nafsning oʻziga yaqin tushunchalar va u bilan bogʻliq tasavvurlar quyidagilardan iborat: ruh, qalb, may, iroda, zohidlik.

Alisher Navoiy g'azallarida nafsga doir fikrlar ko'p uchraydi. G'azallarning ham badiiy, ham lingvistik tahlili shoir ijodini, uning qarashlarini chuqur anglashimizga yordam beradi. Navoiy, asosan, nafsni insonni yomon yo'llarga yetaklovchi sifatida tasvirlaydi. Uning g'azallarida nafs, odatda, kishi uchun xavfli, xatoliklarni keltirib chiqaruvchi bir kuch sifatida ko'rsatiladi. Navoiy nafsni ko'pincha xudbinlik, o'z manfaatini boshqalarning huquqlaridan ustun qo'yish, egri yo'l va ruhiy qusurlarni hosil qiluvchi bir unsur sifatida tasvirlaydi. Nafsni yengish va uning salbiy ta'sirlaridan qochish insonning ma'naviy rivojlanishining asosiy bosqichlaridan biri sifatida qaraladi. Uning g'azallarida nafsni yengish uchun sabr, tavba va insonning ilohiy narsalarga bo'lgan intilishi muhim ahamiyatga ega. Navoiy nafsni tamoyil qilib olib, bu xususiyatni Allohga bo'lgan muhabbatni kuchaytirish yo'lida eng kuchli to'siqlardan biri deb ko'rsatadi. Navoiy g'azallarida nafsga qarshi kurashning maqsadi — ruhni poklash va insonni haqiqiy baxtga erishtirishdir. Uning ko'plab she'rlarida nafsni tozalash va uni tarbiyalash zarurligi haqida gapiriladi. Shu bilan birga, Navoiy nafsni yengish bilan insonning vijdon, halollik va insof kabi fazilatlarini rivojlantirishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bu esa, albatta, insonga haqiqiy baxt va huzur olib keladi.

Ishq agar bo'lsa havoyi nafsdin pok, ey ko'ngul,

Yo'q tafovut, dilbaring gar beka bo'lsun, gar мирак.

Bu baytning ma'nosi chuqur. Ijodkor ushbu baytda ishqni nafsning har xil istaklaridan poklangan holda ko'rishni istaydi, shundagina u haqiqiy ishqqa aylanadi. Agar ishq pok va samimiy bo'lsa, ishqning qudrati nafsning har xil orzularidan yuqori turadi. Ishq va qalb muqaddas, shaxsning ichki holatiga qarab, uning ishqidagi samimiyat va poklik muhim ekanligi ta'kidlanadi.

Navoiydek agar nafs itligidin qilmag'aymen ram,

Qachon gardun manga rom aylagay ra'no g'azolimni.

Bu satrlarda o'ziga xos ma'naviy va axloqiy tarbiya bor, shuningdek, insonning ichki kurashi va nafsni daf etishga oid o'ylari berilgan. Baytda Navoiy nafsga berilmaslikka undaydi.

Xulosa shuki, Alisher Navoiyning g'azallarida nafsdan qochish, uning zararlaridan saqlanish va o'zini poklash g'oyalari muhim ahamiyatga ega. Ijodkor nafsni qattiq qoralab, insonlarning undan xoli bo'lishini istaydi. Zero, ma'naviy yetuklikka qanoat, mehnat, sabr, himmat kabi sifatlar bilan erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Е.Э.Бертельс. Наваи. М.,1948 г., 134-стр.
2. П.Қодиров.Тил ва эл.Тошкент. 2010,150-бет.
3. Шавкат Раҳматуллаев, Ўзбек тилининг этимологик луғати, Тошкент, 2003 й., 600-бет.
4. www.ziyo.com kutubxonasi

ALISHER NAVOIY VA UNING IJODINING JAHON ADABIYOTIDAGI O'RNI

*Raxmonova Sh.K.,
Navoiy viloyati MMTB O'quv jarayonini metodik ta'minlash va
darsliklar bo'limi bosh metodisti*

Annotatsiya: Alisher Navoiy – o'zbek xalqining buyuk shoir va mutafakkiri bo'lib, uning adabiy merosi Markaziy Osiyo va jahon adabiyotida katta ahamiyat kasb etadi. U o'z asarlari orqali nafaqat siyosiy va ijtimoiy muammolarni, balki insoniyatning axloqiy qadriyatlarini ham yoritgan. Navoiy “Xamsa” kabi epik asarlari, “Farhod va Shirin” va “Mahbub ul-qulub” kabi nasriy asarlari bilan o'zbek va jahon adabiyotiga muhim ta'sir ko'rsatgan. U turkiy va fors tillarini boyitib, nafaqat o'z davrining, balki keyingi asrlarning adabiyotini shakllantirgan. Uning falsafiy qarashlari va poetik uslubi butun dunyo adabiyotiga alohida ta'sir ko'rsatgan. Ushbu maqola Navoiy ning adabiy, falsafiy, va til merosining universal ahamiyatini tahlil etadi va uning jahon madaniyatidagi o'rnini yoritadi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, O'zbek adabiyoti, Xamsa, Farhod va Shirin, Mahbub ul-qulub, Falsafa, Poetika, Fors adabiyoti, Turkiy til, Adabiy meros, Jahon adabiyoti, Insoniyat qadriyatlari, G'arb adabiyoti, Markaziy Osiyo, Madaniyat

Alisher Navoiy – o'zbek xalqining buyuk shoir va mutafakkiri, adabiyoti, falsafasi, tili va madaniyati tarixida muhim o'rin tutgan shaxsdir. U 1441-1501 yillarda yashab, o'zining chuqur ilmiy va adabiy merosi bilan faqat Markaziy Osiyo va Turkiston hududida emas, balki butun jahon adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Navoiy asarlari o'zining g'oyaviy, falsafiy, estetik va tilaviy jihatlarini bilan nafaqat o'z zamonasi, balki keyingi asrlar adabiyotini ham shakllantirgan. Uning asarlari jahon tamaddunining ajralmas qismiga aylangan.

Navoiy va uning adabiy merosi

Alisher Navoiy o'z asarlari orqali nafaqat o'z davrining siyosiy va ijtimoiy muammolarini, balki insoniyatning umumbashariy masalalarini, axloqiy qadriyatlarini ham yoritgan. Ularning eng mashhurlari “Xamsa” (beshta epik doston), “Mahbub ul-qulub”, “Farhod va Shirin” kabi asarlardir. Bu asarlar faqat o'zbek adabiyotining boyligiga aylanib qolmay, balki Turk adabiyoti, Fors va Arab adabiyotiga ham ta'sir ko'rsatgan.

Navoiy o'zining yuksak poetik mahorati bilan turli adabiy janrlarni rivojlantirdi, shuningdek, turkiy va fors tillarini boyitdi. U turkiy tilni, ayniqsa, o'zbek tilini yuqori darajada rivojlantirib, uni shoirona ifodaga aylantirdi. Shu bilan birga, Navoiy fors tilini mukammal bilgan va forscha ham buyuk asarlar yaratgan. Navoiy asarlarining xalq orasida keng tarqalishi va turli zamonlarda, turli xalqlarda qadrlanishi uning adabiy merosining universalligi va universal ahamiyatini ko'rsatadi.

Navoiy asarlari va jahon adabiyoti

Alisher Navoiy asarlarining jahon adabiyotiga ta'siri juda katta. Uning asarlari ko'plab boshqa shoirlar va adabiyotshunoslar uchun ilhom manbai bo'lib, bir qator xalqaro adabiy an'analarga yo'l ochdi. Masalan, Navoiy "Xamsa" asarida o'zining

falsafiy va estetik qarashlarini mukammal tarzda ifodaladi. Bu asar nafaqat o'zbek, balki fors va arab adabiyotining ham yuksalishiga katta hissa qo'shgan.

Shuningdek, Navoiy shoirlik va nasrda, o'zining mukammal poetik uslubi bilan ko'plab xalq adabiyotlariga ta'sir ko'rsatdi. Uning o'lkasidagi faqat o'zbek yoki fors tilidagi adabiyotlar emas, balki boshqa xalqlar adabiyoti ham uning asarlaridan ilhomlanib, o'z yo'lini topdi. Masalan, Alisher Navoiy o'zining yuksak poetik mahorati bilan nafaqat Sharq, balki G'arb adabiyotida ham o'z izini qoldirdi. Ularning orasida, ayniqsa, Ispaniya shoirlari, Italiya adabiyotining rivojlanishida Navoiy asarlarining alohida ahamiyati mavjud.

Navoiy va falsafiy merosi

Navoiy nafaqat shoir, balki falsafiy fikrlarini ham o'z asarlarida ifodalagan. Uning asarlarida insonning ma'naviy rivojlanishi, axloqiy qadriyatlar, odamzodning o'zini anglash va boshqalar bilan ahil bo'lish kabi g'oyalar markaziy o'rin tutadi. Uning falsafiy qarashlari zamonaviy psixologiya, etika va axloqiy nazariyalar bilan ham bog'liqdir. Navoiyning g'oyaviy merosi nafaqat o'z zamonasi, balki XXI asrning ma'naviy va ilmiy izlanishlari uchun ham muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Alisher Navoiy adabiy merosi jahon tamaddunida o'zining ulkan o'rniga ega. Uning asarlari nafaqat o'zbek xalqining, balki butun dunyo xalqlarining adabiyotida o'chmas iz qoldirdi. Navoiy nafaqat bir shoir, balki adabiyotshunos va tafakkur olimi sifatida ham tarixda qoladi. Uning merosi jahon adabiyoti va madaniyatining ajralmas qismiga aylangan va bugungi kunda ham yangi avlodlar tomonidan o'rganilmoqda, qadrlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy, Alisher. Xamsa. Tahrirlangan: Z. Mahmudov. – Toshkent: O'qituvchi, 1982.
2. Shamsiddinov, Sh. Alisher Navoiy va uning adabiy merosi. – Toshkent: Fan, 2002.
3. Valiullayev, A. Alisher Navoiy: Hayoti va ijodi. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 1997.
4. Muminov, X. Alisher Navoiy: Falsafiy va estetik qarashlari. – Toshkent: Akad. nashr, 2005.
5. Rizaev, A. O'zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O'zbekiston, 2000.

РОЛЬ ЛИТЕРАТУРНОГО НАСЛЕДИЯ АЛИШЕРА НАВОИ В МИРОВОЙ КУЛЬТУРЕ

*Зарипова Г.Т.,
и/о доцента Навоийского университета инноваций*

Аннотация: Эта статья представляет собой попытку показать значимость литературного наследия Алишера Навои в мировой культуре, его влияние на различные виды искусства и усилия по сохранению и популяризации его творчества в современном мире.

Annotation: This article is an attempt to show the significance of Alisher Navoi's literary heritage in world culture, its influence on various types of art and efforts to preserve and popularize his work in the modern world.

Ключевые слова: поэт, мыслитель, государственный деятель, суфийский мистик, чагатайский язык, мировая культура, литературное наследие, поэмы, лирические стихи, научные трактаты, прозаические произведения, вдохновение, исследователи, переводчики, читатели.

Keywords: poet, thinker, statesman, Sufi mystic, Chagatai language, world culture, literary heritage, poems, lyric poetry, scientific treatises, prose works, inspiration, researchers, translators, readers.

Алишер Навои (1441-1501) - выдающийся поэт, мыслитель, государственный деятель и суфийский мистик, чье творчество стало вершиной развития литературы на чагатайском (староузбекском) языке. Его влияние не ограничивается пределами Центральной Азии, а распространяется на всю мировую культуру, обогащая её своей глубиной, красотой и гуманистическими идеалами. Литературное наследие Навои, включающее поэмы, лирические стихи, научные трактаты и прозаические произведения, занимает особое место в истории мировой литературы и продолжает вдохновлять исследователей, переводчиков и читателей по всему миру.

Навои был не только гениальным поэтом, но и энциклопедически образованным человеком, чьи интересы охватывали различные области знаний - от литературы и истории до философии и астрономии. Эта многогранность отразилась в его творчестве, которое отличается широтой тематики, глубиной философского содержания и богатством художественных средств.

В своих произведениях Навои поднимал вечные вопросы о смысле жизни, любви, справедливости, добре и зле. Он прославлял гуманизм, милосердие, сострадание и призывал к миру и согласию между народами. Его идеи актуальны во все времена и находят отклик в сердцах людей разных культур и национальностей.

Особое место в литературном наследии Навои занимает его «Хамса» («Пятерица») - цикл из пяти поэм, созданный в подражание классическим образцам персидской поэзии, но превзошедший их по художественному уровню и оригинальности содержания. В состав «Хамсы» входят:

1. «Смятение праведных» («Хайрат ул-Абрар») – дидактическая поэма, содержащая размышления о морали, этике и религиозных ценностях.
2. «Лейли и Меджнун» («Лайли ва Маджнун») – трагическая история любви, ставшая одним из самых популярных сюжетов в мировой литературе.
3. «Фархад и Ширин» («Фархад ва Ширин») – героико-романтическая поэма о любви, преданности и силе искусства.
4. «Семь планет» («Сабъаи сайёр») – цикл новелл, связанных общим сюжетом и отражающих различные аспекты человеческой жизни.

5. “Искандарова стена” (“Садди Искандари”) – поэма о завоеваниях и мудрости Александра Македонского (Искандара).

«Хамса» Навои является не только выдающимся памятником узбекской литературы, но и значительным вкладом в мировую культуру. Она оказала огромное влияние на развитие литературы народов Центральной Азии, Ирана, Турции и Индии, вдохновляя поэтов и писателей на создание собственных шедевров[1].

Произведения Алишера Навои были переведены на многие языки мира, включая русский, английский, французский, немецкий, испанский, итальянский, японский, китайский и другие. Переводы позволяют широкому кругу читателей познакомиться с его творчеством и оценить его вклад в мировую культуру.

Особое внимание уделяется изучению наследия Навои в России, где востоковедческие традиции имеют давнюю историю и где его произведения были переведены и исследованы такими выдающимися учёными, как Е. Э. Бертельс, А. Н. Болдырев, И. С. Брагинский и другие. В российских вузах творчество Навои является неотъемлемой частью учебных программ по восточной литературе и тюркологии[2].

В странах Западной Европы и Америки интерес к творчеству Навои также постепенно растёт. Его произведения изучаются в университетах, специализирующихся на востоковедении, а также становятся объектом исследований учёных, занимающихся сравнительным литературоведением и культурологией.

Творчество Алишера Навои оказало значительное влияние не только на литературу, но и на другие виды искусства, такие как музыка, театр, изобразительное искусство и кино. Его произведения вдохновляли композиторов на создание опер, балетов и симфонических произведений, драматургов - на написание пьес, художников - на создание иллюстраций и картин.

В Узбекистане произведения Навои служат основой для создания национальных опер и балетов, театральных постановок и кинофильмов, которые пользуются огромной популярностью у зрителей. Имя Навои носят театры, библиотеки, улицы и площади, что свидетельствует о его огромном вкладе в культуру страны.

В современном мире, когда глобализация стирает границы между культурами, сохранение и популяризация наследия Алишера Навои приобретает особое значение. Его произведения, пронизанные гуманистическими идеалами и призывающие к миру и согласию, служат важным напоминанием о необходимости уважать другие культуры и ценности.

Для сохранения и популяризации наследия Навои необходимо:

- Продолжать переводить его произведения на разные языки мира.
- Издавать его сочинения в качественном полиграфическом исполнении.
- Создавать электронные ресурсы, посвященные его жизни и творчеству.

- Организовывать международные конференции и выставки, посвященные его наследию.

- Включать его произведения в учебные программы по литературе и культуре.

Литературное наследие Алишера Навои - это бесценный вклад в мировую культуру, который продолжает вдохновлять и обогащать человечество своими идеями, образами и художественным совершенством. Его произведения, пронизанные гуманизмом, милосердием и призывающие к миру и согласию, остаются актуальными и востребованными в современном мире. Сохранение и популяризация наследия Навои - важная задача, которая требует усилий со стороны ученых, переводчиков, педагогов и деятелей культуры во всем мире. Только так мы сможем передать его мудрость и красоту будущим поколениям и внести свой вклад в построение более справедливого и гармоничного мира.

Использованная литература:

1. Алишер Навои. Хамса. – Т.: Изд-во литературы и искусства им. Гафура Гуляма, 1988. - 640 с.
2. Бертельс Е.Э. Навои: Опыт творческой биографии. - М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1948. - 280 с.
3. Болдырев А.Н. Алишер Навои. Очерк творчества. - М., 1947.
4. Вахидов В. В мире Навои. Т., 1981.
5. Маликов А.М. Алишер Навои и музыка. - Т., 1991.
6. Фитрат А. Навои. Т., 1991.
7. Шукуров Ш.М. Искусство Навои. - Т., 1983.

2-SHO'BA: ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI

ALISHER NAVOIY XAMSA DOSTONLAR TO'PLAMINING XORIJIY TILLARGA TARJIMA QILINISHI VA TARIXIY, MADANIY VA ADABIY AHAMIYATI

*Kuychiyeva M.,
Andijon viloyati PMM dotsenti, PHD.,
Madolimov F.,
Mamasodiqova S.,
Andijon viloyati PMM o'qituvchilari*

Kirish. Alisher Navoiy (1441-1501) – o'zbek va umumturkiy adabiyotning eng yirik namoyandasi, mutafakkir, davlat arbobi va tilshunos. Uning ijodi turkiy xalqlar madaniyati va adabiyoti uchun noyob meros hisoblanadi. Navoiyning eng mashhur asarlari orasida “Xamsa” (beshlik) to'plami alohida o'rin tutadi. Bu to'plam beshta dostonni o'z ichiga oladi: “Hayrat ul-Abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab'ai Sayyor” va “Saddi Iskandariy”. Navoiyning bu asarlari nafaqat o'zbek, balki jahon adabiyoti uchun ham qimmatli manbadir. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlar to'plamining xorijiy tillarga tarjima qilinishi, uning tarixiy, madaniy va adabiy ahamiyati haqida to'xtalib o'tiladi.

Asosiy qism.


1. “Xamsa”ning jahon adabiyotidagi o'rni

“Xamsa” – bu beshta dostonni o'z ichiga olgan turk asarlar to'plami. Bu janr Sharq adabiyotida keng tarqalgan bo'lib, unga Nizomiy Ganjaviy, Amir Xusrav Dehlaviy kabi shoirlarning asarlari misol bo'la oladi. Navoiyning “Xamsa”si turkiy tilida yozilgan birinchi “Xamsa” hisoblanadi va bu uning turkiy adabiyotga qo'shgan hissasini yanada kuchaytiradi.

Navoiy “Xamsa”ni yozishda nafaqat o'zidan oldingi shoirlarning tajribasidan foydalangan, balki turkiy tilining badiiy imkoniyatlarini kengaytirgan. Uning asarlari falsafiy chuqurlik, insoniy qadriyatlar va badiiy kamolot bilan ajralib turadi. Shu sababli, “Xamsa” nafaqat o'zbek, balki jahon adabiyoti uchun ham qimmatli manbadir.

2. “Xamsa”ning Xorijiy Tillarga Tarjima Qilinishi Tarixi

“Xamsa”ning xorijiy tillarga tarjima qilinishi tarixi uzoq va murakkab jarayonni o'z ichiga oladi. Bu jarayon Navoiyning asarlariga bo'lgan qiziqishning ortishi, sharqshunoslikning rivojlanishi va turli madaniyatlarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga kelgan.



1-rasm Alisher Navoiy buyuk mutafakkir va atoqli shoir

2.1. Dastlabki tarjimalar

“Xamsa”ning birinchi tarjimalari 19-asrda rus tiliga amalga oshirilgan. Bu davrda Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoni o‘z ta’sir doirasiga olganligi sababli, mahalliy madaniyat va adabiyotga qiziqish kuchaydi. Rus sharqshunoslari Navoiyning asarlarini o‘rganish va tarjima qilish orqali urkey xalqlarning madaniy merosini tushunishga harakat qilishdi.

2.2. Sovet davrida tarjimalar

Sovet davrida Navoiyning asarlariga bo‘lgan qiziqish yanada kuchaydi. Bu davrda “Xamsa”ning ayrim qismlari rus tiliga tarjima qilindi va nashr etildi. Bundan tashqari, Navoiyning asarlari boshqa sovet xalqlari tillariga ham tarjima qilindi. Bu jarayon Navoiyning ijodini butun Sovet Ittifoqi bo‘ylab targ‘ib qilishga xizmat qildi.

2.3. Mustaqillik davrida tarjimalar

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, Navoiyning asarlariga bo‘lgan qiziqish yanada oshdi. Bu davrda “Xamsa”ning to‘liq tarjimalari ingliz, fransuz, nemis kabi jahon tillariga tarjima qilindi. Bu tarjimalar orqali Navoiyning ijodi butun dunyo bo‘ylab targ‘ib qilindi va uning asarlari xalqaro miqyosda tan olinishiga sabab bo‘ldi.

3. “Xamsa” Tarjimalarining Madaniy va Adabiy Ahamiyati

“Xamsa”ning xorijiy tillarga tarjima qilinishi nafaqat adabiy, balki madaniy hamjihatlikni rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi. Bu tarjimalar orqali urkey xalqlarning madaniy merosi butun dunyo bo‘ylab targ‘ib qilindi va turli madaniyatlarning o‘zaro ta’siri kuchaydi.

3.1. Madaniy dialogni rivojlantirish

“Xamsa”ning tarjimalari turli madaniyatlarning o‘zaro tushunishiga yordam berdi. Navoiyning asarlari orqali Sharq va G‘arb madaniyatlari o‘rtasida madaniy dialog yuzaga keldi. Bu dialog turli xalqlarning madaniy merosini o‘rganish va qadrlash imkoniyatini berdi.

3.2. Adabiy ta’sir

“Xamsa”ning tarjimalari jahon adabiyotiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Navoiyning asarlari orqali urkey adabiyotning badiiy imkoniyatlari butun dunyo bo‘ylab tan

olinishiga sabab bo'ldi. Bu tarjimalar xorijiy adiblar va olimlar uchun yangi ilhom manbai bo'ldi.

4. Tarjimalarda qo'yiladigan talablar

“Xamsa” kabi murakkab va chuqur ma'noli asarlarni tarjima qilish juda mas'uliyatli ish hisoblanadi. Tarjimalar asl matnning mazmuni, badiiy uslubi va falsafiy chuqurligini saqlab qolishi kerak. Bu esa tarjimonning nafaqat til bilimiga, balki adabiyot, tarix va falsafa sohalarida ham chuqur bilimiga ega bo'lishini talab qiladi.

4.1. Asl matnning mazmunini saqlash

“Xamsa”ning tarjimalari asl matnning mazmunini to'liq aks ettirishi kerak. Bu esa tarjimonning Navoiyning falsafiy qarashlari, tarixiy sharoit va madaniy kontekstni chuqur tushunishini talab qiladi.

4.2. Badiiy uslubni saqlash

Navoiyning asarlari o'zining badiiy uslubi bilan ajralib turadi. Uning she'riyati nafis va o'ziga xos bo'lib, tarjimalarda bu uslubni saqlab qolish juda muhimdir. Bu esa tarjimonning she'riy qobiliyatiga ega bo'lishini talab qiladi.

5. “Xamsa” tarjimalarining bugungi kunda tutgan o'rni

Bugungi kunda “Xamsa”ning tarjimalari dunyoning ko'plab tillarida mavjud. Bu tarjimalar orqali Navoiyning ijodi butun dunyo bo'ylab targ'ib qilinmoqda. Xususan, ingliz, fransuz, nemis, rus tillaridagi tarjimalar Navoiyning asarlarini keng auditoriyaga yetkazishga xizmat qilmoqda.

5.1. Xalqaro konferensiyalar va tadqiqotlar

“Xamsa”ning tarjimalari xalqaro konferensiyalar va ilmiy tadqiqotlarning muhim mavzusi hisoblanadi. Turli mamlakatlarda Navoiyning asarlariga bag'ishlangan konferensiyalar o'tkaziladi, ilmiy maqolalar va monografiyalar nashr etiladi. Bu tadqiqotlar orqali Navoiyning ijodi chuqurroq o'rganilmoqda va uning adabiy merosi targ'ib qilinmoqda.

5.2. Ta'lim sohasida qo'llanilishi

“Xamsa”ning tarjimalari turli mamlakatlarda ta'lim sohasida qo'llanilmoqda. Bu asarlar orqali talabalar Sharq adabiyoti va madaniyatini o'rganish imkoniyatiga ega bo'lishmoqda. Bu esa turli madaniyatlarning o'zaro tushunishiga yordam beradi.

Xulosa. Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlar to'plami nafaqat o'zbek, balki jahon adabiyoti uchun ham qimmatli meros hisoblanadi. Uning asarlari turli tillarga tarjima qilinishi orqali butun dunyo bo'ylab targ'ib qilinmoqda. Bu tarjimalar madaniy dialogni rivojlantirish, adabiy ta'sir ko'rsatish va turli xalqlarning madaniy merosini qadrlash imkoniyatini beradi. “Xamsa”ning tarjimalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan va kelajakda ham turli madaniyatlarning o'zaro tushunishiga xizmat qilishda davom etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. “Xamsa”. Toshkent: Sharq, 2001.
2. Karimov N. “Navoiyning adabiy merosi”. Toshkent: Ma'naviyat, 1995.
3. Smith J. “The Influence of Alisher Navoiy on World Literature”. London: Oxford University Press, 2010.

4. Ahmedova M. "Tarjima san'ati va Navoiy asarlari". Toshkent: Fan, 2008.
5. Yusupova L. "Navoiyning falsafiy qarashlari". Toshkent: Akademnashr, 2015.

ПРОБЛЕМЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ПРОИЗВЕДЕНИЙ АЛИШЕРА НАВОИ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

*Кадиров К.Н.,
к.ф.н., профессор, заведующий кафедрой НУИ*

Аннотация: Статья посвящена анализу проблем, возникающих при преподавании произведений Алишера Навои в системе образования, преимущественно в русскоязычной среде. Рассматриваются основные трудности, с которыми сталкиваются преподаватели и учащиеся, такие как языковой барьер, недостаточная методическая база, отсутствие связи с современностью, нехватка квалифицированных кадров, сложность интерпретации и необходимость учёта исторического контекста. В статье предлагаются конкретные решения этих проблем, включая использование современных переводов и адаптаций, разработку интерактивных методических пособий, интеграцию творчества Навои с другими предметами и внедрение разнообразных методов оценки знаний учащихся.

Annotation: The article is devoted to the analysis of the problems that arise when teaching the works of Alisher Navoi in the education system, mainly in the Russian-speaking environment. The main difficulties that teachers and students face are considered, such as the language barrier, insufficient methodological base, lack of connection with modernity, shortage of qualified personnel, complexity of interpretation and the need to take into account the historical context. The article offers specific solutions to these problems, including the use of modern translations and adaptations, the development of interactive teaching aids, the integration of Navoi's works with other subjects and the introduction of various methods of assessing students' knowledge.

Ключевые слова: Алишер Навои, поэт, мыслитель, государственный деятель, узбекская культура, мировая культура, преподавание, национальная гордость, культурное наследие, гуманистические идеалы, языковой барьер, староузбекский язык, современный узбекский, сложная лексика, архаичная грамматика, адаптация материала.

Keywords: Alisher Navoi, poet, thinker, statesman, Uzbek culture, world culture, teaching, national pride, cultural heritage, humanistic ideals, language barrier, Old Uzbek language, modern Uzbek, complex vocabulary, archaic grammar, adaptation of material.

Алишер Навои - великий поэт, мыслитель и государственный деятель, чьё творчество является неотъемлемой частью узбекской и мировой культуры. Преподавание его произведений в системе образования имеет ключевое значение для формирования у подрастающего поколения чувства национальной гордости, уважения к культурному наследию и понимания ценности гуманистических идеалов. Однако процесс преподавания

произведений Навои сталкивается с рядом проблем, требующих внимательного рассмотрения и поиска эффективных решений.

1. Языковой барьер и сложность восприятия:

Творчество Навои написано на староузбекском (чагатайском) языке, который значительно отличается от современного узбекского. Это создаёт языковой барьер для учащихся, особенно для тех, кто не обладает достаточной языковой подготовкой. Сложная лексика, архаичная грамматика и обильные аллюзии требуют от преподавателя умения адаптировать материал, давать комментарии и разъяснения.

• Решение: использование современных переводов и адаптаций, создание глоссариев и словарей, облегчающих понимание незнакомых слов и выражений. Также необходимо уделять внимание историческому контексту и культурным реалиям того времени.

2. Недостаточная методическая база:

Несмотря на огромный вклад Навои в мировую литературу, методические материалы для преподавания его произведений, особенно в русскоязычных школах, не всегда являются достаточными. Отсутствует систематизированный подход к анализу его творчества, недостаточно разработаны эффективные методики и приёмы работы с текстами.

• Решение: разработка современных методических пособий, включающих в себя различные виды заданий (анализ текста, работа с иллюстрациями, творческие задания), а также разработка электронных ресурсов (интерактивных уроков, онлайн-тестов, презентаций).

3. Отсутствие актуальности в глазах учащихся:

Современным школьникам произведения Навои могут казаться устаревшими и далёкими от их повседневной жизни. Отсутствие чёткой связи с современными реалиями и интересами молодёжи может снижать мотивацию к изучению его творчества.

• Решение: Необходимо показывать актуальность идей Навои в современном мире. Организовывать дискуссии о его философских взглядах, этических нормах и ценностях. Связывать его произведения с современными проблемами, такими как толерантность, справедливость, гуманизм. Использовать интерактивные формы работы, такие как проекты, презентации, ролевые игры, конкурсы.

4. Нехватка квалифицированных преподавателей:

Эффективное преподавание произведений Навои требует от преподавателя не только глубоких знаний о его творчестве, но и владения методикой преподавания, знаниями о культуре и истории региона. К сожалению, не всегда достаточно преподавателей, обладающих всеми этими качествами.

• Решение: Организация курсов повышения квалификации для преподавателей, специализирующихся на восточной литературе. Развитие системы наставничества и обмена опытом между преподавателями. Привлечение к преподаванию специалистов из научных учреждений и вузов.

5. Сложность интерпретации и анализа:

Произведения Навои, особенно его поэмы, отличаются многозначностью, глубиной философского содержания и сложностью художественной формы. Это требует от учащихся умения анализировать текст, выявлять скрытые смыслы и интерпретировать авторскую позицию.

• Решение: обучение учащихся приемам анализа текста, работе с метафорами, символами и аллегориями. Использование различных методов интерпретации (например, историко-культурный, психологический, философский анализ). Развитие навыков критического мышления и аргументации.

6. Недостаточное внимание к контексту:

Понимание творчества Навои невозможно без знания исторического, культурного и религиозного контекста эпохи Тимуридов. Недостаточное внимание к этому контексту может привести к неверной интерпретации его произведений.

• Решение: Уделять особое внимание изучению исторического и культурного контекста эпохи Тимуридов. Использовать наглядные материалы, такие как исторические карты, иллюстрации, фотографии архитектурных памятников. Привлекать специалистов по истории и культуре региона к проведению уроков и внеклассных мероприятий.

6. Недостаточное внимание к мультикультурному контексту:

Творчество Навои имеет не только узбекскую, но и общечеловеческую ценность. Преподавание должно включать элементы, демонстрирующие его вклад в мировую литературу и культуру, а также связи с другими культурами и литературными традициями.

Решение: Сравнивать произведения Навои с произведениями других восточных и западных авторов, исследовать общие темы и мотивы (например, любовь, страдание, поиск истины). Знакомить учащихся с работами искусствоведов и историков культуры, которые изучали влияние творчества Навои на мировую культуру. Организовывать межкультурные проекты и обмены.

7. Оценка знаний и умений учащихся:

Традиционные методы оценки знаний, такие как письменные тесты и ответы на вопросы, не всегда позволяют оценить глубину понимания произведений Навои, а также способность учащихся к критическому мышлению и творческому самовыражению.

Решение: Использовать разнообразные методы оценки, такие как:

Проектные работы: создание презентаций, видеороликов, театральных постановок, иллюстрирующих произведения Навои.

Эссе и творческие работы: написание эссе, стихотворений, рассказов, вдохновленных его творчеством.

Дебаты и дискуссии: участие в дебатах и дискуссиях, посвященных философским и этическим вопросам, затронутым в произведениях Навои.

Портфолио: сбор работ учащихся, демонстрирующих их прогресс в изучении творчества Навои.

8. Интеграция с другими предметами:

Изучение творчества Навои может быть эффективно интегрировано с другими предметами школьной программы, такими как история, география, музыка, изобразительное искусство и иностранные языки.

Решение: Разрабатывать межпредметные проекты, объединяющие знания из разных областей. Например, изучать исторический контекст эпохи Тимуридов на уроках истории, а затем анализировать произведения Навои, отражающие эту эпоху. Использовать музыку и изобразительное искусство для создания более ярких образов и эмоций, связанных с творчеством Навои. Изучать его произведения на иностранных языках.

Преподавание произведений Алишера Навои требует комплексного и гибкого подхода, учитывающего многообразие образовательных задач, языковые особенности, культурный контекст и интересы современных учащихся.

Преодоление существующих проблем, постоянное совершенствование методик и поиск новых форм работы с учащимися позволят сохранить и приумножить наследие великого поэта и внести вклад в формирование гармонично развитой личности, уважающей свою культуру и открытой для мира.

Использованная литература:

1. Алишер Навои. Собрание сочинений в десяти томах. – Т.: Издательство «Фан» УзССР, 1968-1970 гг
2. Бертельс Е.Э. Навои: Опыт творческой биографии. - М.-Л.: Издательство АН СССР, 1948.
3. Мирзиёев Ш.М. Мы едины в стремлении к процветанию и развитию демократического Узбекистана. - Т.: Узбекистан, 2017.
4. Шарафиддинов О. Навои и национальная идея. - Т.: Маънавият, 2000.

**ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA
TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI**

**Yusupova U.A.,
Andijon viloyati PMM metodisti**

Annotatsiya: Maqolada serqirra ijodkor, o'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiy o'lmas adabiy merosining jahon adabiyotida tutgan o'rni haqida fikr yuritilgan. Buyuk iste'dod sohibining tengsiz asrlarini xorijiy tillarga tarjima qilinib, o'rganilishi mutafakkir jahon sivilizatsiyasi tarixida, ayniqsa, turkiyzabon xalqlar madaniy va ma'naviy hayotining rivojida alohida o'rin tutganligi yoritib berilgan.

Annotation: The article reflects on the place of the immortal literary heritage of the multifaceted creator, the founder of the Uzbek literary language, Alisher Navoi, in world literature. It highlights the fact that the translation and study of the

unparalleled works of the great genius into foreign languages has played a special role in the history of world civilization, especially in the development of the cultural and spiritual life of Turkic-speaking peoples.

Аннотация: В статье размышляется место бессмертного литературного наследия основоположника узбекского литературного языка Алишера Навои в мировой литературе. Подчеркивается, что несравненные века великого таланта переводились и изучались на иностранных языках, мыслитель занимал особое место в истории мировой цивилизации, особенно в развитии культурной и духовной жизни тюркоязычных народов.

Kalit soʻzlar: Jahon sivilizatsiya, isteʼdod, asarlar, tarjima, asr, olimlar, meros, doston, fazilatlar

Keywords: World, civilization, talent, works, translation, century, scholars, heritage, epic, virtues

Ключевые слова: Мир, цивилизация, талант, произведения, перевод, эпоха, учёные, наследие, сага, добродетели

Alisher Navoiy jahon madaniyatidagi eng serqirra ijodkorlardan biri boʻlib, adabiyotimizning barcha yoʻnalishlarida qalam tebratgan adib. Navoiy - oʻzbek va boshqa turkiy xalqlarning shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi boʻlgan. Gʻarbda chigʻatoy adabiyotining buyuk vakili deb qaraladi, sharqda “ nizomi millati va din “ (din va millatning nizomi) unvoni bilan ulugʻlanadi. Yuz mingdan ortiq lirik va epik asarlari jahon madaniyati hamda turkiy xalqlarning maʼnaviy qarashlariga bebaho hissa qoʻshdi. Navoiy qoldirgan ilmiy-adabiy meros hayratlanarli darajada ulkandir. Shuni taʼkidlab oʻtish lozimki, yozuvchining asarlari hali – hanuzgacha oʻz ahamiyatini yoʻqotgani yoʻq. Yer yuzidagi barcha xalqlar orasida Navoiy qalamga olgan mavzular oʻz dolzarbligini yoʻqotgani yoʻq. Navoiy umumbashariyat madaniy xazinasidan munosib oʻrin olgan oʻlmas asarlarini aynan ona tilimizda yaratib, uning shuhratini butun dunyoga tanitdi. Alisher Navoiyning goʻzal ijodi dunyo siyosatidan ustun kelib, oʻzining oʻzbekona milliyligi bilan umumbashariyat mulkiga aylangan.

Shoirning epik asari “Xamsa”, toʻrt lirik devonni oʻz ichiga oluvchi “Xazoyin ul-maoniy” asari, falsafiy dostoni–“Lison ut-tayr”, tarixga oid “Tarixi anbiyo va hukamo”, “ Tarxi mulki Ajam “, adabiyotshunoslikka oid “Mezon–ul avzon”. “Majolis-un nafois”, tilshunoslikka oid “Muhokamat –ul lugʻatayn”, axloqiy-falsafiyasari “Mahbub-ul qulub”, tasavvuf tarixiga oid “Nasoyim ul-muhabbat”, ruboiylar majmuyi “Nazm-ul javohir”, diniy mavzudagi “Arbain”, “Siroj ul-muslimin”, xotiralari “Said Hasan Ardasher”, “Holati Pahlavon Muhammad”, maktublar toʻplami “Munshoat”, vaqf ishlari haqida “Vaqfiya” va boshqa bir qator asarlari turkiy xalqlarning maʼnaviy-madaniy mulki boʻlib qolmoqda. Alisher Navoiy yer kurrasining bir dahosi sifatida yaratilgan Ilohiy moʻjisedir. Uning asarlari hayot qomusi kabi hamisha toʻgʻri yoʻlning yorugʻ manzilini krsatadi, egri yoʻlning ayanchli oqibatlaridan saboq beradi. Alisher Navoiy ijodi Sharq adabiyotining boy adabiy anʼanalari zaminida maydonga keldi va oʻz navbatida keyingi davr adabiyoti rivojiga samarali taʼsir koʻrsata oldi. Barchamizga ayonki, Navoiy nafaqat oʻzbek tilida, balki forsiy tilde ham tengsiz meros qoldirgan.

Iste'dod darajasida Navoiygacha va hozirgacha ham Alisher Navoiy siymosiga nasib etgan bu fazilat pog'onasiga hech kim yuksala olmadi. Uning adabiy mahorati sirlari hali hozirgacha ham o'rganilib kelmoqda. Hattoki, endi ochila boshlagan sirli manbalarining cheki yo'q. Yozuvchi ijodi abadiyatning bosh siri - uning asarlarida kuylangan umumbashariy o'lmas va qarimas g'oyalar: insonparvarlik, ahloqlilik, aqliy va hissiy komillikdir. O'zbek millatining baxti borki, uning Alisher Navoiysi bor. Akademik Konrad ana shu ma'noda, ya'ni Navoiy kelib chiqqan millatning baxtiyorligini alohida qayd etgan edi. Navoiy dahosining eng muhim nuqtasini uning o'zi qayd etgan, ya'ni shoir asarlarida "dard va so'z (quyish)" tantanasiga keng o'rin bergan va bu bilan ularning voqelikka juda yaqinligini ta'minlagan. Dunyoda Alisher Navoiy kabi asarlari keng tarqalgan, jahonning deyarli har bir chekkasida kitoblarining nusxalari saqlanayotgan boshqa bir ijodkorni topish qiyin. Hazrat Navoiy hayotining so'nggi yillaridayoq uning asarlari tiliga lug'at tuzishganligi uning hayotligidayoq ijodiga qiziqishganidan dalolatdir. Fransuz sharqshunosi Pave de Kurteyl Navoiy asarlaridan foydalanib, lug'at tuzadi. Buni qarangki, hatto fransuz olimlari ham Navoiy asarlari lug'atini tuzishganining o'zi uning buyuk daho ekanligidan dalolat beradi. Alisher Navoiy ijodi adabiyotshunoslikdan tashqari tarix, tilshunoslik, lug'atshunoslik, she'r san'ati, islomshunoslik va tasavvufshunoslik kabi fan sohalari uchun ham boy manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Zabardast olima, filologiya fanlar doktori, professor Almaz Ulviy (Binnatova)ning "Alisher Navoiyning asri va nasri (ilmiy-filologik va diniy-tasavvufiy asarlari)"nomli monografiyasi -Navoiy yashagan ijtimoiy-madaniy muhit, ulug' shoirning ma'naviy-axloqiy qiyofasi va nasriy asarlarining o'ziga xos jihatlari bir butun tarzda o'rganilgani bilan alohida mavqega ega. Ulviyning mazkur tadqiqoti Alisher Navoiy yashagan davr, zamon, ijtimoiy, siyosiy, adabiy muhit, zamondoshlarining axloqiy qiyofasi va ulug' mutafakkir asarlari haqida ma'lumot beribgina qolmay, mazkur asarlarning g'oyaviy olami, badiiyati xususida ham keng mushohada yuritishga undaydigan yana bir tadqiqotdir. XX asrning birinchi choragida aksariyat Yevropa va rus sharqshunoslari Navoiy ijodi bilan mashg'ul bo'lgan, uning ijodi haqida hech bo'lmaganda bir maqola yozgan. Ularning ko'pchiligi Navoiy ijodiga bir yoqlama qarab, fors adabiyotining taqlidchisi, vakili, o'zbek adabiyotiga biron yangilik qo'shmagan, deb ayuhannos solganlarida, Y.E.Bertels "Navoiy va Attor"kitobida "Lison ut-tayr" ni, "Mantiq ut-tayr"ga qiyoslab, Navoiyning buyuk shoir, daho ijodkor ekanini ko'rsatib berdi. "Navoiy va Jomiy"kitobiga so'zboshi yozgan Ergash Rustamov Bertelsning ilmiy faoliyati bilan juda yaxshi tanish sadoqatli shogird sifatida bunday deydi: "Lison ut-tayr" ni ko'zdan kechirish bizning ko'z oldimizda ulkan san'atkorni, orginal asar yaratishga qodir so'z ustasini, san'atkorlik in'omi bilan birga, bilimi va qiziqish doirasi nihoyatda ulkan tafakkur egasini, buyuk donishmandni, biz uchun yanada qimmatlirog'i -atrofdagi odamlarga nisbatan qalbi sevgiga limmo-lim to'la, shu sevgi tufayli insonlarning kamchiliklarini kechirib yuboradigan katta qalb egasininamoyon qiladi". Bertelsning Navoiyga bo'lgan muhabbati faqat "Lison ut-tayr" bilan cheklangan emas . Bertelsga barcha kitoblarida asosiy urg'uni Navoiyga

qaratdi desak bo'ladir. Bertelsning Alisher Navoiy ijodiga bo'lgan muhabbati uning shoir ijodi tub mohiyatiga kirishiga zamin bo'ldi. Bertelsning asosiy e'tibori Navoiyga qaratilgani bois buyuk shoir ijodining hamma qirralarini ochishga harakat qildi. Jumladan, uning asarlarini o'z davrida forsiy zabon ziyoli qavmi tushuna olishi uchun ilk lug'atlar -Tole Imon Heraveyning "Badoi al-lug'at"i tuzilgani haqida xabar berar ekan, bu lug'at Navoiy hayotlik davrida yaratilgani, hatto eski o'zbek tilida so'zlasha olgan Abdurahmon Jomiy ham lug'atdan foydalangani ehtimoldan holi emas. Navoiy uyg'onish davrining yirik namoyondasidir. Uyg'onish davri VIII-IX asrlarda Xitoyda boshlanib, IX-XV asrlarda O'rta Osiyo, Eron, Hindistonning bir qismida davom etgani va XVI-XIX asrlarda Yevropada nihoyasiga yetkanligi hech birimizga sir emas. Uyg'onish davrining buyuk vakillari ijodida qandaydir umumiylikni ko'rish mumkin. V.M. Jirmunskiy "Alisher Navoiyning ulkan figurasi jahon adabiyotidan alohida ajralib qolgan emas. O'zbek adabiyotining buyuk asoschisining ijodi bevosita g'arbdagi hamfikrlarining uyg'onish davri shoir va mutafakkirlarining ilg'or g'oyalari bilan qo'shilib ketadi"-deb yozadi. Ulug' shoir va mutafakkir Alisher Navoiy -Sharq Renessansining yirik namoyondasi sifatida jahon sivilizatsiyasi tarixida, ayniqsa, turkiy zabon xalqlar madaniy va ma'naviy hayotining rivojida alohida o'rin tutadigan yorqin shaxsdir. O'z asarlarida ma'naviy poklik, xalqparvarlik va ma'rifatparvarlikni kuylab, o'z avlodlariga buyuk adabiy-falsafiy va ilmiy meros qoldirdi. Uyg'onish davri turli joylarda va vaqtlarda o'ziga xos tarzda kechgani bilan barcha xalqlar madaniyati va adabiyotida o'xshash tomonlarni ham vujudga keltirgan. Bu davr kishilarining umuminsoniy g'oyalarni ko'tarib chiqqanligi, bashariyat taqdiri uchun qayg'urganligidandir. Uyg'onish davri allomalarining ijodi bir xalq doirasidan chiqib, boshqa xalq ijodkorlariga ta'sir qilishi shubhasizdir. Navoiyni xorijda Y.E. Bertles (Rossiya), Artoleme d'Erbelo, Silvestre deSasi (Fransiya), I.N. Beryozin, V.V. Velyaminov, M. Nikitsiy (Rossiya), M.Belen, E.Bloshe, L. Buva (Fransiya), E. Braun (Angliya), V.Bartold (Rossiya), A.Kurella (Germaniya), M.Sabtelni, V.Feldman, D.Genchturk, D.Devin, K.Adalx, G.Dix (Angliya) kabi olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Ushbu tadqiqotlarning barchasi dunyo hamjamiyatida globallashuv jarayonlari kuzatilayotgan hozirgi davrda Alisher Navoiy ijodini har tomonlama tadqiq qilishga qiziqish va ehtiyoj ortib borayotganligini ko'rsatadi.

Hazrat Navoiyning asarlari hayotligidayoq Vatani sarhadlaridan uzoqlarda mashhur edi. Dunyodagi biror xalq yo'qki, Navoiy ijodi bilan tanishgach, unga befarq bo'lgan bo'lsa. Bunga misol qilib, XV asrda Turkiyadagi eng yaxshi shoirlardan hisoblangan, turk adabiyoti tarixida o'ziga xos o'rni bo'lgan shoir Ahmad Posho turk shoirlari ichida birinchilardan bo'lib Navoiy ijodiga murojaat qilgan. Zamondoshlari ko'proq fors, arab adabiyotining ulug'namoyondalariga taqlid qilgan paytda Ahmad Poshoning Navoiy ijodiga nazar tashlab, qiziqishi ijobiy holdir. 1481 -yilda Ahmad Posho Bursashahrining hukmdori qilib tayinlanadi. Shu yillarda Navoiyning 33ta g'azali Turkiyaga yetib boradi. Ahmad Poshog'azallar bilan tanishib, qo'liga yetib kelgan Navoiy g'azallarining barchasiga nazira bog'laydi. Navoiy g'azallari yuksak badiiy mahorat,

insonparvarlik g'oyalari Ahmad Poshoni shoir sifatidaromqilgan. Ko'rinib turibdiki, Ahmad Posho lirikasining barkamollashuvida Navoiy ijodining o'rni beqiyosdir. Turk tarixiga nazar solsak, buyuk Navoiy ijodi faqat lirik poeziyaga ta'sir qilibgina qolmay, balki yirik epik asarlarning yaratilishida ham sezilarli ta'siri bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Buning yorqin isboti sifatida, Tojali Yahyo turk adabiyoti tarixida "Xamsa" yaratganlardan biri bo'lib, asarini yaratishda Navoiy "Xamsa" sidan ilhomlanganligi shubhasizdir. Bundan tashqari, Usmonli shoirlar orasida "Xamsa" yartgan Hamidulla Hamdi Chalabiydir. Chalabiy "Xamsa" sining ikkinchi dostoni, arab adabiyotida keng tarqalgan, sevimli syujet bo'lgan, "Layli va Majnun" dostonidir. Hamdulla Hamdi va Alisher Navoiy dostonlarini qiyoslab o'rgangan adabiyotshunos V. Garbuzova Hamdining doston yozishiga Navoiyning ijodiy ta'siri bo'lganini aytadi. "Garchi Hamdi o'z dostonida A. Navoiyning shu dostoni bilan tanishganligi to'g'risida oshkor biror narsa aytmasa ham Hamdini Navoiyning shox asari bilan tanish bo'lgan deb taxmin qilish mumkin. Hamdi dostonidagi voqealar rivojlanadigan muhit tasviri Navoiy tasvirini juda-juda eslatadi. Bundan tashqari, Navoiy singari Hamdi ham o'z dostonida Qays (Majnun) ning telba muhabbatining ayanch tarixiga asosiy kuchni bermaydi, balki Laylining og'ir ahvolini tasvirlash orqali O'rta asrda ayollarga buyum sifatida qaralishiga qarshi norozilik bildiradi. Hamdining dostoni bu jihatdan ham e'tiborga sazovorki, u Navoiyning chinakam ta'sirini sezish mumkin bo'lgan birinchi turk masnaviysidir".

Ozarbayjon farzandi bo'lishiga qaramay, o'zbeklar orasiga singishib ketgan Maqsud Shayxzodani Navoiy merosi o'ziga jalb qiladi. Navoiygabo'lgan muhabbati uni "Navoiyning lirik qahramoni haqida" (nomzodlik dissertatsiyasi, "Navoiy lirikasining ba'zi bir poetic usullari haqida", "Ustozning san'atxonasi" (Uchta maqola e'lon qilgan), "G'azal mulkingning sultoni" kabi ishlar qilishga undagan. "Shayxzoda Sharq poetikasi muammolarini tadqiq etib, ularni Navoiy lirikasida aks etish qonuniyatlarini yoritishga harakat qiladi. U buning uchun Navoiygacha bo'lgan poetik an'analar haqida batafsil so'z yuritadi. Navoiyning bu an'analarning davom ettirish va rivojlantirishdagi xizmat hamda novatorligini adabiy estetik ko'lamda tahlil qiladi. Uayni zamonda, mumtoz she'riyatimizdan, xususan Navoiy ijodidan qanday fazilatlarni qabul qilishi lozimligi haqidagi qarashlarini ilgari suradi. Bu masalalarni yoritishda u asosan: a) Navoiyning lirik qahramoni; b) Navoiyning estetik prinsiplari; v) Navoiyning badiiy san'atlari kabi muammolarni diqqat markaziga qo'yadi. "Bundoq she'rlarda, g'azalda yagona bir mavzu va obraz bo'lmay, mavzu jihatidan bir-biriga yaqin istioralar va tashbehlar yonma-yon tizilib, umumam chiroyli va lekin voqeaband bo'lmagan asar paydo bo'lib qoladi", -deb yozadi Shayxzoda.

Chet ellik taqdiqotchilardan biri A. Kurella Navoiyning "Farhod va Shirin dostonining o'ziga tortgan jihatlarini sanab o'tadi:" Asarning tarjimonlarni o'ziga tortgan jihatidan biri tabiat manzaralari, ikkinchidan Navoiyning usta peyzaj yaratish mahorati, uchinchidan tabiat fasllaridagi tasviridagi ranglarning xilma-xilligi va ularning har birini faslga mos jilolanishi, to'rtinchidan, shoirning radif, hojib kabi bir talay badiiy san'atlardan foydalanganligidir", deydi. N.S. Banarli

Navoiy ijodining yuqori baholab, shunday soʻzlarni aytib oʻtadi “ Navoiy oʻz davri va undan soʻng ham ijodkorlar uchun ideal boʻlib qoladi. Navoiydek yozish har bir shoirning orzusi edi”. Navoiy asarlari tili boʻicha bir necha oʻnlab lugʻatlar qilingani, asarlarining hamisha el-yurt nazarida ekanligining dalilidir. Navoiy asarlarining transkripsiya tizimi ishlab chiqilsa, bu merosdan butun jahon foydalanish imkoniyati yanada kengayadi. Mana shuning oʻziyoq Navoiyning oʻlmas, asrlar osha yuksalaveradigan ijodkorligidan dalolatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayev O. Maqsud Shayxzoda -Navoiyshunos. Maqola. Oʻzbek adabiy tanqidi. Antologiya. –T., 2011. –B 280.
2. Davlatov Sh. Alisher Navoiy asarlari ingliz tilida. Bitiruv malakaviy ish. –T., 2012. –B 15.
3. Mirziyoyev A.Foniy va Hofiz // Navoiy va adabiy taʼsir masalalari. –T., 1968. – B 64.
4. Rahmonov N. Bertels –Navoiyshunos. Maqola. –T., 2020.
5. S.I Jumanova, G Mullaboyeva. Bolalarni maktab taʼlimiga tayyorlashda sharq va gʻarb allomalarining qarashlaridan foydalanish

ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA OʻRGANILISHI

*Ravshanova O.S.,
Navoiy viloyati PMM katta oʻqituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiy asarlarining jahon adabiyotidagi oʻrni, uning sheʼriyati va falsafiy qarashlari, shuningdek, uning asarlarini xorijiy tillarga tarjima qilinishi va qiyinchiliklari tahlil etilgan. Navoiy sheʼriyati, xususan, “Xamsa” asari oʻzbek va turkiy xalqlarning madaniy merosini shakllantirishda katta rol oʻynagan.

Kalit soʻzlar: Alisher Navoiy, Xamsa, Tarjima, Sheʼriyat, Adabiy meros, Falsafa, Madaniy aloqalar, Turk adabiyoti, Chet ellarda oʻrganish, Turkiya, Markaziy Osiyo.

Alisher Navoiy oʻzbek adabiyotining eng yirik namoyondalaridan biri boʻlib, nafaqat oʻz vatanida, balki xorijda ham oʻzining gʻazallari va sheʼriyati bilan mashhurdir. Uning asarlari turli davlatlar va mamlakatlarda tarjima qilinib, keng oʻqilgan va tadqiq qilingan.

Alisher Navoiy asarlari, xususan, “Xamsa” (Besh kitob) asari, oʻzbek va turkiy xalqlarning madaniy merosini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Alisher Navoiy asarlarini xorijiy tillarga tarjima qilish va chet ellarda oʻrganish nafaqat uning adabiy yuksakligini balki madaniy aloqalarini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Alisher Navoiy asarlarini tarjima qilish oʻziga xos qiyinchiliklarga ega boʻlgan. U asarlarida oʻzbek tilining nozik va rang-barang imkoniyatlaridan foydalangan. Shuning uchun uning asarlarini boshqa tillarga tarjima qilishda tilning boyligi va uning poetik xususiyatlari saqlanishi zarur edi. Tarjimonlar

Navoiy she'riyati va uning falsafiy qarashlarini tarjima qilishda katta mas'uliyatni o'z zimmlariga olgan.

Navoiy asarlari birinchi marta rus tiliga tarjima qilindi. XIX-asr oxirlarida va XX asr boshlarida rus tarjimonlari uning she'riyatini o'rganishga va tarjima qilishga qiziqish ko'rsatdilar. Rus olimlari va adabiyotshunoslari Alisher Navoiy she'riyatining nozikliklari va turkiy adabiyot rivojida o'rnini ta'kidlashdi. 1930-yillarda Navoiy asarlari fransuz, ingliz, Germaniya va boshqa Yevropa tillariga tarjima qilindi. Navoiy she'riyatining poetik mazmunini va ma'nolarini, badiiy qadriyatlarni saqlashga intildilar.

Alisher Navoiy asarlarini o'rganish chet ellarda, ayniqsa, Markaziy Osiyo va Turkiya davlatlarida davom etmoqda. XX asrning 70-80 yillaridan boshlab, Alisher Navoiy asarlari turli xalqaro ilmiy konferensiyalar va adabiyotshunoslik tadbirlarida keng o'rganilgan. Turkiyada Navoiy she'riyatiga bo'lgan qiziqish juda yuqori bo'lib, uning asarlari nafaqat tarjima qilinadi, balki ilmiy tadqiqotlar asosida tahlil qilinadi.

Alisher Navoiy asarlari faqat Markaziy Osiyoda va Turkiy xalqlarning madaniy merosi bilan cheklanib qolmay, butun dunyo adabiyotining bir qismi sifatida tan olinmoqda. Navoiyning falsafiy qarashlari, axloqiy masalalar, insoniyat va tabiat kabi mavzulari universal xarakterga ega bo'lib, boshqa millatlarning adabiy merosiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Uning asarlari, xususan "Xamsa" asari dunyo bo'ylab o'qib o'rganilmoqda, bu esa Navoiyning adabiy merosini targ'ib qilishga katta imkoniyatlar yaratmoqda.

Xulosa. Alisher Navoiy asarlarining tarjima jarayonida uning she'riyatining go'zalligi, falsafiy chuqurligi va ma'naviy merosi o'zining xalqaro e'tirofini olmoqda. Navoiyning she'riyati va nasriy asarlari inson tafakkuriga kerakli ozuqa bera oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy, Alisher. Xamsa. Tahrirlangan: Z. Mahmudov. – Toshkent: O'qituvchi, 1982.
2. Shamsiddinov, Sh. Alisher Navoiy va uning adabiy merosi. – Toshkent: Fan, 2002.
3. Valiullayev, A. Alisher Navoiy: Hayoti va ijodi. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti nashriyoti, 1997.
4. Muminov, X. Alisher Navoiy: Falsafiy va estetik qarashlari. – Toshkent: Akad. nashr, 2005.
5. Jabborov, I. Alisher Navoiy va jahon adabiyoti. – Toshkent: O'zbekiston, 2001.
6. Azimov, N. Navoiyning o'zbek adabiyotidagi o'рни. – Toshkent: Adabiyot nashriyoti, 2007.
7. Bunyodov, S. Sharq adabiyoti va Alisher Navoiy. – Toshkent: O'zbekiston, 2010.
8. Shokirov, A. Alisher Navoiy va tarjima masalalari. – Toshkent: Fan, 1999.

ДУНЁ ТАН ОЛГАН МУТАФАККИР

Усмонова Г.,

Андижон вилоят ПММ бўлими бошлиғи

Аннотация: Алишер Навоий ижоди шундай бир мусаффо булоқки, ундан ижодкорлар нафақат ҳузур, роҳат топишади, балки ўз номини ўчмасликка, абадийликка ҳам муҳрлашига сабаб бўлади. Фикримизга биргина озар шоири Фузулийнинг ижоди ҳам мисол бўла олади. XX аср адабиёти хусусида сўз кетганда ҳам мана шу кайфият, мана шу ҳамоҳанглик кўзга яққол ташланади. Эркин Воҳидов ўзининг “Шоиру шеър ушу” асарида қуйидаги фикрларни таъкидлайди: “Биз бугун Алишер Навоий номисиз ўзбек маданиятини тасаввур қилолмаймиз. Унинг нурли шеърляти, ёруғ сиймоси руҳимизга сингиб кетган. Шоирнинг юксак бадиият билан музайян бўлган, чуқур инсонпарвар ғоялар билан йўғрилган ижоди асрлар оша бизни ҳануз ўзига ром қилади, кўнгилларимизни завқу шафқ ҳамда ифтихор туйғулари билан, онгимизни эзгулик фикрати билан бойитади, бизни адолат учун, инсон қалбининг мангу эрки учун курашмоққа чорлайди”. Эркин Воҳидов тўғри таъкидлаганидек, Алишер Навоий шеърлятида буюк қудрат, қандайдир илоҳий мўъжиза яширинган. Шу боис ҳар доим ижодкорлар унинг асарларига мурожаат этар экан, бу илоҳий қудратни ҳис этиб туриши таъкидланган.

Калит сўзлар: Кишилиқ тарихи, умуминсоний ғоялар, масжид, мадраса, хонақоҳ, Ҳазоинул маоний, Ҳамса, Мажолис-ун нафоис, Махбубул қулуб, Тарихи анбиё ва ҳукамо

Кишилиқ тарихида ўзининг беназир шахсияти, умуминсоний ғояларга йўғрилган ижоди билан ўчмас из қолдирган Низомиддин Мир Алишер Навоий учун ҳам инсон шаъни, кадр-қиммати асосий бош мезонлардан бири ҳисобланган. Алишер Навоий нафақат ўзининг асарлари, яъни маънавий мероси билан, балки ўзининг давлат бошқарувидаги ва жамиятдаги мавқеи билан ҳам инсонларга ҳар томонлама хизмат қилиш, унинг учун олий кадрлят ҳисобланган. Бу ҳақида унинг ўз асарларидан тортиб унга замондош бўлган тарихчиларнинг асарларида ҳам бир қатор қизиқарли маълумотлар келтирилган. Жумладан, Алишер Навоий ўз молиявий ишларининг сарҳисоби ҳисобланган «Вақфия» асарида ўз ҳисобидан кишилар фойдаланиши учун қурилган масжид, мадраса, шифоҳона, кўприк, рабoт сингари иншоотларнинг рўйхатини келтирган. Манбаларда айтилишича, Навоий қурдирган «Халосия» хонақоҳида ҳар куни мингдан ортиқ факир мискинлар зиёфат қилинган, кийим-бош улашилган. Ўйтиборли жиҳати шуки, Алишер Навоий таъсис қилган мадрасалардаги ўқиш-ўқитиш тизимининг баъзи ўзига хос жиҳатлари, олимлар ва талабарга тўланидиган нафақа ва маошлар ҳақида унинг «Вақфия» асарида маълумот берилган. Унда айтилишича, мадрасадаги ҳар бир дарс ҳалқаси (поток)да ўн биттадан толиби илм таҳсил олган, улар ўзлаштиришларига қараб уч табақага – аъло, васат (ўрта) ва адно (қуйи)га бўлинган ва шу мезон асосида уларга нафақа

(стипендия) тайинланган. Бу айти вақтдаги университет тизимига жуда ўхшайди.

Ҳеч қайси бир ижод ўзидан олдинги анъаналарга айланган асарларни ўрганмасдан, ундан озикланмасдан туриб такомилга ета олмайди. Айтиқса, сўз – буюк мумтоз шоири ҳазрат Навоий хусусида кетганда, бу фикрга яна бир бор амин бўлиш мумкин бўлади. Унинг асарларига бўлган муносабат эса бир неча асрлардан буён издошлик ҳамда ҳамнафаслик даражасидадир. Ижодкор қайси бир даврда яшамасин, албатта қайта-қайта Алишер Навоий асарларига мурожаат этаверади. Алишер Навоий ижоди шундай бир мусаффо булоқки, ундан ижодкорлар нафақат ҳузур, роҳат топишади, балки ўз номини ўчмасликка, абадийликка ҳам муҳрлашига сабаб бўлади. Фикримизга биргина озар шоири Фузулийнинг ижоди ҳам мисол бўла олади. XX аср адабиёти хусусида сўз кетганда ҳам мана шу кайфият, мана шу ҳамоҳанглик кўзга яққол ташланади. Эркин Воҳидов ўзининг “Шоиру шеър шуур” асарида қуйидаги фикрларни таъкидлайди: “Биз бугун Алишер Навоий номисиз ўзбек маданиятини тасаввур қилолмаймиз. Унинг нурли шеърияти, ёруғ сиймоси руҳимизга сингиб кетган. Шоирнинг юксак бадиият билан музайян бўлган, чуқур инсонпарвар ғоялар билан йўғрилган ижоди асрлар оша бизни ҳануз ўзига ром қилади, кўнгилларимизни завқу шафқ ҳамда ифтихор туйғулари билан, онгимизни эзгулик фикрати билан бойитади, бизни адолат учун, инсон қалбининг мангу эрки учун курашмоққа чорлайди”. Эркин Воҳидов тўғри таъкидлаганидек, Алишер Навоий шеъриятида буюк қудрат, қандайдир илоҳий мўъжиза яширинган. Шу боис ҳар доим ижодкорлар унинг асарларига мурожаат этар экан, бу илоҳий қудратни ҳис этиб туришади. Унинг сўз ганжаси олдида эса, сўз, фикр айтмоқликка куч топа олиш зарур бўлади.

Алишер Навоий икки тилда мукаммал ижод қилган. Туркий тилда “Навоий”, форсий тилда эса “Фоний” тахаллусларини қўллаган.

Алишер Навоийнинг адабий ва илмий меросини 4 фаслга бўлиш мумкин: 1. Девонлари. 2. Достонлари. 3. Форсий тилдаги шеърий мероси. 4. Илмий-филологик, насрий ва тарихий асарлари. Алишер Навоийнинг ўзбек тилида яратган шеърий мероси асосан “Ҳазойин ул-маоний” девонига жамланган. Асар 4 қисмдан иборат. Девоннинг биринчи қисмига “Ғаройиб ус-сиғар” (“Болалик ғаройиботлари”), иккинчи қисмига “Наводир уш-шабоб” (“Йигитлик нодиротлари”), учинчи қисмига “Бадоеъ ул-васат” (“Ўрта ёш бадиалари”) ва ниҳоят, тўртинчи қисмига “Фавойид ул-кибар” (“Кексалик фойдалари”) деган номлар берилди. “Ҳазойин ул-маоний” инсон боласининг мураккаб ва юксак тафаккури ҳамда беҳисоб ҳис-туйғулари билан боғлиқ мингларча шеър ва ўнларча шеър турларини ўз ичига олган мажмуа бўлиб, Шарқ адабиёти тарихида ноёб ҳодисадир. Бу хил мажмуа Алишер Навоийга қадар Амир Хисрав Дехлавий томонидангина тузилган. Ушбу девонга кирган мингларча шеърларни Алишер Навоий бутун умри давомида турли шароитларда, ҳар хил сабаблар билан ёзган бўлиб, улар шоир ҳаёти ва у яшаган давр билан сонсиз-саноксиз иплар орқали боғланган. Алишер Навоий

“Хазойин ул-маоний” га қадар “Илк девон”, “Бадоеъ ул-бидоя”, “Наводир ун-нихоя” девонларини тузган. “Хазойин ул-маоний” ана шу 3 девонга кирган ҳамда “Наводир ул-нихоя” тузилгандан кейин ёзилган шеърлар асосида юзага келган. “Хазойин ул-маоний” даги 4 девоннинг ҳар бирида 650 тадан 2600 ғазал, умуман 4 девонда 210 қитъа, 133 рубой, 86 фард, 52 муаммо, 13 туюқ, 10 мухаммас, 10 чистон, 5 мусаддас, 4 таржеъбанд, 4 мустаод, 1 мусамман, 1 таркиббанд, 1 қасида, 1 маснавий, 1 соқийнома мавжуд бўлиб, Шарқ шеърятининг 16 тури намоёндыр.

1472-1476-йилларда биринчи девони “Бадоеъ ул-бидоя” (“Бадийлик ибтидоси”) девонини шоҳ амри ва истаги билан ўзи китоб қилади. Мазкур девон 777 ғазал, 85 рубой, 52 муаммо, 46 қитъа, 53 фард, 10 туюқ, 10 луғз, 3 мустаод, 5 мухаммас, 3 таржеъбанд, 2 мусаддасдан таркиб топган.

Алишер Навоий бутун ижоди давомида турли жанр ва йўналишларда салмоқли ижод қилган. Насрда ҳам, назмда ҳам етук асарлар яратган. Насрда Навоий асосан ижтимоий-сиёсий, ахлоқий-таълимий ва илмий-фалсафий, иқтисодий йўналишларда қалам тебратган.

Йиллар Асарлар

1499 й. “Лисон ут-тайр“

1488 й. “Тарихи мулки аҷам“

1499 й. “Муҳокамат ул-луғатайн“

1489 йилдан сўнг “Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер”

1492 й. “Ҳамсат ул-мутаҳаййирин“

1493 йилдан сўнг “Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад“

1498 й. “Хазойин ул-маоний“

1485 йилдан сўнг “Тарихи анбиё ва ҳукамо“

1491—1492, 1498-1499 й. “Мажолис ун-нафоис“

1500 й. “Маҳбуб ул-қулуб“

Ушбу асарлар мутафаккирнинг йирик асарларидир. Улар турли йилларда, турли йўналишларда ёзилган. Навоийнинг бу қадар кенг қамровда қалам тебратганидан шуни билиш мумкинки, у нафақат шоир, балки олим, яъни тилшунос, адабиётшунос, тарихчи ва файласуф сифатида жаҳон маънавиятига улкан ҳисса қўшган.

Алишер Навоий форс тилида ҳам 12 минг мисрадан ортиқ шеър, муаммо жанри ҳақида "Муфрадот" рисоласи, "Ситтаи зарурия", "Фусули арбаа" туркум қиссаларини яратган, “Девони Фоний” девонини тузган. Бу асарлар шоирнинг Ҳоконий, Саъдий, Абдурахмон Жомий каби форс адабиётининг етук намоёндалари билан кечган ижодий баҳсларида туғилган. Мазмунда, бадий ифодада Навоийнинг асарлари устозлариникидан қолишмайди. Жумладан, Навоий Абдурахмон Жомийни ўзининг устози, ҳаммаслаги сифатида чуқур ҳурмат қилган. Жомий “Баҳористон” асарида шогирди Навоий ҳақида жумладан шундай дейди: “...туркий тилда ҳеч ким Навоийдек кўп ва хўп шеър айтмаган ҳамда назм гавҳарларини сочмаган эди”.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Алишер Навоий хикматлари Х.Даврон 1998й

2. Қ.Куронбоев. А.Навоий 1997 й
3. А.Навоий ва қозоқ адабиёти 2001й

ALISHER NAVOIY ASARLARINING CHET ELLARDA O'RGANILISHI

*Berdiyeva R.A.,
Xolova N.S.,*

Navoiy shahar 6-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilari

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlarining chet ellarda o'rganilishi masalasi ko'rib chiqiladi. Navoiy asarlari nafaqat o'zbek adabiyotining, balki jahon adabiyotining ajralmas qismiga aylangan bo'lib, uning ijodi turli mamlakatlarda o'rganilib, ilmiy tadqiqotlarda o'z o'rnini topgan. Maqolada, Navoiy asarlarining tarjimai, xalqaro ilmiy tadqiqotlar, uning adabiy va falsafiy g'oyalari hamda dunyo miqyosidagi ahamiyati yoritiladi. Navoiy merosining dunyo miqyosida targ'ib qilinishi, uning asarlariga bo'lgan qiziqishni yanada oshirib, xalqaro madaniyatga qo'shgan hissasini kuchaytiradi. Shu bilan birga, maqolada Navoiy asarlarini o'rganish jarayonida ilmiy muassasalar va universitetlarning roli ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, chet elda o'rganish, tarjima, jahon adabiyoti, ilmiy tadqiqotlar, adabiy g'oyalar, ma'rifat, falsafa, xalqaro madaniyat, o'zbek adabiyoti.

Alisher Navoiy — nafaqat o'zbek adabiyotining buyuk namoyandasi, balki jahon adabiyotida ham muhim o'rin tutgan shoir va mutafakkirdir. Uning asarlari o'zining ma'rifiy, falsafiy va estetik boyligi bilan dunyoning ko'plab mamlakatlarida o'rganilmoqda. Navoiy asarlarining chet ellarda o'rganilishi nafaqat uning adabiy merosini, balki uning xalqaro madaniyatdagi o'rnini yanada kengaytirish va baholash imkonini yaratadi. Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarining chet ellarda o'rganilishi, uning xalqaro adabiyotdagi o'rni va uning g'oyalari asosida olib borilayotgan tadqiqotlar ko'rib chiqiladi.

1. Alisher Navoiy va jahon adabiyoti

Alisher Navoiy - jahon adabiyotining ajralmas qismiga aylangan buyuk shoiridir. Uning "Xamsa" asari, faqat o'zbek adabiyoti uchun emas, balki turkiy va umuman jahon adabiyoti uchun katta ahamiyatga ega. Navoiy o'z asarlarida insoniyatning umumiy qadriyatlarini ilgari surgan, ma'rifatparvarlik, ma'naviyat va ilmni ulug'lagan. Uning asarlarida turkiy xalqlarning madaniyati, tarixi va hayotini aks ettirish bilan birga, umumiy insoniyat merosi haqida gap boradi. Navoiy o'z davrida adabiyotning barcha turlarida o'zining noyob yondashuvini namoyish etgan. Bu g'oyalar uning asarlarining dunyo miqyosida qiziqish uyg'otishiga sabab bo'lgan.

2. Chet ellarda Navoiy asarlarini o'rganish tarixi

Alisher Navoiy asarlarining chet ellarda o'rganilishi XIX asrning oxirlarida va XX asrning boshlarida boshlangan. Dastlab, Navoiy asarlari rus tilida tarjima qilindi, bu esa uning ijodini Rossiya va boshqa slavyan xalqlari orasida mashhur

qilishga yordam berdi. XX asrning ikkinchi yarmida, ayniqsa, O'zbekistonda mustaqillikning e'lon qilinishi bilan Navoiy asarlariga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Mustaqillikdan so'ng, Navoiy merosini dunyo bo'ylab o'rganish va targ'ib qilish jarayoni tezlashdi.

Chet ellarda Navoiy asarlarini o'rganishda yirik ilmiy muassasalar, universitetlar va ilmiy markazlar muhim rol o'ynadi. Jumladan, Turkiyada, Qozog'istonda, Eron va Afg'onistonda, shuningdek, Yevropa va AQShda uning asarlari ilmiy doiralarda keng o'rganilmoqda. Navoiy asarlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va monografiyalar, maqolalar, dissertatsiyalar chop etilgan.

3. Navoiy asarlarining chet ellarga tarjimasi

Navoiy asarlarini chet ellarda o'rganishning eng muhim omillaridan biri uning asarlarini boshqa tillarga tarjima qilishdir. Alisher Navoiy asarlari, ayniqsa, "Xamsa" va "Mahbubul-qulub" kabi mashhur asarlari, ko'plab tillarga tarjima qilindi. Bu tarjimalar orqali Navoiy ijodi nafaqat turkiy tilni biladigan xalqlarga, balki butun dunyoga tanildi. Uning asarlari ingliz, rus, fransuz, arab, turk va boshqa tillarga tarjima qilinib, ko'plab ilmiy va adabiy tadqiqotlarga asos bo'ldi.

Tarjima jarayoni Navoiy ijodini chuqurroq tushunishga, uning she'riyatining til va uslubini tahlil qilishga imkon yaratdi. Ayniqsa, turk va arab tillariga tarjima qilishda uning diniy-falsafiy g'oyalari va ma'rifatparvarlik qarashlari alohida e'tiborni tortadi. Navoiy asarlarining tarjimasi orqali uning g'oyalari nafaqat adabiyotda, balki falsafa va psixologiya sohalarida ham keng yoritildi.

4. Xalqaro tadqiqotlar va navoiy asarlarining ahamiyati

Alisher Navoiy asarlarining chet ellarda o'rganilishi nafaqat uning adabiy merosini targ'ib qilish, balki ularning ilmiy va madaniy ahamiyatini yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi. Navoiy asarlaridagi ma'rifat, ilm, axloq, insoniyat qadriyatlari kabi universal g'oyalar dunyoning turli burchaklarida o'rganilmoqda. Navoiy falsafasi va uning ma'rifiy g'oyalari hozirgi kunda ko'plab ilmiy konferensiyalar, simpoziumlar va seminarlarning mavzusiga aylangan.

Shuningdek, Navoiy asarlarining chet ellarda o'rganilishi, uning adabiy uslubini tahlil qilish, she'riyatdagi mazmun va shakl o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash, uning tilshunoslik, psixologiya va pedagogika sohalariga qo'shgan hissasini yoritishga yordam beradi. Bu ilmiy tadqiqotlar yordamida Navoiy asarlari, nafaqat adabiyotshunoslar, balki falsafa, psixologiya va sotsiologiya olimlari uchun ham qiziqarli bo'lmoqda.

5. Bugungi kun va kelajakda navoiy asarlarining o'rganilishi

Hozirgi kunda Alisher Navoiy asarlari xalqaro ilmiy jamoatchilik tomonidan keng o'rganilmoqda. Birinchi navbatda, uning asarlarini tahlil qilishda adabiyotshunoslar, tarjimonlar va pedagoglar katta rol o'ynaydi. Xususan, O'zbekistonda va dunyoning boshqa mamlakatlarida Navoiy asarlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy va madaniy tadbirlar ko'p miqdorda o'tkazilmoqda. Bunday tadbirlar orqali, uning g'oyalari nafaqat o'zbek, balki jahon miqyosida ham dolzarb bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiy asarlarining chet ellarda o'rganilishi nafaqat uning ijodini dunyoga tanitish, balki uning xalqaro madaniyatdagi o'rnini

yuksaltirishga xizmat qiladi. Uning asarlari barcha xalqlar uchun insoniyatning umumiy qadriyatlarini o'zida mujassamlashtirgan, ma'rifatparvarlik g'oyalarini ilgari surgan va xalqaro madaniyatning boyligini to'ldirgan asarlardir.

ALISHER NAVOIY VA UNING MUSIQA HAQIDAGI QARASHLARI

Mamuriva M.A.,

Shanazarova N.X.,

Navoiy shahar 6-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchilari

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiyning musiqa haqidagi qarashlari tahlil qilinadi. Navoiy musiqa san'atini nafaqat estetik, balki ma'naviy va axloqiy tarbiya vositasi sifatida ko'rgan. U musiqa va adabiyotning o'zaro bog'liqligini ta'kidlab, musiqa orqali insonning ruhini yuksaltirish va uning ma'naviyatini boyitish zarurligini qayd etgan. Navoiy asarlarida musiqaning axloqiy, estetik va diniy jihatlar alohida o'rin tutadi. U musiqa va san'atni insoniyatning ruhiy tarbiyasiga ta'sir qiluvchi kuch sifatida baholagan. Ushbu maqolada, Navoiyning musiqa haqidagi qarashlari va uning adabiyot va san'atdagi o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, musiqa, san'at, axloq, ma'naviyat, estetik, tarbiya, adabiyot, sufizm, musiqa nazariyasi.

Alisher Navoiy — nafaqat buyuk shoir, balki o'z davrining ilg'or mutafakkiri, ma'rifatparvari, madaniyatshunosi va ilm-fan tarafdori sifatida ham tanilgan. Uning asarlarida jamiyatni ilg'or g'oyalar bilan rivojlantirish, odamlar orasida axloqiy tuzilmalarni shakllantirish va madaniyatni yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilgan. Navoiy o'zining musiqa haqidagi qarashlarini ham adabiyot, falsafa va umumbashariy qadriyatlar bilan bog'lagan. U musiqa va san'atni insoniyatning ruhini tarbiyalovchi, uning ma'naviyatini boyituvchi kuch sifatida ko'rgan. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning musiqa haqidagi qarashlari va uning musiqaga bo'lgan munosabati tahlil qilinadi.

1. Musiqa va uning ruhiy ta'siri

Alisher Navoiy musiqa san'atining inson ruhiyatiga ta'siri haqida chuqur mulohazalar bildirgan. U musiqa va adabiyotning bir-birini to'ldiruvchi san'at turlari ekanligini ta'kidlagan. Navoiy o'z asarlarida, ayniqsa, she'riyatida musiqa elementlariga, ritmga, ohangga katta e'tibor qaratgan. Uning nazarida musiqa inson qalbini anglashda va uni tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Navoiy, musiqa ruhni oshiruvchi va uni poklovchi kuch sifatida ko'rgan. Uning "Mahbub ul-qulub" asarida musiqaning ruhiy, hissiy va axloqiy jihatlariga alohida urg'u beriladi.

2. Musiqaning estetik va ma'naviy ahamiyati

Navoiy musiqa san'ati nafaqat estetik, balki ma'naviy ahamiyatga ham ega ekanligini ta'kidlagan. Musiqa, uning fikricha, insonning ichki dunyosini anglashda, uning ruhini yuksaltirishda yordam beradi. Navoiy o'z asarlarida musiqa orqali insonni yaxshi va yomonni ajratishga, uning axloqiy mas'uliyatini

tushunishga yo'naltirishni maqsad qilgan. Musiqaning estetik go'zalligi va ma'naviy qiymati o'z asarlarida o'z aksini topgan.

3. Musiqa va sufizm

Alisher Navoiy sufiylik g'oyalarini chuqur o'rgangan va ularning ma'rifiy qarashlariga katta e'tibor qaratgan. Sufizmda musiqa, ayniqsa, naqshbandiya va mevleviya tariqatlarida ruhni tozalovchi va uni ilohiy haqiqatlarga yaqinlashtiruvchi vosita sifatida muhim o'rin tutadi. Navoiy, o'zining sufiylik qarashlarini asarlarida ifodalagan holda, musiqa va ruhiy rivojlanishni bir-biri bilan bog'lagan. Musiqa, uning nazarida, insonni Allohga yaqinlashtiruvchi bir vosita, qalbni poklovchi va ruhi pok bo'lgan insonlarni tarbiyalovchi kuchdir. Navoiy musiqa orqali insonni nafaqat dunyoviy baxt, balki ruhiy yuksalishga erishishga undagan.

4. Musiqani tarbiya vositasi sifatida ko'rish

Navoiy musiqa va san'atni tarbiya vositasi sifatida ham ko'rgan. U musiqa orqali insonning axloqiy tarbiyasini mustahkamlashni, unga to'g'ri yo'lni ko'rsatishni o'ylagan. Musiqa, shuningdek, jamiyatdagi odamlar orasida o'zaro tushunishni va do'stlikni rivojlantiruvchi vosita sifatida ham ifodalangan. Uning fikricha, musiqa odamlarning qalbini poklaydi, ularga muhabbat va mehr-oqibatni tarqatadi. Bu g'oya Navoiy asarlarida to'liq shakllangan va uning ta'limotining asosiy prinsiplari bilan bir-birini to'ldirgan.

5. Alisher Navoiy va musiqa nazariyasi

Navoiy musiqa nazariyasi va uning tuzilishini, uning shakl va ritmini chuqur o'rganmagan bo'lsa-da, musiqaning umumiy rolini va uning insoniyat hayotidagi o'rnini yaxshi tushungan. U musiqa bilan bog'liq estetik va axloqiy qarashlarni shakllantirgan. Musiqa, uning fikricha, hayotning go'zalligi va ma'nosini ifodalovchi muhim vosita sifatida xizmat qilgan. Shu sababli, Navoiy musiqa san'atini nafaqat estetik, balki ma'naviy jihatdan ham nihoyatda muhim deb bilgan.

Xulosa. Alisher Navoiy musiqa va san'atni o'zining ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan uyg'unlashtirgan. Musiqaning inson ruhiyatiga ta'siri, uning estetik va ma'naviy ahamiyati Navoiy asarlarida muhim o'rin tutadi. U musiqa san'atini nafaqat axloqiy, balki diniy va ruhiy tarbiya vositasi sifatida ham qabul qilgan. Navoiy musiqa va san'at orqali insonni yuksaltirish, unga ma'naviy boylik bag'ishlashni o'ylagan va bu g'oyalar uning asarlarida keng yoritilgan. Uning musiqa haqidagi qarashlari bugungi kunda ham dolzarb bo'lib qolmoqda, chunki musiqa va san'atning inson hayotidagi o'rni haqida bildirgan fikrlarining ahamiyati zamonaviy jamoada ham katta.

EXPLORATION OF NAVOI'S WORKS ABROAD

*Hodiyeva Yu.Yu.,**Navoi Region Methodical Service Department**English Language Methodologist*

Annotation: As a great poet, thinker, and statesman of the Uzbek and other Turkic peoples, Navoi is revered in both the East and the West. He lived and received education in a blessed abode from his youth. Currently, the study of Alisher Navoi's works is becoming increasingly popular abroad. Our ancestor Navoi is loved and studied not only in the East but also in the West. Because his works do not discriminate by time, place, age, or nationality.

Keyword: Navoi's work, Western literature, aruz, translation, word, literature, perfection, "Lison ut-tayr", Turkic people.

Annotation: Navoiy o'zbek va boshqa turkiy xalqlarning buyuk shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi sifatida Sharqda ham, G'arbda ham hurmatga sazovor. U yoshligidan muborak maskanda yashab ta'lim olgan. Hozirda Alisher Navoiy asarlarini o'rganish xorijda tobora ommalashib bormoqda. Bizning ajdodimiz Navoiy nafaqat Sharqda, balki G'arbda ham seviladi va o'rganiladi. Chunki uning asarlari vaqt, joy, yosh yoki millatga qarab kamsitmaydi.

Kalit so'z: Navoiy ijodi, G'arb adabiyoti, aruz, tarjima, so'z, adabiyot, mukammallik, "Lison ut-tayr", turkiy xalq.

Аннотация: Как великого поэта, мыслителя и государственного деятеля узбекского и других тюркских народов Навои почитают как на Востоке, так и на Западе. С юности он жил и получал образование в благословенной обители. В настоящее время изучение произведений Алишера Навои приобретает все большую популярность за рубежом. Нашего предка Навои любят и изучают не только на Востоке, но и на Западе. Потому что в его работах нет различий по времени, месту, возрасту или национальности.

Ключевые слова: творчество Навои, западная литература, аруз, перевод, слово, литература, совершенство, «Лисон ут-тайр», тюркские народы.

Introduction.

Alisher Navoi was born in Herot on February 9, 1441. The study of Navoi's life and work began during his lifetime. For example, in the work "Majolis un-nafois" it is given which historians, scientists, poets and emirs he met and interviewed. Navoi was the nightingale of his time, the keeper of the treasury of words and the sultan of the word of his time. It is revealed that from a young age, he came to the attention of Yazdi, a well-known historian of the time, and learned a lesson about aruz from Darvesh Mansur. Navoi has always lived alive in his works and the works of his contemporaries. Indeed, Navoi's only work "Khamsa" is a masterpiece both then and today. The most remarkable work that Navoi wrote in Turkey is "Khamsa". Navoi wants to create in his works the image of a "perfect person". In our opinion, Navoi himself is worthy of perfection, because we believe that his greatness was when he wrote his greatest work "Khamsa" in Turkish,

living in the Persian-Tajik language environment. In this regard, the image of Navoi itself occupies a central place not only in the literature and oral works of the Uzbek people, but also in the literature and folklore of the Tajik Turkmen peoples. For example, in Turkmen folklore, Alisher Navoi was interpreted as Mirali, Hussein Boykaroni Sultan Suyun, and the image of Guli was interpreted as Gul. But all this is not true, because certain areas are changed or removed as they pass from people to people, from mouth to mouth. There is another reason why every nation can adapt to its dialect or nationality. It is for this reason that all the works of Navoi fell into the eyes of foreign scientists. ⁴⁶ We can say that Alisher Navoi made a great reference in literature for the present day. Because, having interpreted a single work of his, we penetrate the vast networks of the imagination. That is why the Western world's interest in the work of Alisher Navoi continues. A drop of Navoiy's creativity has been discovered by a foreigner who cannot hide his amazement. He wants to quickly inform his contemporaries about Navoiy and translate him into his native language. Representatives of Western culture who have encountered Navoiy's ghazals acknowledge him as a poet of high, inimitable creativity. American Islamic scholar Barry Hoberman, in his article titled "Chaucer of Turks" published in "Saudi Aramco World" magazine, recognizes Navoiy as one of the founders of the Eastern Renaissance. Based on the lectures read at the symposium of the Free University of Germany, in Z. Kleinmichel's 300-page article titled "Navoiy-benavo" included in the collection "Mir Alisir Nawai", it is impossible to place the amazement from Navoiy's work within a single article. Based on Navoiy's Sab'ai sayyor work, the American orientalist Richard Boyle, who studied the 1557 Italian work *The Three Princes of Serendip* by Michael Tramezzino, which has been repeatedly translated into several world languages, calls this work a masterpiece of the European Renaissance. Having come to Uzbekistan and studied the works of Alisher Navoiy, and translated his *Lison-ut-tayr* into English, the Canadian Harry Dik describes Navoiy as the gardener of the heart's garden that can save the world from spiritual decline. In recent years, foreign scholars have been translating and publishing Navoiy's works one after another. Among these are the Polish translator of Navoi's ghazals, Yanush Kijiovskiy, the Ukrainian translator, and the poet Nikolay Bajanning's translations of the epic "Farhod va Shirin". However, this is just a preface to the great poet's work. The ranks of brave Uzbek translators translating Navoi's ghazals into English are expanding, particularly A'zam Obidov, Qosimboy Ma'murov, Dinara Sultonova, and Aida Bumatova. However, the translations made now should undergo foreign editorial review, be published as a collection, and most importantly, they should be promoted to foreign countries. Indeed, Uzbek translation scholars can assess whether the meaning and artistry of the original ghazals have been recreated in translation, but only the native speakers of the target language can give the fairest judgment on the fluency of the translation and its readability for foreign receptors. Last year, a book titled "Twenty one Ghazals by Alisher Navoi" was published in December 2016 by Cervena Barva Press in the USA, translated by Denis Deli, a literary scholar, writer, and poet residing in

Salem, Massachusetts. This modest collection is the author's fifth book, and Denis Deli, who has been editing for many prestigious newspapers and publishers, is now also publishing artistic works and translations as a creator and translator. The collection was met with great interest by foreigners. It is known that Alisher Navoi's ghazals exhibit a variety of artistic imagery. If you encounter subtexts and some of the multiple images in literal translations, the translations have turned out to be very readable, and most importantly, foreigners are discovering Navoi, and his poetry is becoming appealing to them through these translations. I believe that to deeply study Navoi's works, a strong philosophy and science of mysticism are necessary. To comprehend the works, one must first be aware of inner knowledge, metaphorical and true love. In Navoi's works, he created the image of perfection and the perfect human, and in a certain sense, illuminated the path of the mystical order. This very thing has caught the attention of foreign scholars and is causing research. According to Professor Najmiddin Komilov, the essence of Navoi's works is centered on moral lessons and perfection. The reason is that regardless of age, a person develops a love for Navoi's work. For example, we know that the work "Mahbub ul-qulub" encourages a person towards good manners and education, and it serves to nurture both the spiritual and moral aspects of a person. The work highlights the importance of self-examination, recognizing one's mistakes and shortcomings, and emphasizes that morality is a person's valuable garment. Foreign scientific studies show that Navoi's poetry and prose works are able to provide the necessary nourishment to human thought.

References:

1. Atakhanovna, Y. G. (2020). ON THE CREATION OF EDUCATIONAL CONTENT AND THE PECULIARITY OF ITS USE FOR MISCELLANEOUS LEARNING IN THE LESSONS OF THE UZBEK LANGUAGE. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 9(2), 58-65.
2. Abdurakhimova, D. K. (2014). PREREQUISITES FOR THE TRANSITION OF TRADITIONAL BANKS TO DIGITAL BANKING. The Way of Science, 23.
3. Бекниязов, Б. К. (2021). Концепт «кость» в языке казахов Каракалпакстана. In НАУКА В СОВРЕМЕННОМ МИРЕ (pp. 346-350). 48
4. Bekniyazov, B. K. (2022). Effectiveness of "Resume" Technology in Forming the Knowledge of Students. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding, 9(11), 210-213.
5. Bekniyazov, B. K. (2021). Linguocultural peculiarities of the concept "eye" in phraseological units in the language of the kazakhs of Karakalpakstan. ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL, 11(1), 673-678.
6. Iriskulov, A., Aslanov, A., & Subhonova, A. (2021). WHY DO WE NEED A GLOBAL LANGUAGE?. Збірник наукових праць ЛОГОΣ.

A NAVOIY'S POEMS AS EXTRA-CURRICULAR ACTIVITIES FOR SCHOOLCHILDREN

*Erkaboyeva S.Yu.,
a senior teacher, Andijon Pedagogical Mastery Center*

Annotation. In this work using poems of the great poet of Uzbek literature Alisher Navoi as extra-curricular activities for secondary schoolchildren will be discussed in details. Some strategies to create effective extra-curricular activities will be suggested for secondary school English teachers.

Key words: extra-curricular activities, poems, effective strategies in language teaching

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek adabiyotining buyuk shoiri Alisher Navoiy g'azallaridan umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun sinfdan tashqari mashg'ulotlar sifatida foydalanish haqida batafsil to'xtalib o'tiladi. O'rta maktab ingliz tili o'qituvchilari uchun darsdan tashqari samarali mashg'ulotlarni yaratish bo'yicha ba'zi strategiyalar taklif etiladi.

Tayanch so'zlar: sinfdan tashqari ishlar, she'rlar, til o'rgatishda samarali strategiyalar

Аннотация. В данной работе подробно рассматривается использование газелей великого поэта узбекской литературы Алишера Навои в качестве внеклассной деятельности учащихся общеобразовательных школ. Предлагаются некоторые стратегии создания эффективной внеклассной деятельности для учителей английского языка в старших классах.

Ключевые слова: внеклассная деятельность, стихи, эффективные стратегии в преподавании языка.

The President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev emphasizes that the main pillar of the new Uzbekistan will be knowledge, education and upbringing. Knowledge, education and upbringing are the future of the people. In the current era of rapid development, it is impossible for us to imagine our lives without digital technologies and the digitization of every aspect. The process of education and upbringing are no exception. If we want to ensure that today's educational process is the same as in developed countries, then we will definitely need to introduce digitization and the use of new modern technologies into education. As we know nowadays most secondary school English teachers in Uzbekistan have challenges to take accountability on their own teaching and learning. It's because they are too overloaded, or they don't know how to do it. So they can have challenges in teaching kids through modern and innovative technologies which are appropriate to the modern world and nowadays generation. If secondary school teachers involve digital technology in their teaching process it will be easy for them to teach children. The majority English teachers have some challenges in organizing extra-curricular activities. Extra-curricular activities can increase the growth and personal development of the learners. According to St. Nicolas School extra-curricular activities are important in learners' lives as they

offer valuable opportunities for fostering learner autonomy, personal growth and preparation for future life.

Now we want to share here an example for organizing extra-curricular activity with using poems of the great poet A Navoiy for developing personal growth of the learners.

It is clear that Navoi's poems about homeland and taking care of the motherland are not only the experiences of a person of that time, but also an example and role model for today's generation. Dealing with Navoi's poetry greatly contributes to enriching the inner world and spirituality of the readers.

Teachers can integrate a digital technology into language teaching. For their extra-curricular activities they can ask learners to use ChatGPT for translating the poems of A Navoi into English. Let's take as an example the following poem:

G'urbatda g'arib shodumon bo'lmas emish,
El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish.
Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa,
Bulbulg'a tikandek oshiyon bo'lmas emish.

Teachers can ask the learners work independently and use the AI and translated the poem into English. The AI generated translation of the poem into English can be in this way.

In a foreign land, a stranger finds no joy,
No one there is kind or full of warmth.
Even if a red rose blooms in a golden cage,
For the nightingale, it feels like thorns in its nest.

Learners can find out the meaning of the poem in easy way through reading colorful techniques of poetry including stylistic devices as metaphors or simile. The beautiful lines about the sorrow of being away from home and the feeling of isolation or abundance despite external luxuries are described skillfully. Learners can notice how the poet is making a play on words. Today's generation can accept lot of notions in different ways as they are Z-generation. As an example understanding "love" can be different from their ancestors' findings. So why not to compare nowadays thoughts and believes about love with the old times and see some lines how Navoi expressed his thoughts on this topic.

Gar oshiq esang mehru vafo qilma havas,
Dard istayu dardig'a qilma havas.
Hijronu visol mutlaqo qilma havas,
Dildoringdan g'ayru rizo qilma havas.
If you are a true lover, do not desire mere affection and loyalty,
Seek only pain, but do not long for its cure.
Do not crave either separation or union,
Desire nothing but the consent of your beloved. (Chat GPT translation)

Another masterpiece by A.Navoi on the depth of devotion in love can be conveyed in the lines. These lines can stop the young generation for a deep thinking. They can do critical thinking on Love. School teachers can organize Readers's Club or Translator's Club for the school children. In the Club activities

they can do pre, while and post activities with using Alisher Navoi's poems in the following ways:

Activating learners' background knowledge about Alisher Navoi's poetry and working with the vocabulary of the poems can be used as pre activity. Teachers can use KWL organizers or WordWall for these activities.

Know Want Learnt

1. I know that Alisher Navoi was a poet who wrote inTurkic language.
2. I want to learn how he described Motherland and Love in his poems.
3. I learnt that Love can be much more than I think. Love is understanding, accepting someone or something as he/it is in a real life and staying together and being together mentally forever.

While activities can be a discussion or talking deeply about some lines or phrases. With the help of the Artificial Intelligence teachers can ask learners to paraphrase poems and use them in their discussions. "What did a poet want to say by this word? Why did he use it?" such leading questions can be used for hot discussions. Teachers can give some example phrases for expressing learners' ideas in the debates:

"In my humble opinion, Alisher Navoi wanted to highlight.....

If we talk this side of the issue, it will be better not to forget about.... and etc.."

As post activities secondary school teachers can ask their learners to prepare their role plays or performances. The learners can prepare or make their own products like poems, posters, booklets and brochures.

References:

1. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
2. <https://adiblar.gitbook.io/adiblar/ruboiylar/untitled>
3. <https://stnicholas.com.br/en/blog/extracurricular-activities-what-they-are-and-how-to-insert-them-in-school/>
4. <https://chatgpt.com/c/67ae88-74f4-8008-af92-77818ee2c78c>

3-SHO'BA: TA'LIM TIZIMIDA NAVOIY ASARLARINI O'QITISH MUAMMOLARI

ALISHER NAVOIY IJODIDA O'QITUVCHI-MURABBIYNING O'RNI

Salayev J.K.,

Xorazm viloyati PMM direktori, iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Turon akademiyasining faxriy professori

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning shaxs kamolotida ta'lim-tarbiyaning roli va ahamiyati haqida fikr bildirilgan. O'qituvchi-murabbiy faoliyati, uning kasbiy va shaxsiy sifatleri e'tirof etilgan bo'lib, ishda asosiy o'rganish obyekti sifatida "Mahbub ul-qulub" asari olingan.

Tayanch tushunchalar: ustoz-murabbiy, komillik, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, ma'rifat, barkamol inson, shaxs kamoloti, maktab, ma'naviy meros.

Аннотация. В статье обсуждается роль и важность образования в совершенстве человека на примере произведениях мыслителя Алишера Навои. В данной работе изучаются деятельность учителя, его профессиональные и личные качества, которые были использованы как предмет исследования произведения А.Навои «Махбуб ул –кулуб».

Ключевые слова: учитель-наставник, совершенство, наука и образование, воспитание, просветительство, совершенный человек, совершенство личности, школа, духовное наследие.

Annotation. In article is discussed the role and importance of education in human perfection by the example of the works of the thinker Alisher Navoi. In this paper is learned the work "Mahbub ul -kulub", as a subject of research of his activity, professional and personal qualities.

Supporting concepts: teacher-mentor, perfection, science and education, education, enlightenment, perfect man, perfection of personality, school, and spiritual heritage.

O'tmishdagi buyuk mutafakkirlarning dono fikrlari, o'g'itlari, tafakkur mevalari, ijodiy yutuqlarini o'rganish xalqimizning ma'naviy dunyosini kengaytirish bilan bir qatorda, yosh avlodning barkamol inson bo'lib yetishishida muhim vositalardan biri sanaladi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Sharq murafakkirlaridan biri, o'zbek adabiyotining zabardast siymosi, komil inson kuylovchisi, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy merosini o'rganish, undan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish har bir pedagogning vazifasi hisoblanadi. Buyuk alloma, shoir Alisher Navoiy umuminsoniy tarbiya sohasida bir butun asar yaratmagan bo'lsa ham, o'zining bu haqidagi fikrlarini deyarli barcha ilmiy va adabiy asarlarida ifodalagan. Alisher Navoiyning ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya masalalaridagi fikrlarida insonparvarlik g'oyalari bosh o'rinda turadi. Uning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak, aziz va qadrlidir. Alisher Navoiyning barcha asarlari yoshlar tarbiyasi uchun muhim xazina hisoblanadi. U o'z asarlarida har bir so'zdan unumli va o'rinli foydalana olgan. Har bir hikmati biz uchun

ibratlidir. Ali sher Navoiyning hayoti va merosi yoshlarda umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalashda bizga har tomonlama namuna bo'ladi.

Ulug' shoir o'zining ta'lim-tarbiyaga oid fikr-mulohazalari bilan barkamol avlod tarbiyasiga katta hissa qo'shdi, umuminsoniy fazilatlar to'g'risidagi fikrlari hozirgi davrimiz uchun ham muhimdir. Har bir o'qituvchi-pedagog faoliyat yuritar ekan, berayotgan ta'lim-tarbiyasining yanada samarali bo'lishi uchun o'z ustida muttasil ishlashi, bilimini, mahoratini o'stirishi, o'quvchilar bilan bo'ladigan munosabatlarni puxta o'ylab, ularning ko'ngliga ozor yetkazmasdan ish olib borishi lozim. Muomala madaniyati, o'zini tuta bilishini nazorat qilishi kerak. Har bir tarbiyachining dunyoqarashi uning muomalasida namoyon bo'ladi. Muomalaning asosiy vositasi – tildir. Xalqimizda shunday naql bor “Bola – shirin so'zning gadosi”. Shunday ekan, tarbiyachi muomala jarayonida juda ehtiyotkor bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Alisher Navoiy muomala qiluvchi shaxsning mahorati haqida shunday deydi: “Shirin so'z ko'ngillar uchun bamisoli asaldir”. Shuning uchun ham o'qituvchi har on nutq madaniyatiga qattiq e'tibor berishi, o'zining psixologik, estetik, jismoniy, axloqiy jihatlarini namuna holatda namoyon etishi muhim. O'qituvchi o'zining pedagogik faoliyatida to'g'riso'z bo'lishi, ishlarni adolat bilan olib borishi kerak. Bu xislat tarbiyachi bilan o'quvchi o'rtasida yaqinlikni oshiradi, chunki adolat insonlar xulqini baholovchi muhim mezondir. Hazrat Alisher Navoiy aytganidek: “Loaqal bir harf o'rgatgan ustozning haqqini yuz ming ganj-u xazina bilan ham uzib bo'lmaydi”. Biz ulardan umrbod qarz dormiz. Alisher Navoiy yoshlarga chuqur bilim berish uchun muallimlar, mudarrislar va ustoz-murabbiylarning o'zlari ham bilimli va tarbiyali bo'lishi zarurligini uqtiradi. U nodon mutassib johil domlarni tanqid etadi va o'qituvchi ma'lumotli, o'qitish yo'llarini biladigan muallim bo'lishi zarur, deydi. Masalan, “Mahbub ul-qulub” asarida maktabdorlar haqida fikr yuritar ekan, ularni o'ta qattiqqo'l, jo-hil va ta'magirliklarini qoralaydi. Darhaqiqat, johil muallimlar gunohsiz yosh bolalarga jaf qiluvchidir. U yosh bolalarni azoblashga, kaltaklashga o'rgangan, g'azabli, qoshi chimirilgan, gunohsizlar bilan achchiqlanishga odatlangan. Ularning ko'pchiligida ko'ngil qattiqligi va ta'b xastaligi oshkor. Buning ustiga ular aql kamligiga ham giriftor. Ular qiynash yo'li bilan bolalar ko'nglini o'zlariga rom qilmoqchi va kichkintoylarning beqaror tabiatini do'q-po'pisa bilan tartibga solmoqchi bo'ladilar. Ulardagi ko'rinib turgan qo'pollik, yosh bolalardagi kelishmagan xatti-harakatni silliqlashga yirik egovdir. Ular ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev qila olmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga o'zlik qiladi. Lekin ustoz bolaga ilm va odob o'rgatadi. Darhaqiqat, muallim bu kabi hollarda yuzlab mashaqqat chekadi. Shu jihatdan olganda bolalarda uning haqi ko'p, agar shogird ulg'aygach podshohlik martabasiga erishsa ham o'z muallimiga qulluq qilsa arziydi. Ayni o'rinda o'qituvchi mehnatining mashaqqatli ekanligini ta'kidlab o'tadi: “Uning ishi odam qo'lidan kelmas, odam emas, balki dev ham qila bilmas. Bir kuchli kishi bir yosh bolani saqlashga o'zlik qilardi, u esa bir to'da bolaga ilm va adab o'rgatadi, ko'rkim bunga nima yetsin. Shunisi ham borki, u to'dada fahm-farosati ozlar bo'ladi, unday kishiga yuzlarcha mashaqqat kelsa qanday bo'ladi. Har qanday

bo'lsa ham, yosh bolalarga uning haqqi ko'pdir. Alisher Navoiy inson tafakkuri, aqli, bilimini va ilmiy bilimlarini yuksak qadrlagan. U "Bilim va donishmandlik insonning bezagidir", deb yozadi. A. Navoiy farzand tarbiyasiga va uni shaxs sifatida shakllantirishga katta ahamiyat berib, tarbiyalanuvchini "hayot chirog'i" deb ta'riflaydi. Farzand oilaga baxt va saodat keltiruvchi ziyodir. Uning fikricha, shaxsga kichik yoshligidanoq bilim, ma'lumot va tarbiya berishlikni ko'rsatib, o'g'il-qizlarni 6 yoshdan tarbiyachiga, muallimga berish lozim, deb hisoblaydi. Shuningdek, Navoiy hayotda o'z ilmiga amal qilish, o'rganganlarini hayotga tadbiq etish masalasiga alohida e'tibor beradi. Masalan, u "Mahbub ul-qulub" asarida ilm o'qib uni ishlatmagan kishi, shudgor qilib dehqonchilik qilmagan yoki urug' sohib hosildan bahra olmagan o'xshaydi, deydi.

Ilm o'qib qilmagan amal maqbul,
Dona sohib ko'tarmadi mahsul.

Olim bilim olishda barcha fanlarni o'rganishni targ'ib etadi. Bunda u olim-u fozillarni yig'ib, ular orqali ilm-fanni taraqqiy ettirishga e'tibor beradi. Alisher Navoiyning fikricha, bilimlarni tinmay uzluksiz o'rganish zarur, bunda har qanday qiyinchiliklarni yengib o'tish muhimligini, qunt bilan ishlash, tirishqoqlik bilan harakat qilish, izchillik bilan kurash, uni oxirigacha yetkazish, chidam va sabot bilan o'rganishni ta'kidlaydi. Demak, buyuk alloma ilm olish tamoyillarini o'z davrida to'g'ri ifodalab, hatto ta'lim tizimini belgilab beradi: ya'ni Alisher Navoiy ta'lim tizimini o'z davrida o'quv muassasasi, madrasalarda o'qish, olim, hunarmand, san'atkorlarga shogird tushib yoki mustaqil holda ilm olish imkoniyatlaridan foydalanishni tavsiya etadi. Alloma yoshlarga chuqur bilim berishda muallimning, mudarrislar hamda ustoz murabbiylarning o'zlari ham bilimli va tarbiyali bo'lishi zarurligini uqtiradi. Bunday muallimlar shogirdlarni yonida yuzlari yorug' bo'lib, doimo izzatda, hurmatda bo'ladilar, deb ta'kidlaydi. Shunday qilib, biz Alisher Navoiyni pedagog-mudarris deb atashimiz mumkin. Chunki ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berib, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ko'rsatib o'tadi. U ta'limda ilmiylik, asoslanganlik, tarixiylik kabi talablarni asos qilib olgan buyuk pedagogdir. Chunki boqiy hayotga intilgan Navoiy fikricha, dono inson o'zining kuch-quvvatiga aql-u zakovatiga ishonadi. Shuning uchun Navoiy ilm-fanning ahamiyatini yoritib berar ekan, ilmni qorong'ulikni yoritadigan chiroq, hayot yo'lini nurafshon etadigan quyosh, odamlarning haqiqiy qiyofasini ko'rsa-tadigan olim sifatida ta'riflaydi. Bu fikrni "Nazm ul-javohir" asarida:

Kim olim esa nuqtada barhak de oni,
Gap bazm tuzar bihishti mutlah de oni,
Har kimsaki yo'q ilmga anga ahmoq de oni,
Majlisdaki ilm bo'lsa uchmas de oni.

Yoki ilmli, aqlli odam o'z maqsadiga erishish uchun har qanday qiyinchilikka ham chidaydi, kim ilmni o'ziga tayanch qilib olsa, u hech qachon qoqilmaydi, xor bo'lmaydi va ilmning vazifasi inson baxt-saodatiga xizmat qilishdir, deb ta'kidlaydi. Demak, Alisher Navoiy o'zining badiiy asarlari bilan bir qatorda ta'limiy-axloqiy asarlarida o'zi orzu etgan komil insonga xos axloqiy fazilatlari

deb qanoat, adolat, saxovat, himmat, muruvvat, vafo, to'g'rilik, rostgo'ylik va boshqalarni tushungan, ana shu xislatlar tarkib topgan insonga yomonlik razillik bo'lmasligi, bunday inson yashagan jamiyat ham ravnaq topishi, barcha xalq baxt-saodatga erishish mumkin, deb hisoblagan. Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning komil insonni shakllantirishga oid fikrlari, uning ta'limiy-axloqiy qarashlari pedagogik fikr taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Allomaning qarashlari o'zidan oldin o'tgan olimlarning bu boradagi ilg'or ta'limotiga, shuningdek, komil insonni tarbiyalashga oid an'anaviy Sharq xalqlari ta'lim-tarbiya yo'riqlariga asoslanadi. Alisher Navoiy ta'lim-tarbiya masalalariga alohida e'tibor berar ekan, tarbiya jarayonlarini, vositalarini, talablarini ko'rsatadi. U ta'limda ilmiylikka asoslanganlik tarixiylik kabi talablarni asos qilib oladi. O'z davridagi musulmon maktablarining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma jildlik. 16-jild. - T.: "Fan", 2000.- B. 26.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma jildlik. 14-jild. T.: "Fan", 1998. – B. 83.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar. O'n besh jildlik. 13-jild. – T.: "Badiiy adabiyot" nashriyoti, 1966. – B. 189-190

NAVOIY IJODIDA FOLKLORISTIK UNSURLAR

Sabirova N.E.,

*Xorazm viloyati PMM kafedra mudiri,
f.f.d.(DSc), professor*

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy ijodining ta'lim- tarbiya rivoji uchun muhim ahamiyatga egaligi xususida fikr yuritilgan. Xalqimiz urf-odatlarini, an'analarining badiiy matn ifodasidagi o'ziga xosligi haqida tahlil bayon qilingan. Milliy tarbiya masalasida Navoiy asarlarining muhim jihatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Urf-odat, folklor unsurlari, maqol, afsona, mifologik obrazlar

Аннотация. В данной статье рассматривается значение творчества великого поэта-мыслителя Алишера Навои для развития образования. Анализируется своеобразие обычаев и традиций нашего народа в выражении художественного текста. Важные аспекты творчества Навои раскрыты в проблеме национального образования.

Ключевые слова: Традиции, элементы фольклора, пословицы, легенды, мифологические образы.

Annotation. This article discusses the importance of the work of the great thinker poet Alisher Navoi for the development of education. The uniqueness of the customs and traditions of our people in the expression of the artistic text is analyzed. The important aspects of Navoi's works are revealed in the issue of national education.

Key words: Traditions, elements of folklore, proverbs, legends, mythological images

Har bir xalqning voqelikka o'z estetik munosabati mavjud. Bunday munosabat asotirlar, ertaklar, maqol-matallar va birinchi galda yirik hajmli epic asarlarda o'z ifodasini topgan bo'ladi. Shu ma'noda dostonlar faqatgina xalqning shonli o'tmishini hikoya qiluvchi adabiy yodgorlikkina emas, bugungi kunda tobora globallashib borayotgan jamiyatda o'zligini saqlab qolishning muhim omili, ertangi kun taraqqiyoti uchun tagzamin vazifasini o'taydi. Buyuk mutafakkir, atoqli so'z san'atkori Alisher Navoiy ijodi xususida ham shu kabi mulohazalar bildirish mumkin. Inson hayoti ikki olamning – tashqi borliq bilan ichki ruhiy dunyoning doimiy uzluksiz munosabatlari og'ushida kechadi. She'riyat esa inson ruhini va bu ruhda tajassum topuvchi tashqi olam taassurotlarini poetik idrok etishdir. Shu sababdan chinakam insoniy hislar she'riyatida uning kundalik oddiy tashvishlaridan butun bashariyatni o'ylantiradigan katta muammolarigacha ifodalanganini ko'ramiz. Alisher Navoiy qit'a janridagi she'rlaridan biri quyidagi "Ne nazmki, o'tlug' ko'ngildan chiqordim..." so'zlar bilan boshlagan. Navoiy uchun asl so'z ko'ngul o'tidan sakragan so'z. Yurak va aql yolqini aks ettirmagan so'zni ishq va ma'rifat fayzidan mahrum deb bilgan shoir. Navoiy qit'alarini o'qir ekanmiz, uning xiradmand, ulug' hikmatnavisligini qalban his qilamiz:

Majmunio'yla, kishvarki, anglakisathini,

Hikmatsuyidinaylamishamqit'a-qit'a bog'.

Deb bejiz ta'riflamagan. Bu tafakkur kish va ridakitobxonning fikrio'sadi, hayotga qarashda nigohi teranlashadi, qalbi nurlanadi, aqli faollashadi. Chunki Alisher Navoiy qit'alarida oddiy tabiat hodisalaridan koinot sir-asrorlarigacha, chumolidan inson qismati va uning davr, jamiyat, borliq bilan munosabatigacha – barcha mavzuda fikr yuritiladi. Insonni so'z tarbiyalaydi. So'zda insonga xos barcha ijobiy va salbiy xislatla o'z aksini topadi. Masalan, "viqor" so'zini olaylik, U qadimiy so'z. Uning bag'rida ulug'vorlik, salobat, mag'rurlik ma'nolari mujassamlashgan. Viqor deyilganda, hech kimga bo'yin egmagan buyuk bobolarimizning adil qomatlari ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. So'zga munosib bo'lolmaslik – bu ham fojia. Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonida turkey tilde asarlar yaratishni "xalq ishi" deb baholaydi va bu ishga o'zini fido qilib, til ravnaqi uchun jasorat ko'rsatishga qodir bo'lmagan qalamkashlarga qarata, "Yaqin qilmamish xalqs endek kishi"ni deb ogohlntiradi. Til harqanday xalqning mavjudligini belgilaydigan o'zlik daryosi. Bu daryoqurisa, xalqyo'q. Til – xalqruhiningquyoshi. Bu quyosh yuzini hech qanday bulut va qorong'ulik to'smasligi kerak.

Hayotda muammolar ko'p. Asosiy muammo – inson qalbida. Suqrot zamonlaridan hozirgacha insoniyat o'zlikni anglash yo'lida ma'lum tajribalarga erishgan. Jahonning qaysi joyida o'zlikni anglash kuchaygan bo'lsa, o'sha yerda xalq tafakkuri eng asosiy milliy boylik mavqeyiga ko'tarilgan. Fikr mehnatisiz yaratilgan har qanday boylik millat kamoloti uchun emas, balki zavoli uchun xizmat qiladi. O'zlikni anglash – ilg'or fikrlash, hur fikrlash va ularni ayta olish, amalga oshirish uchun harakat qilishdir. Shunday odamgina xalq ma'naviy

boyliklarining toptalishiga chiday olmaydi. Alisher Navoiy mehr va adolat tantana qiladigan daxlsiz olamni orzu qilgan. Vafotu shunchasi orqali insonni insonga, farzandnig Vatanga, shaxsning ishq va ezgulikka bo'lgan talabchan va hur e'tiqodini ulug'lagan. Komillik sari kurashda Navoiyda hosi xalqimizga doimo ma'naviy mayoq vazifasini o'tab boraveradi. Navoiyni qancha ko'p o'qisak, Inson erki, Ozod vatan to'g'risidagi tasavvurlarimiz o'shancha boyiydi. Alisher Navoiy "Saddi Iskandariy" dostonida real hayot lavhalarini, tabiat manzaralarini qanchalik mohirlik bilan tasvirlasa, fantastic manzaralarni, afsonaviy maxluqlarni, g'aroyib voqealarni ham shunchalik katta san'atkorlik bilan chizadi. Mag'rib va Qirvon tasviri, u yerdagi voqealar, dengiz safari va ajoyibotlar shular jumlasidandir. Bunday tasviriy o'rinlarda Navoiy xalq og'zaki ijodidan, ayniqsa, ertaklardan ilhomlangan. Dostonida realistic tasvir bilan badiiy fantaziya, ko'pincha, bir-biri bilan uzviy bog'lanib, chiroyli badiiy uyg'unlikni tashkil qiladi. Shoirning badiiy mahorati shundaki, u romantic tasvirdan realistic xulosa chiqaradi. Kitobxon ham bu borada, mening fikrimcha, muallifning qarashlarini qo'llaydi. Masalan, ya'juj va ma'jujlarga qarshi kurash xayoliy –romantic tasvirda berilgan, lekin shoir bundan realistic xulosa chiqarib, agar kishilar ahil-ittifoq bo'lsa, zulm va zulmat yo'llarini to'sa olishlari mumkinligi ko'rsatilgan. Yoki dengiz tasviri qanchalik xayoliy-fantastik tasvirlarga o'ralgan holda tasvirlanmasin uning mohiyatida insonning aql-zakovati tabiat sirlarini kashf etishga qodirligi va bunga erishishga kitobxonda ishonchni paydo qiladi.

"Saddi Iskandariy" dostonida XV asr muhiti zaminida tug'ilgan g'oyaviy ziddiyatlarga qaramay, o'z mohiyati bilan xalqchil asardir. Uning zaminida xalqning baxt-saodati, osoyishtaligi va farovonligi uchun kurash g'oyasi yotadi. Buyuk so'z san'atkori Alisher Navoiyning xalq og'zaki ijodidan ilhomlanishi, uning boyliklaridan ijodiy foydalaishi dostonning badiiy atiga ijobiylik bag'ishlaydi. Fantastik tasviriy o'rinlarda xalq ijodi uslubidan bahramand bo'lgan Navoiy dostonidagi "Iskandar va gado hikoyati", "Ikki rafiqlik hikoyati", "Bulbul hikoyati", "Kabutar hikoyati" va boshqa folklore namunalaridan asos sifatida foydalangan. Shu bilan bir qatorda Navoiy xalq qo'shiqlari, maqollari va ta'birlaridan ham unumli foydalangan. Masalan, Iskandarning Ravshanak va Mehrnozga uylanishini tasvirlar ekan, o'lanlarni keltirib o'tadi:

Mug'anniytuzubchingavaznidachang,
Navochekki, hay-hay o'lang, jono'lang!
Desang, senki: jonqardoshim, yor-yor!
Men aytayki: munglug' boshimyor-yor!
Quyidagimisralardamaqollardanfoydlangan:
Hamulgo'yotilg'achqochib yak-bayak,
Masaldurki, "Ming qarg'agabirkesak"
Ne xushdebduruldardmandifiroq,
Ki: "Oz baxtko'phusndinyaxshiroq"
Bel-u og'zidinedilarkim,"Degilafsonaye",
Boshladimfilholkim, "Birboredi, biryo'qedi"

Alisher Navoiyning buyuk olamshunosligi uning asarlarini tadqiq qilgan adabiyotshuos va tilshunoslar tomonidan e'tirof qiinadi. Alisher Navoiy ijodi asrlar osha turkiy adabiyot boshidagi toj bo'lib turadi va yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashda dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mallayev N. "O'zbekadabiyotitarixi" Toshkent: "O'qituvchi" – 1976, B- 663.
2. Jo'rayev M. "El desaNavoiyni" T: "Cho'lpon" – 1991, B-160.
3. Qodirov P. "Tilva el" T: "Ma'naviyat" – 2010. B-296.
4. Sultonmurod O. "Navoiyyoshlarga" Toshkent – 2008, B-104.
5. IbrohimHaqqul "Abadiyatfarzandlari" Toshkent – 1990, B-190.

ВЗГЛЯДЫ АЛИШЕРА НАВОИ НА ЛИНГВИСТИКУ И ЯЗЫК ПРОИЗВЕДЕНИЙ

*Усманова Р.М.,
доцент, заведующая кафедрой ЦПМ Навоийской области*

Аннотация. Эта статья представляет собой подробный анализ взглядов Алишера Навои на язык и лингвистику, рассматривает его поэтику и вклад в развитие тюркской литературы. Используемая литература включает как работы самого Навои, так и исследования его творчества.

Ключевые слова: Алишер Навои, тюркский язык, лексическое богатство, неологизмы, заимствования, арабский язык, персидский язык, самобытность, грамматическое мастерство, синтаксические конструкции, оттенки мысли и чувства.

Annotation. This article presents a detailed analysis of Alisher Navoi's views on language and linguistics, examines his poetics and contribution to the development of Turkic literature.

Keywords: Alisher Navoi, Turkic language, lexical wealth, neologisms, borrowings, Arabic, Persian, originality, grammatical mastery, syntactic constructions, shades of thought and feeling.

Алишер Навои (1441-1501) – не только выдающийся поэт, мыслитель и государственный деятель, но и глубокий знаток языка, который видел в нем мощный инструмент выражения мысли, формирования мировоззрения и достижения гармонии. Его взгляды на лингвистику, воплощенные в теоретических трудах и практическом применении в его поэзии, оказали огромное влияние на развитие тюркской литературы и культуры. Язык произведений Навои является ярким примером его лингвистических принципов и представляет собой уникальный феномен, сочетающий в себе богатство, изящество и глубокий смысл.

Центральное место в лингвистических воззрениях Навои занимает его трактат "Мухокамат ул-лугатайн" ("Суждение о двух языках"). В этом произведении, написанном в 1499 году, Навои утверждает достоинство тюркского языка, доказывая его богатство, выразительность и способность передавать самые тонкие нюансы мысли. Он сравнивает тюркский язык с

персидским, который в то время был языком высокой поэзии и культуры, и отстаивает право тюркского языка на развитие и признание.

Навои критикует тех, кто пренебрегает тюркским языком, считая его грубым и недостаточно изысканным. Он подчеркивает, что язык – это отражение культуры, и что тюркский язык обладает огромным потенциалом, который необходимо развивать и совершенствовать.

В “Мухокамат ул-лугатайн” Навои также рассматривает вопросы языковой нормы, стилистики и перевода. Он призывает к бережному отношению к родному языку, к сохранению его чистоты и к избежанию излишнего заимствования слов из других языков. Он также подчеркивает важность правильного выбора слов и выражений для достижения максимальной выразительности и точности.

Язык произведений Навои является ярким примером его лингвистических принципов. Он стремился использовать тюркский язык во всей его полноте, обогащая его словарным запасом, грамматическими конструкциями и стилистическими приемами.

- **Лексическое богатство:** Навои активно использовал богатство тюркского языка, включая как общеупотребительные слова, так и редкие, архаичные и диалектные выражения. Он создавал неологизмы и обогащал язык заимствованиями из арабского и персидского языков, но при этом старался сохранить его самобытность.

- **Грамматическое мастерство:** Навои виртуозно владел грамматикой тюркского языка, умело используя различные типы словосочетаний, предложений и периодов. Он часто прибегал к сложным синтаксическим конструкциям, чтобы передать тонкие оттенки мысли и чувства.

- **Стилистическое разнообразие:** Навои владел различными стилями и жанрами поэзии, умело используя их в своих произведениях. Он применял разнообразные стилистические приемы, такие как метафоры, сравнения, эпитеты, аллитерации, ассонансы, антитезы, анафоры, риторические вопросы и восклицания, чтобы создать яркие и запоминающиеся образы.

- **Поэтические жанры и формы:** Навои писал в различных поэтических жанрах, таких как газели, касыды, рубай, кита, маснави, и мастерски владел всеми этими формами. Он был одним из главных реформаторов тюркской поэзии, внося значительный вклад в развитие ее жанрового и формального разнообразия.

Поэтика Навои отличается глубиной философского содержания, выразительностью образов и гармонией формы. Он стремился к созданию произведений, которые были бы не только красивыми, но и поучительными, способными пробуждать в читателе высокие чувства и нравственные идеалы.

- **Философский аспект:** В своих произведениях Навои поднимал вопросы о смысле жизни, любви, справедливости, добре и зле. Он выражал свои философские взгляды через систему символов и аллегорий, создавая сложные и многозначные образы.

• **Эстетика и образность:** Навои уделял большое внимание красоте и гармонии, стремился создавать произведения, приятные для слуха и глаза. Он использовал яркие и запоминающиеся образы, заимствованные из природы, истории и мифологии, чтобы передать свои чувства и мысли.

• **Этические ценности:** В своих произведениях Навои прославлял гуманизм, милосердие, сострадание и призывал к миру и согласию между людьми. Он верил в силу добра и света, и его поэзия проникнута оптимизмом и надеждой.

Творчество Алишера Навои оказало огромное влияние на развитие тюркской литературы. Он поднял тюркский язык на уровень высокой поэзии, создал выдающиеся образцы поэтических жанров и форм и утвердил его как язык культуры.

Его произведения стали образцом для подражания для многих поколений поэтов и писателей, оказав влияние на развитие литературы народов Центральной Азии, Турции, Азербайджана и других тюркских народов. Он способствовал развитию тюркской культуры и национального самосознания.

Взгляды Алишера Навои на лингвистику и язык его произведений являются важным аспектом его творческого наследия. Его теоретические труды, в частности «Мухокамат ул-лугатайн», заложили основу для развития тюркской лингвистики, а его поэзия стала ярким примером воплощения его лингвистических принципов. Язык произведений Навои отличается лексическим богатством, грамматическим мастерством и стилистическим разнообразием. Поэтика Навои сочетает в себе философскую глубину, эстетическую красоту и этические ценности. Его творчество оказало огромное влияние на развитие тюркской литературы и культуры, и его наследие продолжает вдохновлять учёных, писателей и читателей по всему миру.

Использованная литература:

1. Алишер Навои. Мухокамат ул-лугатайн. –Т., 1940.
2. Бертельс Е.Э. Навои: Опыт творческой биографии. - М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1948.
3. Вахидов Р. В мире Навои. – Т., 1981.
4. Кононов А.Н. Грамматика тюркского языка (среднеазиатский тюрки). - М.-Л., 1960.
5. Основы тюркологии. - М., 1993.
6. Шарафиддинов О. Навои и национальная идея. - Т.: Маънавият, 2000.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA NAVOIY ASARLARINI QO'LLASH**Astanaqulov K.M.,****Navoiy viloyati PMM kafedra mudiri, dotsent**

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda Navoiy asarlarini o'qitishning samarali usullari hamda afzalliklari haqida fikr yuritilgan. Navoiy asarlarini boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatishda uning mazmuni va tili soddalashtirilgan holda taqdim etilishi to'g'risida mulohazalar keltirilgan. Mazkur maqola boshlang'ich ta'limda Navoiy asarlarini o'qitishning muammolarini va ahamiyatini chuqur tahlil qilgan holda, ushbu asarlarni o'rganishning ahamiyatini ta'kidlaydi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются эффективные методы и преимущества преподавания произведений Навои в начальной школе. Рассматриваются вопросы представления произведений Навои в упрощенной форме, как по содержанию, так и по языку, при преподавании их учащимся начальной школы. В статье дается глубокий анализ проблем и значения преподавания произведений Навои в начальной школе, подчеркивается важность изучения этих произведений.

Abstract: This article discusses the effective methods and advantages of teaching Navoi's works in primary education. Considerations are made regarding the presentation of Navoi's works in a simplified form in terms of content and language when teaching them to primary school students. This article provides an in-depth analysis of the problems and importance of teaching Navoi's works in primary education, emphasizing the importance of studying these works.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, asar, til, tarjima, boshlang'ich, rasm, illustratsiya, qahramonlar, afzallik, savol-javob.

Ключевые слова: Алишер Навои, произведение, язык, перевод, начало, живопись, иллюстрация, персонажи, преимущество, вопросы и ответы

Keywords: Alisher Navoi, work, language, translation, beginning, painting, illustration, characters, advantage, questions and answers

Alisher Navoiy asarlari o'zbek adabiyotining eng yuksak na'munalaridan biridir. Uning asarlari, nafaqat adabiy qadriyatlarni, balki axloqiy va ma'naviy tamoyillarni, milliy tafakkurni shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi. Biroq, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun Navoiy asarlarini o'rgatishda uning tili va mazmuni ba'zida qiyin bo'lishi mumkin. Shuning uchun, bu asarlarni o'quvchilarga o'rgatishda ularning yoshi va bilim darajasiga mos ravishda mazmun va tilni soddalashtirish zarur. Bu jarayonda bir nechta muhim usullarni qo'llash mumkin.

Adabiyotlarni tahlili va usullari: Navoiy o'z ijodini she'riyat, nasr va tasavvuf ilmda olib borgan.

She'riyat - Navoiy she'riyatida insoniyat, muhabbat, adolat, ma'rifat kabi mavzular asosiy o'rinni egallaydi. Uning g'azallari, qasidali va ruboiylari o'zbek va turkiy adabiyotning noyob namunalari.

“Xamsa” (besh dostoni): Bu asar beshta dostonidan iborat bo‘lib, ular “Hayrat ul-Abror”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sab‘ai Sayyor” va “Saddi Iskandariy”dir. Har bir doston o‘ziga xos mavzu va falsafiy qarashlarga ega.

Nasr – “Mahbub ul-Qulub”: Bu asar Navoiyning nasriy asarlaridan biri bo‘lib, unda insoniy fazilatlar, axloqiy qadriyatlar va hayotiy masalalar haqida so‘z boradi.

“Majolis un-Nafois”: Bu asar Navoiyning zamondoshlari va shoirlar haqida yozgan biografik asari bo‘lib, o‘zbek adabiyotshunosligi uchun muhim manba hisoblanadi.

Tasavvuf- Navoiy tasavvufiy she‘riyatning ham yirik namoyandasi hisoblanadi. Uning asarlarida inson ruhiyati, ma‘naviyat va ilohiy muhabbat mavzulari keng o‘rin olgan.

Tilshunoslik - Navoiy turkiy tillarning rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. U “Muhokamat ul-Lug‘atayn” asarida turkiy tillarning forsiy tilga nisbatan afzalligini isbotlab bergan.

Natijalar: Navoiy asarlarini soddalashtirilgan tilda taqdim etish

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun Navoiy asarlarini tushunarli qilish uchun uning tilini soddalashtirish kerak. Navoiy she‘rlarida va asarlarida ishlatilgan ba‘zi murakkab so‘zlar, arabcha va forsha so‘zlar o‘quvchilarga qiyin bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, ularni oddiy, tushunarli tilda taqdim etish muhim.

Usullar:

- Soddalashtirilgan tarjimalar: Navoiy asarlarini o‘quvchilar uchun tushunarli va soddalashtirilgan tilda tarjima qilish. Masalan, Navoiy she‘rlarini oddiy va kundalik hayotda ishlatiladigan so‘zlar bilan o‘zgartirish.

- Soddalashtirilgan mazmunni izohlash: Asarlarning mazmunini o‘quvchilarga oddiy tilda tushuntirish. Misol uchun, Navoiy asarlaridagi qahramonlar va ularning his-tuyg‘ularini o‘quvchilarga yaqinlashtirish, o‘quvchilarning hayotiy tajribalariga bog‘lash.

Afzalliklari:

- O‘quvchilar asarning mazmunini osonlik bilan tushunishadi.
- Ularning o‘z fikrlarini erkin ifodalashga imkon yaratadi.
- Navoiy asarlarini yangi o‘quvchilarga tanitish jarayonini soddalashtiradi.

2. Misollar va Hayotiy Tasavvurlar orqali Yondoshuv

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ko‘proq konkret tasavvurlarga ega bo‘ladilar, shuning uchun Navoiy asarlarini hayotiy misollar orqali tushuntirish, o‘quvchilarning asosiy g‘oyalarni yaxshiroq anglashiga yordam beradi.

Usullar:

- Qahramonlar va voqealarni hayotiy misollar bilan bog‘lash: Navoiy asaridagi qahramonlarning xulq-atvori va qarorlarini o‘quvchilarga yaqinlashtirish uchun kundalik hayotdan misollar keltirish. Masalan, Navoiy asarlaridagi halol va adolatli qahramonlar haqida gapirayotganda, o‘quvchilarga o‘z sinfidagi yaxshi xulqli va adolatli odamlar haqida so‘zlab berish.

- Shaxsiy hayotga moslashtirish: Navoiy asaridagi saboqlarni o'quvchilarning kundalik hayotiga tatbiq qilish, ular uchun sodir bo'lishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni misol qilib keltirish.

Afzalliklari:

- O'quvchilar uchun tushunarli va yaqin bo'lgan misollar orqali asarni yanada qiziqarli va ta'sirli qilish.

- O'quvchilarni asarlarning axloqiy va ma'naviy jihatlariga jalb qilish.

- Hayotiy misollar yordamida o'quvchilarni Navoiy asarlariga mehr qo'yishga undash.

3. Rasm va Illustratsiyalar yordamida Asarlarni Taqdim Etish

Boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'proq vizual tasavvurlarga tayanadilar. Shuning uchun, Navoiy asarlarini rasm, illyustratsiya yoki animatsiya yordamida taqdim etish, o'quvchilarning mazmunni tushunishiga yordam beradi.

Usullar:

- Rasm va illyustratsiyalar: Navoiy asarlaridan olingan mashhur voqealar yoki qahramonlar tasvirlarini rasm yoki animatsiya shaklida taqdim etish. Bu o'quvchilarga asarlarning ko'rgazmali tasavvurlarini yaratishda yordam beradi.

- teatrlashtirilgan sahnalar: Navoiy asarlarining ba'zi qismlarini sahnada o'ynab ko'rsatish, bu orqali o'quvchilarning estetik his-tuyg'ularini shakllantirish.

Afzalliklari:

- O'quvchilarning vizual tasavvurlarini rivojlantiradi.

- Asarni yanada hayotiy va ta'sirli qiladi.

- O'quvchilarga mazmunni tezroq va osonroq anglash imkoniyatini yaratadi.

Muhokama: Boshlang'ich sinflarda Alisher Navoiy asarlarini tanishtirishda bolalar rivojlanishida ahamiyatli jihatlarini quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin:

Ma'naviy-axloqiy tarbiya: Navoiy asarlari orqali bolalarga sabr, saxovat, to'g'rilik, adab va boshqa ijobiy fazilatlar singdiriladi. Uning asarlari inson kamoloti va ma'naviy taraqqiyotga yo'naltirilgan bo'lib, yosh avlodni ma'rifatli va axloqli shaxslar sifatida shakllantirishga yordam beradi.

Til va adabiyotni o'rganishda yordam: Navoiy asarlari o'zbek tilining boyligi va nozikliklarini namoyon etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uning asarlari orqali lug'at boyligini oshirish, matnni tahlil qilish va adabiyotga qiziqish uyg'otish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Tarixiy va madaniy merosni tushunish: Navoiy asarlari orqali bolalar o'zbek milliy madaniyati, tarixiy shaxslar va ularning ijtimoiy muhitini tushunish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu ularning milliy g'ururini oshirishga xizmat qiladi.

Ijodiy qobiliyatni rivojlantirish: Navoiy asarlarini o'rganish orqali bolalarda ijodiy fikrlash, she'riyatga qiziqish va adabiy tahlil qobiliyatlari rivojlanadi. Bu ularning umumiy intellektual salohiyatini oshirishga yordam beradi.

Xulosa. Mumtoz adabiyot namoyondalari hayoti va ijodi bilan yoshlikdan boshlab tanishish fikrlash doirasining kengayishiga, adabiyotga bo'lgan qiziqishning ortishiga olib keladi. Ayniqsa, so'z mulking sultoni sanalmish Navoiy bobomizning asarlari ham dunyoviy, ham diniy tarbiyaga, mazmunga egaligi bilan ahamiyatga molik. Yosh-u qariga birdek ta'sir qiladigan ,makon va

zamon tanlamaydigan bu shoh va nodir yodgorliklarni qancha ko'p o'rgansak, shuncha kam. Endi boshlang'ich ta'limda qo'llashni ham dolzarb mavzuga chiqaradigan bo'salk o'ylangan maqsadga tezroq erishamiz deb o'ylayman. Ongni shakllantirishda falsafiy asarlarning o'rni beqiyos.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Burobiya Rajabova. Boburnomada Navoiy siymosi// "Bobur va dunyo" jurnali, 2020 yil №3 soni.
2. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. –T.: Fan, 2007. -33 b. 1 b.// (Elektron resurs)
<http://n.ziyouz.com/books/tasavvuf/Ibrohim%20Haqqul.%20Navoiyga%20qaytish.pdf> (murojaat sanasi 11.07.2020)
3. Madayev O. Navoiy dahosi va zamonamiz kashfiyotlari. Jahon adabiyoti jurnali. 2014, №2.
4. Azizjon Sharipov. Amir Temur va temuriylar davrida kutubxonalar faoliyati tarixidan // "Bobur va dunyo" jurnali, 2020 yil №3 soni.
5. Abdug'afurov A. Buyuk ijodkor. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar jurnali. 1991, №2.
6. Alisher Navoiy. Mahbubul qulub. (Qalbgah mahbub hikmatlar va hikoyatlar). Hozirgi o'zbek tiliga tabdil. –T.: Sano-standart, 2018.

UMUMTA'LIM MAKTABI O'QITUVCHILARIGA UZLUKSIZ METODIK XIZMAT KO'RSATISHNING FAOLLIKA ASOSLANGAN TEXNOLOGIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH

*Tuxfatullina D.T.,
Navoiy viloyati PMM direktor o'rinbosari*

Annottasiya. Ushbu maqola umumta'lim maktabi o'qituvchilariga uzluksiz metodik xizmat ko'rsatishning faoliyatga asoslangan texnologiyalarini takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqildi. Maqolada, zamonaviy metodik xizmat ko'rsatish texnologiyalari, interaktiv platformalar, o'zaro faoliyat vositalari va o'quvchilarni amaliy tajribalar bilan ta'minlash yondashuvlari batafsil tahlil etiladi. Shuningdek, maqolada o'qituvchilar uchun metodik xizmat ko'rsatishning samaradorligini oshirish va ta'lim jarayonini yanada sifatli qilish uchun takliflar beriladi. Metodik xizmat ko'rsatishning samarali metodlari va texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim muassasalarida o'qituvchilarning professionallik darajasini oshirishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: uzluksiz metodik xizmat, faoliyatga asoslangan texnologiyalar, interaktiv ta'lim platformalari, o'zaro faoliyat vositalari, ta'lim jarayoni, metodik xizmat ko'rsatish.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы совершенствования непрерывного методического обслуживания учителей общеобразовательных школ с использованием технологий, основанных на деятельности. В статье детально анализируются современные технологии методического обслуживания, интерактивные платформы, инструменты для совместной

деятельности и подходы к практическому обучению учеников. Также в статье представлены предложения по повышению эффективности методического обслуживания и улучшению качества образовательного процесса. Развитие эффективных методов и технологий методического обслуживания способствует повышению уровня профессионализма учителей в образовательных учреждениях.

Ключевые слова: непрерывное методическое обслуживание, технологии, основанные на деятельности, интерактивные образовательные платформы, инструменты для совместной деятельности, образовательный процесс, методическое обслуживание.

Annottasia. This article explores the enhancement of continuous methodological support for school teachers through activity-based technologies. The paper provides a detailed analysis of modern methodological support technologies, including interactive platforms, collaborative tools, and approaches for practical student engagement. Furthermore, the article offers recommendations for improving the effectiveness of methodological support and enhancing the quality of the educational process. The development of effective methods and technologies in methodological support contributes to the professional growth of teachers within educational institutions.

Key words: continuous methodological support, activity-based technologies, interactive educational platforms, collaborative tools, educational process, methodological support.

Kirish. Umumta'lim maktablari o'qituvchilarining metodik xizmat ko'rsatish tizimi ta'lim sifatini oshirish, pedagogik mahoratni rivojlantirish va o'qituvchilarning professional kompetentsiyasini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. O'qituvchilar uchun uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish usullari va texnologiyalari ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu bois, metodik xizmat ko'rsatishning samarali va zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirilishi dolzarb vazifa hisoblanadi.

Metodik xizmat ko'rsatishning zamonaviy texnologiyalari. O'qituvchilarga uzluksiz metodik xizmat ko'rsatishning asosiy maqsadi ularning pedagogik mahoratini oshirish, yangi ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirish, va amaliy faoliyatda qo'llashga ko'maklashishdir. Ushbu xizmat ko'rsatishning zamonaviy texnologiyalari quyidagilardan iborat:

1. Onlayn platformalar va resurslar: Yangi metodik bilimlarni olish uchun onlayn kurslar, vebinarlar va elektron jurnallar o'qituvchilarga keng imkoniyatlar yaratadi. Moodle, Google Classroom va boshqa ta'lim platformalari orqali metodik materiallar va o'quv resurslarni taqdim etish o'qituvchilarning ta'lim metodologiyasini yaxshilashda yordam beradi.

2. Distant ta'lim va qo'llanma materiallar: Distant ta'lim texnologiyalari o'qituvchilarga vaqt va joydan qat'i nazar, yangi metodik bilimlarni o'zlashtirish imkoniyatini beradi. Qo'llanma materiallar, metodik qo'llanmalar va tavsiyalarni elektron shaklda taqdim etish, o'qituvchilarning sifatli ta'lim resurslariga kirish imkoniyatlarini oshiradi.

3. Pedagogik ko'nikmalarni rivojlantirish uchun treninglar va master-klasslar: Amaliy mashg'ulotlar va treninglar o'qituvchilarga yangi pedagogik metodlar, ta'lim strategiyalari va texnikalarini o'rgatish uchun samarali vositadir. Treninglar va master-klasslar o'qituvchilarning amaliy tajribasini oshiradi va ularni yangi metodlarni sinovdan o'tkazishga yordam beradi.

4. Kollektiv tajriba almashish va hamkorlik: O'qituvchilar orasida tajriba almashish va metodik hamkorlikni rivojlantirish uchun professional jamoalar va guruhlar tashkil qilish. Yangi metodlarni tatbiq etishdagi tajribalarni baham ko'rish, pedagogik innovatsiyalarni sinovdan o'tkazish imkonini beradi.

Metodik xizmat ko'rsatishning zamonaviy texnologiyalari.

Metodik xizmat ko'rsatish ta'lim jarayonida o'qituvchilarning professionallik darajasini oshirish va pedagogik faoliyat samaradorligini yaxshilash uchun muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalar metodik xizmat ko'rsatishda innovatsion imkoniyatlarni yaratib, o'qituvchilarga yangi pedagogik bilimlar va ko'nikmalarni taqdim etishda samarali vositalar hisoblanadi. Quyida metodik xizmat ko'rsatishning zamonaviy texnologiyalari ko'rib chiqiladi:

1. Onlayn platformalar va resurslar

a. Ta'lim platformalari: Moodle, Google Classroom, Canvas kabi onlayn ta'lim platformalari o'qituvchilarga metodik materiallarni taqdim etish, dars rejalari va o'quv resurslarini yaratish imkonini beradi. Ushbu platformalar o'qituvchilarning materiallarga qulay kirishini ta'minlaydi va o'quv jarayonini masofadan boshqarish imkoniyatini yaratadi.

b. Elektron jurnallar va kurslar: O'qituvchilarga metodik tavsiyalar va yangi pedagogik yondashuvlar haqida ma'lumot beruvchi elektron jurnallar, maqolalar va onlayn kurslar mavjud. Bu resurslar o'qituvchilarning bilimlarini yangilash va ularning malakasini oshirishda yordam beradi.

2. Distant ta'lim va e-resurslar

a. Distant ta'lim texnologiyalari: Zoom, Microsoft Teams kabi platformalar yordamida distant ta'lim texnologiyalari orqali o'qituvchilar bilan videokonferentsiyalar, vebinarlar va treninglar o'tkazish mumkin. Bu usul o'qituvchilarning yangi metodlarni tezda o'zlashtirishiga yordam beradi va ta'lim jarayonini masofadan boshqarish imkonini beradi.

b. e-resurslar: O'qituvchilar uchun elektron qo'llanmalar, videodarslar va interaktiv materiallar ishlab chiqish. Ushbu resurslar metodik xizmat ko'rsatish jarayonini samarali qilishda yordam beradi.

3. Interaktiv texnologiyalar

a. Interaktiv doskalar: Interaktiv doskalar va proyektorlar yordamida o'qituvchilar ta'lim jarayonida materiallarni dinamik tarzda namoyish etishlari mumkin. Bu texnologiya o'qituvchilarning darslarni qiziqarli va interaktiv tarzda o'tkazishlariga yordam beradi.

b. Simulyatsiyalar va multimedia vositalari: Simulyatsiyalar va multimedia vositalarini qo'llash orqali o'qituvchilar darslarni yanada hayotiy va interaktiv qilishlari mumkin. Bu pedagogik materiallar o'qituvchilarning diqqatini jalb qilishda va bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirishda yordam beradi.

4. Tajriba almashish va hamkorlik

a. Professional jamoalar: O'qituvchilar orasida professional jamoalar va tarmoq guruhlarini tashkil etish. Bu guruhlar o'zaro tajriba almashish, metodik yondashuvlarni baham ko'rish va pedagogik innovatsiyalarni sinovdan o'tkazish uchun imkoniyat yaratadi.

b. Mentorlik va ko'rsatmalar: Katta tajribaga ega o'qituvchilar tomonidan yangi boshlovchilar uchun mentorlik qilish va metodik ko'rsatmalar berish. Bu, yangi metodlarni o'rganishga yordam beradi va tajriba almashish orqali metodik xizmat ko'rsatishni yaxshilaydi.

5. O'zaro baholash va feedback

a. O'zaro baholash: O'qituvchilarning o'zaro baholash mexanizmlarini joriy qilish orqali ularning metodik faoliyatini baholash va takomillashtirish. Bu yondashuv o'qituvchilarning o'z tajribalarini baham ko'rishlari va samarali metodlarni ishlab chiqishlariga yordam beradi.

b. Feedback mexanizmlari: Ta'lim jarayonida o'qituvchilarga doimiy feedback berish orqali ularning metodik faoliyatlarini tahlil qilish va yaxshilash. Bu metodik xizmat ko'rsatishning samaradorligini oshiradi.

Faoliyatga asoslangan texnologiyalar.

Faoliyatga asoslangan texnologiyalar o'qituvchilarning amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu texnologiyalar o'qituvchilarni faollashtirish, ularning pedagogik tajribasini oshirish va ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun quyidagilardan iborat:

1. Interaktiv ta'lim texnologiyalari: Interaktiv ta'lim texnologiyalari o'qituvchilarni ta'lim jarayonida faol ishtirok etishga undaydi. Interaktiv doskalar, simulyatsiyalar va multimedia vositalari orqali o'qituvchilarga yangi metodik yondashuvlarni amalda qo'llash imkoniyati yaratadi.

2. Tajriba va tadqiqot asosida metodlarni ishlab chiqish: O'qituvchilarning pedagogik faoliyatida yuzaga kelgan muammolarni tadqiq etish va yangi metodik yondashuvlarni ishlab chiqish. Tajribalar va tadqiqotlar asosida metodlarni ishlab chiqish o'qituvchilarning amaliy ko'nikmalarini yanada takomillashtiradi.

3. O'zaro baholash va feedback: O'qituvchilar orasida o'zaro baholash va feedback mexanizmlarini joriy qilish. Ushbu yondashuv o'qituvchilarning metodik faoliyatini baholash va takomillashtirish imkoniyatlarini yaratadi.

Faoliyatga asoslangan texnologiyalar

Faoliyatga asoslangan texnologiyalar (FAT) ta'lim jarayonida o'qituvchilarning faoliyatini, tajribasini va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish uchun ishlatiladigan innovatsion vositalardir. Bu texnologiyalar ta'limni yanada samarali va interaktiv qilishga yordam beradi, shuningdek, o'qituvchilarning nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash imkoniyatini yaratadi. Quyida faoliyatga asoslangan texnologiyalar haqida batafsil ma'lumot beriladi.

1. Interaktiv ta'lim platformalari

a. Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar: Virtual laboratoriyalar va simulyatsiya vositalari o'qituvchilarga nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlarda

qo'llash imkoniyatini beradi. Masalan, kimyo yoki fizika fanlarida tajribalarni virtual muhitda bajarish orqali xavfsiz va samarali o'rganish mumkin.

b. Online ta'lim platformalari: Moodle, Google Classroom va Canvas kabi platformalar o'quvchilarga onlayn mashg'ulotlar, dars materiallari va interaktiv vazifalarni taqdim etadi. Bu platformalar yordamida o'quvchilar amaliy faoliyatlar bilan shug'ullanib, o'z bilimlarini mustahkamlashlari mumkin.

2. Interaktiv dars materiallari

a. Elektron kitoblar va interaktiv qo'llanmalar: Elektron kitoblar va interaktiv qo'llanmalar ta'lim jarayonida yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun innovatsion materiallarni taqdim etadi. Ushbu materiallar o'quvchilarga o'rganilayotgan mavzuni yanada chuqurroq tushunish imkonini beradi.

b. Multimedia resurslar: Video darslar, animatsiyalar, grafiklar va interaktiv vizualizatsiyalar yordamida o'quvchilar nazariy materiallarni yanada qiziqarli va tushunarli tarzda o'zlashtiradilar. Multimedia resurslar ta'lim jarayonini diversifikatsiya qiladi va o'quvchilarning diqqatini jalb qiladi.

3. O'zaro faoliyat va hamkorlik vositalari

a. Kollaborativ ishlash platformalari: Google Docs, Trello va Slack kabi kollaborativ platformalar yordamida o'quvchilar jamoaviy loyihalarda ishtirok etishlari mumkin. Bu vositalar o'quvchilarning jamoa bilan ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi va amaliy faoliyat orqali bilimlarni qo'llash imkonini yaratadi.

b. Forumlar va onlayn guruhlar: Ta'lim jarayonida forumlar va onlayn guruhlar orqali o'quvchilar o'z fikrlarini baham ko'rishlari, muammolarni muhokama qilishlari va bir-birlaridan yangi ma'lumotlar olishlari mumkin. Bu yondashuv ta'lim jarayonini interaktiv qiladi va o'quvchilarning aktiv ishtirokini ta'minlaydi.

4. Simulyatsiya va rol o'yinlari

a. Rol o'yinlari: Rol o'yinlari yordamida o'quvchilar turli vaziyatlarni simulyatsiya qilish va ularga javob berish orqali amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishlari mumkin. Masalan, tarix yoki ijtimoiy fanlarda tarixiy voqealarni yoki ijtimoiy muammolarni o'yin orqali o'rganish mumkin.

b. Simulyatsiya vositalari: Simulyatsiya vositalari yordamida o'quvchilar real hayotdagi vaziyatlarni imitatsiya qilib, turli muammolarni hal qilish amaliyotini bajaradilar. Bu yondashuv o'quvchilarning muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi va amaliy tajriba orttirishga yordam beradi.

5. Ma'lumotni tahlil qilish vositalari

a. Data analitika: Ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari yordamida o'qituvchilar va o'quvchilar ta'lim jarayonining samaradorligini tahlil qilishlari mumkin. Misol uchun, statistik tahlillar va vizualizatsiya vositalari orqali o'quvchilarning faoliyati va natijalari haqida ma'lumot olish mumkin.

b. Ta'lim tahlil dasturlari: Ta'lim tahlil dasturlari yordamida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini va faollik darajasini kuzatish va baholash mumkin. Bu dasturlar o'quv jarayonini yaxshilash va muammolarni aniqlash uchun kerakli ma'lumotlarni taqdim etadi.

Xulosa. O'qituvchilarga uzluksiz metodik xizmat ko'rsatishning faoliyatga asoslangan texnologiyalarini takomillashtirish, ta'lim jarayonining sifatini oshirish, o'qituvchilarning professional kompetentsiyasini rivojlantirish va yangi pedagogik metodlarni tatbiq etishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy texnologiyalar va metodik xizmat ko'rsatish usullari o'qituvchilarni ta'lim jarayonida faollashtiradi, ularning pedagogik mahoratini oshiradi va ta'lim tizimining samaradorligini ta'minlaydi. Shu bois, metodik xizmat ko'rsatishning samarali texnologiyalarini rivojlantirish va joriy qilish ta'lim sifatini oshirishdagi asosiy yo'nalishlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rasulov, B. (2020). Zamonaviy ta'lim metodologiyalari: Konseptual asoslar va amaliyot. Tashkent: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi.
2. Akbarov, U. (2019). Ta'lim texnologiyalarining samaradorligini oshirish yo'llari. Tashkent: Fan va texnologiya.
3. Jalilov, A. (2021). Innovatsion ta'lim texnologiyalari va ularning amaliyotga qo'llanilishi. Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
4. Ismailov, M. (2018). Metodik xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish: nazariya va amaliyot. Tashkent: Akademnashr.
5. Saidov, I. (2022). Faoliyatga asoslangan ta'lim texnologiyalari: O'qituvchilar uchun qo'llanma. Tashkent: Shahrisabz Publishing House.
6. Jorayev, S. (2023). O'qituvchilarga metodik xizmat ko'rsatishning zamonaviy aspektlari. Tashkent: Ta'lim nashrlari.
7. G'ulomov, K. (2019). Pedagogik texnologiyalar: nazariy va amaliy yondashuvlar. Tashkent: O'zbekiston Pedagogika Akademiyasi.
8. Fazilov, T. (2020). Interaktiv metodlar va ularning ta'lim jarayonidagi ro'li. Tashkent: Iqtisodiyot va ta'lim.
9. Mirzaev, A. (2021). Metodik xizmat ko'rsatishning zamonaviy usullari: tajribalar va tahlillar. Tashkent: Yangi avlod.
10. Turg'unov, Z. (2022). O'qituvchilar uchun uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish: istiqbollar va muammolar. Tashkent: O'zbekiston Ta'limi.

YANGI TIPDAGI ALISHER NAVOIY KORPUSINING IMKONIYATLARI

G'ulomova N.S.,

Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Jahonda mualliflik korpuslarini yaratish va qo'llash ijtimoiy talabga aylanib bormoqda. Mualliflik korpuslari ta'lim jarayonida zamonaviy innovatsion o'quv vositasi, tadqiqotchilar uchun esa eng qulay axborot manbayi, tadqiqot obyekti va predmeti hisoblanishi bilan ahamiyatli. Ushbu maqolada mualliflik korpuslari tilni diaxron aspektida o'rganish, o'rta asrlar tilini tushunish uchun interaktiv vosita ekanligi asoslangan, shuningdek, Alisher Navoiy mualliflik korpusining lingvistik ma'lumotlari bazasi statistik tahlil qilingan. Yangi versiyadagi Alisher Navoiy mualliflik korpusi imkoniyatlari ham ochib berilgan.

Kalit soʻzlar: semantik teg, mualliflik korpusi, lingvistik taʼminot, izohli lugʻat, gʻazal.

Dunyo tilshunosligida til korpuslaridan nafaqat taʼlim jarayonida foydalanish va ilmiy tadqiqot olib borish, balki sotsiolingvistik hamda psixolingvistik tadqiqotlarda ham muhim vositaga aylanishi, ayniqsa, taʼlim jarayonida innovatsion oʻquv quroliga aylanishi korpus lingvistikasining keng koʻlamli soha ekanligini dalillaydi. Bu esa turli til korpuslarining yuzaga kelishiga zamin yaratdi. Natijada XXI asrda tilga ishlov berish, qidiruv tizimini takomillashtirish, taʼlim samaradorligini oshirish uchun matn birliklarini grammatik teglash, semantik tahlil va omonimlarni farqlash, polisemantik soʻzlarni aniqlash uchun semantik teglash ishlari jadallashdi. Korpus lingvistikasida jahon eʼtirof etgan allomalarning mualliflik korpusi (keyingi oʻrinlarda – MK) birliklarini tanlash, ularning lingvistik va ekstralingvistik maʼlumotlarini shakllantirish, lisoniy birliklarni semantik teglash, MK uchun lingvistik taʼminot yaratish yechimini kutayotgan muhim masalalardan boʻlib turibdi[1]. Korpusni takomillashtirishdan koʻzlangan asosiy maqsad quyidagilardan iborat:

1. Alisher Navoiy mualliflik korpusining innovatsion baza va taʼlim resursi sifatidagi ahamiyatini oshirish;

2. Korpus yordamida mumtoz adabiyot materiallari oʻqib-tushunish, oʻquvchilarning badiiy asarni tahlil qilish, shuningdek, lingvistik, adabiy-nutqiy, kompetensiyalarini shakllantirish maqsadida Alisher Navoiy MK bazasini mazkur ijodkorning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi gʻazallarning semantik bazasi bilan boyitish;

3. Gʻazallardagi izohtalab leksik birliklar, jumladan, tarixiy soʻzlarning semantik tavsifini berish va ularning maʼlumotlar bazasini shakllantirish;

4. Foydalanuvchilarning maʼnaviy va mental tafakkurini kengaytirish, tarixga oid bilimlarini oshirish maqsadida tarixiy va madaniy mashhur joy nomlari, mashhur shaxslar nomlarini semantik teglash;

5. Alisher Navoiy gʻazallari leksikasining mazmuniy-semantik kategoriyalari tasnifini tuzish tadqiqot ishimizning asosini tashkil etadi[2].

Mualliflik korpuslarini takomillashtirish texnologiyasi prinsiplari, yangi tipdagi Alisher Navoiy MKdan foydalanishning afzalliklari va uning leksik-semantik teglar bazasiga qoʻyilgan talablar aniqlanib[3], korpusga maʼlumotlarni taqdim etishni konseptuallashtirish tamoyillari nazariy jihatdan asoslandi.

Yangi tipdagi Alisher Navoiy MKni takomillashtirishda asosan, *qoidalarga asoslangan metod* va *statistik metodga* tayanildi. Taʼkidlash joizki, Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” kulliyoti mantiqiy mezonlar asosida tartiblagan. Kulliyot 4 devondan iborat, har bir devonda 650 tadan gʻazal joylashtirilgan[4]. Hozirda oʻzbek adabiyotida XV asr tilini tushunish va tadqiq etish uchun Navoiy asarlaridan koʻp foydalaniladi, shu bois korpus uchun ijodkorning eng sara sheʼrlari jamlangan ushbu kulliyotdagi gʻazallar semantik teglandi va tarixiy soʻzlar qoʻl mehnati bilan hozirgi oʻzbek tilida kontekstual semantik tavsiflandi.

Alisher Navoiy XV asrda yashab ijod qilgan. Oʻrta asrlardagi oʻzbek tili bilan hozirgi oʻzbek tili katta farqlanishga ega. Unda bugungi kun oʻquvchisi uchun

ko'plab iste'moldan chiqqan yoki shakliy ifodasi boshqa holatga o'tgan leksik birliklar mavjud. Ularni biz izohtalab so'zlar deymiz[5]. Bunday so'zlar izohini foydalanuvchiga aniqlashtirib bermasdan, uning semantik guruhi yoki semantik maydonini ko'rsatish mantiqsizlik hisoblanadi. Hozirda Navoiy davri tilining 60%i bugungi kun o'quvchisiga tushunarsiz, ya'ni o'sha davrdagi ko'plab so'zlar arxaiklashgan, iste'moldan chiqib ketgan. Natijada Alisher Navoiy asarlarini to'g'rida-to'g'ri o'qib tushunish uchun maxsus lug'atlar talab qilinadi. Korpusdagi Navoiy g'azallarini o'qish jarayonida tushunish qiyin bo'lgan so'zlarning semantik izohi interaktiv tarzda taqdim etilishi uchun korpus materiallaridagi tarixiy va eskirgan so'zlar 12 ta lug'at yordamida kontekstda anglatgan ma'nosi bo'yicha navoiyshunos mutaxassislar tomonidan qo'l mehnatida aniqlab bazaga kiritildi. Masalan, "Xazoyin ul-maoniy" kulliyotidagi g'azallarda izohtalab "ganj" so'zi 65 o'rinda qo'llangan bo'lib, turli semantik ma'nolarni ifodalab kelgan. E.Fozilov tahriri ostida nashr etilgan "Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'ati"da "ganj" so'zining 6 xil ma'nosi baytlar misolida izohlangan [6]. Aksariyat g'azallarga *ganj* so'zi xazina, boylik ma'nolarini ifodalagan, g'azallarda, shuningdek, boshqa ma'nolarda ham qo'llangan Korpusdan foydalanuvchi kursorni izohtalab so'z hisoblangan *ganj* so'zining ustida harakatlantirsa, misrada qaysi leksik ma'noni anglatib kelishi ma'lum bo'ladi (1-rasm). Bu innovatsion yondashuv orqali foydalanuvchi shu ondayoq izohtalab so'z(shakl)ning aniq ifoda ma'nosini anglab oladi. *Ganj* leksemasi ko'p ma'noli bo'lib, semantik teglashda ham misralarda uchragan barcha ma'nolarini hisobga olish zarur.

Ista yirtuq janda kiyganlarda ma'ni maxzanin	
Kim, bu yanglig' ganj o'lur ul nav' vayronlar aro.	
Atlas-u zarbaft aro n	Semantik izoh:
Kim, xatoyi safhada	ganj – xazina

1-rasm. Alisher Navoiy mualliflik korpusi prototipidagi http://v1.alishernavoicorpus.uz/gazalin_gazal/20/?csrfmiddlewaretoken=17ppht7iQCLs7LfqxXGw2uvtjcJADsJLlQx2615fi8aaWg11oE2CcsCHOcxAw9oD&search_word=ganj sahifada "Badoye' ul-vasat" devonining 20-g'azalidagi ganj so'zining semantik tavsifi.

Bunday kontekstuallik tamoyilidagi asosiy e'tibor qoida asosida muayyan eskirgan so'zning kontekstdagi boshqa so'zlar bilan birgalikdagi ma'nosini aniqlash muhim hisoblanadi. Ushbu metod keyinchalik korpus materiallarini N-gram metodi yordamida avtomatik semantik tavsiflashga xizmat qiladi.


G'azallar konseptuallik tamoyili asosida, ya'ni muayyan so'z o'zi bilan bir baytda kelgan boshqa so'zlar qurshovida, baytning asosiy mazmuniga hamohang tarzda ma'lumotlar bazasida semantik tasnifga ega bo'ldi[7]. 1-jadvaldan ayon bo'lganidek, tadqiqotimizda Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy" kulliyoti devonlarida mavjud 2600 ta g'azaldagi 266 811 ta so'zshakl semantik qayta ishlandi. 2-jadvalda korpus bazasida semantik tavsifga va tegga ega bo'lgan mumtoz adabiyotga xos adabiy-janriy birliklar statistikasi berildi.

2-jadval. Alisher Navoiy mualliflik korpusi bazasidagi semantik teglangan birliklar statistikasi.

Teglangan soʻzlar	Maqol	Iboralar	Talmlar	Tanosil	Tazod	Tashbih	Tasdir	Tasbeʼ
266 811 ta	124	92	883	2500	253	124	145	32

Yangi tipdagi Alisher Navoiy korpusi 8 boʻlimdan tashkil topgan[8]:

1-boʻlim: Bosh sahifa. Bunda Alisher Navoiy yashagan davrdagi Hirot koʻrinishi aks etgan fon (1), Navoiy siymosi (2), shoirning barhayotligini anglatuvchi koʻtarilayotgan quyosh shuʼlalarining 3D effekti (3), Alisher Navoiy hikmatlarini namoyon etib turuvchi bitik (4) – barchasi jam boʻlib, Alisher Navoiy yashagan davr va uning ijodi haybati illyustratsiyasini berishga xizmat qilgan.



1-rasm. Alisher Navoiy mualliflik korpusining bosh sahifasi.

2-boʻlim: “Tarjimayi holi” boʻlimidan Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyati haqidagi maʼlumotlar joy olgan.

3-boʻlim: “Devonlari” deb nomlanib, Alisher Navoiyga tegishli 9 ta devon matnlari (muxlislari tomonidan tuzilgan “Ilk devon” bilan birga). “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi 2600 gʻazal va sheʼriy sanʼatlar, maqol va iboralar (turgʻun birikmalar) semantik teglangan holda taqdim etilgan.

4-boʻlim: “Asarlari” deb nomlangan boʻlimda Alisher Navoiyga tegishli 24 asarning pdf shakli (qasidalar; ilmiy, badiiy, tazkira, tarixiy, diniy mavzularda yozilgan) oʻrin olgan. Mazkur asarlarni oʻqish va saqlab olish imkoniyati ham mavjud.

5-boʻlim: “Hikmatlari” deb nomlangan boʻlimda 9 kategoriya boʻyicha jamlangan hikmatlar oʻrin olgan.

6-boʻlim: “Ilmiy tadqiqotlar” boʻlimida mazkur korpusga oid tadqiqot natijalari, Alisher Navoiy mualliflik korpusining ahamiyati, dolzarbligi, korpusning ilmiy, ijtimoiy, taʼlimiy va tarbiyaviy ahamiyatini yorituvchi ilmiy maqolalar, til korpusini yaratish texnologiyasi, korpus matnlarini qayta ishlash bosqichlari xususidagi ilmiy ishlar joylashgan.

7-bo'lim: “Yangiliklar” bo'limida loyiha doirasida amalga oshirayotgan ishlar to'g'risida, taqdimotlar haqida ma'lumotlar berib boriladi.

8-bo'lim: “Korpus haqida” bo'limida til korpusi ta'rifi, mualliflik korpusining boshqa korpuslardan farqi, Alisher Navoiy MKni yaratish dolzarbligi va uning ahamiyati, korpusning semantik bazasi kabilar xususida savol-javob tarzida ma'lumotlar berilgan.

Xorijiy qiziquvchilarni ham e'tiborga olib, interfeys 4 (o'zbek, ingliz, turk, rus) tilda ishlab chiqilgan. Korpusning asosiy vazifalaridan biri hisoblangan qidiruv tizimi va g'azallardagi izohtalab so'zlarning ma'nosini interaktiv tarzda chiqarish imkoniyatini yaratish uchun JavaScript hamda JQuery dasturlash tili va frameworkdan foydalanilgan, yaratilgan JS fayl tegishli fayllar bilan ulangan.

Alisher Navoiyning so'z qo'llash mahorati yuksakligi fasetli tasnifni yuzaga keltiradi. Buning uchun sememalar komponent tahlil qilinadi. Natijada muayyan leksik birlikning bir necha semantik guruhga mansub bo'lishi aniqlanadi, ya'ni bir so'z ma'nolari bo'yicha bir necha semantik guruhga tutashadi va fasetli tasnif yuzaga keladi. Bunday tasnif usuli korpus materiallaridagi barcha so'zlarning kontekstual tushunchasi asosida o'z semantik guruhiga ega bo'lishiga olib keladi. G'azaldagi so'zlarni leksik-semantik guruhlariga ajratish orqali shoirning uslubini, so'zni qo'llash mahoratini, aniq va to'liq tarzda, qisqa vaqt ichida bilish imkoniyati mavjud bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Korpus lingvistikasi. [Matn]: uslubiy qo'llanma / A. Abjalova. –Toshkent: Nodirabegim, 2022. – 110 b.
2. Abjalova M., Gulomova N. Author's Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182-187. Impakt Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919546
3. Abjalova M., Iskandarov O. Methods of Tagging Part of Speech of Uzbek Language. // IEEE – UBMK – 2021: 6th International Conference on Computer Science and Engineering. 15-16-17 September 2021. Ankara – Turkey. DOI: 10.1109/UBMK52708.2021.9558900. – pp. 82-85. Impakt Factor 5.
4. Abjalova M. O'zbek tili ontologiyasi: yaratish texnologiyasi va konsepsiyasi. [Matn]: monografiya / M. Abjalova. – Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 215 b. ISBN 978-9943-7804-5-3
5. G'ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi va uning imkoniyatlari. // Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim va istiqbollar. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. Elektron nashr/ebook. – Toshkent: ToshDO'TAU, 22.04.2022. – B. 89-93.
6. Abjalova M., G'ulomova N. Alisher Navoiy korpusini yaratish texnologiyasi. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti. O'zbekiston: til va ma'naviyat. Lingvistika. ISSN 2181-922X. 2023 Vol. 4 (1). – B. 14-32.

АЛИШЕР НАВОИЙ АСАРЛАРИДА КОМИЛ ИНСОН ҒОЯСИНИНГ УЛУҒЛАНИШИ

Суванова М.Х.,

Навоий вилояти ПММ доценти, ф.ф.ф.д.

Инсониятнинг шу кунгача босиб ўтган мураккаб ривожланиш йўли мақсадларга фақат ва фақат узлуксиз маънавий тарбия билангина эришиш мумкинлигини исботлаган. Маънавият – инсон ҳаётининг асоси. Иродани бақувват қиладиган ва виждонини уйғотадиган бекиёс куч. Барча дунёқарашнинг муҳим мезонидир.

“Ер юзида қанча инсон, қанча тақдир бўлса, ҳар бирининг ўз маънавий олами бор. Маънавиятни англаш учун инсонни англаш керак. Шунинг учун ҳам ўзлигини, инсоний қадр-қимматини англаб етган ҳар қандай одам бу ҳақда уйламасдан яшашини тасаввур қилиш қийин”, - деб ёзади Ўзбекистон Республикасининг биринчи Президенти Ислом Каримов “Юксак маънавият-енгилмас куч” асарида. Мумтоз адабиётимиз намоёндаси Алишер Навоий даҳоси ва унинг асарларидаги қаҳрамонлар тимсолида комил инсонни англаш унчалик қийин эмас. Миллат қалбини билиш, халқимиз ҳамиша умумбашарий тараққиёт марказида яшаганини, ўзига хос ҳаёт қоидалари ва тафаккур тарзига эга миллат эканини, бировдан ўрганишдан кўра ўргатишга арзирли мероси кўплигини бошқаларга англатиш ҳар бир ўзбекнинг бурчидир.

Донишмандлар айтганидек, илм, китоб-кўнғил шамчироғи. Авлодларимиз ўз аجدодлари қолдирган маънавий меросларини билишлари, уларга муносиб бўлиб яшашга интилишлари керак. Бунинг учун эса уларни китоб билан дўстлаштириш лозим. Зеро, аҳли илмлар айтганидек: “Китоб қалбни ёритади, инсонни юксакликка кўтаради, энг яхши орзу-истакларни уйғотади, ақлни чархлайди”. Алишер Навоий: “Бу дунё – кўхна карвонсарой, карвонлар ҳали тўхтаб улгурмасдан кўчиш ноғораси чалинади” - дейди. Аслида ҳам ақли расо одам бебаҳо нарсага эмас, икки дунё саодатига муҳаббат боғлайди. Ҳазрат Навоий айтадики, булут ўз сувларини экинлар униши учун сочгани туфайли ҳам у “гардунжаноб” бўлди – юксакликка кўтарилди, дўл дов-дарахтлар мевасига зарар етказгани учун ҳам қора тупроққа қорилди, дейди. “Режа чекмай зеб берилган боғ” ва чангалзорни фарқсиз кўради. Шатранж доналари тартиб билан терилмаса, мақсад сари йўналтирилмаса, улар бир уюм ёғоч холос, дейди. Инсон ўз ҳаётини улуснинг навобахш бўлиш йўлида бахшида этиши, ўзидан яхши ном қолдириб, ажаб, чин саодатга эришиши лозимлигини, бунинг учун худди шам каби фидойи бўлиш кераклигини таъкидлайди.

То хирсу ҳавас хирмани барбод ўлмас,
То нафсу ҳаво қасри барафтод ўлмас,
То зулму ситам жониға бедод ўлмас,
Эл шод ўлмас, мамлакат обод ўлмас.

Навоийнинг ушбу сатрлари қайси замон ва маконда янграмасин, инсонга ахлоқ, дид, эътиқод, тасаввур ва тафаккурнинг энг эзгу ғояларидан, ҳар қадамда маънавий жасорат ҳисси билан яшаш саодатидан сабоқ беради. Алишер Навоий саҳийликни комилликка элтажак йўл дейди. Аммо бугун атрофимиздаги кўп одамларнинг бу борадаги тушунчаси, дунёқараши, исрофгарлиги улуғ шоирнинг: “Ёр анга суфраки – ул оч эмас, берур анга тўнки – яланғоч эмас”, - деган ҳикматини эсга солади. Улки эл кўрмагунча бермас – лаимдур (хасис, очкўз ва пасткашдир), саҳий эмас. Тилаб берганни ҳам саҳодан йироқ бил; ибром (қистов) билан бергандан бермагани яхшироқ бил. Битта ўтмакни (нонни) икки бўлуб, ярмин бир очга берганни саҳий де, ўзи емай барин муҳтожга берганни ахий (жавонмард) де, - дея уқтиради Навоий.

Алишер Навоий адабиётнинг башарият ҳаётида тутган ўрнини тўғри ва чуқур тушунган. Жумладан, у ўзининг муқобилсиз “Хамса”сида шахснинг комил инсон билан етишиш учун нималардан ўзини тийиши, ҳазар қилиши, аксинча, қандай хулқ-атворга, ҳислат ва фазилатларга рағбат кўрсатиши лозимлигини юксак маҳорат билан тасвирлаб беради. Шоирнинг инсон ҳақидаги фикрлари “Хамса”нинг “бисмиллоҳ”идан бошланади, яъни унингча, “бисмиллоҳир раҳмонир раҳийм” шундайин бир бебаҳо маржондирки:

Ҳар дур анга жавҳари жондин фузун,
Ғиймат аро икки жаҳондин фузун.

Ана шундай дурлар тузилган маржоннинг ипи эса “жаҳону жон” риштасидур. Агар буларни биз маржоннинг хусусияти деб қабул қилсакб унинг фазилати бошқа ҳолатда намоён бўлади. Кимки, шу маржонни тасбиҳ этиб, кўнгил билан ҳақ йўлига ҳаракат қилса, ганжи бақони (абადийлик ҳазинасини) қўлга киритади.

Нега инсон бунчалик шарафга лойиқ ва эъзозли? Чунки, у ўзга махлуқотлардан фарқ қилиб, Оллоҳнинг каломига комил: бундан ташқари, у яратганнинг яширин сирларини ўзида ташувчи, гўё Оллоҳ ҳикматлар ҳазинасининг бир бўлаги бўлган махлуқдир:

Турфа камолингга доғи комил ул,
Сирри ниҳонингга доғи ҳомил ул.
Кўнглига қилдинг чу яқин ганжи қисм,
Жисмини ул ганжга қилдинг тилсим.

Шунинг учун ҳам инсон, шаънига: “каррамно-бошқа махлуқлардан мукаррам қилдик”. “Аҳсани тақвим – энг чиройли яратилган”, деган мактовлар ёзилган.

Инсон, қолаверса комил инсон Алишер Навоий талқинига кўра, Тангри таоло томонидан ожиз, ҳикмат ва фазилатлардан холи сифатида яратилмаган. У – Оллоҳнинг мўъжизалар ҳазинаси. Шу билан бирга инсон комил ақл ва фаҳмга эга бўлган ориф махлуқдир.

Маънавиятга таянган инсон икки дунё саодатига, яъни комил инсон даражасига эришади. Шундай фарзандлари кўп миллат абадул-абад ҳаётни

англаб, ўзгаларга ҳам англаиб яшайди. Алишер Навоий ҳикмати, насиҳати, дуоси билан айтганда, инсон “қуёшлик истаса”, “касби камол эт” иши - ҳар ишда мукамалликка, баркамолликка интилиб яшаши лозим.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ALISHER NAVOIY ASARLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

*Karimova N.R.,
Andijon viloyati PMM katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda Navoiy asarlaridan foydalanishning ahamiyati va samarali usullari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: mumtoz shoir, axloqiy fazilat, tanqidiy fikrlash, hikmatli so'z.

Alisher Navoiy – o'zbek adabiyotining buyuk siymosi, mumtoz shoir va mutafakkir bo'lib, uning asarlari yosh avlod tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari Navoiy ijodidan foydalanish orqali bolalarni ma'naviy yetuk, vatanparvar, odobli va bilimga chanqoq qilib tarbiyalashlari mumkin. Uning she'rlari, hikmatli so'zlari va dostonlari axloqiy, tarbiyaviy va didaktik jihatdan boy bo'lib, ta'lim jarayonini yanada mazmunli qilishga yordam beradi. Alisher Navoiyning boy merosidan ta'lim-tarbiya jarayonlarida keng, o'rinli foydalanish, o'sib kelayotgan avlodning har tomonlama kamol topishishiga yordam beradi.

Boshlang'ich ta'limda Alisher Navoiy asarlaridan foydalanishning tarbiyaviy ahamiyati juda katta. Boshlang'ich sinf o'quvchilari hali hayotiy tajribaga ega emasligi sababli, ularga yaxshi va yomonni farqlashda, odob-axloq qoidalarini tushunishda yordam berish muhimdir. Navoiy asarlarida uchraydigan axloqiy pand-nasihatlar bolalarni ezgulikka yetaklaydi. Uning she'rlari, dostonlari va pand-nasihatlar bolalarga axloqiy fazilatlarni o'rgatishda, ularni ezgulik, mehr-oqibat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Navoiy she'rlari bolalarda odob-axloq, halollik, sabr-toqat, rostgo'ylik kabi fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

“Odamiy ersang, demagil odami,

Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami.”

Bu misralar orqali bolalar odamlarga mehribon bo'lish, ularning dardiga sherik bo'lish kerakligini, hayotda insonlar bir-birlariga yordam berish, odamiylikni ardoqlashga o'rganadilar. Navoiy asarlarida vatanparvarlik, xalq va yurt uchun xizmat qilish g'oyalari ilgari suriladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga uning vatan haqidagi she'rlari tushuntirilsa, ular yurti, tili va milliy qadriyatlarini sevib ulg'ayadi, hamda ilm-fan va mehnatning inson hayotidagi ahamiyatini anglaydilar. Uning hikmatli so'zlari bolalarni bilim olishga, ijod qilishga undaydi:

1.”Har kimki ilm izlagay, topqusidur,

Har kimki topti qusir, aning o'qusidur.”

2.”Aql birla ish qil, aql anglamoq uchun,

Aql qilmagan ish, qolur qilmog' uchun.”

3.”Ilm sirlarin o'rganing, qimmatli durdir,

Ilmda rivoj topgan inson shoh bo'lur."

4."Mehnat ila erur har ne tilaging,
Mehnatsiz erur elga tilaging."

Bu misra orqali bolalar har bir ishni o'ylab, aql bilan qilish lozimligini tushunadilar. Ushbu baytlar o'quvchilarni ilm olishga intilishlarini o'stiradi va mehnat qilishga rag'batlantiradi. Bu bolalarda yoshligidan qunt bilan o'qib o'rganishga undaydi.

Bobomiz asarlarida sadoqat, do'stlik, insonlarga mehribon bo'lish, boshqalarga yomonlik qilmaslik haqida go'zal misralar yozilgan bo'lib, dars jarayonlarida ulardan foydalanish, o'quvchilarning nutqini o'stiradi.

1. "Do'st do'stni unutmas, yomon kun bo'lganda,
Birga kulgan do'st emas, yig'lay olgan do'st."

2. "Chin do'stlikning asosi – sadoqatdur,
Sadoqatsiz do'stlik – bir quruq so'zdir."

Bu misralar orqali bolalar chin do'stlikni tushunadilar va mehribon bo'lishni o'rganadilar.

4-sinf O'qish savodxonligi darsligining II-qismida berilgan "Do'stlikda gap ko'p ekan" ertagining yakunida Alisher Navoiyning shunday o'gitlari keltirilgan;

Nodon do'stni do'st soniga kiritma. Chunki u nodonligi tufayli senga zarar yetkazadi.

Bu o'gitidan maqsad—nodon odamlar bilan muloqot qilishning zararli ekanini tushuntirishdir. Nodon odam – bilim va tushunchasi cheklangan, tajribasiz yoki noto'g'ri fikrlaydigan kishi. Nodon do'st – bu faqatgina johilligi sababli emas, balki yaxshi niyatda ham bo'lsa, inson hayotiga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan kishidir. Hayotda ko'pincha, aqlli dushman odamga ko'proq foyda keltirishi mumkin, chunki u odamning xatolarini fosh qiladi, uni hushyor bo'lishga undaydi. Ammo nodon do'st, insonni noto'g'ri yo'lga boshlashi mumkin. Navoiyning ushbu o'gitidan kelib chiqib, inson do'st tanlashda ehtiyot bo'lishi kerak. Har qanday do'st ham foydali emas, aksincha, ba'zan nodon do'stning yordami ko'ra, aqlli dushmanning tanqididan ko'proq saboq olish mumkin ekanligini tushuntirish zarur.

"Dilingga kelgan so'zni aytmagil,
O'ylamay aytsang, o'zing kuyarsen."

Bu kabi pandlar bolalarni odobli, do'stlariga mehribon va ehtiyotkor bo'lishga o'rgatadi. Tarixdan ma'lumki, insonlar asrlar davomida adolat, halollik kabi insoniy tuyg'ularni qadrlab kelgan. Navoiy adolatli bo'lish, birovning haqini yemay, halol yashash haqida ko'plab hikmatli so'zlarni yozgan. Ularning mazmuni boshlang'ich sinf o'quvchilariga tushunarli shaklda yetkazilsa, bolalarda hayotga to'g'ri qarash, o'zgaralar haqidan qo'rqish kabi xislatlar shakllantirib boriladi.

Navoiy ijodida insoniy fazilatlarni ulug'lash, yomon odatlardan qaytarish asosiy o'rinni egallaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga uning axloqiy mazmundagi hikmatli so'zlari tushuntirilsa, ular jamiyatda o'zlarini qanday tutish kerakligini anglab yetadilar. Alisher Navoiy o'z asarlarida vatanparvarlik g'oyalarini ilgari suradi. U yurtga sadoqat, el-yurt ravnaqi yo'lida xizmat qilishni

ulug'laydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bu juda muhim, chunki ular yoshlikdan o'z yurti va xalqini sevib ulg'ayishi kerak.

1. "El yurtini obod etmak, do'stlik ila saodatdir."

2. "Elga xizmat qilmoq, ulug' saodatdur,
Vataningni unutmok, ulug' shafqatsizlikdur."

Mazkur fikrlar bolalarni o'z yurtining taraqqiyotiga hissa qo'shishga undaydi.

Bu boshlang'ich sinf o'quvchilarida haqiqatparvarlik, adolat va halollik fazilatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, bugungi kunda yangi avlod darsliklariga Alisher Navoiyning yuqorida keltirilgan pandlari, she'r va g'azallaridan ko'proq namunalar kiritilishi lozim. Chunki boshlang'ich ta'limda Alisher Navoiy asarlarini o'qish va o'rganish bolalarni har tomonlama komil inson bo'lib shakllanishiga yordam beradi. Ularning axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ma'naviy yetuklikka yetaklaydi va ularda milliy g'ururni shakllantiradi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim darsliklarida Navoiy asarlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratish juda muhim. Navoiyning hikmatli so'zlari va pand-nasihatlarini yod olish orqali o'quvchilar ularning ma'nosini anglab, hayotda qo'llashni o'rganib boradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.E.Toirova O'qish savodxonligi Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik II-qism/ -Toshkent: "Novda Edutainment" nashriyoti, 2023.

2. M.E.Toirova O'qish savodxonligi Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik I-qism/ -Toshkent: "Novda Edutainment" nashriyoti, 2023.

АЛИШЕРА НАВОИ - СИМВОЛ ПРОГРЕССА СВОЕЙ ЭПОХИ

Хамидова Г.Ю.,

старший преподаватель кафедры «Методика преподавания языков»

Бухарского областного центра педагогического мастерства

Аннотация. В статье проанализированы особенности жизни и художественного творчества Алишера Навои, говорится о начале новой страницы в литературе тюркских народов. Его литературно-художественное, суфийско-философское наследие и изучение этого наследия актуальны и сегодня.

Ключевые слова: Алишер Навои, мировая литература, Хамса, Газель, поэзия

Abstract. Alishir Navai is the beginning of a new page with a special influence in world literature, especially in the literature of the Turkic peoples. His literary and artistic, Sufi and philosophical heritage and the study of this heritage are still relevant today. The article analyzes the features of the life and artistic work of Alishir Navai. Alishir Navai is the beginning of a new page with a special influence in world literature, especially in the literature of the Turkic peoples.

Keywords: Alishir Navai, world literature, Khamsa, Gazelle, poetry

Глубокий смысл вложен в слова «Без языка нет нации». С этой истиной никак не поспоришь. Известно, что основоположником узбекского языка и родоначальником узбекской классической литературы по праву считается Алишер Навои, оставивший потомкам богатое литературное наследие. Он был выдающимся представителем узбекской литературы, который открыл читателю красочный, необычайно образный мир своего народа. Деятельность и творчество этого великого поэта и государственного деятеля является уникальным образцом служения народу и стране. Его произведения переведены на разные языки мира и на протяжении веков неоднократно публиковались во многих странах мира. Поэтому мы с гордостью можем сказать, что творческое наследие Алишера Навои является духовным достоянием не только узбекского народа, но и всего человечества.

Навои писал стихи, поэмы, прозаические произведения, научные трактаты, всесторонне раскрывающие духовную жизнь Средней Азии XV в. Большое значение он придавал тому, что человек владеет разумом и говорил, что это великий дар, данный свыше, и с разумом не сравнятся никакие алмазы и рубины. В своих стихах он воспевал такие качества, как скромность, доброта, любовь к Родине, к людям. Все эти ценности являются ценностями во всём мире. Поэзия Навои — это сборник об образе жизни человека. Практически во всех его поэтических произведениях воспеваются благородство, щедрость, справедливость, терпеливость, умение противостоять трудностям. Он осуждает вражду, зависть, ненависть, зло, скупость, жадность, ложь и другие отрицательные человеческие качества. Призывает стремиться к совершенству, жить благими делами, отмечает, что человека нужно оценивать не по национальной, половой или религиозной принадлежности, а по его человеческим качествам. Потому и в произведениях его воспеты герои разных наций и вероисповеданий, представители многих народов.

Одним из лучших лирических произведений Алишера Навои является «Сокровищница мыслей». В него вошли четыре цикла – «Чудеса детства», «Редкости юности», «Диковины среднего возраста» и «Последние советы старости», содержащие около 2500 газелей. Вершиной творчества и самым значительным литературным трудом является «Хамса» («Пятерица»), которая состоит из пяти поэм: «Смятение праведных», «Фархад и Ширин», «Лейли и Меджнун», «Семь планет», «Стена Искандера». Это воистину художественная энциклопедия с глубокой философской основой, поднимающая много важнейших вопросов того времени: о государственной власти, о нравах, воспитании, о высоких идеалах любви и дружбы, о науке и т.д.

Навои высоко ценил человеческий разум и науку. «Знания и мудрость – украшение человека», – говорил он. В его поэтических и прозаических произведениях широко представлены вопросы воспитания и обучения. Педагогические взгляды Навои глубоко гуманистичны. Большое внимание он уделял вопросам формирования и воспитания ребенка, которого считал

светилом в доме, приносящим в семью радость и счастье. «Ребенку, - говорил Навои, – с малых лет необходимо дать правильное воспитание, сообразуясь с возрастом, а к изучению наук надо приступать как можно раньше. Овладение науками и ремеслами – должны быть полезны народу, ибо тот, кто получил знания и не сумел их применить, похож на крестьянина, вспахавшего поле, но не засеявшего его». И как продолжение этих мыслей - любовь к родному языку, которая у поэта не имела границ. Навои обработал и довёл староузбекский литературный язык до классического совершенства, используя его не только в стихах и поэмах, но и в научных трактатах.

«Словами можно смерть предотвратить,

Пока не вызрели слова, сказать их не спеши:

Словами можно мертвых оживить», - писал великий мудрец.

Надо особо отметить, что имя Алишера Навои является символом прогресса своей эпохи для народов всего мира. Его имя находится рядом с такими именами классиков мировой литературы, как Гомер и Данте, Рудаки и Фирдоуси, Низами и Руставели, Саади и Джамии, Шекспир и Пушкин. С тех пор, как жил Навои, прошло более пяти веков. Значение творчества поэта никогда не уменьшалось. Каждое поколение находит в ней что-то для себя. Потому что, строки великого сына узбекского народа Алишера Навои воспевают любовь к жизни, достоинства человека-творца, дружбу между людьми, свободу и мир:

Поймите, люди всей земли:

Вражда – плохое дело,

Живите в дружбе меж собой –

Нет лучшего удела.

Это пророческое обращение сегодня очень актуально и звучит как важнейшее напутствие потомкам. Литературное наследие поэта велико: около 3000 произведений разных жанров. Алишер Навои, стихи которого переведены на многие языки, писал не только тексты песен, но и большие произведения. Он посвятил много произведений политической тематике, раскрывая в них свои взгляды на принципы государственного устройства. Утверждая наиболее прогрессивные идеи времени, он выдвинулся в ряд выдающихся умов эпохи и вывел узбекскую литературу на мировую арену. Поэтому, литературное наследие гениального Алишера Навои сегодня стало уже достоянием всего прогрессивного человечества.

В заключение хочется сказать, что светлый образ выдающегося гуманиста, поэта, просветителя, патриота и борца за справедливость Алишера Навои будет вечно жить в памяти не только узбекского народа, но и всего человечества. Прошло более пяти веков, а занявшие достойное место в сокровищнице мировой культуры произведения великого мыслителя, в которых сконцентрированы энциклопедические знания, служат новым и новым поколениям. Так и будет впредь, ведь в творениях поэта воспеты светлые идеи, близкие человечеству во все времена.

Литература

1. Бертельс, Е.Э. (1965) Избранные труды: Навои и Джами. том. 4. Изд-во восточной лит-ры.
2. Болдырев А. Н. (1952) Персидские переводы «Маджалис ан-Нафаис» Навои // Учёные записки ЛГУ. Л., Сер. 128. Вып. 3.
3. Боровков, А. К. (1946) Алишер Навои как основоположник узбекского литературного языка // Алишер Навои. М., с. 92-120.

“XAMSA” VA QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIK

Quvonov Z.,
Navoiy davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Maqolada Alisher Navoiy ijodining komprativistik jihatdan o'rganish muammolari va bu borada olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilingan. Qiyosiy metodda yaratilgan tadqiqotlarda Navoiy asarlarini dunyo adabiyoti durdonalari bilan taqqoslash, o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini kuzatish hamda ta'sirlanuv omillarini xususida mulohazalar bildirilgan. Shuningdek, adabiyotshunos S.Melining Navoiy, Dante va Shekspir asarlarining qiyosiy tahliliga bag'ishlangan maqolalari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: adabiy komprativistika, qiyosiy-tarixiy metod, doston, tragediya, ishq, matn, obraz.

Аннотация. В статье анализируются проблемы компративистского изучения творчества Алишера Навои и исследования, проводимые в этом направлении. В исследованиях, созданных сравнительным методом, произведения Навои сравниваются с шедеврами мировой литературы, отмечаются их сходства и различия, делаются комментарии о влияющих факторах. Также проанализированы статьи литературоведа С. Мели по сравнительному анализу произведений Навои, Данте и Шекспира.

Ключевые слова: литературная компративистика, сравнительно-исторический метод, эпос, трагедия, любовь, текст, образ.

Annotation. The article analyzes the problems of comprativistic study of Alisher Navoi's works and the research conducted in this direction. In studies created by the comparative method, Navoi's works are compared with masterpieces of world literature, their similarities and differences are noted, and comments are made on the influencing factors. Also analyzed are the articles of literary scholar S. Meli on the comparative analysis of the works of Navoi, Dante and Shakespeare.

Keywords: literary comprativistics, comparative-historical method, epic, tragedy, love, text, image.

Alisher Navoiy poetik merosini o'rganishda qiyosiy adabiyotshunoslik yoki adabiy komprativistik yo'sinda tadqiq qilish o'tgan asrning 30-40 yillaridan boshlangan. Rus sharqshunoslaridan Y.Bertels, N.Konrad, V.Jirmunskiylarning bu boradagi amalga oshirgan ishlar diqqatga sazovor [1.,2.,3]. “Qiyosiy”, “qiyosiy-tarixiy” nomlari bilan yuritiladigan bu tadqiq metodida tadqiqot olib borilganda

ikki yoki undan ortiq adabiy hodisalar taqqoslanadi; ilmiy-nazariy umumlashmalar chiqariladi.

Qiyosiy adabiyotshunoslik masalasi jahon olimlari tomonidan izchil o'rganib kelinadi. "Tarixiy poetika", "komparativistika" yo'nalishlari, "madaniy-tarixiy", "mifologik" maktablar, "qiyosiy-tarixiy" va "qiyosiy-tipologik" metodlarning maydonga kelishi bevosita jahon xalqlari badiiy tafakkur namunalarini solishtirib o'rganishning natijasidir. Shuningdek, "formal", "biografik", "psixologik", "sotsiologik", "struktural" metodlar, "germenevtika" singari kompleks talqin usullari ham u yoki bu darajada qiyosiylikka asoslanadi. Umuman, odamzot nima haqida fikr yuritmasin, ikki yoki undan ortiq narsa-hodisani solishtirish yo'lidan boradi. Bu esa qiyosiy adabiyotshunoslikning jahon ilm-faniga xos kompleks ehtiyoj ekanini ko'rsatadi. Rus olimi M. Baxtinga ko'ra: "... matn faqat boshqa matn (kontekst) bilan tutashib turgan holda yashaydi Orqani ham, oldinni ham yorituvchi, mazkur matnni dialog bilan qovushtiradigan nur faqat ana shu matnlarning tutashuv nuqtasidagina porlaydi"[4.384]. Turli adabiyotlarga mansub bo'lgan hodisalarni taqqoslab o'rganish qiyosiy adabiyotshunoslikning maxsus sohasidir.

Alisher Navoiy asarlarini qiyosiy yo'nalishda o'rganilgan qator tadqiqotlar yaratildi [5. 6. 7, 8, 9]. Ularda Navoiy ijodi nafaqat Sharq adabiyoti vakillari, balki G'arb shoirlari ijodiyoti bilan ham qiyosan o'rganilib, bir qator nazariy umumlashmalar chiqarilgan. Qiyosiy-tarixiy metodda yaratilgan tadqiqotlarda Navoiy asarlarini dunyo adabiyoti durdonalari bilan taqqoslash, o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini kuzatish hamda ta'sirlanuv omillarini ko'rsatish holatlari ko'zga tashlanadi. Umuman olganda, qiyosiy adabiyotshunoslik har bir milliy adabiyotni jahon adabiyotining ajralmas tarkibiy qismi sifatida ko'radi va tahlil etadi. Bu esa, o'z navbatida, muayyan bir adabiyotni jahon adabiyoti tarixida tutgan o'rnini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Sharqshunos N.I.Konrad qiyosiy adabiyotshunoslik obyekti bo'lishi mumkin bo'lgan 5 ta jihatga e'tiborni qaratadi: 1.Tarixiy umumiylikka ega millat adabiyotlari qiyosi (mas., fors va tojik). 2. Turli xalqlar adabiyotida tipologik xususiyatlar qiyosi (mas., XIX asr klassik realizmi). 3. Turli makon va zamondagi xalqlar adabiyoti qiyosi (mas., rus va o'zbek adabiyoti). 4. Bir-biriga bog'liq bo'lmagan holda tipologik xususiyatlarga ega bo'lgan adabiyotlar qiyosi (mas., ritsarlik romanlari va yapon harbiy epopeyalari). 5. Xalqlararo adabiy aloqalar qiyosi. Bu o'rinda olim adabiy ta'sir va adabiy aloqalarga alohida urg'u beradi.

Atoqli navoiyshunos Ibrohim Haqqulov "Shekspir mash'ali" nomli traktatida Shekspir asarlarining jahoniy ahamiyati, badiiy o'ziga xosligini talqin qilar ekan, ularning ichidan yoritib turuvchi ma'no-mohiyatini tasavvur falsafasi, sharq donishmadligi bilan bog'laydi. "Hamlet xayolda ham, dardda ham mard. – deydi I.Haqqul. Hamlet obrazini mabodo sharqlik bir ijodkor yaratganda edi, hol va fazilatlarni albatta, tasavvufga bog'lab yoritish zarurati tug'ilardi. Sharqlik orif va darvishlarga Hamlet shu qadar ruhdosh: "Men jon deb sizga biror nima berardimu, lekin hech vaqoyim yo'q – jonimdan o'zga, jonimdan o'zga, jonimdan o'zga..." Uning bu so'zlarini tarki dunyo tuyg'usiga sohib har bir kishi tez tushunadi. Tarkni

ham tark aylagan faqir yo darvish esa yana ham oson anglaydi" [10.15]. Olimga ko'ra, tasavvuf va Shekspir ijodiyoti nihoyatda qiziqarli mavzulardan bo'lib, buni o'rganish Sharq va Shekspir degan sarlavha bilan boshlanishi kerak.

Yuqorida aytganimizdek, keyingi vaqtlarda adabiyotlararo mushtaraklik qiyosiy tadqiqotlar orqali ko'proq amalga oshirilmoqda. 2022-yilda o'tkazilgan "Sharq-u G'arb renessans adabiyoti: Navoiy va Shekspir" mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallaridan o'rin olgan ilmiy-nazariy maqolalar fikrimizni dalillaydi. "Navoiy va Shekspir: oshiq-ma'shuq-raqib" uchligi (Y.Ziyayeva), "Saddi Iskandariy" va "Hamlet"da "bilib qolish" motivi (K.Hamroyev), "Farhod va Hamlet obrazlarining qiyosiy tadqiqi" (S.Avezov), "Navoiy va Shekspir ijodida pari obrazi talqini" (G.Nazarova) va boshqa maqolalarda Navoiy va Shekspir ijodining turli qirralari qiyosan tahlil va talqin qilingan.

Tadqiqotchi Xolida Mamatqulovanning Navoiyning "Layli va Majnun", Shekspirning "Romeo va Juletta" asarlarining qiyosiy tadqiqi" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasida ikki asar solishtirilgan. Har ikki asardagi syujet qurilishi, bosh va ikkinchi darajali qahramonlar talqini, badiiy yechimdagi o'ziga xosliklar muayyan darajada o'rganilgan.

Biz bu o'rinda adabiyotshunos Suvon Melining uch maqolasi: "Dante va Navoiy. Yuksak samodagi uchrashuv", "Alisher Navoiy ishq konsepsiyasi va "Romeo va Juletta", "Ikki toifa ishq: "Layli va Majnun", "Romeo va Juletta" haqida mulohaza yuritamiz. Qizig'i, bu maqolalarda Sharq va G'arb dunyoqarashining o'xshash va farqli jihatlari Navoiy va Dante, Navoiy va Shekspir asarlari, ijodkorlarning badiiy konsepsiyasi nuqtai nazaridan tahlil etilganidir. Munaqqid o'rinli ta'kidlaganidek: "Qiyos inson tafakkur jarayonidagi eng universal usullardan biri. Ikki narsa yonma-yon qo'yilishining o'ziyoq qiyosni tug'diradi hamda qiyosiy tafakkurga yo'l ochadi. Qiyosiy tafakkur samarali ilmiy yo'l bo'lib, narsa yoki hodisaning avval ko'rilmagan qirralarini ochishga, o'sha hodisalar haqidagi bilim kengayishiga, ilm chuqurlashuviga imkon yaraladi. Lekin qiyos mexanistik, ya'ni unda bunday, bunda unday tarzda noijodiy solishtirishdan iborat bo'lmasligi, har bir hodisaning yolg'iz o'ziga xos jihatlari aniqlanishi, shundan keyingina qiyosga o'tilishi lozimdir." [11.49]

V.M.Jirmunskiyning ta'kidlashicha, yozuvchi ijodini unga ta'sir o'tkazgan milliy va xalqaro adabiy an'analar bilan qiyosan o'rganish ham juda katta metodik ahamiyatga ega bo'lib, adibning ijodiy individualligini, milliy va jahon adabiyoti taraqqiyotida tutgan o'rnini aniqlashga yordam beradi.

Adabiyotshunos S.Meli o'zining "Alisher Navoiyning ishq konsepsiyasi va "Romeo va Juletta" nomli maqolasida Navoiy ijodining yadrosi sifatida ishq g'oyasini: "Mir Alisher Navoiyning muazzam ijodi, har bir misra va bayti, bob va butun asaridan eliksirday (al-iksir, obi-hayot) sizib o'tuvchi bir tuyg'u va uyushib maxsus kategoriyaga aylanuvchi" konsepsiya sifatida belgilaydi. Olimning yana bir maqolasida Navoiy va Dante ijodining o'zaro mushtarak farqli jihatlari nuktadonlik bilan qiyoslangan [12.111-116]. Munaqqid bu o'rinda ham yuqoridagi pozitsiyasida turadi: "Alisher Navoiy haqiqatning boshqa muhim tomonini ochadi. Agar inson oshiq bo'lsa, uning ruhi pok bo'lib, o'zi kabi pok ruhlar bilan topishadi,

birlikda (vahdatda) yashaydi. Nopok vujud esa hatto o'z ruhini tutib turolmaydi. Odamni harakatga keltiruvchi, uni tom ma'nodagi Inson aylantiruvchi kuch, hazrat Navoiy nazdida, Ishqdir. Ul zot "Layli va Majnun" dostonida ishqqa qarata deydi: "Falak senga shunday kuch berganki, misni ham oltin qilasan. Inson gavdasining loyi tuproqdan boshqa narsa emas. Sen insonga yaqinlashgach, unga oshnolik qilgach, u qiyomga aylanadi" [13. 10-11].

Maqolada "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" dostonlari Dantening "Ilohiy komediya"si bilan qiyoslanishi shunchaki oddiy taqqoslash bo'lmay, ijodkorlarning badiiy konsepsiyasi o'rtasidagi yaqinlik, G'arbning Sharqdan ta'sirlanishi qiziqarli ilmiy mushohadalar bilan ko'rsatilgan. Yuqorida aytilganidek, har ikki ijodkorning maqsad-muddaosi Ruhni yuksaltiradigan Ishqni kuylashdir. "Ishq buyuk Navoiy talqinida hayot va koinot yaratilishining maqsadimasnadiga qo'yilar ekan, xuddi shu nuqtada u buyuk Dante bilan, uning "Ilohiy komediya" sidagi o'ris danteshunosligi g'alati tuyulgan xotima – yechim bilan mushtaraklikka erishadi". Bu mushtaraklikning olim asarlar xotimasini birlashtiruvchi, yuksak samolarga olib chiqqan Ishq deb ko'rsatadi. Amur (sevgi)ning olamni harakatga keltiruvchi kuch ekaniga imon keltirgani Dante dostonining oxirgi misrasiga (Ruhi uning mahkum Koitsitda minba'd, Tiriklarni esa vujudi aldar) muhrlagan.

Olim matnlararo qiyosni: "Ikki hodisani yuzlashtirish har ikki hodisaning avval ko'rilmagan qirralarini ko'rishga, ilgari uncha namoyon bo'lmagan jihatlarini yoritishga imkon beradi. Ya'ni, ular bir-biriga shu'la tashlab, biri ikkinchisida, ikkinchisi birinchisida aks etadi [13.6]" deb izohlaydi.

"Layli va Majnun" va "Romeo va Juletta" asarlarining qiyosiy tahliliga bag'ishlangan har ikki maqola bir-birini to'ldiradi. Sharqona "ishq" tushunchasi bilan G'arbning ishq dostonining o'ziga xos jihatlari talqin qilinadi. "Ikki toifa ishq: "Layli va Majnun", "Romeo va Juletta" maqolasi to'rt qismdan iborat salmoqdor tadqiqot bo'lib, olimning o'zi ta'qidlaganidek, o'quvchida narsa yoki hodisaning avval ko'rilmagan qirralarini ochishga, o'sha hodisalar haqidagi bilim kengayishiga, ilm chuqurlashuviga imkon yaratgan. Olim tomonidan o'rta tashlangan ilmiy-nazariy xulosalar, jumladan, "Layli va Majnun", "Romeo va Juletta" yetakchi g'oya – ishq nuqtai nazaridan qator mushtaraklik va ayrim tafovutlarga ega ekanligida ko'zga tashlanadi. Bu tafovut – mashhur tasnif, ishq majoziy va ishq haqiqiy hamda Hazrat Navoiy ko'rsatgan uch qism ishq – avom ishq, xavoss ishq va siddiqlar ishq nuqtai nazaridan vujudga kelib, "Romeo va Juletta"da majoziy ishq va avom ishq, "Layli va Majnun"da ilohiy ishq va xavoss ishq amalda ekani kuzatiladi. Ikki buyuk ishqiy asar – ikki toifa, o'zaro farqli ishq va boshq.

Ko'rinadiki, adabiyotshunosligida turli adabiy an'ana doirasida yaratilgan asarlarni qiyosiy jihatdan o'rganish muhim ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo'lib, badiiy asarlarning tarkibiy qismlarini tarixiylik, o'zaro ta'sir va aks ta'sir, obyektivlik va sinkretizm tamoyillari asosida o'rganishga yo'l ochadi. Talqin imkoniyatlarini kengaytiradi, ijodkorning individualligini, milliy va jahon adabiyotida tutgan o'rnini aniqlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бертельс Е. Навоий ва Аттор.Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси нашриёти. 2005. –Б 76.
2. Конрад Н. Ренессанс ва Навоий. Мақола учун қаранг: “Жаҳон адабиёти” журналі, 2006-йил, феврал сони. –Б.208.
3. Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. Восток и Запад. – М.: Наука, 1979. С.498.
4. Бахтин М. Эстетика словесного творчества / Сост. С.Г. Бочаров 2-изд. М.: 1979. С. 384.
5. Муҳиддинов М. “Алишер Навоий ва унинг салафлари ижодида инсон концепцияси” (“Хамса”ларнинг биринчи дostonлари асосида) филол.ф.докторлик диссертацияси. Тошкент, 1995. Б. 290.
6. Маматқулова Х. “Навоийнинг “Лайли ва Мажнун”, Шекспирнинг “Ромео ва Жульетта” асарларининг қиёсий тадқиқи”. Филол.ф.номзоди дисс... Самарқанд, 2009. –Б. 148.
7. Исмоилов И. “Алишер Навоий “Садди Искандарий” дostonининг қиёсий таҳлили” филол.ф.б.ф.д.дисс. Тошкент, 2019. –Б.162.
8. Назарова Д. “Абдурамон Жомийнинг “Сухбат ул-аброр” ва Алишер Навоийнинг “Хайрат ул-аброр” дostonларининг қиёсий таҳлили”. Филол.ф.б.ф.д.дисс.. Тошкент, 2022.-Б. 152.
9. Абдуҳакимова Ю. “Алишер Навоий ва Муҳаммад Фузулий “Лайли ва Мажнун” дostonларининг қиёсий таҳлили” Филол.ф.б.ф.д.дисс.. Тошкент, 2022. –Б. 156.
10. Ҳаққул. И. Шекспир машғали. Шекспир Вильям. Сайланмана. Уч жилдлик. Биринчи жилд. Т.:, Фан. 2007. –Б.614.
11. Сувон Мели. “Икки тоифа ишқ: “Лайли ва Мажнун”, “Ромео ва Жульетта” // “Шарқ-у Ғарб ренессанс адабиёти: Навоий ва Шекспир” мавзусидаги халқаро конференция материаллари. Тошкент, 2022.-Б.700.
12. Сувон Мели. Алишер Навоий ишқ концепцияси ва “Ромео ва Жульетта” // “Жаҳон навоийшунослиги: кеча ва бугун” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция тўплами. Тошкент, 2024 йил. –Б.490.
13. Сувон Мели. Данте ва Навоий: юксак фазоларда учрашув. // “Жаҳон адабиёти” журналі, 1998, феврал. –Б.208.

TA'LIM JARAYONIDA A.NAVOIY MEROSIDAN FOYDALANISH**Xasanova Sh.B.,****Navoiy innovatsiyalar universiteti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

Annotatsiya. Maqolada o'quvchilarni biologiya darslarida A.Navoiy merosidan foydalanish asosida o'quvchilarni ekologik madaniyatini shakllantirish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish, tabiatni asrashga o'rgatish azal-azaldan tadbiiq etib kelinadi. Ta'lim jarayonida

Hadislardan, allomalarning o'gitlaridan foydalanish o'quvchilarni komil insonlar bo'lib shakllanishiga yordam beradi. Biologiya darslarida o'quvchilarda ekologik madaniyatni shakllantirishda A.Navoiyning merosidan unumli foydalanish samarali natija beradi. Ona tabiatni asrab avaylash, tabiiy resurlardan oqilona foydalanish, atrof muhitni obodonlashtirish, hashar ishlarida birdamlikni saqlagan holda ishtirok etish Alisher Navoiyning hayoti va ijodida ham o'z aksini topgan. Alisher Navoiy ser ijod, g'azal mulkining sultoni bo'libgina qolmay, butun hayoti davomida adabiy asarlarini siyosat bilan birlashtirgan. Yuqori mansab egasi bo'lishiga qaramay, mamlakat hayotining ijtimoiy iqtisodiy tomonlama takomillashishiga ulkan hissasini qo'sha olgan, qolaversa, ilm-fan, san'at rivojiga homiylik qilgan, yurtida tinchlik va totuvlikni saqlashga doim harakatda bo'lgan.

Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonlaridagi muqaddimalarda keltirilgan fikrlarga alohida e'tibor berish dostonlar ma'nosi va mazmunida yashirin ramziy ma'nolarni yoritib berishga imkon yaratadi. Aynan muqaddimada buyuk mutafakkirning olam va odam, tabiat, kishilik jamiyati, umr va uning mazmuni haqidagi falsafiy axloqiy qarashlari, ijodkor sifatidagi buyuk salohiyati, va qo'llagan badiiy timsollari tariqasida aks ettirilgan. A. Navoiyning san'at asarlaridagi olamni sevmok, uni asrab avaylamoq his tuyg'ulari insonlarni atrof-muhitga ziyon yetkazmaslikka, butun insoniyat uchun yaratilgan sharoitga shukur qilib yashashga undaydi. Uning bunday qarashlari xalqni oiladan boshlab, jamiyat farovonligi yo'lidagi hayerli ishlarni bajarishga ilhomlantiradi. Bolalarning kamol topishida oiladagi muhitning yaxshiligi, atrof-muhitga ziyon yetkazmaslik, vatanini, ona tabiatni sevmok tuyg'ularini shakllantirishni to'g'ri tashkil etishga qaratilgan. A. Navoiy masnaviyda Hirotdan ketishdan oldin o'zi yashayotgan muhit va sharoitning haqqoniy manzarasini beradi.

Yana bir bukim-zohir o'lmish mango,
Ki chiqmish Huroson elidin vafo,
Vafo azm aylama bo'lmish magar,
Saxoyu muruvvat anga hamsafar.
Bu uch fe'l chiqqan aroldin tamom,
Yana bo'lmish uch fe'l qoyim maqom.

A. Navoiyning ushbu g'azalida ona vatanida bo'lgan sadoqat, eldan vafo, saxo, muruvvat ketganligini, amaldorlar orasida nizo chiqqanligi-yu, vatanning parokanda bo'layotganligi, atrof-muhitning ne chog'liq beetiborda qolib ketganligini ifodalaydi. Bundan tashqari, yurt, xalq dardi bilan yashamoq kerakligini izohlaydi. Allomaning yozishicha, xudoning osmonni ham, yerni ham jahondagi hamma narsalarni yaratishdan maqsadi insonni yaratish, insonni yaratishdan maqsadi irfon edi. Dunyodagi bor mavjudot inson uchun yaratilgan ekan, demak inson o'z navbatida, g'aflatga berilmasdan, atrofini qurshagan borliqning va bu borliqni yaratganning sirlarini bilishga, yashirin hazinalarni ochishga harakat qilishi kerak. Navoiy dehqonlar ishini yengillashtirish maqsadida suvsiz yerlarga suv chiqarib, eski ariqlarni tozalatadi, yangi ariqlar qazdiradi. Natijada ekin maydonlari kengayadi, shaharni suv bilan ta'minlash ham yaxshilanadi.

Xondamirning yozishicha, A. Navoiy 20 ga yaqin xovuz qazdirgan, 16 ta ko'prik va 2 ta to'g'on qurdirgan. Eng qizig'i, u qazdirgan tashlama suvlar tashlanadigan o'ralarni alohida ya'ni yuvinish sulari alohida, oziq ovqat qoldiqlari va suvlarini alohida o'ralarga tashlanishini, ot aravalari qatnovi bo'lgan ko'chalarda daraxtlarni ko'proq o'tqazishni yo'lga qo'yganligida. Bu esa o'z navbatida, insonlarda iymonning yo'qolmasligi, halol va orasta yashamoqni bilishga undagan. Bu sa'y xarakatlar ekologik madaniyatning shakllanishi, oilada va jamiyatda kishilarning atrof-muhitni toza saqlash, unga ziyon yetkazmaslik, yurtning obodligiga befarq bo'lmaslikka o'rgatadi.

1480-yilda Hirot shahri va boshqa viloyatlarda o'z hisobidan bir nechta madrasalar, 40 ta yo'lovchilar uchun bekat, 17 masjidlar, 10 ta so'fiy turar joylari (honaqoh) 9 ta hammom, 9 ta ko'priklarni qurdirgan. Butun umri davomida asarlar yozish va ijod mahsulini yaratish bilan cheklanmagan Navoiy insonlarning yashash sharoitini yaxshilash, farovon va sog'lom turmush tarzini shakllantirishda astoydil harakat qiladi. Hirot bu davrda nihoyatda ko'rkamlashadi, xalq turmushi yaxshilanadi, she'riyat, nafis san'at olami yanada rivoj topadi. Navoiy bundan tashqari, uning tashabbusi bilan bunyod bo'lgan shifoxonalarni kerakli darajada jihozlaydi. Navoiy muassasalar, tashkilotlar, xizmat ko'rsatish sohaslarini doim nazoratda ushlagan, habardor bo'lib borgan. Navoiyga bag'ishlangan tarixiy va ilmiy asarlarda batafsil tavsif qilinishicha, 1469 -1481 yillar Navoiyning ijtimoiy hayot va obodonchilik borasidagi eng faol xizmat ko'rsatgan yillari bo'lgan. Navoiy dehqonchilik ishlarini ham keng yo'lga qo'ygan va aholining bandligini ta'minlashda, dehqonchilik ishlarini to'g'ri tashkil etishda yaxshi natijalarga erishgan. Bejizga Navoiyning hayoti va ijodiga to'xtalib o'tmadik, uning hayoti va izlanuvchanligi mahsuli va asosiy qarashlari hisoblangan obodonchilik, birdamlikdagi hashar va dehqonchilik ishlari o'sha davrda ham davlatning asosiy e'tiborida va yechimini topishi kerak bo'lgan targ'ibot tashviqot ishlari hisoblangan. Yo'qoridagi ma'lumotlardan har bir o'qituvchi o'z darslarida o'quvchilarga mahorat bilan etkaza olishi, biologiya va dabiyot darslari uzviyligini ta'minlay olishi lozim.

Darhaqiqat, bugungi kunda yurt farovonligi, A.Navoiy davridagi umumxashar ishlari, Ona tabiatni asrab avaylash tuyg'ularining insonlarda shakllanishini yurtimizda olib borilayotgan islohatlarda yaqqol ko'rishimiz mumkin. Bir paytlar uyg'ongan, davom etib kelinayotgan ota bobolarimizdan meros hisoblangan qadriyatlarimiz va urf odatlarimiz, an'analarimiz haliham saqlanib kelinmoqda. Biologiya darslarida o'quvchi yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirish, mavzuga oid o'quv mashg'ulotlarini zamonaviy didaktik vositalar va loyihalardan foydalangan holda tashkillashtirish keng yo'lga qo'yilgan. Qolaversa, buyuk bobokalonimiz A.Navoiy izidan borgan holda, o'sib kelayotgan yosh avlodning vatanni sevmok, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, unga zarar yetkazmaslikka o'rgatish, birdamlik va atrof muhitni yanada obod etishda o'z hissasini qo'shishga o'rgatish bugungi kunning asosiy masalalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. В.В.Бартольд. Мир Алишер и политическая жизнь. Сочинения, II/2, Москва, 1964, стр 197- 260;
2. Е.Э.Бертельс. Избранные труды, IV: Навои и Джами, Москва, 1965, 13-20.
3. E.Birnbaum, The Ottomans and Chagatay literature: An Early 16th Century Manuscript of Navai's Divan in Ottoman Orthography, Central Asiatic Journal, Vol.20, #.3 (1976), 157-190.
4. F.A.Belin's Notice biographique et litteraire sur Mir Ali-Chir Nevaii, Journal of Asiatique, XVII [1861]
5. Kelldiyarova Gulmira. Alisher Navoiyning ekologik madaniyatni shakllantirishdagi qarashlari

ALISHER NAVOIYNING “HAYRAT UL-ABROR” VA “MAHBUB UL-QULUB” ASARLARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI

*Turakulova M.,
Andijon viloyati PMM katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur tezisdan A.Navoiyning o'zbek adabiyoti va ma'naviyati tarixidagi ulkan xissasini umri bokiyligi ya'ni xali xanuz dolzarbligini ikki buyuk asari orkali ochib berilgan.

Kalit so'zlar. “Hayrat ul-Abror”, “Mahbub ul-Qulub”, ma'naviyat, ma'rifat, insoniy fazilatlar.

Alisher Navoiy – o'zbek adabiyoti va ma'naviyati tarixida beqiyos shaxsdir. Uning ijodi insonparvarlik, ma'rifatparvarlik va axloqiy tarbiya g'oyalari bilan sug'orilgan. Navoiy asarlarida ma'rifat, adolat, mehr-oqibat, ilm va kasb-hunar o'rganish kabi tushunchalar yuqori qadrlanadi.

Navoiy ijodiga nazar solar ekanmiz, uning ilm va ma'rifatni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili deb bilganligini ko'rishimiz mumkin. Alisher Navoiyning “Hayratul abror” asarida uning pedagogik qarashlari keng yoritilgan. Bu asar insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan bo'lib, inson kamolotida ilmning muhim o'rnini ta'kidlaydi. Navoiy ilmni insonni nodonlik va jaholatdan qutqaruvchi omil sifatida tasvirlaydi va uni insoniy burch deb biladi.

Asarning ikkinchi maqolatida Navoiy ilm tolibining boshidan kechirgan qiyinchiliklarini tasvirlab, yoshlarni har qanday qiyinchiliklarga qaramay, mukammal ta'lim olishga chorlaydi.

Shuningdek, “Hayratul abror”da yaxshilik, saxovat, soflik, hayo, muruvvat, andisha, adab va kamtarlik kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlar targ'ib qilinadi, bu esa Navoiyning pedagogik merosining muhim jihatlaridan biridir. Umuman olganda, “Hayratul abror” asari Navoiyning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini chuqur ifoda etuvchi muhim manba hisoblanadi.

Navoiy mazkur asarda

“Ilm turur chirog'i jahonning,

Kim bilur ilm, anga arzon jahonning”, - deya ta'kidlaydi.

Bu misralardan anglashiladiki, ilmli odam uchun dunyo tor ko'rinmaydi, ilm insonga erkinlik va imkoniyat beradi. Navoiy yosh avlodni ilm olishga, ma'rifatga intiltirishga chaqirgan.

Navoiyning pedagogik qarashlarida tarbiya va axloq muhim o'rin tutadi. U insoniy fazilatlarni – rostgo'ylik, adolat, vafodorlik, va olijanoblikni yuqori baholagan.

“Amal etgay har kimki yaxshilik,
Yaxshilikdan yo‘q erdi yaxshilik”,

– deb yozgan Navoiy insonning yaxshilikka intilishini tarbiyaning asosi sifatida ko'rsatadi. Bunday g'oyalar yoshlar ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va ularni komil inson bo'lib voyaga yetkazadi.

Ulug' mutaffakir va so'z mulkining sultoni uz asarlarida adolat va insoniylik g'oyalarini xam ilgari surgan:

Navoiy jamiyatda adolat va insoniylikka katta e'tibor bergan. Uning fikricha, adolat bo'lmagan jamiyat taraqqiy eta olmaydi. “Hayrat ul-Abror” da Navoiy zulm va nohaqlikni keskin qoralaydi, adolatli boshqaruvni ulug'laydi.

“Podshoh bo'lsa adlu dod etmasa,
Elni zolim qo'lida qo'ysa, necha?”,
– deb, Navoiy adolatli hukmdorni targ'ib etadi.

Mazkur asarida xunar va kasb egallash tugrisidagi teran fikrlarni kurish mumkin. Navoiy yoshlarni hunar va kasb egallashga chorlaydi. U inson hayotida mehnat va hunarning o'rnini yuqori baholaydi.

“Kimki hunar bilur, elda aziz,
Kim hunarsiz, qolur xor va g'arib”,
– deya, inson hunar evaziga jamiyatda obro' qozonishini ta'kidlaydi.

Alisher Navoiyning har bir asari inson ma'naviyatini yuksaltirish, axloqiy tarbiya berishga qaratilgan. Xususan, Navoiyning so'nggi asari bo'lmish “Mahbub ul-Qulub” (“Ko'ngillarning mahbubi”) xalq hayoti, odamlar o'rtasidagi munosabatlar, odob-axloq masalalari bilan boyitilgan, yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega asardir. Bu asar orqali Navoiy o'zining ma'rifatparvar va pedagogik qarashlarini keng yoritgan.

Asarda Navoiy ilm-ma'rifatni insonni zulmatdan yorug'likka olib chiquvchi vosita deb bilgan. Uning fikricha, bilimli inson hayotda adolatli, odil va komil shaxs bo'ladi. Unda ilmning fazilatlari haqida shunday deyiladi:

“Ilm bilan kishi ziyodadur,
Jahl bilan kishi ziyondadur.”

Ya'ni, ilm insonni ulug'laydi, jaholat esa insonni xor qiladi. Navoiy yosh avlodni ilm olishga chorlaydi, bilimli inson har doim jamiyatda hurmat topishini uqtiradi. Mutaffakirning bu asarida xam inson axloqi va tarbiyasini inson hayotining asosiy poydevori deb xisoblagan. U odamlar o'rtasida mehr-oqibat, samimiyat, vafo, va adolat kabi fazilatlarni targ'ib etgan:

“Mard bo'l, g'azabga jo'sh urmay,
Yuz qora bo'lg'ucha, ko'ngul og'ritmay.”

Ya'ni, inson g'azabini bosishi, odamlarning ko'nglini og'ritmasligi kerak. Navoiy yaxshi muomala, xushmuomalalikni odamga hurmat keltiradigan fazilat deb biladi.

Bundan tashkari mehnat va hunarni inson hayotining mazmuni deb bilgan. U halol mehnat qilgan insonni ulug'laydi, tanballikni esa qoralaydi:

“Kimki hunar bila, elda hurmat topar,
Hunarsiz kishi esa xorlikda qolar.”

Navoiy insonni mehnatga chorlaydi. Hunarli inson jamiyatda o'z o'rniga ega bo'ladi, hunarsiz va tanbal inson esa xor bo'lib yashaydi.

Mazkur asarda adolat va insof masalasi alohida o'rin tutadi. Navoiy jamiyatda adolat va insof bo'lsa, xalq tinch va farovon yashashini ta'kidlaydi. U hukmdorlarni adolatli bo'lishga, zulm va nohaqlikdan qochishga chaqirgan:

“Zulm devorini kim qurar,
Uning ustidan o'tib, beqaror borar.”

Navoiy zulmni insoniyatning eng katta dushmani deb biladi. Adolatsizlik oxir-oqibat davlatning qulashiga olib keladi.

“Mahbub ul-Qulub”da Navoiy jamiyatdagi turli toifadagi odamlarni, jumladan, faqirlar, boylar, amaldorlar, dehqonlar hayotini tasvirlaydi. U boylarni kamtar va saxiy bo'lishga, kambag'allarga esa sabr-toqat va halollik bilan yashashga chaqirgan.

“Faqir bo'lsa, boshi ko'tarsin,
Boy bo'lsa, mehr bilan eshik ochsin.”

Navoiy ijtimoiy tenglik va adolat tarafdori bo'lgan.

Alisher Navoiyning “Mahbub ul-Qulub” asari xalq hayotining turli jabhalarini qamrab olgan tarbiyaviy-ma'rifiy qo'llanma hisoblanadi. U ilm-ma'rifat, axloq-odob, mehnatsevarlik, adolat, insoniylik kabi fazilatlarni ulug'laydi. Bu qarashlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Yosh avlodni tarbiyalashda Navoiy asarlari beqiyos ahamiyatga ega.

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki Alisher Navoiyning “Hayrat ul-Abror”, “Mahbub ul-Qulub” asarlarida ma'rifatparvarlik va pedagogik g'oyalar ustuvor o'rin tutadi. Ular ilm-ma'rifat, axloq-odob, mehnatsevarlik, adolat, insoniylik kabi fazilatlarni ulug'lash bilan birga, xalq hayotining turli jabhalarini qamrab olgan tarbiyaviy-ma'rifiy masalalarga javob bera oladigan bebaxo ko'llanmalar sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. "Hayratul abror" – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1981.
2. Alisher Navoiy. "Mahbub ul-Qulub" – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1981.
3. Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. 10 jildlik. – Toshkent: Fan, 1991-2002.
4. Vohidov H. Navoiyning pedagogik qarashlari. – Toshkent: O'qituvchi, 1986.
5. Sultonova D. Navoiy asarlarida tarbiya va axloq masalalari. – Toshkent: Fan, 2000.
6. Ismoilov Q. Alisher Navoiy – ma'naviyat targ'ibotchisi. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.
7. O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 6-jild. – Toshkent: "O'zME" nashriyoti, 2003.

**ALISHER NAVOIY ADABIY- ILMIY MEROSI HAR BIR SOHANI
O'ZIDA MUJASSAM QILGAN BEBAHO BOYLIK**

*Xayitov M.M.,
Namangan viloyati PMM metodisti*

Annotatsiya. Mazkur maqolada buyuk mutafakkirimizning adabiy- ilmiy merosi, uning ahamiyati, asarlaridagi har bir soha haqida o'z davrida kerakli ma'lumotlar bergani haqida so'z yuritiladi. Shuning bilan birga bu fikrlarning bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaganligi dalil va isbotlar bilan ko'rsatilib beriladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, adabiy- ilmiy meros, adabiyot, iqtisod, ma'naviyat, tarbiya.

Аннотация. В данной статье рассматривается литературное и научное наследие нашего великого мыслителя, его значимость и то, что в его произведениях содержится необходимая информация по каждому аспекту своего времени. Также, с помощью доказательств и примеров, показывается, что эти идеи не утратили своей актуальности и сегодня.

Ключевые слова: Алишер Навои, литературно-научное наследие, литература, экономика, духовность, воспитание.

Annotation. This article discusses the literary and scientific legacy of our great thinker, its significance, and how his works provided essential information on every aspect of his time. Additionally, it is demonstrated, with evidence and examples, that these ideas have not lost their relevance even today.

Keywords: Alisher Navoi, literary-scientific heritage, literature, economy, spirituality, education.

Kishilik tarixida o'zining benazir shaxsiyati, umuminsoniy g'oyalarga yo'g'rilgan ijodi bilan o'chmas iz qoldirgan Nizomiddin Mir Alisher Navoiy o'zining adabiy- ilmiy merosi orqali kelajak avlod uchun bebaho boylik, har sohani o'zida jam qilgan ajoyib meros qoldirgan. 51 ming misradan ortiq "Xamsa", 42 ming misradan ortiq "Xazoyin ul-maoniy", "Mahbub ul-qulub", "Muhokamat-ul lug'atayn", "Lison-ut tayr", "Tarixi mulki Ajam", "Majolis un-nafois", "Mezon ul-avzon" va boshqa shoh asarlari har jihatdan yuksak ahamiyatga, qudratli kuch va jozibaga egadir. Bashariyat tamadduni, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizning ma'naviy kamol topishida yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan Navoiy asarlari o'rni va roli har tomonlama beqiyosligini yaxshi bilamiz. Zero, ezgulik va hayot mazmunini o'zining ohangdor satrlari, falsafiy fikrlari, teran tashbehlari, go'zal so'z san'ati bilan yorqin ifoda eta olgan Navoiydek shoir dunyoda kamdan kam topiladi, desak hech qachon xato qilmaymiz. Hozirgi kunlarda Navoiyni tushunish, ijodiy merosini targ'ib va tashviq etishni ilmiy asoslarda tashkil qilish masalasi davlat siyosati darajasiga qo'yilmoqda ekan, navoiyxonlarga muayyan qulaylik yaratilayotgan bir paytda barchaning zimmasidagi mas'uliyat hissi yanada oshadi. Alisher Navoiy nafaqat o'zining asarlari, ya'ni ma'naviy merosi bilan, balki o'zining davlat boshqaruvidagi va jamiyatdagi mavqei bilan ham insonlarga har tomonlama xizmat qilish, uning uchun oliy qadriyat hisoblangan. Bu haqida

uning o'z asarlaridan tortib unga zamondosh bo'lgan tarixchilarning asarlarida ham bir qator qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, Alisher Navoiy o'z moliyaviy ishlarining sarhisobi hisoblangan "Vaqfiya" asarida o'z hisobidan kishilar foydalanishi uchun qurilgan masjid, madrasa, shifoxona, ko'prik, rabot singari inshootlarning ro'yxatini keltirgan. Manbalarda aytilishicha, Navoiy qurdirgan "Xalosiya" xonaqohida har kuni mingdan ortiq faqir miskinlar ziyofat qilingan, kiyim-bosh ulashilgan. E'tiborli jihati shuki, Alisher Navoiy ta'sis qilgan madrasalardagi o'qish-o'qitish tizimining ba'zi o'ziga xos jihatlari, olimlar va talabarga to'lanadigan nafaqa va maoshlar haqida uning "Vaqfiya" asarida ma'lumot berilgan. Unda aytilishicha, madrasadagi har bir dars halqasi (potok)da o'n bittadan tolibi ilm tahsil olgan, ular o'zlashtirishlariga qarab uch tabaqaga – a'lo, vasat (o'rta) va adno (quyi)ga bo'lingan va shu mezon asosida ularga nafaqa (stipendiya) tayinlangan.

Ulug' o'zbek mutafakkir shoiri Alisher Navoiy "Hayratul abror" dostonida adabiyotning ahamiyati, mazmun va shakl birligi, tilning obrazlilik kabi masalalar haqida gapirib, xalq tilini chuqur bilishning ahamiyatini uqtirgan. Uning ta'kidlashicha, tilni yaxshi bilmasdan turib badiiy asarning mazmundor bo'lib chiqishini ta'minlash mumkin emas. Yozuvchi so'z dengiziga suzib, ma'no gavharlarini tera olgandagina yaxshi badiiy asar yozish mumkin: Ul kishi so'z bahrida g'avvosdir Kim guhari anga xosdir O'zbek tili uzoq va boy tarixga ega bo'lgan tildir. Chunonchi, Alisher Navoiy tilini o'rganish masalasini olaylik. Hazrat Alisher Navoiyning buyuk nazmiy va nasriy asarlari so'z boyligi bilan ham, uslubi bilan ham ulkan bir xazina hisoblanib, ularning lisoniy-uslubiy xususiyatlarini o'rganish hamon dolzarb vazifalardan bo'lib qolmoqda.

Hazrat Navoiy "Muhokamat-ul lug'atayn"da turkiy (o'zbek) tilining fazilati "o'n sakkiz ming olamdan ortuq", zeb-ziynat osmoni "to'qqiz falakdin ortuq" tilining fazilat xazinasini "durlari kavokib (yulduzlar) gavharlaridin ravshandaroq", gulshandagi gullari "sipehr axtaridin duraxshandaroq" (ko'k yulduzlaridan ko'ra ochilganroq) bo'lib jilvalanadi. Shoir turkiy (o'zbek) tilini oyoq tegmagan chamanga o'xshatadi. Navoiy bu chaman durdonalaridan o'z ijodida keng foydalandi. Navoiy, shu bilan birga, bu go'zal tilni yanada mukammallashtirish uchun fors va arab tillarining boy imkoniyatlaridan ham ustalik bilan foydalandi va turkiy (o'zbek) tilining qanchalik boy, go'zal va latifligini o'z asarlarida namoyish qildi. Alisher Navoiy turkiy (o'zbek) tilining go'zalligini, boy imkoniyatlarini namoyish qilish, uni qadrlashning katta ijtimoiy ahamiyatini ham yaxshi tushungan. Yagona adabiy turkiy til tarqoq turkiy qabilalarning birlashib, yagona qudratli davlat tuzishga vosita bo'lishini yaxshi anglagan:

Turk nazmida chu men tortib alam,

Ayladim ul mamlakatni yak qalam.

Hech qaysi bir ijod o'zidan oldingi an'analarga aylangan asarlarni o'rganmasdan, undan oziqlanmasdan turib takomilga yeta olmaydi.

Ayniqsa, so'z – buyuk mumtoz shoiri hazrat Navoiy xususida ketganda, bu fikrga yana bir bor amin bo'lish mumkin bo'ladi. Uning asarlariga bo'lgan munosabat esa bir necha asrlardan buyon izdoshlik hamda hamnafaslik

darajasidadir. Ijodkor qaysi bir davrda yashamasin, albatta qayta-qayta Alisher Navoiy asarlariga murojaat etaveradi.

Alisher Navoiy ijodi shunday bir musaffo buloqki, undan ijodkorlar nafaqat huzur, rohat topishadi, balki o'z nomini o'chmaslikka, abadiylikka ham muxrlashiga sabab bo'ladi. Fikrimizga birgina ozar shoiri Fuzuliyning ijodi ham misol bo'la oladi.

XX asr adabiyoti xususida so'z ketganda ham mana shu kayfiyat, mana shu hamohanglik ko'zga yaqqol tashlanadi. Erkin Vohidov o'zining "Shoiru she'ru shuur" asarida quyidagi fikrlarni ta'kidlaydi:

"Biz bugun Alisher Navoiy nomisiz o'zbek madaniyatini tasavvur qilolmaymiz. Uning nurli she'riyati, yorug' siymosi ruhimizga singib ketgan. Shoirning yuksak badiiyat bilan muzayyan bo'lgan, chuqur insonparvar g'oyalar bilan yo'g'rilgan ijodi asrlar osha bizni hanuz o'ziga rom qiladi, ko'ngillarimizni zavqu shafq hamda iftixor tuyg'ulari bilan, ongimizni ezgulik fikrati bilan boyitadi, bizni adolat uchun, inson qalbining mangu erki uchun kurashmoqqa chorlaydi".

Erkin Vohidov to'g'ri ta'kidlaganidek, Alisher Navoiy she'riyatida buyuk qudrat, qandaydir ilohiy mo'jiza yashiringan. Shu bois har doim ijodkorlar uning asarlariga murojaat etar ekan, bu ilohiy qudratni his etib turishadi. Uning so'z ganjasi oldida esa, so'z, fikr aytmoqlikka kuch topa olish zarur bo'ladi.

Yoshlarni ilm-fanni yanada rivojlantirish, iqtidorli va qobiliyatli yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, ularning o'z ijodiy intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun barcha shart-sharoit yaratilayotgan bugungi kunda Navoiy shaxsiga bu qadar e'tibor - ezgu maqsadlarimiz sari yana bir olg'a qadamdir. Buyuk tariximiz, ulug' allomalarimiz ijodini keng targ'ib etish, shu asosda Yangi O'zbekistonimizni butun dunyoga tarannum etish muqaddas vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. — Toshkent: O'zbekiston, 2017. — B. 112]
2. Navoiy, Alisher. To'la asarlar to'plami: 10 jildlik / A.Navoiy; – T.: G'afur Gulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.-768 b.J.6: Xamsa:Hayrat ul-abror. Farhod va Shirin.-812 b
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: G'afur Gulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. –B.
4. Hamidullo o'g'li, T. H. (2022). HOZIRGI KUNNING DOLZARB IMKONIYATLARI. JAWS VA NVDA DASTURLARI. Scientific Impulse, 1(2), 535-537.

ALISHER NAVOIY IJODINI O'QITISHDA VA O'RGANISHDA INNOVATSION YONDASHUV

*Niyozova G.E.,
Navoiy viloyati PMM metodisti*

Annotatsiya: Maqolada amaldagi maktab darsliklarida mavjud Alisher Navoiy asarlarini o'qish, tushunish hamda anglash maqsadida o'qitishning yangi usullarini, modellarini ishlab chiqish hamda o'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlarini inobatga olgan holda ta'lim shakllarini tanlash haqida so'z boradi. Navoiy ijodini o'rganish o'quvchilarda hayotni yanada chuqurroq anglash, hayotiy vaziyatlarga munosib baho berish, adolat, mehr-oqibat, halollik kabi insoniy fazilatlarni shakllantirishda katta maktab vazifasini o'taydi. Shundan kelib chiqqan holda mavzu doirasida dars jarayonida innovatsion usullar, xususan, 5E modeli orqali topshiriqlarni bajarish to'g'risida tavsiya beriladi.

Kalit so'zlar: Raqamli platformalar, 5E modeli, ijodiy va tanqidiy tafakkur, engage – jalb qilish, explore – tadqiq qilish, explain – tushuntirish, elaborate – rivojlantirish, evaluate – baholash.

Abstract: The article discusses the development of new teaching methods and models for reading, understanding, and comprehending the works of Alisher Navoi, which are included in current school textbooks, and the selection of educational forms taking into account the needs and interests of students. Studying Navoi's work serves as a great school for students to develop a deeper understanding of life, a proper assessment of life situations, and the formation of human qualities such as justice, kindness, and honesty. Based on this, recommendations are made on the implementation of tasks using innovative methods during the lesson, in particular, the 5E model.

Keywords: Digital platforms, 5E model, creative and critical thinking, engage, explore, explain, elaborate, evaluate.

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы разработки новых методов и моделей обучения чтению, пониманию и осмыслению произведений Алишера Навои, включенных в современные школьные учебники, а также выбор форм обучения с учетом потребностей и интересов учащихся. Изучение творчества Навои служит для учащихся прекрасной школой по более глубокому пониманию жизни, правильной оценке жизненных ситуаций, формированию таких человеческих качеств, как справедливость, доброта, честность. На основании этого даются рекомендации по реализации заданий с использованием инновационных методов на уроке, в частности, модели 5Э.

Ключевые слова: Цифровые платформы, модель 5Е, творческое и критическое мышление, вовлекать, исследовать, объяснять, разрабатывать, оценивать.

Innovatsion o'qitish - bu yangi o'qitish strategiyalari va usullarini sinfga integratsiya qilish uchun faol yondashuv, bunda texnologiya asosiy rol o'ynaydi. Innovatsion o'qitish strategiyalari o'quvchilarning ehtiyojlari va qiziqishlarini

birinchi o'ringa qo'yib, o'quv jarayonida faol ishtirok etishga yordam beradi. Chuqurroq tushunish va saqlashga yordam berish uchun passiv o'rganishdan voz kechib, amaliy va ishtirokchi faoliyatni rag'batlantiradi. O'qitishning ushbu shakli o'qituvchilar o'quvchilarga murojaat qilishdan oldin yangi usullarni amalga oshiradilar.

Alisher Navoiy – buyuk mutafakkir, shoir va davlat arbobi sifatida o'zbek adabiyotining eng yuksak cho'qqilaridan birini egallaydi. Uning ijodi nafaqat o'z davri, balki bugungi kun uchun ham nihoyatda dolzarbdir. Navoiy ijodi bilan tanishish aslida oiladan boshlanadi. Maktab ta'limida esa boshlang'ich sinflarda hikmatlari, ruboiylari hamda hayotiga doir rivoyatlar mavjud. Yuqorisinflarda hikmatlari(5-sinf), “Sher bilan Durroj” hikoyati yoki “Yoqut” hikoyati yoki “Hotami Toy” hikoyati (“Hayrat ul-abror” dostonidan, 6-sinf), qit'alari va fardlari(7-sinf), g'azallari(8-sinf), “Farhod va Shirin” dostoni(10-sinf), “Saddi Iskandariy”(11-sinf) dostonidan parchalar berilgan. Zamonaviy ta'lim jarayonida Navoiy ijodini o'qitishda innovatsion yondashuvlar qo'llash bu asarlarning mazmunini chuqurroq anglashga, o'quvchilarni faol o'rganishga jalb etishga xizmat qiladi. Bunday usullardan biri 5E modeli hisoblanadi. Bu model, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash va ularning bilimlarini chuqurroq o'zlashtirishga yordam beruvchi samarali yondashuvdir. Quyida Navoiy asarlarini o'qitishda 5E modelidan qanday foydalanish mumkinligi haqida fikrlar bayon etiladi.

5E modeli (Engage – jalb qilish, Explore – tadqiq qilish, Explain – tushuntirish, Elaborate – rivojlantirish, Evaluate – baholash) asosida Alisher Navoiy asarlarini o'rganish quyidagicha amalga oshirilishi mumkin:

1. Engage (jalb qilish): 5daqqa

Jalb qilish bosqichi 5 E modelining birinchi va eng muhim qadamlaridan biridir. Bu bosqichda o'qituvchi o'quvchilarning mavzuga bo'lgan qiziqishini uyg'otishi, ularning e'tiborini jalb qilishi va oldingi bilimlarini faollashtirishi kerak. Ushbu faoliyatni amalga oshirishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

Hayotiy misollar

Navoiy asarlaridagi ramzlar va timsollar (masalan, bulbul va gul) haqida o'quvchilarning fikrini so'rash.Navoiy asarlaridagi biror she'r yoki hikoyadan qisqa parcha o'qib, uning mazmuni haqida fikr almashish.

Muammoli vaziyatlar yaratish:

“Agar Navoiy hozir hayot bo'lsa, qanday asarlar yozgan bo'lar edi?” kabi savollar bilan munozara uyushtirish orqali o'quvchi yodda saqlashi osonlashadi.

Multimedia vositalaridan foydalanish :

Navoiy asarlaridagi biror she'r yoki hikoyadan qisqa parcha ko'rsatib, uning mazmuni haqida fikr almashish.

2. Explore (tadqiq qilish): 10 daqiqa

Tadqiq qilish bosqichi o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydigan eng muhim bosqichlardan biridir. Bu bosqichda o'quvchilar o'z tajribalarini o'tkazadilar, ma'lumotlar to'playdilar va kuzatishlar olib boradilar. Ona tili va adabiyot darslarida bu bosqichni samarali tashkil etish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

O'quvchilar turli manbalardan foydalanib, Navoiy ijodi haqida ma'lumot yig'ishadi.

1. Guruhlar bo'lib, turli doston yoki g'azallarning mazmunini o'rganishadi.
2. "Xamsa" dostonlaridagi asosiy qahramonlarning xarakterini tahlil qilishadi.
3. "G'azal tahlili" mashg'ulotini tashkil qilib, radif, qofiya, ma'no va badiiy san'atlarni topishadi.
4. "Xamsa" asarini yaratishda nega 5likka to'xtalgan?
5. Nega Navoiy ijodi hanuzgacha dolzarb hisoblanadi?


3. Explain (tushuntirish): 10 daqiqa

Tushuntirish bosqichi o'quvchilarning o'z tajribalari va kuzatishlarini umumlashtirish, tahlil qilish va nazariy bilimlar bilan bog'lash imkoniyatini beradi. Bu bosqichda o'qituvchi yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi va o'quvchilarga o'z xulosalarini shakllantirishda yordam beradi.


Faoliyatlar:

O'quvchilar o'z tadqiqot natijalarini guruh yoki sinf oldida taqdim qilishadi.

O'qituvchi Navoiy asarlarining ijtimoiy va falsafiy ahamiyati haqida tushuntirish beradi. Navoiy asarlarining hozirgi zamonaviy jamiyat bilan bog'liqligi haqida muhokama o'tkaziladi.

Topshirilgan loyiha ishi bo'yicha**Namuna:**

QIT'ALAR TAHLILI



Ya'ni: Kimki manfaat tufayli o'ziga o'xshash bir banda – maxluqning xizmatiga qattiq bel bog'lasa, bundan ko'ra uning beli shikastlangani yaxshiroq. Qo'l qovushtirib qulluqbozlikni qoyillatishdan ko'ra esa odamning yelkasi chiqib, qo'li singani avlo. Agar til xushomad aytishga boshlasa-chi? Unda nafas tutilib (yoki chiqmay), tilning kesilgani maqbuldir.

Go'yo qarg'ish "til"i bilan bitilgan bu qit'a she'rxonni ham o'ziga, ham o'zgalarga nisbatan murosasiz bo'lishga chorlaydi. Lekin amaliy urinish va qiyosiy fikrlash so'nggida o'quvchi ichki azobdan boshqa bir nima topmaydi. Tirikchilik tashvishu armonlari bilan qurshalgan xaloyiq asrlar mobaynida hurlikdan mute'lik va tobelikni, g'ururdan g'urursizlikni, rostgo'ylikdan xushomad va tilyog'lamalikni afzal ko'rgan. Zero, nima yashashga yengillik berib, qulaylik tug'dirsa, inson undan ajralishni xohlamaydi. Demoqchimizki, Navoiy talqin qilgan haqiqatlarning mohiyatiga yetish, zamon talablariga muvofiq ravishda ularni rivojlantirish uchun o'quvchida nainki aqliy, balki ma'naviy-ruhiy imkoniyat ham baland bo'lmog'i shart.¹

4. Elaborate (rivojlantirish): 15 daqiqa

Bu bosqichda o'quvchilar o'z bilimlarini yanada chuqurlashtiradi va amaliy faoliyatda qo'llaydi. Muallif qo'llagan tasviriy vositalarni (o'xshatish, metafora, metonimiya, kinoya, sinekdoxa, allegoriya, ramz) topadi; ushbu tasviriy vositalarni asarda qo'llashdan ko'zlangan maqsadni, ularning o'quvchiga ta'sirini tushuntirib beradi; muallif tiliga xos ayrim leksik, grammatik va fonetik xususiyatlarni topadi hamda ushbu xususiyatlarning o'quvchiga ta'sirini tahlil qiladi; badiiy asarning umumiy g'oyasi aks etgan lingvistik birliklarni (kalit so'zlar va so'z brikmalarini) topadi va ularni asar bilan bog'lab tahlil qiladi; badiiy asar shakli va mazmunidagi ozaro munosabatni badiiy matn misolida tushuntiradi; notanish so'zlar ma'nosini lug'atlar yoki boshqa manbalar, shuningdek, kontekstdan aniqlaydi.

Faoliyatlar:

- "Bugungi kunda Navoiy qit'alarining dolzarbligi nimada?"

¹ Muammoning ko'zi ochilsa (Ibrohim Haqqul bilan suhbat), "Yoshlik" jurnali, 2013 yil, 3-son.

- “Qit’alardagi axloqiy g’oyalari zamonaviy jamiyat bilan qanday bog’lanadi?”

Qit’a mazmunini aniqroq tasavvur etish uchun har bir misra, har bir so‘z ustida bosh qotirishga to‘g‘ri keladi. Bir qarashda unda begona, notanish va tushunarsiz so‘z yo‘qqa o‘xshaydi. Ammo Navoiy qo‘llagan so‘zlarning barchasi ham lug‘atlardagi izohlar doirasiga sig‘avmasligini, qolaversa, she’r iyyatda so‘zlarning o‘z lug‘aviy ma’nolaridan ko‘ra ancha kengroq mazmun qamroviga ega bo‘lishini ham nazarda tutish lozim bo‘ladi.²

Navoiyning bundan besh asr avval ilgari surgan g’oyalari bugun ham o‘z dolzarbligi va ahamiyatini yo‘qotmay kelayotgani insonni hayratga soladi. Shunday ekan bu qit’alarni yosh avlodga o‘rgatib har bir dars jarayonida hikmatlarni tatbiq etishimiz lozim. Xoh adabiyot darsi bo‘lsin, xoh tarix darsida ushbu asarlarga murojaat etishimiz zarur. Uning hikmat darajasiga ko‘tarilgan har bir baytini mag‘zini chaqib, ota-onaga, Vatanga bo‘lgan muhabbat ruhida tarbiyalashimiz uchun hazrat Alisher Navoiy ijodiga doim tayanishimiz kerak.

5. Evaluate (baholash): 5 daqiqa

Bu bosqichda o‘quvchilarning tushunchalari va o‘rganish darajasi tekshiriladi.

Faoliyatlar:

O‘quvchilar o‘z fikr-mulohazalarini matn yoki videoblog shaklida bayon qilishadi.

Test va viktorinalar orqali bilimlarni sinash.

Ijodiy insho yoki loyihalar taqdimoti amalga oshiriladi.

O‘quvchilar o‘zini-o‘zi baholash uchun refleksiya yozish (“Bugun men Navoiy haqida yangi nimani o‘rgandim?”) eng muhim bosqich sanaladi.

Xulosa

5E modeli Navoiy asarlarini o‘rganishda faol, ijodiy va interfaol yondashuvni ta’minlaydi. Bu usul orqali o‘quvchilar faqatgina yodlash bilan cheklanmay, balki izlanish, tahlil qilish va amaliy qo‘llash orqali bilimlarni o‘zlashtirishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Y.Is’hoqov So‘z san’ati so‘zligi T., 2014
2. A.Hayitmetov Navoiy lirikasi T., 2015
3. Navoiyshunoslik. Shuhrat Sirojiddinov, Dilnavoz Yusupova, Olimjon Davlatov. Toshkent. Akademnashr. 2020.
4. Muammoning ko‘zi ochilsa (Ibrohim Haqqul bilan suhbat), “Yoshlik” jurnali, 2013 yil, 3-son.
5. Alisher Navoiy Qit’alari va ruboiylarining o‘rganilishi va tahlili. To‘rayeva Sayyora Baxtiyorovna, Arsalon Mohammad Arif. SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM International scientific-online conference, 106-bet.

² ALISHER NAVOIY QIT’ALARI VA RUBOIYLARINING O’RGANILISHI VA TAHLILI. To‘rayeva Sayyora Baxtiyorovna, Arsalon Mohammad Arif. SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM International scientific-online conference, 106-bet.

KODLASH VA MADANIYAT: NAVOIY ASARLARINI RAQAMLI SHAKLDA SAQLASH TEXNOLOGIYALARI

*Murtazoyeva S.M.,
Navoiy viloyati PMM metodisti*

Annotatsiya. Mazkur maqola Alisher Navoiy asarlarining boy ilmiy va ma'naviy merosini raqamli shaklda saqlash va targ'ib qilish texnologiyalari masalasiga bag'ishlangan. Bugungi raqamli davrda madaniy merosni saqlash va zamonaviy avlodga yetkazish uchun Big Data, sun'iy intellekt va ma'lumotlarni kodlash texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada Navoiy asarlarini raqamli formatga o'tkazish jarayonining texnik jihatlari, masalan, ma'lumotlarni yig'ish, indeksatsiya qilish va tahlil qilish texnologiyalari tahlil qilinadi.

Annotation. This article is devoted to the issue of technologies of digital preservation and promotion of the rich scientific and spiritual heritage of Alisher Navoi's works. In today's digital age, it is important to use Big Data, artificial intelligence and data encoding technologies to preserve cultural heritage and pass it on to the modern generation. The article analyses technical aspects of the process of digitising Navoi's works, for example, the technologies of collecting, indexing and analysing data.

Аннотация. Данная статья посвящена вопросу технологий цифровой сохранности и популяризации богатого научного и духовного наследия произведений Алишера Навои. В современную цифровую эпоху важно использовать Big Data, искусственный интеллект и технологии кодирования данных для сохранения культурного наследия и передачи его современному поколению. В статье анализируются технические аспекты процесса оцифровки произведений Навои, на примере технологий сбора, индексации и анализа данных.

Tayanch so'zlar: Alisher Navoiy, raqamli texnologiyalar, madaniy meros, Big Data, sun'iy intellekt, elektrom kutubxona, bulutli texnoliyiya, raqamli platformalar.

Keywords: Alisher Navoi, digital technologies, cultural heritage, Big Data, artificial intelligence, electrom library, cloud technology, digital platforms.

Ключевые слова: Алишер Навои, цифровые технологии, культурное наследие, Big Data, искусственный интеллект, электронная библиотека, облачные технологии, цифровые платформы.

Alisher Navoiy – buyuk mutafakkir, shoir va davlat arbobi, o'zining boy merosi bilan o'zbek adabiyoti va madaniyatini dunyo miqyosida tanitgan shaxsdir. Uning asarlarini kelajak avlodlarga yetkazish, ularni ilmiy tahlil qilish va keng jamoatchilikka taqdim etish bugungi kun texnologik imkoniyatlari orqali yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Zamonaviy kodlash va raqamli saqlash texnologiyalari bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarini raqamli shaklda saqlashning texnologik jihatlari, muammolari va istiqbollari tahlil qilinadi.

Navoiy asarlarini raqamli saqlashning ahamiyati

Alisher Navoiy asarlarining ma'naviy, adabiy va ilmiy ahamiyati shubhasizdir. Ularning raqamli shaklda saqlanishi:

1. Saqlanishni ta'minlash: Asarlar qog'oz shaklida tez eskiradi va yo'qolish xavfiga uchraydi, ammo raqamli shaklga o'tkazish ularni uzoq muddat saqlash imkonini beradi.

2. Ommaviylashtirish: Raqamli platformalar orqali asarlar global miqyosda keng auditoriyaga taqdim etiladi.

3. Tadqiqot imkoniyatlari: Sun'iy intellekt va big data texnologiyalari yordamida asarlarni lingvistik va madaniy tahlil qilish osonlashadi.

Raqamli saqlash texnologiyalari

1. Raqamlashtirish usullari

Skanning: Qo'lyozma va nashrlarni yuqori sifatli skanerlarda raqamlashtirish.

Optik belgi tanish texnologiyalari (OCR): Matnni avtomatik aniqlash va tahrirlanadigan formatga o'tkazish.

2. Kodlash va ma'lumotlar formatlari

XML va TEI (Text Encoding Initiative) formatlaridan foydalanish. Ushbu formatlar matnni semantik va strukturaviy jihatdan tasniflash imkonini beradi.

Unicode standarti orqali turli alifbolarda yozilgan asarlarni kodlash va saqlash.

3. Bulut texnologiyalari

Google Drive, Amazon S3, yoki boshqa bulut xizmatlarida ma'lumotlarni saqlash.

Bulut texnologiyalari katta hajmdagi ma'lumotlarni xavfsiz saqlash va ularga tezkor kirishni ta'minlaydi.

4. Blokcheyn texnologiyalari

Ma'lumotlarning o'zgarmasligini ta'minlash va mualliflik huquqlarini himoya qilish uchun blokcheyn texnologiyasidan foydalanish.

5. Sun'iy intellekt yordamida tahlil va tasniflash

Navoiy asarlarining mazmunini tahlil qilish, mavzular bo'yicha tasniflash va tarjimalar yaratish uchun sun'iy intellektdan foydalanish.

Muammolar va yechimlar

1. Muammo: Matnlarning noto'g'ri tanilishi

Yechim: OCR texnologiyasini aniq sozlash va maxsus modellarni yaratish.

2. Muammo: O'zbek tili va arab yozuviga mos kodlash standartlarining cheklanganligi

Yechim: Unicode va boshqa xalqaro standartlarni mahalliy tillar bilan integratsiyalash.

3. Muammo: Ma'lumotlarning yo'qolish xavfi

Yechim: Zaxira nusxalar yaratish va xavfsiz serverlardan foydalanish.

Navoiy merosini raqamli shaklda o'rgatish

Ta'limda Navoiy asarlarining raqamli resurslari o'quvchilarga interaktiv o'qitish vositasi sifatida foydalanilishi mumkin:

Mobil ilovalar va veb-platformalarda interaktiv matnlar.

Virtual va qo'shilgan reallik texnologiyalari orqali Navoiy davrini tasavvur qilish imkoniyatlari.

Xulosa. Alisher Navoiy merosini raqamli shaklda saqlash nafaqat uning asarlarini kelajak avlodlarga yetkazish, balki zamonaviy texnologiyalar yordamida ularni chuqurroq o'rganish imkonini ham taqdim etadi. Kodlash va raqamlashtirish texnologiyalarining rivoji ushbu yo'nalishda yangi istiqbollarni ochadi. Navoiy asarlarini raqamlashtirish orqali milliy madaniyatni global miqyosda targ'ib qilish va yangi avlodlarga yetkazish imkoni yaratildi.

DESIGNING FORMATIVE ASSESSMENTS FOR GRAMMAR COMPETENCE IN HIGH SCHOOL LEARNERS

Tuxfatullina D.T.,

*Deputy director for professional development of the director of the
Pedagogical Skill Center of Navoi region.*

Abstract. This article explores the design and implementation of formative assessments to enhance grammar competence in high school learners. It emphasizes the importance of contextualized, interactive, and adaptive assessments to address students' diverse needs. Additionally, the article highlights the role of constructive feedback and modern technology in creating engaging and efficient assessment frameworks. Practical recommendations and examples are provided to support educators in fostering grammatical skills effectively.

Keywords: formative evaluation, tests, quizzes, oral questions, diagnostic evaluation, summative evaluation.

Introduction. In modern society, changes and rapid developments aimed at meeting global standards are taking place in all areas, including education. On December 24, 2021, the President of our country signed two historic decrees that grant financial, academic, and organizational autonomy to higher education institutions. This, in turn, requires a new approach to university management.

Assessment is an essential part of the educational process. Continuous monitoring of the quality of education and students' knowledge levels allows for meaningful innovations in the educational process. Today, various forms of assessment based on new systems have been developed and implemented, one of which is formative assessment.

Assessment refers to the process of comparing a student's current achievements (or failures) with their previous ones, as well as correlating learning outcomes with the norms established by current educational standards. The criteria and forms of assessment are developed jointly with students, which is also seen as a way to foster their sense of self-worth. The set of formal and informal assessment methods used by educators in the teaching process is known as formative assessment. It is part of the educational process aimed at improving students' understanding and skills by adapting teaching and learning methods.

Formative assessment provides both teachers and students with direct and detailed feedback on students' activities and learning progress. It is a continuous process that tracks students' needs and progress during their studies.

The main objective of formative assessment is to determine whether the educational goals set for the academic year have been achieved. Therefore, both teachers and students need to clearly understand the learning goals they aim to achieve throughout the year.

Learning goals can be formally reflected in teachers' lesson plans or informally defined together with students. Formative assessment is based on the idea that students should play an active role in the educational process.

In formative assessment, the necessary steps (mechanisms) for achieving the learning goals are clearly outlined. However, to achieve this, the assessment must be well-designed. In this process, great attention is given to and encouraged the self-assessment of students and their collaboration with each other.

Marina Aleksandrovna Pinskaya, a candidate of pedagogical sciences and researcher, writes in her book "New Forms of Assessment" the following: "Formative assessment is necessary not only at the final stage of the educational process but also at its initial and intermediate stages to diagnose how the learning process is progressing. If the data obtained turns out to be unsatisfactory, changes can be introduced based on the collected data to improve the quality of educational activities. Formative assessment is not directed at the entire curriculum but focuses on individual learning skills or specific elements of the program. Such assessments are designed to measure progress toward achieving specific goals."

One of the most beneficial aspects of formative assessment is the absence of a single method for conducting it. Instead, there are hundreds of different methods that teachers can adapt to meet the needs of their students. This is important because such an approach helps engage students and ensures that the assessment aligns with the concepts being studied.

Formative assessment should be engaging, tailored to students' strengths, and identify areas requiring additional attention or instruction. It is a valuable tool for both teachers and students. Teachers can use formative assessment to guide future lessons, develop individual learning objectives, and gain insights into the quality of the lessons delivered.

Teachers who regularly use formative assessment in their classrooms note increased engagement and progress among students. Based on formative assessment data, teachers can adjust instructional materials for both entire groups and individual lessons. For students, formative assessment is useful because it allows them to always know their progress and better understand their strengths and weaknesses.

Formative assessments are easy to design, conduct, collect, and utilize. Moreover, they require limited time to complete. Formative assessment helps students set individual goals and monitor their achievements daily.

Conclusion.

The key difference between these two assessment procedures lies in their purpose: formative assessment is a type of learning process, while summative assessment is a method of evaluation. Balanced assessment relies on both approaches, providing teachers with essential insights for planning future stages and measuring students' knowledge against content standards.

Examining the education systems of developed countries, such as the United Kingdom, we see that there is an award for Training, Assessment, and Quality Assurance (TAQA), which supports educators by helping them learn and develop best practices in education and assessment under the guidance of senior professionals. This demonstrates that assessment is a foundational process for improving education. Particularly, formative assessment provides precise data about the quality of education.

In conclusion, formative assessment should be a regular component of evaluating any classroom to ensure continuous improvement and a high standard of learning.

References

1. Abdullayeva, N. A. (2022). Ilmiy tadqiqot olib borish kompetentligi–bo 'lajak o'qituvchi shaxsini shakllantirish omili sifatida. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 601-612.
2. Baydjanov, B. K. (2021). Pedagogical and psychological features of the development of information competence in future teachers. *Theoretical & Applied Science*, (7), 171-178.
3. Maksudov, U. K. (2020). Characteristic of the process of development of social activity skills in primary school students through folklore. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(7), 407-412.
4. Maksudov, U. K. (2020). ISSUES OF NATIONAL VALUES AND SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF POSITIVE PSYCHOLOGY. In *Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества* (pp. 394-396).
5. O'rinova, N. M., & Yo'ldosheva, D. A. Q. (2021). Oliy o'quv yurti talabalarida kreativ kompetentlikni rivojlantirishda faol ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning mazmuni va samarali yo'llari. *Science and Education*, 2(12), 755-766.
6. O'rinova, N. M., & Yo'ldosheva, D. A. Q. (2022). Oliy o'quv yurti talabalarida kreativ kompetentlikni rivojlantirishda faol ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning mazmuni va samarali yo'llari. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 97-105.
7. Saidkulovich, S. B., & Ugli, T. J. U. The Social Pedagogical Necessity of Developing Students' Aesthetic Culture in the Process of Globalization. *International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology*, 8(1), 75-77.
8. Siddikov, B., & Djalalov, B. (2020, December). Modernization of education-the future innovative competence of teachers as a main factor of formation. In *Конференции*.

9. Tojiboyev, J. U. (2022). Talabalarda estetik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari. Academic research in educational sciences, 3(1), 585-594.
10. Tuychieva, I. I. (2018). Mechanisms Ensuring Children's Thought Activity Development at Preschool Education Process. Eastern European Scientific Journal, (6).

NAVOIYDAN ADOLATNI O'RGANAYLIK

Qalandarova G.A.,

Uchquduq tumani 5-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Alisher Navoiyning ma'naviy merosi milliy ma'naviyatimizning yuksalishida, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol topishida teran ahamiyatga egaligi, bugungi kun yosh avlod tarbiyasidagi ma'naviyat, axloqiy, ilmiy va ma'rifiy jihatlarini ochib berilgan.

Абстрактный. В данной статье духовное наследие Алишера Навои имеет глубокое значение в подъеме нашей национальной духовности, в развитии хороших человеческих качеств в нашем обществе, раскрываются духовно-этические, научные и образовательные аспекты воспитания молодого поколения сегодня.

Abstract. In this article, the spiritual heritage of Alisher Navoi is deeply important in the rise of our national spirituality, in the development of good human qualities in our society, and the spiritual, ethical, scientific and educational aspects of the education of the young generation today are revealed.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, axloqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy qadriyatlar, ilm-ma'rifat

Ключевые слова: Духовность, нравственные, научные, художественные, моральные ценности, знания.

Keywords: Spirituality, moral, scientific, artistic, moral values, knowledge

Ma'lumki, inson ko'ksidagi qalbning tirikligi, uyg'oqligi bilan boshqa mavjudotlardan afzaldir. Qalbni uyg'otadigan, jonlantirib turadigan eng yaxshi vositalardan biri badiiy adabiyot ekanligi ko'pchilikka ma'lum. Hazrat Navoiydek zotlar, avvalo, adabiyotning asosiy quroli bo'lgan so'zga shunchaki yo'l-yo'lakay yozib yoki aytib ketilaveradigan hodisa sifatida qaramaganlar. Buyuk mutafakkirning ijodini qanchalik chuqur va puxta bilsak, ma'rifat, ezgulik, komillik sirlarini kengroq anglab boraveramiz. Yoshlarimiz mutafakkir hayoti va ijodini o'rgangani sayin komillik sirlarini o'shancha kengroq egallaydi.

Navoiyning sehrli so'zlarini qalbiga o'rnatgan odam, odamiylik sharafi va kuch-quvvatini idrok etadi.

Alisher Navoiyning ma'naviy merosi milliy ma'naviyatimizning yuksalishida, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol topishida teran ahamiyatga ega. Mutafakkir faoliyatiga xos ilm-u ma'rifatga intilib yashash ishqiy asarlarning mazmun-mohiyatini tashkil etadi. Bugungi kunda yosh avlodni Vatan tarixining shonli sahifalari, umumbashariy an'analari, yuksak ma'naviy-ma'rifiy e'tiqod

ruhida tarbiyalash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, Hazrat Navoiy kabi mutafakkir daholarning shaxsiyati va umrboqiy asarlari o'tmishni bugun bilan tutashtirib, hammaga birdek beminnat nur sochib turgan oftob singari zamondoshlarimiz ma'naviy olamini yoritib, komillik sari da'vat etib turuvchi mayoq vazifasini o'tab kelmoqda.

Alisher Navoiy - butun turkiy olam, jahon adabiyotida betakror siymo. Uning merosi, asarlarida ilgari surgan g'oyalari va fikr-qarashlar barchamiz uchun mo'tabar va qimmatlidir. Ushbu siymo o'zbek madaniyati, adabiyoti, tili, ijtimoiy fikri tarixida benihoya katta o'rin tutadi. Uning ijodi turkiy xalqlarning vatanparvarlik harakati kuchaygan bir sharoitda kamol topib, o'zbek adabiyotini mumtoz adabiyot darajasiga ko'tarishga xizmat qilgan. Navoiy dahosi esa Sharqning Firdavsiy, Nizomiy, Jomiy kabi ulug' adiblari qatoridan joy egallab, o'zbek adabiyotini mana shu siymolar yaratgan buyuk adabiyot darajasiga olib chiqqan. Alisher Navoiy turkiy adabiy tilni taraqqiy ettirish, uni ko'pchilikka manzur qilish, bu tilni she'riyat dunyosiga tan oldirish qanchalik qiyin va mashaqqatli ish ekanini, buning uchun o'sha davrda Movarounnahr va Xurosonda hukmron bo'lgan fors tilidagi adabiyotga mazmun va badiiy qiymat tomonlaridan teng adabiyot yaratish zarur ekanligini yaxshi tushungan va bunday ulug' vazifani amalga oshirishga to'laqonli muvaffaq bo'lgan edi.

Shuni aytish kerakki, turkiy va forsiy tillarning o'zaro munosabati haqida Navoiy o'zining qator asarlarida fikr yuritadi. Masalan, "Hayrat-ul-abror" dostonida shoir fors eli o'z ona tillarida yozilgan asarlarni o'qishdan xursandligi, turkiylar ham ana shunday boylikdan bahramand bo'lishga loyiq ekanligi, "Layli va Majnun" asarining oxirida bu rivoyatni turkcha hikoya qilganligi, turkiylar orasida xushta'b, sof idrokli odamlar ko'p ekanligi haqida yozadi. "Muhokamat-ul-lug'atayn" asarida turkiy va forsiyning ifoda qudrati bir-biriga qiyoslanadi. Bunday dalillarga qarab Alisher Navoiyni butun umri davomida qiziqtirgan, o'ylashga majbur qilgan lisoniy muammo - turkiy va forsiy tillarning bir-biriga munosabati, turkiy tilning ifoda qudrati forsiy tilning ta'sirchanligidan kam emasligini isbotlashga intilishdan iborat bo'lgan.

Alisher Navoiyning ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya masalalaridagi fikrlarida insonparvarlik g'oyalari bosh o'rinda turadi. Alisher Navoiyning fikricha, inson dunyoda hammadan yuksak, aziz va qadrlidir. Alisher Navoiy o'z davridagi barcha sof vijdonli insonlarning manfaatini himoya qildi. U inson uchun zarur bo'lgan umuminsoniy axloq qoidalarini o'rgandi, asar qahramonlari obrazida o'z qarashlarini aks ettirdi. Alisher Navoiy odamlarni axloqli va odobli bo'lishga da'vat etadi hamda axloqni bunday ta'riflaydi: "Ahloq shaxsning og'ir baqolig' libosidir va libos jismning sangin debosi. Shuning bilan birga odamni bezaydigan ham axloqdir".

Alisher Navoiyning fikricha, inson uchun toj, davlat va boshqalar emas, balki eng yaxshi fazilatlar har qanday boylikdan afzaldir. Shoir insonning ma'naviy kamolotini, avvalo, uning ilm va donish sohibi bo'la olganligida deb biladi. Ilm o'zidan o'zi bo'lmaydi, kishi faqat havas va ishtiyoq bilangina ilmga ega bo'la oladi, deb hisoblaydi. Alisher Navoiy hikmatlarida olam-olam ma'no mujassamdir.

Uning hikmatlarida ilm-ma'rifat, mehr-oqibat, insoniylik kabi masalalar markaziy o'rinni egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Husanboyeva Q. Adabiyot o'qitish metodikasi va muammoli ta'lim. Toshkent. Innovatsiya-Ziyo. 2022-yil.
2. G'ulomov A., Nematov H. Ona tili ta'lim mazmuni. - Toshkent. O'qituvchi,
3. Ibrohim Haqqul Navoiyga qaytish -2. – Toshkent: Fan, 2011. – 198b.

TA'LIM TIZIMIDA NAVOIY ASARLARINI O'QITISH MUAMMOLARI

Baymenova B.B.,

Konimex tumani 25-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiy asarlarini umumta'lim maktablarida o'rganishning ayrim murakkab jihatlarini va ularni bartaraf etish yo'llari xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: metod, "Quyosh nuri", badiiy, metodologik, aruz, vazn, bayt. Buyuk mutafakkir shoir

Alisher Navoiy asarlarining umrboqiyiligiga yillar, asrlar daxl qila olmasligining boisi abadiyatga daxldorligi teran umuminsoniy g'oyalarning yuksak badiiy mahorat bilan tahlil va talqin qilinishidadir. Navoiy dahosi, uning asrlar osha o'z tarovatini yo'qotmasligi shoir tafakkurining in'ikosi hosilasidir. Navoiydek so'zga o'ta talabchan ijodkor asarlari badiiy jihatdan ham mukammal qoyadir. Ammo Navoiydek millat dahosining ta'limda yosh avlod dunyoqarashidagi ahamiyati va o'rnini hech narsa bilan qiyoslab bo'lmaydi, nazarimizda. Ta'limning ilk jarayonlaridan boshlab oliy ta'lim va undan keyingi jarayonlarda ham bu jihatni to'la qamrab olinishi zahirida ham ana shu maqsad yotadi. Xo'sh, shunday ekan, nega Navoiy asarlarini o'zlashtirish yoshlarimiz uchun qiyinchilik tug'diradi? Qanday ta'lim metodlaridan foydalanish shoir asarlarini o'zlashtirishga yordam beradi? Quyida ana shu jihatlar borasidagi qarashlarimizni bayon etamiz. Ma'lumki, Alisher Navoiy asarlari umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflaridan, aniqrog'i, birinchi sinflardan o'quvchilarning yoshlarini hisobga olgan holda aforizmlardan (hikmatli so'zlardan) boshlab to yuqori sinflarga qadar murakkablik darajasiga ko'ra "Xamsa" dostonlarigacha DTS dasturi asosida o'qitilib kelinadi. To'g'ri, maktab o'quvchilari orasida eng past o'zlashtiruvchi o'quvchi ham hech bo'lmaganda shoirning bitta ruboiysini bilishi mumkin. Ammo bu buyuk ijodkor asarlarining tub mohiyatini anglash, mag'zini chaqish, tegishli xulosalar chiqarish uchun hali bu yetarli emas. Shoir asarlarini, to'g'rirog'i, g'azallarini yod olgan, "Xamsa"ning hech bo'lmaganda nasriy bayonini o'qigan o'quvchilar ham bor. Lekin ular ham Navoiydek mutafakkirning g'oyalarini yetarlicha idrok eta oladigan deya olmaymiz. Bugungi ta'limdagi eng og'riqli muammo – shoirning asarlarini aslyatdan o'qib, uni yetarlicha talqin qila olish, tushunish, xulosalar chiqarish va albatta, hayot yo'llarida ana shu ibratdan foydalanish, qalblarga ezgulik urug'larini

qadashdir. Masalan, adabiyotdan o'n birinchi sinf o'quv rejasida Alisher Navoiy ijodiga to'rt soat vaqt ajratilgan. Oldingi sinflarda shoir ijodi keng o'rganilganligi bois endi o'quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olingan holda shoirning "Saddi Iskandariy" dostonidan parchalar bilan tanishtiriladi. Dastlabki bir soatda zamondoshlarining shoir haqidagi fikrlari: tarixchi va adib Xondamirning "Makorim ul-axloq" asaridan parchalar beriladi. Unda Alisher Navoiyning hayoti va ijodi haqida oldingi sinflardan ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lgan o'quvchilarda bu ma'lumotlardan farqli o'laroq, Navoiyning o'z zamondoshi tilidan shoir haqida ko'plab faktlarni bilib olish imkoniyati tug'iladi. Bu bevosita Navoiyning she'riyatga kirib kelishida Lutfiydek "turkigo'y" ijodkordan yuksak baho olgani, yurt ma'murligi, obodonchiligi yo'lidagi xizmatlari, saxovatpeshaligi kabi insoniy fazilatlarini tarixiy faktlar asosida bilib olishadi.[1, 120-bet]

Insoniy fazilatlarini, komillikni ulug'lagan shoirning o'zi ham hayoti davomida shu aqidalarga amal qilgan holda yashaganining guvohi bo'lamiz. Bu – albatta, o'quvchilar ko'z o'ngida Navoiyning hayotda ham har tomonlama yetuklik, kamolot kasb etganini ko'rsatuvchi bir omil. Keyingi uch soat vaqt esa bevosita "Saddi Iskandariy" dostonidan berilgan parchalar va ularning nasriy bayonlarini o'qib o'rganishga qaratiladi. Garchi "Xamsa" dostonlarining asl holatlardagi matnlarini o'rganish zavqini bermasa-da, nasriy bayon orqali matn ma'nosi tushuniladi, idrok etiladi. Bilamizki, Navoiygacha yozilgan "Xamsa"larda Iskandar obrazining, asosan, salbiy tomonlari ko'proq ifodalansa, Alisher Navoiy ulardan farqli o'laroq adolatli shoh sifatida tasvirleydi. Qayu ishni ta'lim qilg'on zamon, Eshitmak hamon erdi – bilmak hamon... Bori ishda bir yerga yetdi ishi Ki, mumkin emas andoq o'lmoq kishi... Bilik kasbini qildi to joni bor, Hunar bildi onchaki imkoni bor [1, 153-bet] Dostondan berilgan parchada Iskandar bilan bog'liq ko'plab ma'lumotlar mavjud. O'quvchi ularni eslab qolishi uchun mustahkamlash maqsadida bir necha metodlarni tavsiya etamiz: "Makorim ul-axloq" asaridagi Navoiy bilan "Saddi Iskandariy" dostonidagi Iskandarning farqli va o'xshash jihatlarini qiyoslaymiz. I ilova "Venn diagrammasi" metodi: O'rta savol tashlanadi va o'quvchilar tomonidan ma'lumotlar bazasi yaratiladi. Savol: Navoiyga Xondamirning "Makorim ul-axloq" asariga berilgan ta'rif bilan "Saddi Iskandariy" asarida Iskandarga berilgan ta'rif o'rtasidagi ikki buyuk shaxs fazilatlarining o'xshashliklari va farqlarini asardan toping. Xondamir Navoiy haqida: "Bolalik chog'laridanoq hazratning muborak tillaridan o'ta ajoyib va kutilmagan so'zlar chiqar va [bu so'zlarni] eshitganlar hayrat dengiziga g'arq bo'lardilar... NAVOIY Adolatli Tadbirkor Ilmni qadrlovchi Yetuk olim Davlat arbobi Katta qalb egasi ISKANDAR Adolatli Tadbirkor Ilmni qadrlovchi Buyuk mutafakkir Davlat arbobi Katta qalb egasi Shoh Shoir ...Hidoyatga erishgan Amir bolalik chog'laridan umrining oxirlarigacha o'z barakali vaqtining ko'p qismini ilm egallash va kamolotga erishishiga sarflab, bir lahza bo'lsa-da turli bilimlarni o'rganish va har xil ko'nikmalar egallashdan tinmadi". [1, 117-118-bet] Navoiy Iskandar haqida: Qayu ishni ta'lim qilg'on zamon, Eshitmak hamon erdi – bilmak hamon... Bilik kasbini qildi joni bor. Adolat qo'lin tutti andoq biyik Ki, topti amon arslondin kiyik...[1, 153-bet] Yuqoridagi ma'lumotlar darslikdan foydalanib

to'ldiriladi, xuddi shu usulda o'quvchilar ma'lumotlar bazasini yanada kengaytirishi kerak bo'ladi. Eng ko'p va to'g'ri ma'lumotlarni yig'gan guruh g'olib hisoblanadi. Bu metod kichik guruhlarda ham olib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, to'rt soatlik dars yuklamasidan oxirgi soatda "Quyosh nuri" metodi asosida ham bilimlarni yanada mustahkamlash mumkin. Masalan, quyidagi quyosh nurlari shaklidagi topshiriq ekranda aylanib turadi, o'quvchi qaysi ma'lumotning tugmasini bosib ulgursa, o'sha haqida bilganlarni bayon etadi, bu jarayon toki ma'lumotlar to'liq bayon etilgunga qadar davom ettiriladi. Bunda har bir ma'lumot borasida fikrlar umumlashtiriladi. Masalan, doston "Xamsa"ning eng katta hajmli dostoni bo'lib, 89 bob, 7215 baytdan iborat. Xuddi shu singari Doroning Iskandardan talablari ham tahlil qilinadi. Shuningdek, asarda berilgan muammoli jihatlar, ramziy jihatlariga e'tibor qaratish joiz. Bu Iskandarning oldiga Doroning yuborgan narsalari: dostonning 23-bobida Iskandar va Doro munosabatlari, Doroning Iskandarga qo'y, chavgon va kunjut yuborgani bilan bog'liq tafsilotlar bayon qilinadi. Bunday ramziy obrazlarni o'quvchilar qanday talqin qilishi ham, albatta, muhim. Avvalo, ular mazkur predmetlar haqida ma'lumotga ega bo'lishlari kerak. Bu jumboq 11-sinf Adabiyot darsligida quyidagicha izohlanadi. "Doro yana elchilar orqali unga chavgon bilan to'p – koptok, bir idishdini to'ldirib kunjut yuboradi. Bu sen yosh bolasan, bolalar esa mana shu narsalar bilan ovunib yurishi lozim. Mening askarlarim kunjut donalari singari behisob, – degan edi. Iskandar shunday javob qaytaradi: "Olimlar yer yuzining go'yo koptok singari yumaloq ekanini aniqlashgan, demak, Doro menga yer yuzini in'om etibdi. Chovgon esa uni boshqarish ramzidir. Kunjutlarni u menga qushlarimning ozuqasi sifatida yuboribdi". [1, 154-155-betlar] Qarang, ramziy timsollarda ham turlicha mulohazalar beriladi. Bunda har bir hukmdor o'z nuqtai nazaridan yondashib fikrlaydi. "Saddi Iskandariy" dostonini o'qitishda Iskandarning oldiga 2 ta kalla suyagining olib kelinishi borasidagi mulohazalar ham albatta, o'quvchilarni befarq qoldirmaydi. Chunki, 11-sinf o'quvchilari yosh jihatdan fikrlash doiralari ancha kengaygan bo'lib, yillar davomida Navoiy asarlaridan bahramand bo'lgan hisoblanadilar. Xuddi shu jumboqlarni ularning o'zlari qanday talqin qilishlari mumkinligini ham nazardan chetda qolmasligi kerak. "Ortiqchasini toping" metodi asosida Masalan, chovgon, kunjut, koptok, rasmlarini qo'yib bitta ortiqcha detal(predmet) qo'yiladi. O'quvchilar ortiqchani topishlari kerak. "Fikriy hujum" asosida savollar beriladi va bahs-munozara tashkil etiladi:

- Iskandarning adolatparvarligi qaysi o'rinlarda ko'zga tashlanadi?
- Iskandar haqidagi tarixiy kitoblardan olgan bilimlaringizni o'rtoqlashing.
- Doro haqida qanday ma'lumotga egasiz?

Alisher Navoiy yaratgan ma'naviy kamolot olamiga qadam qo'yib, uning haroratini his qilgan o'quvchi buyuk shoir ko'zlagan komil inson dunyosiga bog'lanib qoladi. Undan ma'naviy, ruhiy quvvat oladi. Ammo ana shu quvvatgacha boriladigan yo'l mashaqqatiga hamma ham bardosh bera olmaydi. Ilm yo'li oson yo'l emas. Bugungi ta'limning eng dolzarb muammosi esa shoir

ijodini o'rganish, anglash o'rgatishning eng oson, eng qulay zamonaviy metodologik maktabini yaratishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To'xliyev B., Karimov B., Usmonova K. Adabiyot. I qism. O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik majmua. 1-nashr. T – 2018
2. Xo'jayev T. "Saddi Iskandariy"dagi ramzlarning ma'no qirralariga doir". O'zbek tili va adabiyoti, 2010, 6-son, 62-bet.
3. To'xliyev B., Niyozmetova R., Boltayeva I. Darslik ustida ishlash. O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti. T., - 2007
4. Rustamov A. So'z xususida so'z. T., 1987. "Yosh gvardiya" nashriyoti

ALISHER NAVOIYNING IJODIDA TA'LIMIY VA TARBIYAVIY QARASHLARI

Kadirova Sh.B.,

Uchquduq tuman 5-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada buyuk mutafakkir olim Alisher Navoiyning ilmiy merosi va uning bugungi kun yosh avlod tarbiyasidagi ma'naviyat, axloqiy, ilmiy va ma'rifiy jihatlari ochib berilgan.

Абстрактный. В данной статье раскрывается научное наследие великого ученого-мыслителя Алишера Навои и его духовно-этические, научно-просветительские аспекты в воспитании молодого поколения сегодня.

Abstract. This article reveals the scientific heritage of the great thinker scientist Alisher Navoi and his spiritual, ethical, scientific and educational aspects in the education of the young generation today.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, axloqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy qadriyatlar, ilm-ma'rifat

Ключевые слова: Духовность, нравственные, научные, художественные, моральные ценности, знания.

Keywords: Spirituality, moral, scientific, artistic, moral values, knowledge

Ma'naviyat-inson ruhiy, aqliy olamini ifodalovchi tushunchadir. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o'z ichiga oladi. Ma'naviyat atamasining asosida "ma'ni" so'zi yotadi. Ma'lumki, insonning ichki va tashqi olami mavjud. Tashqi olami uning bo'y-basti, ko'rinishi, kiyinishi va hatti-harakatlari kiradi. Ichki olamiga esa uning yashashdan maqsadi, fikr yuritishi, orzu-istaklari, intilishlari, his-tuyg'ularini o'z ichiga oladi. Insonning ana shunday ichki olami ma'naviyatdir. Ma'naviyat va axloq bir-biri bilan bog'liq bo'lib bir-birini to'ldiradi. Zero, jamiyat rivojlanishi faqat uning iqtisodiy taraqqiyotidangina emas, balki ma'naviy yuksalishini ham taqozo etadi.

Ijtimoiy tarbiyaning boshqa turlari kabi ma'naviy-axloqiy tarbiya asosini ham ilg'or milliy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, xalq pedagogikasi g'oyalari tashkil etadi. Alisher Navoiy xalqimizning ongi va taffakkuri, badiiy madaniyati tarixida

butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g'ururi, sha'n -u sharafigi dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Alisher Navoiy turk dunyosi adabiyotining eng mashhur vakilidir. Chunki hech kim bu til va adabiyotning ravnaqi uchun uningdek xizmat qila olgan emas. Navoiy ijodi turkiy adabiyotning eng yuksak cho'qqisidir. Chunki hech kim unga qadar bu tilda bunchalik ko'p va xo'p (Bobur) yozmagan edi. Navoiy barcha xalqlarning eng buyuk shoiridir. Chunki u o'zini "Xitoydan to Xuroson" gacha yoyilgan turkiy qavmlarning o'z shoiri, deb bildi. Ularni bir adabiy til bayrog'i ostida birlashtirdi, "yakqalam" qildi. Bu bilan millatning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy ravnaqiga buyuk ta'sir ko'rsatdi.

Sharq xalqlarining adabiyoti qanchalik chuqur o'rganilsa, bu xalqlar orasidagi adabiy aloqalar ham shunchalik ravshanroq ko'rina boradi. Adabiy aloqalarning o'rganilishi esa dohiy san'atkorlarning, adabiy maktab vakillarining ijodiy qudratini, ta'sir doirasini aniqlash uchun to'laroq tasavvur beradi. Bu jihatdan Navoiy merosini o'rganish alohida ahamiyatga egadir.

Navoiy merosini o'rganish yolg'iz o'zbek olimlarininggina vazifasi emas. Navoiy buyuk bir adabiy maktab boshlig'i sifatida dohiy Nizomiy kabi bir qancha xalqlarning adabiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatganligidan uning ijodini o'rganish ham keng bir sohani tashkil etadi. Dunyo sharqshunoslari Navoiy merosini o'zbek xalqining adabiyotini o'rganish maqsadida tekshirsalar, sharq xalqlari tadqiqotchilari butun hayotini xalq baxt-saodatiga bag'ishlagan bu ulug' san'atkorning hayoti va ijodini o'z madaniyatlarini o'z adabiyotlari tarixini chuqur o'rganish, o'zaro mushtaraklik tomonlarini aniqlash maqsadida o'rganishgan. Chunki Navoiy tojik, eron, hind madaniyatida buyuk bir madaniyat homiysi sifatida mashhur bo'lsa, ozarbayjon, turkman, qozoq, tatar, turk, qoraqalpoq xalqlari adabiyotida esa o'zining kuchli ta'sirini ko'rsatgan.

Navoiy asarlarining umuminsoniy g'oyasi - insonparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik, do'stlik, tinchlik, mehr va sadoqat, pok sevgi va vafo, ma'rifatlilik kabi go'zal tuyg'ularning yuksak badiiy shaklda ifodalashi orqali o'zbek adabiyoti shuhratini dunyo miqyosiga olib chiqdi. Buyuk alloma, shoir Alisher Navoiy umuminsoniy tarbiya sohasida bir butun asar yaratmagan bo'lsa ham, o'zining bu haqidagi fikrlarini turli ilmiy va adabiy asarlarida ifodalagan. Alisher Navoiy o'zining umuminsoniy tarbiya to'g'risidagi fikrlarini badiiy asarlarida barkamol inson obrazini yaratish yo'li bilan bayon etdi.

Navoiy asarlarining umuminsoniy g'oyasi - insonparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik, do'stlik, tinchlik, mehr va sadoqat, pok sevgi va vafo, ma'rifatlilik kabi go'zal tuyg'ularning yuksak badiiy shaklda ifodalashi orqali o'zbek adabiyoti shuhratini dunyo miqyosiga olib chiqdi. Buyuk alloma, shoir Alisher Navoiy umuminsoniy tarbiya sohasida bir butun asar yaratmagan bo'lsa ham, o'zining bu haqidagi fikrlarini turli ilmiy va adabiy asarlarida ifodalagan. Alisher Navoiy o'zining umuminsoniy tarbiya to'g'risidagi fikrlarini badiiy asarlarida barkamol inson obrazini yaratish yo'li bilan bayon etdi.

Alisher Navoiyning ilm-ma'rifat, ta'lim-tarbiya masalalaridagi fikrlarida insonparvarlik g'oyalari bosh o'rinda turadi. Alisher Navoiyning fikricha, inson

dunyoda hammadan yuksak, aziz va qadrlidir. Alisher Navoiy o'z davridagi barcha sof vijdonli insonlarning manfaatini himoya qildi. U inson uchun zarur bo'lgan umuminsoniy axloq qoidalarini o'rgandi, asar qahramonlari obrazida o'z qarashlarini aks ettirdi. Alisher Navoiy odamlarni axloqli va odobli bo'lishga da'vat etadi hamda axloqni bunday ta'riflaydi: "Ahloq shaxsning og'ir baqolig' libosidir va libos jismning sangin debosi. Shuning bilan birga odamni bezaydigan ham axloqdir".

Alisher Navoiyning fikricha, inson uchun toj, davlat va boshqalar emas, balki eng yaxshi fazilatlar har qanday boylikdan afzaldir. Shoir insonning ma'naviy kamolotini, avvalo, uning ilm va donish sohibi bo'la olganligida deb biladi. Ilm o'zidan o'zi bo'lmaydi, kishi faqat havas va ishtiyoq bilangina ilmga ega bo'la oladi, deb hisoblaydi. Alisher Navoiy hikmatlarida olam-olam ma'no mujassamdir. Uning hikmatlarida ilm-ma'rifat, mehr-oqibat, insoniylik kabi masalalar markaziy o'rinni egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibrohim Haqqul Navoiyga qaytish -2. – Toshkent: Fan, 2011. – 198b.
 2. Yoqubjon Ishoqov. Navoiy etikasi. – T.: Fan, 1983. – 167
- великий гуманист и создатель Культуры 28 октября 2020656
3. Иванов, С. Н. Алишер Навои. Туюги, Газели, Кытѣ // Звезда Востока. 1965.

KITOBXONLIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ALISHER NAVOIY ASARLARINING O'RNI

*Iskandarova D.T.,
Osiyo xalqaro universiteti magistranti*

*Kishikim qilsa olimlarga ta'zim,
Andoqki qilur payg'ambarga ta'zim.
Alisher Navoiy*

Muhtaram Prezidentimiz tashabbuslari bilan 2025-yil Navoiy viloyatida "Alisher Navoiy yili" deb nomlandi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad yosh avlodni milliy madaniyat va milliy an'analarga sodiq ruhda kamol toptirishdir. O'zbek farzandi uchun Navoiyni anglash tarbiyaning bosh bog'inidir. Kitob inson ma'naviyatini yuksaltiruvchi yagona manba hisoblanadi. Inson ma'naviy olamini boyitadigan, nutqini o'stiradigan, fikrlash qobiliyatini shakllantiradigan, kitobxonning hayotda o'z o'rnini topishiga zamin hozirlaydigan bebaho inju bu kitobdir. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z ma'ruzalarida: "Biz ta'lim-tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni birinchi vazifamiz deb bilamiz", kitob va ilm-ma'rifatga mehr – ustozga, ota-onaga, do'stga, Vatanga muhabbatning kalitidir. Har bir ota-ona o'z oldiga farzandlariga kitob o'qish mas'uliyatini shakllantirishi, rivojlantirishi zarur va shart. Kitob boladagi ma'naviy bo'shliqni to'ldiradi. Kitob boladagi ma'naviy bo'shliqni to'ldiradi. Bola kitob o'qish orqali komil inson atalmish mustahkam minorasini o'zi bino qiladi. O'zi o'qib-o'rganib, qurgan

mustahkam minorani hech qanday tashqi salbiy oqim-ta'sirlar buzib kirolmaydi. Albatta, kitobni ardoqlagan, undan ma'naviy ozuqa ololgan oilada xotirjamlik, osoyishtalik, halollik va ahillik hukm suradi. Kitob insonga odob-axloqdan ta'lim beradi. Hazrat Alisher hikmatlari insonni kamolotga yetaklaydi:

Insonga erur kamol matlub,

Andin daxi dard-u hol matlub.

Mumtoz adabiyot namunalarida milliy ta'lim tarbiyaning ildizlari mujassamdir. Xususan Navoiy ijodi har bir oilada o'qilishi o'rganilishi kerak. Bugungi kunda oilalarimizda "tansiq" bo'lib borayotgan umuminsoniy odatlar mustahkamlanadi. Bola kitobxonlik madaniyatiga ega bo'lishi, kitobni o'qish jarayonida har bir so'zni shuuriga naqsh kabi singdirishi oilada yaratilgan shart-sharoitlarga ham bevosita bog'liqdir. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanni pok tutmak, yosh vaqtdan maslakni tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'stirmakdir.

Yangi O'zbekiston dunyoda rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olayotgan tarixiy bir davrda yosh avlodning har tomonlama bilimli, ma'naviy va jismoniy jihatdan barkamol insonlar bo'lib yetishishlariga bog'liq ekan, Navoiyni anglash juda muhimdir. Eng avvalo, yosh avlodning ilmiy-dunyoviy bilimlar asosini puxta egallashi, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamining hosil bo'lishi va ma'naviy-axloqiy sifatlarning shakllanishi uchun ta'lim-tarbiya ishlarini samarali tashkil etilishiga erishish lozim. Yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ularni boyitish, O'zbekiston Respublikasini rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta'minlash, yosh avlodning komil inson bo'lib kamol topishiga bog'liqdir.

Har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalab, voyaga etkazishda ota-onaning mashaqqatli mehnati yotadi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida" gi Qarorida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda oilaning o'rnini yaxshilash to'g'risidagi masalalar bo'yicha ko'rsatmalar berilgan. Yangi O'zbekistonimizning buyuk kelajagi va ravnaqi uchun yangi dastur va tadbirlar ishlab chiqilar ekan, xalqimiz hayotining yanada farovon bo'lishiga hissa qo'shish har bir yurt fuqarosining burchidir, albatta. Shunday burchlarimizdan biri yoshlarning bilim olishlariga shart-sharoitlar yaratib berishimizdir. Bu jarayonda oilada ota-ona tomonidan yaratilgan sharoit juda muhim hisoblanadi.

Buning uchun nima qilmoq kerak, degan savol paydo bo'lishi tabiiy. Eng to'g'ri va oqilona fikr bu – farzandning qiziqishiga qarab bilim olishlariga imkoniyat yaratib berishimiz va mustaqil qaror qabul qila olishi uchun har xil chora-tadbirlarni o'rgatishimiz lozim. Ana shu chora-tadbirlardan biri maktablarda o'quvchilarning badiiy asarlarga qiziqishlarini ta'minlash juda muhimdir. Chunki, o'quvchilar badiiy asarlarni mutolaa qilganlarida asar qahramonlarini o'zlarining tasavvurlarida ko'radilar. Bo'lib o'tgan voqealarni tahlil qiladilar. Natijada fikrlash doiralari kengayib hayotga real qaray boshlaydilar. Hamma bolalar ham badiiy asarlarni o'qiyvermaydilar-ku, degan e'tiroz paydo bo'lishi mumkin. Bu masalada

ota-ona e'tibori bilan birga umumta'lim maktablarida darsdan tashqari tadbirlarni, o'quvchilarning qiziqishiga mos bo'lgan kechalarni tashkillashtirish ham maqsadga muvofiqdir. Yoshlarga bilim berish uchun o'qituvchilar izlanuvchan va bilimli bo'lmog'i darkor. O'qituvchi bir daraxt bo'lsa, o'quvchilar esa uning shoxlari. Daraxtning ildizlari qanchalik baquvvat bo'lsa, mineral o'g'it, quyosh nuri va suvga yetarli darajada to'yingan bo'lsa, uning mevasi shunchalik totli va shifobaxsh bo'ladi.

Darhaqiqat, kitob bolalar aqliy, axloqiy va estetik tarbiya olishida, nutqini har taraflama rivojlantirishida va boyitishida katta ta'sir etuvchi vosita hisoblanadi. Badiiy adabiyot bolalarga jamiyat hayotini va tabiatni, kishilik dunyosining ichki his-tuyg'ularini va o'zaro munosabatlarni poetik obrazlarda ochib beradi, tushuntiradi. U bolaning his-tuyg'ularini rivojlantiradi, xayolini tarbiyalaydi va o'zbek adabiyotining eng yaxshi namunalari bilan tanishtiradi. Fikrimizga xulosa qilib aytilish mumkinki, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm. Eng katta meros – bu yaxshi tarbiya. Eng katta qashshoqlik – bilimsizlikdir" deb ta'kidlashlari umumta'lim maktablari ta'lim sohasida faoliyat ko'rsatib kelayotgan barcha o'qituvchilar, farzand tarbiyalayotgan ota-onalar oldiga katta mas'uliyat va vazifalar yukladi. Bugun davlatimiz tomonidan qabul qilingan qator qaror va farmoyishlar mamlakatimizda ta'lim sohasini rivojlantirish masalalari bilan bevosita bog'liqdir.

Har birimiz kelajagimiz buyuk bo'lishi, mamalakatizning ravnaqi uchun vijdonan harakat qilmog'imiz zarur. Yoshlarning har tomonlama barkamol inson bo'lib voyaga yetishlari hamda ko'zlagan maqsadimizga erishishimiz uchun, avvalo, jamiyatimizga ma'rifatli otalar, ma'naviyatli onalar hamda bilimli, jonkuyar ustozlar juda kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida" gi 3271-sonli Qarori. 13.09.2017.
2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – B.12.
3. Sirojiddinov Sh. Davlatov O. Yusupova D. Navoiyshunoslik. 1-kitob. – Toshkent: Tamaddun, 2018. – 520 b.
4. Ochilov E. Alisher Navoiy hikmatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 2011. – 203 b.

4-SHO'BA: ALISHER NAVOIYNING TILSHUNOSLIKKA DOIR QARASHLARI VA BUYUK SHOIR ASARLARINING TILI. NAVOIY POETIKASI

АЛИШЕР НАВОИЙНИНГ ИНСОНПАРВАРЛИК ҒОЯЛАРИДАН МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ФОЙДАЛАНИШ

*Абдуллаева М.,
Андижон вилояти ПММ профессори*

Аннотация: Алишер Навоийнинг инсонпарварлик ғояларини мактабгача таълим тизимида болаларига таълим-тарбия беришда кенг фойдаланиш. Унинг ўрни таълим-тарбия жараёнида бекиёс эканлигини тушунтириш. Навоийнинг болалик даврларини болаларга намуна қилиб кўрсатиш, Навоийнинг зехни ўткир, одоб ахлоқда наъмуна, жуда кўп асарларни ёд олганлигини, болалик давридан шеър ёзишни бошлаганини ўтаётган машғулоти орқали етказиб бериш.

Мазкур мақолада муаллиф айнан А.Навоий ҳаёти ижоди билан болаларни боғча ёшидан таништириб бориш зарурияти борлигини, Навоийни қанча ўрганмайлик ҳали етарли эмаслигини кўрсатишга ҳаракат қилган.

Калит сўзлар. А.Навоий, таълим, тарбия, ҳаёт, ижод, асар, зехн, одоб ахлоқ наъмуна.

Алишер Навоий – Ўзбек адабиётининг бебаҳо дурдонаси, Алишер Навоий – ўзбек халқи маданияти ва адабиёти тарихида бекиёс ўрин тутадиган буюк шоир, давлат арбоби ва мутафаккир ҳисобланади. У 1441 йил 9 февралда Ҳирот шаҳрида таваллуд топган. Навоий болалик чоғлариданоқ илм-фанга, шеърятга жуда катта қизиқиш билдирган. 4 ёшида мактабга бориб, 7 ёшида Фаридиддин Атторнинг "Мантиқ ут-тайр" асарини ёд олгани бунинг яққол исботидир. Навоийнинг ижоди билан болаларни мактабгача таълим ёшидан бошлаб таништириш уларнинг ёшига, имконият даражасига қараб болаларнинг қалбига унинг асарларида келтирилган ғояларни сингдириб бориш зарурдир. Алишер Навоийнинг ижодий фаолияти, болалар тарбиясида катта аҳамиятга эга. Унинг ҳаёт йўли, меҳнатсеварлиги, адолатпарварлиги болаларга ибрат бўлиб хизмат қилади. Навоий асарларида инсонпарварлик, меҳр-оқибат, илмга интилиш, адолатли бўлиш каби ғазилатлар тарғиб этилади. Алишер Навоийнинг болалиги наҳоятда тарбияли, хушхулқли тоғаси Али билан бирга ўтган. Алишер ёшлигидан кўпинча тоғаси Али билан бирга юрарди. Унинг отаси Ғиёсиддин жияни Алини жуда яхши кўрар эди. Шунинг учун ҳам ўғлини отини Али қўйиб Алидек шоир, фозил одам бўлишини истаган. Яна шер сўзини ҳам қўшган, шердек қудратли жасур бўлиб ўсишини яратгандан сўраган. Шу билан Алишер исми билан аталган. Алишернинг 4 ёшлигида унинг тоғаси Али машҳур форс шоири Қосим Анворнинг қуйидаги байтини ўргатди.

Риндему, ошиқе му жаҳон сўзи жома чок,
Бо давлати ғами ту зи фикри жаҳон чи бок.

Маъноси, (риндлармиз, ошиқлармиз, жаҳонни куйдирувчи, ёқасин чок этувчилармиз. Сенинг ғаминг давлатида жаҳон фикридан нега ғам чекар эканмиз.) Навоий барча зодагон оиласидаги болалар каби туркий ва форсий тилларда эркин сўзлашар эди. Шунинг учун Алишер ёшлигидан хар икки тилда ўз асарларини ёзиб борган. Алоҳида ўзбек тилига эътибори кучли бўлган ўзбек тили бой тил эканлигини, бу тилда ҳам асарлар ёзилса гўзал бўлишлигини исботлаган. А.Навоий ўзбек тили асосчиси бўлиб ўзбек тилининг жозибасини кўрсата олган. Кичик 4 ёшли Алишер олий насаб оилаларнинг таълим оладиган мактабга борди. Алишер билан бирга ўқийдиган болалар, оқ суяклик даъво қиладиган кишиларнинг болалари бўлсалар-да, уларнинг биринчи устози болалар таълим тарбиясида қаттиқ қўллик қилар эди. Юмшоқ табиат, кўнгилчан бу одам бутун умрини болаларни шундай усул билан тарбиялаб, уларга билим беришга бағишлаган эди. Ўқувчилар ундан кўрқсаларда, аммо уни ниҳоятда хурмат қилишар эди. У пухта билим берарди одоб ахлоқда тавозени “эзиб ичирарди”. Болалар ўқишдан бўш вақитларида мустақил ўқир эдилар. Алишер мустақил мутолаа қилиш учун Фаридиддин Атторнинг “Мантиқ ул-тайр” китобини танлайди ва жуда кўп маротаба ўқиб чиқади. Асарда қушлар симурғ номли подишоҳларини қидириб йўлга чиқади. Йўл оғир ва машаққатли. Бу азобга чидай олмай кўп қушлар йўлдан қайтади. Қушларнинг бошлиғи Худхуд уларга кўп тана ва тазир қилади. Катта бир галадан атиги ўттиз қуш кўзланган тоғ чўққисига етиб борадилар. Аммо бу тоғ чўққисида ҳеч қандай тирик зот кўринмайди. Қушлар хайрон бўлиб Симурғни қидирадилар. Аммо уринишлари зое кетади. Пиравордида маълум бўладики, барча азоб-уқибатларга чидаб, йўл машаққатларини енгиб, бу ерга келган ўттиз қушларнинг ўзлари Симурғ экан (форс тилида Си-ўттиз, мурғ-қуш демакдир), Хулоса хар бир жонивор шундай имтихондан ўта билса, у камолат касб этади. Бу таълимот барча борлиқ, шу жумладан инсон ҳам буюк илохиятнинг аксидир, деб уқтирилар эди. Айнан бугунги кунда ҳам ушбу таълимот бизнинг асримизга мос келаётгани болаларининг хар қайдан қийинчиликларни енгиб ўтишларини ўргатишлик, ўқишга бўлган қизиқишларини ошириш, жамиятдаги барча ютуқларга ўқиш орқали етиш мумкинлигини тушинтириш зарурдир.

Алишер Навоий шахсияти ва ижоди билан болаларни таништириш мақсадида боғча ёшидаги болалар учун қуйидаги машғулот ишланмасини таклиф этамиз:

Машғулот мавзуси: Алишер Навоий – доно шоир.

Мақсад:

- Болаларни Алишер Навоий шахсияти ва ижоди билан таништириш.
- Уларга меҳр-оқибат, илмга ҳурмат туйғусини сингдириш.
- Нутқини, эслатиш ва тинглаш қобилиятларини ривожлантириш.

Жиҳозлар: Навоий расми, китоблар, гулчамбарлар, “Ғазаллардан парчалар”.



Бориши:

Тарбиячи болаларга Навоий расмини кўрсатади ва унинг исми, касби ҳақида гапиради.

Болаларга содда қилиб тушунтирилади:

– Навоий буюк шоир, яхши инсон бўлган. У кўп шеърлар ёзган.

– Навоий: “Меҳр-оқибатли бўлинг, илм ўрганинг”, – деган.

Болаларга Навоий ғазалларидан битта содда парча ўқиб берилади.

Савол-жавоб:

– Навоий ким?

– У нима қилган?

– Илм нима?

– Нега яхши бўлиш керак?

Ижодий топшириқ: Расм чизиш ёки гул яшаш.

Хулоса:

– Болалар Навоийни танийди, яхши фазилатлар ҳақида тушунчага эга бўлади.

Овозли ўқиш:

“Инсонга илм фойда,
Донишмандликни орда.
Ёмонликдан қайтгин сен,
Яхшилик қил ҳар дамда.”

Бу каби машғулотлар болаларда Навоийнинг ёшлик чоғидан ўқишга бўлган қизиқиши, ўқишни севиши, меҳр мухаббати, дўстига бўлаган меҳри, меҳнатсеварлиги ёшлигиданоқ адабиётга, яхши хулққа бўлган меҳрни шакллантиради. Шу билан бирга, Навоий меросини севиш ва ҳурмат қилишга ўргатади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Қажумов Азиз. Алишер Навоий (Улуғ шоир ҳаёти ва ижоди тўғрисида лавҳалар),-Т: 1991.-176 б.
2. Ҳасанов Маҳмуд, Каримова Сурайё. Навоий даври табобати Масъул муҳаррир У.И.Каримов.-Т,: Ибн Сино номидаги нашр,1991.-126 б.
3. Алишер Навоий. “Ҳамса”. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 1991.
4. Алишер Навоий. “Ҳазойин ул-маоний”. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1987.
5. Юсупова М., Шамсиева М. “Мактабгача ёшдаги болалар нутқини ривожлантириш”. – Т.: Ўқитувчи, 2013.
6. Зоҳидов Ҳ. “Алишер Навоий”. – Т.: Фан, 1983.
7. Комилов Н. “Навоий ҳаёти ва ижоди”. – Т.: Фан, 2001. Мактабгача таълим муассасалари учун методик тавсиялар. – Т.: Ўқитувчи, 2018.

ALISHER NAVOIY VA ABAY QUNANBAYO‘G‘LINING IJODIY HAYOT YO‘LLARI

*Djurayeva P.S.,
Navoiy viloyati PMM dotsenti*

Annotatsiya. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy turkiy tilli xalqlar adabiyoti tarixida alohida o‘rin tutadi. Uning go‘zal g‘azallari, hikmatli dostonlari, adabiyotshunosligi, tarixiy asarlari ajoyib va keng badiiy olamdird.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, Hirot, Abay Qunonboy o‘g‘li, turkiy tamaddun, badiiy gumbaz, adabiyot, besh doston, ma‘rifiy qarash, falsafiy qarash.

Kirish. Alisher Navoiyning “Mo‘jizaviy uchrashuvlar”, “O‘lim yodgorliklari tarixi” nomli didaktik asarlarida uning ma‘rifatli qarashlari yaqqol ifodalangan. U o‘zining falsafiy qarashlarini tarbiyaviy-pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirib, o‘z xalqini mahalliydashishga chaqirdi. U “Besh g‘ayrat – inson, uning aqliy qobiliyatlari va tarbiyasi haqida” asarida tarbiya muammolari haqida yozgan. U o‘zining pedagogik yondashuvini falsafiy yondashuv bilan uyg‘unlashtirib, barcha insonlar teng ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib tug‘iladilar, bizni, individ va shaxslarni ham faqat ta‘limgina inson qiladi, degan fikrni ilgari suradi. U o‘z davrida ta‘lim mehnatdan kelib chiqqan va mehnat ta‘limiga asos solgan, degan ilmiy xulosa chiqardi. Navoiy o‘zi yashab o‘tgan davrda mehnat va mehnat ta‘limining chidab bo‘lmas tartibbuzarligini fosh qilib, barcha fuqarolar uchun bir xilda toza mehnat, bir xil ta‘lim olishdek yagona maqsadni yaratish zarurligi haqida gapirdi. Bunday ta‘lim-tarbiya va mehnat bugungi jamiyatni to‘g‘ri yo‘lga solib, uni obod qilishiga, butun aholi, ko‘pchilik fuqarolarning hayotini yaxshilashga xizmat qilishini alohida ta‘kidladi. U ta‘limni ommalashtirish tarafdori edi. Biroq shoir Alisher shoir sifatida ko‘proq mashhur. U “Navoiy” taxallusi bilan turkiy tilda ko‘plab asarlar yozgan va turkiy tilning adabiy qo‘llanilishiga asos solgan asosiy mualliflardan biri bo‘lgan. Navoiy asosan chag‘atoy tilida ijod qilgan va 30 yil davomida o‘ttizdan ortiq asar yaratgan. Uning sharofati bilan chag‘atoy tili nufuzli va mashhur adabiy til sifatida qabul qilindi. Navoiy fors tilida “Foni” taxallusi bilan she‘rlar yozgan. Arab tilida yozilgan

asarlari ham bor. Buyuk shaxsning eng mashhur she'rlari uning "To'rt devon" nomli she'riy to'plamlaridir. Ularning umumiy soni 50 mingga yaqin she'rdir. Devoning har bir qismi inson hayotining turli bosqichiga bag'ishlangan.

Izlanish materiallari va metodologiyasi

"Navoiy xalqni uning tili adabiyotning murakkab talablariga bardosh bera olishiga, xoh u yuzini o'zgartiruvchi ma'noli murakkab metafora bo'lsin, xoh aniq ta'rifli ilmiy asar bo'lsin, deb ishontirishni maqsad qilgan", deydi sharqshunos professor Yevgeniy Eduardovich Bertels. Darhaqiqat, Navoiy turkiy xalqlar ichida birinchi bo'lib turkiy tilda yuksak badiiy saviyadagi asarlar yozish mumkinligini isbotlagan. O'z zamonasidan ilgari tug'ilgan buyuk siymo Alisher Navoiy nafaqat o'z asarlarini dunyoga tanitgan, balki adabiyot sohasida Sharqni dunyoga tanitgan, desak xato bo'lmaydi. Zero, ko'plab shoirlar Sharq g'azallarini yozganlar, jumladan Navoiy, Firdavsiy nomlari ko'p tilga olinadi. Masalan, qozoq va sharq shoirlari o'zlari kuylagan dostonlar asosida doston va she'rlar yaratishga kirishib, qozoq adabiyoti tarixida birinchi marta Sharqni kuylash masalasiga e'tibor qarata boshladilar. Sharq shoirlarining nomlarini alohida hurmat bilan tilga oladi, ular ijodidan ma'naviy ozuqa olgani ko'rinib turibdi.

Muhokama va natijalar

She'riy so'z gumbazini bunyod etgan, abadiy va o'chmas meros qoldirgan Sharqning buyuk shoiri Alisher Navoiy har bir davrda, har bir xalqda e'zozlanadi. Yillar o'tgan sari avloddan-avlodga o'tib kelayotgan zabardast notiq, zo'r faylasuf, shoir sifatida e'zozlanib qolaveradi. Abaydek bola bunday o'ychan ertakni eshitmagan bo'lishi mumkin emas. Darhaqiqat, yosh talabaning she'riy tuyg'usini uyg'otgan Sharq ertaklari bo'lgani, uning o'zi ham madrasada o'qib yurgan chog'ida duch kelgan. Yosh shoirning ilk she'rlari ishq mavzusida bo'lgani bejiz emas: Abayning oldida ikki yo'l bor edi. Biri Xoja Ahmad Yassaviy va Turkiston Boqirg'oniy yoygan so'fiylik yo'li bo'lsa, ikkinchisi Firdavsiy, Sa'diy, Navoiylar qo'ygan yo'l edi. Abay - ikkinchi yo'lni ustoz tutgan. Navoiy va Fuzuliy g'azallariga alohida e'tibor bergan. "Madrasaning og'ir, tor olamida, tor tarbiyada yashagan shogirdning haqiqiy oshiqlari Nizomiy, Sa'diy, Xoja Hofiz, Navoiy, Fuzuliy kabi qadimgi mumtoz sharq shoirlari edi" deb yozadi Muxtor Auezov. Olim Navoiy va Fuzuliyga alohida e'tibor berganini alohida ta'kidlaydi. Buning sababi bor edi. Madrasa yosh talabaga arab va fors tillarida puxta bilim bera olmagan uchun Abay dastlab o'zbek va turk tillaridagi asarlar bilan tanishadi. Abayning Navoiy va Fuzuliyga yetib borish qobiliyati tufayli Firdavsiy, Sa'diy, Xoja Hofizlarga yetib bordi. Shuning uchun ham shoirning "Navoiy, Sa'diy, Firdavsiy"larni yozib, so'ng tojik klassiklarini qo'shishi bejiz emas. Sharq shoirlari ichida Abayga eng yaqini Navoiy edi. Zero, Navoiy ijro etgan Farhod, Iskandar, Layli-Majnun, Bahrom obrazlari yaxshi ibrat sifatida singib ketgan edi. Alisher Navoiyning "Xamsa" (beshlar) motivlari qozoq dashtlari bo'ylab bir qancha yangi variantlarda tarqalib, xalq she'rlari bilan sinonim bo'lib qoldi. Masalan, Dulat Jirau "Shoshtaroz" dostonidagi Iskandar obrazini xalq orasida keng tarqalgan Iskandar shoxi haqidagi rivoyat asosida Abaydan oldin ham yozgan. Abay bu tasvirni o'ziga xos tarzda tasvirlagan.

Abay buyuk o'zbek shoiri Navoiyni o'ziga ustoz qilib, uning g'azallariga e'tibor qaratganini ta'kidlab, M.Auezov: "O'zbek adabiyoti ko'lamida ulkan meros qoldirgan Alisher Navoiy yagona emas edi. Keyinchalik O'rta Osiyo va Sharqning ko'pgina mamlakatlari adabiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ozarbayjonlar, turkmanlar, tatarlar, usmonli turklari adabiyotiga keng ta'sir ko'rsatishi bilan bir qatorda, qozoq adabiyoti uchun ham ko'plab samarali mevalar berdi. "XIX asr qozoq adabiyotining Abay, Shangerey, Sho'rtanboy, Aqan kabi buyuk shoirlarini eslar ekanmiz, Alisher Navaviyning g'azal va dostonlarini eng yaqqol his qilamiz", deb yozadi u. Shu nuqtai nazardan qaraganda, "Navoiy va qozoq adabiyoti", "Navoiy va Abay", "Navoiy va qozoq xalq dostonlari" kabi mavzular tadqiqotchilarning jiddiy so'zlariga munosib ko'rinadi. V.V. Radlov, M.Auezov, M.Kopeyev, M.Mametova, A.Qo'niratboyev, E.Ismoilov, M.Gabdullin, R.Berdiboev, M.Mirzaxmetov o'zining ayrim maqolalarida bu masalalarga to'xtalib o'tgan, lekin haligacha keng qamrov va aloqalarni topa olmayapti. Shuni unutmaslik kerakki, bu masalalar adabiy qarindoshlikni o'rganishda alohida o'rin tutadi. Bu ikki buyuk allomaning ichki yaqinligi ko'zlarga ko'p narsalarni aytib bergan bo'lsa kerak. Abay 13 yoshida Sharq shoirlariga taqlid qilib she'r yozgan bo'lsa, 60 yoshida yozgan qorong'u she'rlarida Navoiyning "Sevgili dillar", Sa'diyning "Guliston"i ta'sirini ko'rish mumkin. Abay madrasada o'qib yurgan kezlari Navoiy g'azallariga taqlid qilganini aytdik. Avvalo, bu g'azal nima ekanligiga to'xtalib o'tamiz. G'azal – tojik-fors she'riyatida (xususan, 10-asrdagi Rudakiy) ilk bor paydo bo'lgan lirik misra turi. Keyinchalik boshqa Sharq xalqlari adabiyotiga ham tarqaldi. G'azal odatda 5-10 bayt (juft)dan iborat - a-a-b-a-v-a-g-a... shaklida bo'ladi. Baytning oxirgi qatorida muallifning taxallusi (taxallus) ko'rsatilishi shart. Navoiy ham, Abay ham ishq haqida kuylash bilan ilk qadamlarini tashlab, o'sha go'zal zotga muhabbatni kuylash bilan yakunlagan. Har ikkisi ham go'zalning tashqi go'zalligini tasvirlashdan boshlanadi va o'sib borar ekan, ichki dunyo go'zalligiga chuqurroq kirib boradi. Navoiy: "Ajoyib parizodim, yorug' yuzda qora hol, Oq qog'ozga bitilgan xatga qo'yilgan no'xatdek" degan, Abay: "Nola qilib g'aming bilan ko'p iztirob qildirding, Allaqachon iztirob chekib yuribman men", degan edi va avvaliga olisdan hayratga tushadi. Keyinroq Navoiy: "Oftobning, go'zal kumush yuzini faqat bulutlar qoplagan", Abay: "Men salom yozaman", "Qalamqoshga salom aytdim" deya almashib keladi.

Navoiy XV asr farzandi. Shuning uchun ham uning asarlarida shoir yashagan muhitning og'ir haqiqatlari, xalqning orzu-havaslari, hayot, ilm-fan, axloq, siyosat, fan, san'at haqidagi fikrlari o'z ifodasini topgan. Alisher Navoiyning adabiy merosi 100 000 bayt, ya'ni 120 000 misra she'rdan iborat. Navoiy va Abay o'rtasidagi bog'lanishni birinchi navbatda ularning lirikasida sezamiz. Ikkalasi ham umrining oxirigacha qo'shiq so'zlarini yozgan. Abay qozoq she'riyatini yangi tuyg'ular, yangi g'oyalar bilan o'zgartirdi. Qozoq she'riyatida ilgari bo'lmagan o'xshatish, obraz va assotsiatsiyalar yaratdi. U xalq adabiyotining mohiyatini yangi shakl va mazmunga aylantirdi. Abay tashqi ko'rinishga intilmadi, balki hushyor, nafis mazmun olib keldi.

Turli davrlarda yashagan ikki alomaning fikrlari ko'p narsada bir-biriga to'g'ri kelganga o'xshaydi. Yaxshilik, yomonlik, saxovat, baxillik, boylik, faqirlik, shafqatsizlik, odamiylik masalalarida go'yo ikki mutafakkirning quvonchi, xo'rsinishi, yurak urishi bir vaqtda eshitiladigandek. Navoiyning yuragi xalq uchun og'ridi. Yolg'on, mag'rur shayxlarni, saroy munofiqlarini, o'yin-kulgisevar sultonlarni, xalqqa nur ko'rsatmagan qozilarni la'natlaydi. Navoiy ham, Abay ham o'z davrining vahshiyliklarini, talon-tarojlarini, ko'z yoshlarini ko'rib ulg'aygan. Binobarin, "to'siqlar va to'siqlar diyorida o'sgan" shoirlar o'rtasida ma'naviy, aqliy qarindoshlik borligi haqiqat. U ilm-ma'rifatga, insoniylikka, tinchlikka da'vat etdi. Qozoq, o'zbek, turkman, tojik, fors xalqlari orasida tarqalgan Alisher haqidagi rivoyatlarda ham ana shunday qanoatkor, xushmuomala, mehribon ulug' shoir obrazi tasvirlangan. Erkin axloq va chin muhabbatga intilgan shoir shayx va so'fiylarning to'ymasliklarini tanqid qiladi, ularni komil va keng bo'lishga chorlaydi. Navoiy XV asrning qorong'u qabridan shunday gapirib, nur sochgan bo'lsa, Abay qozoq dashtida yurib, XIX asr qafasiga suyanib: "Sen ham bir g'isht bo'lib dunyoga, o'zingni top, shakllan", degan edi. Navoiy o'z fikrini taklif qilgan bo'lsa: "Insonga bo'lgan muhabbat insondandir", Abay otam: "Ismim inson bo'lgach, men qandayin johil bo'layin", deb kinoya qilgan. Katta yuraklar shunday aks sado berishi kerak.

Navoiy va Abayning yoshlik, qarilik, dunyo illyuziyasi haqidagi g'oyalari o'zaro parallel va o'zaro bog'langan. Ularning har ikkisi ham xalqqa bo'lgan buyuk muhabbatini kuylagan. Ayol, san'at va siyosat haqida gap ketganda ham ular o'z davrining ilg'or farzandlari ekanliklarini isbotladilar. Navoiy she'riyat haqida: "So'z dengiziga sho'ng'ib, qo'lida tafakkur gavharini tutgan insondir" degan bo'lsa, Abay "Tilga yengil, dilga iliq, atrofi bo'lsin parvona" degan she'riy maqsadni ilgari suradi. "Mahbub al-qulub" ("Sevimli dillar") Navoiyning hayotiy tajribasi va ijodini jamlagan asardek. Bu kitobda shoir boshidan kechirgan mashaqqatlar, oq-qora, yovuzlik va ishq, achchiq-shirin haqida fikr yuritadi. Bu yerda vulgar til va she'r aralash. Har bir so'z o'rniga bolg'a bilan urilgan mixga o'xshaydi. Siz haqiqiy donolikka ta'zim qilasiz. Navoiy bu kitobning muqaddimasida shunday deydi: — Ba'zan shohlar orasiga kirib, ularni sehrlab ham qo'yganman. Jang maydonida askarlar oldida yurardim, hatto nodonlar ham, nodonlar ham tegardi. Men xayrixohlar bilan do'stlashdim. "Men ko'p odamlar uchun binolar qurdim", deydi u. Navoiyning ushbu ajoyib ta'rifini o'qiganingizda, Abay she'rlaridagi teran ma'noli nasihatlar ham qalbingizda nur sochadi. Ikki mutafakkirning oz bilan qanoatlanish haqidagi so'zlari ayniqsa, diqqatga sazovordir. Jumladan, Abay o'zining o'ttiz yettinchi hikmatida shunday deydi: "Erkak ko'p so'raydi, ozga qanoat qiladi, ayol oz so'raydi, ko'p bersang ham to'ymaydi". Bu uchqur o'yinni shoir o'z she'rlarida "Qanoatni, muruvvatni o'ylab qo'y" deb ta'kidlagan.

Xulosalash.

Navoiy qanoat haqida: "Oz bilan qanoat tunganmas manba, qancha olmasin, tunganmas xazinadir, har qancha tazyiq qilinmasin", deydi. Gumanist shoir so'zsiz tan olgan qalb ko'p narsaga erisha oladi. Navoiy ana shunday qoniqarli fikrlar

boyligi bilan o'zidan oldin o'tgan Nosir Xusravning "Saodatnoma" ("Saodat kitobi"), Sa'diyning "Guliston", zamondoshi ustoz Abdraxmon Jomiyning "Bahoriston"i kabi ulug'larning ijodini davom ettirib, kengaytirayotgandek ko'rinadi. Navoiy bu kitobida shayxlar, so'fiylar, savdogarlar, sultonlar, qo'shin, zamin, ilm-fan, san'at haqida izchil fikrlar bildirgan, shoir yashagan davr o'quvchi ko'z o'ngida turadi. Va bu buyuk gumanist rassomning yurak urishidek bo'ladi.

Abay "Ichim o'lik, tashqarim sog'lom" desa, uning atrofida nola qilgan bo'lsa, Navoiy: "Ishonchli odamlardan yuz karra ko'proq azob chekdim", degan edi. "Sevganlarimga ko'rsatgan muhabbatimdan aziyat chekdim", deya xulosa qiladi u. Abay "Xudbin, johilga hikmatli so'z aytilsa, ko'ngilning zaharlangani ham bo'ladi, o'chiradi ham bo'ladi", deb ta'kidlaydi. Navoiy "Boylikga to'ymagan ziqna boy tilladan chopon kiysa ham, ahlatga to'plangan chivin kabidir". Bu mutafakkirlar she'riyati - shuning uchun ham u juda boy va yuksakdir.

Sharqning donishmand shoirlari bilan tengdosh bo'lgan Abay buyuk haqiqat shoiridir. U Firdavsiy, Nizomiy, Navoiy soyasida qolib ketmay, ijodiy ilm oldi, qozoq she'riyati bayrog'ini yuksaklarga ko'tardi. Uning falsafiy risolalari qozoq qora so'z adabiyotining asosiga aylandi. Qarama-qarshiliklarga to'la zamonda yashagan shoir ijodi o'sha davrning beg'ubor ko'zgusiga o'xshab, hamma narsani o'z ichiga qamrab oladi. U xalqining kelajagi uchun kurashdi. Yomonlikdan qochdi, ezgulik yo'lini qidirdi. "Tinchlik va do'stlikka kel", dedi. Zulmatda qolgan qozoq xalqiga nur olib keldi. Navoiyning onasi ham uning xalqi edi. U ham o'sha odamlarning yo'qchiligiga qayg'urdi, yaxshiliklaridan quvondi. Odam bolasini chin dildan sevishtirishga chorladi. Navoiyning g'azallari, masnaviylari, ruboiylari, "Xamsa'lari insonparvarlik xizmatiga chorlaydi. U do'stlik, muhabbat, mehr-oqibatni kuylagan. Binobarin, Navoiy ham, Abay ham qoldirgan xazina har ikki xalq uchun, haqiqatan ham butun insoniyat uchun umumiy xazinadir. Bu yerda buyuk mutafakkirlarning ulug' siymosi gavydalanadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. X jild. Toshkent, 1970. B.8. Oq baytda A. Rustamov tarjimasini.
2. E.E.Bertels. Navoiy. Ijodiy biografiya tajribasi, Moskva, 1948. p. 120.
- Navoy A. Audio ishlaydi. Olmaota, 1948. 26-bet.
3. Auezov M., Alisher Navoiy //Alisher Navoiyning tanlangan asarlari, Olmaota, 1948 yil. 16-6.
4. Auezov M., Abay haqidagi maqola va tadqiqotlar. Olmaota. 1967, 41-6.
5. "Turgayskaya gazeta". 1905. 18

ALISHER NAVOIY VA UNING MA'RIFIY-MADANIY QARASHLARI

*Fayziyeva M.,
Samarqand viloyati PMM bo'lim boshlig'i*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiy va uning ma'rifiy-madaniy qarashlari tahlil qilinadi. Navoiy o'z asarlarida ilm, ma'rifat, madaniyat va axloqiy qadriyatlarni yuqori darajada qadrlagan. U o'zining falsafiy qarashlarida ilmning,

Abstract: In this article, the modern analysis of the educational, cultural, pedagogical, and psychological views of the great Uzbek poet and thinker Alisher Navoiy is studied. The ideas focused on knowledge, morality, and the consistent development of the individual in his works such as "Mahbub ul-qulub", "Nasoyim ul-muhabbat" and "Khamasa" are analyzed.

Keywords: "Mahbub ul-qulub", "Nasoyim ul-muhabbat", "Khamasa" education, culture, pedagogy, psychology, morality, human development.

Аннотация: В данной статье проведен современный анализ просветительских, культурных, педагогических и психологических взглядов великого узбекского поэта и мыслителя Алишера Навои. Проанализированы идеи, связанные с познанием, нравственностью и гармоничным развитием личности, которые отражены в его произведениях, таких как «Махбуб ул-кулуб», «Насоим ул-мухаббат» и «Хамса».

Ключевые слова: «Махбуб ул-кулуб», «Насоим ул-мухаббат», «Хамса» б образование, культура, педагогика, психология, мораль, развитие личности.

Kirish (Introduction). "Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi, sha'nu sharafigi dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa. Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir".

Alisher Navoiy (1441–1501) – buyuk o'zbek shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi bo'lib, uning ijodiy merosi nafaqat adabiyot, balki ma'rifat, madaniyat, pedagogika va psixologiya sohalarida ham chuqur iz qoldirdi. Navoiyning asarlarida inson tarbiyasi, ma'naviyat, bilim va axloq masalalari keng yoritilgan. Uning qarashlari zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlari uchun ham dolzarb ahamiyatga ega. Navoiyning ma'rifiy-madaniy, pedagogik-psixologik qarashlari uning asarlaridagi go'yalar asosida zamonaviy ta'lim va tarbiyani qiyosiy taxlili butun dunyoda katta qiziqish bilan o'rganiladi.

Metodologiya (Methods). Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Xamsa” kabi asarlaridagi ma’rifiy va pedagogik g’oyalar tahlil qilindi. Shuningdek, uning she’rlarida ifodalangan psixologik qarashlari zamonaviy pedagogika va psixologiya nazariyalari bilan solishtirildi. Manbalar sifatida Navoiyning asl asarlari va uning ijodiga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlardan foydalanildi. Alisher Navoiy hayoti va ijodi har bir dostonining nasriy bayoni “Bir daqiqalik dars” zamonaviy metodidan faol holatda o’quvchilar bilan birgalikda qo’llanilib pedagogic-psixologik, ma’naviy va ma’rifiy jihatdan asalar mazmuni sharhlab berildi.

Natijalar (Results)

Ma’rifiy qarashlar: Alisher Navoiy bilim va ma’rifatni inson hayotining asosiy qadriyati deb bilgan. Uning fikricha, bilim insonni kamolotga olib chiqadi. “Mahbub ul-qulub” asarida u: “Kimki har shiddat aro sabr-u tahammul ayladi, Baxt aning nishini no’sh-u xorini gul ayladi” deya saboq beradi

U ta’limning faqat rasmiy bilimlarni o’zlashtirish emas, balki insonning axloqiy va ma’naviy jihatdan kamol topishi ekanligini ta’kidlagan.

Madaniy qarashlar: Alisher Navoiy madaniyatni insoniyatning rivojlanishi uchun muhim omil deb hisoblagan. U she’rlarida turli xalqlarning madaniy qadriyatlarini ulug’lab, ularning uyg’unligini ta’kidlagan.

Masalan: “Har qaysi xalqning o’z madaniyati bor, lekin ularning hammasi insoniyatning umumiy boyligidir.”

Pedagogik qarashlar: Navoiyning pedagogik qarashlarida tarbiyaning muhimligi alohida ta’kidlangan. U bolalarga mehr va e’tibor bilan yondashish, ularning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishni talab qilgan. “Nasoyim ul-muhabbat”da u: “Farzandni yaxshi tarbiyalash – bu kelajakni yaratishdir.”

Psixologik qarashlar: Alisher Navoiy inson psixologiyasini chuqur tushunishga intilgan. Uning fikricha, insonning ichki dunyosi uning tashqi harakatlarini belgilaydi. “Xamsa” asarida u: “Dil – bu olamning o’zi, uning har bir harakati insonning taqdirini belgilaydi.” Yuqorida keltirilgan parchalar asosida uning ilmiy ijodi hozirgi zamonaviy ta’limda ham o’z ahamiyatini yo’qotmaganligini ko’rishimiz mumkin.

Muhokama (Discussion) Navoiyning ma’rifiy, madaniy, pedagogik va psixologik qarashlari zamonaviy davr uchun ham ahamiyatli bo’lib, ular inson tarbiyasi, bilim va madaniyatning o’zaro bog’liqligini ko’rsatadi.

Alisher Navoiyning asarlari bilim, axloq va insoniy qadriyatlar mavzulariga qaratilgan didaktik g’oyalar bilan boy. Uning qarashlari insonning ma’naviy va axloqiy kamolotini ta’kidlaydi.

Bilim va ma’rifat: taranumi “Mahbub ul-qulub”da ochib berilgan bo’lsa,

Axloqiy tarbiya: “Nasoyim ul-muhabbat” asarida batafsil tushintirilgan,

Insoniy qadriyatlar: “Layli va Majnun” dostonini sahnalashtirilgan,

Jamiyat va adolat: “Farhod va Shirin” dostonini mazmuniga jo bo’lgan.

Uning g’oyalarini zamonaviy pedagogikada qo’llaniladigan “shaxsga yo’naltirilgan yondashuv” va “ma’naviy-axloqiy tarbiya” konsepsiyalari bilan uzviy bog’lashimiz mumkin.

Xulosa (Conclusion). Alisher Navoiyning ma'rifiy-madaniy, pedagogik-psixologik qarashlari insoniyatning ma'naviy va intellektual rivojlanishi uchun muhim yo'l-yo'riqlarni beradi. Uning asarlari zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarini boyitishda muhim manba hisoblanadi. Navoiyning g'oyalari bugungi kunda ham inson tarbiyasi va madaniyatini yuksaltirishda dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan yuqori saviyadagi mukammal asar va dostonlardir. Shuning uchun ham bo'lsa kerak uzoq yillar davomida buyuk bobomizning manaviy merosi avlodlarga dasturi amal bo'lib hizmat qilib kelmoqda. Zamon har qancha yangi talab qo'ymasin insonning ichki dunyosi qalb ko'zi bobomiz tariflaganidek chiroyli bir ko'zgu kabi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References)

1. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008, 47 b.
2. Karimov, N. "Alisher Navoiyning pedagogik qarashlari". Toshkent, 2005.
3. Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" asari Toshkent Yoshlar nashriyoti uyi 2018 - B-62.
4. Alisher Navoiy. "Xamsa" ("Layli va Majnun" dostoni) (dostonning ixcham nasriy bayoni Toshkent yangi asr avlodi 2009
5. Alisher Navoiy, A. "Nasoyim ul-muhabbat". <https://kutubxona.samduuf.uz/download/4622>
6. Yusupova, M. "Navoiy va zamonaviy psixologiya". Samarqand, 2010.
7. www.Pedagog.uz
8. www.Ilm.uz
9. www.Kitob.uz
10. www.Mutolla.uz

O'SMIR YOSHLAR O'RTASIDA KIBER JINOYAT SODIR QILISHNING OLDINI OLISH BO'YICHA IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLAR

Dusanov E.A.,

Navoiy viloyat PMM kafedra mudiri, (PhD), dotsenti

Annotation. This article presents the results of scientific research on the problem of teenagers addicted to virtual games, the negative qualities that appear in the behavior of teenagers as a result of virtual games, and recommendations for their prevention.

Key words: Aggressive behavior, information-psychological, security, virtual, computer games, emotional, thinking, contemplation, consciousness.

Аннотация. В данной статье представлены результаты научных исследований по проблеме зависимости подростков от виртуальных игр, негативные качества, которые проявляются в поведении подростков в результате виртуальных игр, и рекомендации по их профилактике.

Ключевые слова: Агрессивное поведение, информацион-психологик, безопасность, виртуальные, компьютерные игры, эмоциональный, мышление, диагностика.

Annotatsiya. Mazkur maqolada virtual o'yinlariga tobe o'smirlar muammosi yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari va virtual o'yinlari oqibatida o'smirlar xulqida paydo bo'ladigan salbiy sifatlar va ularni oldini olish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Agressiv xulq, axborot-psixologik, xavfsizlik, virtual, kompyuter o'yinlari, emotsional, tafakkur, tashxis, ong.

- Kirish. Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalarida virtual olam vositalarining inson ongiga ta'sirini aniqlash, internetga qaramlikning oldini oldini olish, o'smir yoshlarning axborotlar bilan ishlay olish ko'nikmalarini ilmiy tekshirish, shuningdek, jamiyat hayotida axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash, texnogen o'zgarishlar sharoitida yoshlarni ekstremistik va separatistik tashkilotlarning vayronkor g'oyalaridan himoyalash hamda mahalla muhitida xavfsiz axborot muhitini ta'minlash, jamiyatning turli qatlam va submadaniyat kishilari orasida kiber xavfsizlikni barqarorlashtirish bo'yicha, ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. «Web-canape» statistik saytida keltirilishicha, hozirgi kunda dunyo aholisining 56, 4 foizi ochiq axborot tizimlaridan turli maqsadlarda foydalanishadi. Jumladan, 2021 yilning yanvar holatiga ko'ra, dunyodagi jami aholining (7,83 mlrd.) 66,6 %i mobil aloqadan, 59,5 %i internetdan va shuningdek 53,6 %i ijtimoiy tarmoqlardan foydalanib, butunjahon pandemiya sharoitida ularning aksariyati, ayniqsa yoshlar o'zlarining asosiy vaqtlarini ochiq axborot tizimlariga sarflashmoqda. Internetdan foydalanish bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori natijani qayd etgan mamlakatlar reytingida dastlabki o'rinni Filippin (10 s. 56 daq.) oxirini AQSh (7 s. 11 daq.) tashkil etgan. Quyi natijani esa avvaliga Vetnam (6 s. 47 daq.) va oxirini Yaponiya (4 s. 25 daq.) mamlakatlari qayd etishgan. Shu jihatdan ham, psixologiya va axborot xavfsizligi (sohalar bo'yicha) yo'nalishlarida mutaxassislar tayyorlaydigan ta'lim muassasalarida Davlat ta'lim standartlari, davlat malaka talablari, o'quv dasturlarini ishlab chiqishning istiqbolli yo'nalishlarini belgilashda o'smir yoshlarni virtual olam ta'siridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlariga va ilg'or uslubiy ta'minotini ishlab chiqish ishlariga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Virtual olam va uning ta'siri, internet qaramlik va psixologik profilaktikasi, o'smir yoshlar hayotida axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlash, kiber xavfsiz muhit va yoshlar kabi masalalar, butun jahon psixolog olimlarining diqqat e'tiborida bo'lib kelmoqda. Mamlakatimiz olimlaridan Sh.R.Baratov, N.M.Dolimova, V.M.Karimova, U.D.Qodirov, I.I.Raximova, R.S.Samarov, G.R.Turg'unova, B.M.Umarov kabilar axborotlarning psixologik xavfsizligi asoslari, ochiq axborotlar tizimi va yoshlar, destruktiv xulqli yoshlar va ijtimoiy-psixologik xizmat kabi masalalarni keng ko'lamda tadqiq etishgan. N.M.Dolimova esa, o'zbek milliy muhitida o'smirlarning kompyuter o'yinlariga tobeligini diagnostika qilish va korreksiya qilish masalasini o'rgangan bo'lib, natijada kompyuter o'yinlariga tobelligi o'smirlarda bezovtalik va agressiyaning oshishini aniqlashga muvaffaq bo'lgan. Shuningdek, I.I.Raximova ishlarida o'smirlik va ilk o'spirinlik yoshida kompyuter o'yinlariga tobelikning oilaviy munosabatlar va sotsiometrik status

bilan aloqadorligi o'rganilgan. L.A.Nigmatulina kompyuterga tobelikning shaxs xarakterologik xususiyatlariga ta'sirini tadqiq etgan bo'lsa, B.S.Shukurov talabalarda internetga tobelikni keltirib chiqaruvchi psixologik omillar va uni bartaraf etish yo'llari muammosini ilmiy dalillashga muvaffaq bo'lgan.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur tadqiqot ishimizda biz G.V.Lofovaya tomonidan ishlab chiqilgan «Virtual olamga tobelik (addiksiya)» testi, K.Leongard va G.Smesheklarning «Xarakter aksentuatsiyani baholash» so'rovnomasi, A.I.Shepilovanning «Tugallanmagan jumlar» metodikasi hamda A.A.Lugoviskaya tomonidan yaratilgan «Yengib o'tuvchi xulq-atvor» so'rovnomalaridan foydalanildi. Olingan natijalarining statistik ishonchlilik darajasi matematik-statistik metodlaridan K.Pirson korrelyatsiya koeffitsienti, foizli tahlil va faktorli analizlar orqali o'rganildi. Psixologlarning fikricha yovuz o'yinlar 100% konflikt holatlarga ta'sir etadi. Mana shu holatlarda shartli refleks hosil bo'ladi. Agar odam kompyuterning oldida qancha ko'p vaqt o'tirsa, (yovuz o'yinlar o'ynab), oddiygina hal qilsa bo'ladigan narsalar ham uningcha konflikt darajasida bo'ladi va uni birgina yo'l, kuch ishlatish yo'li bilan yengish mumkin deb o'ylaydi.

Virtual o'yinlari kinoga yoki kitoblarga qaraganda odamning ruhiyatiga tez ta'sir qiladi. Kompyuterda o'ynab turib odam o'zi qaror chiqaradi, kinoda esa u faqat kuzatuvchi bo'ladi xolos. Har qanday film 2 soat davom etadi, ammo bola kompyuter o'yinlari oldida 100 soatlab o'tirishi mumkin. Olib borilgan kuzatishlarning natijasiga ko'ra filmga odamlarni syujetning rivojlanishi qiziqtiradi.

Psixolog Deyvid Grossman O'zining «qotillik haqida» kitobida yozishicha, elektron o'yinlar jangovor tayyorgarlikka o'xshaydi, bunda askarlar qotilliklar oldidan tayyorlanadi. Misol uchun: ko'pgina piyoda askarlarda mashq jarayonida odam figurasi singari nishonlarga qarab o'q uzganlarida, ularda qotillikka qarshi g'azablari yo'qolib ketadi. Grossmanning fikricha, mana shunday yovuz o'yinlar bolalarda qotillikka moyillikni uyg'otar ekan.

- Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Mixon universiteti gumanitar va tabiiy fanlar kolleji professori Akio Mori 6 yoshdan 29 yoshgacha bo'lgan 240 odamning miyasining faolligi o'rtasida tajriba olib borgan. Tajribadagilarni Mori 3 ta gruppaga ajratadi. Birinchi guruhga kompyuter umuman o'ynamagan yoki onda-sonda o'ynagan kishilarni, ikkinchi guruhga o'rtacha o'ynovchilarni, uchinchi guruhga ashaddiy o'ynovchilarni kiritadi. Professor virtual o'yinlarning miyaga ta'siri va buning natijasida odamning bu ta'sirga emotsional va ijodiy javobini kuzatadi. Mori alfa va beta ritmlarining muvofiqligini o'rganadi (1-chisi harakatsizlikni, 2-chisi miyani old peshona qismining aktiv ishini ko'rsatadi). Natijada u shuni isbotladiki, kompyuterga qiziqmaydigan odamlarda beta-ritmlar alfa-ritmlarning ustidan hukmron bo'ladilar. Normal kam o'ynasalar ham hech narsa o'zgarmaydi. Ikkinchi guruhda o'yin vaqtida beta ritm kuchsizlanadi. Uchinchi guruh video o'ynovchilarda esa kompyuterdan uzoqda bo'lsalar ham, ularda alfa-ritmlarning ustuvorligi hukmron bo'ladi.

Virtual o'yinlari miyaning ko'rish va harakatlanishga javob beradigan qismiga ta'sir qiladi. O'yinlar odamning xulqi, emotsiyasi va o'qishga javob beradigan bosh miya po'stlog'ining old peshona qismi ya'ni, aql sohasini o'sishiga zarar yetkazadi. Virtual o'yinlari bilan parallel ravishda aqliy salohiyatlar ham pasayib boradi. Shuni aytish kerakki laboratoriya miyani old peshona qismining ishlamasligi neandertal odamni vahshiy va ta'sirchan qilib qo'yadi, katta jamoada yashashni xohlamaydi. Virtual uyinlari aynan miya old peshona qismini faoliyatini susaytiradi.

Oddiy arifmetik mashqlarni bajaruvchi va an'anaviy misollarni yechuvchi bolalarda miyani old peshona qismi rivojlanib boradi. Ularning intellektual salohiyatlarini har kuni kompyuter o'yinlari bilan mashg'ul bo'ladigan bolalar salohiyati bilan solishtirib ko'rishganda arifmetik topshiriqlarni bajarish uchun katta intellektual salohiyat kerak bo'lishi aniqlandi.

Virtual o'yinlariga psixologik "bog'lanib qolish" mavjudligiga ko'pgina mutaxassislar va insonlar ikkilanishadi. Biroq hozirda kompyuter o'yinlari bilan mashg'ul bo'luvchilar va vertual olamda bo'luvchilar soni kundan kunga ortib borayotganligi yaqqol fakt hisoblanadi.

Maqolamizning amaliy ahamiyati shundaki, xalq ta'lim muassasalari tizimida amaliy-psixologik xizmatni tashkil etishda, o'smir yoshdagi yuqori sinf o'quvchilarining ta'lim jarayoni faoliyatda yuzaga keladigan destruktiv virtual ta'sirlarga doir yuzaga keladigan tahdidlarni bartaraf qilishda, o'quv faoliyatida ma'naviy va aqliy-intellektual jarayonlarni rivojlantirishda samara beradi. Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan xulosa va tavsiyalar asosida maktab amaliyotchi psixologlari, mahalla yetakchilari va xalq ta'limi muassasalari o'qituvchilari va ota-onalar keng foydalanishi mumkinligi bilan belgilanadi.

-Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Yoshlarni tarbiyalash uchun quyidagilarga alohida e'tibor qaratishimiz lozim:

O'smirlarni virtual olam ta'siridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlariga virtual olam tamoyillari, yengib o'tuvchi xulq-atvori, virtual olamdan chiqish sifatlarini baholash, internetga qaramlikni oldini olish yo'llari va shaxs xarakter aksentuatsiyasi kabi psixologik xususiyatlar o'z ta'sirini ko'rsatishi namoyon bo'ldi. O'smirlarni virtual olam ta'siridan himoyalashda irodaviy va motivatsion jihatlar, ya'ni matonat, oqilona harakatlarni bajarish, voqelikni yengib o'tish, o'zini o'zgartirishga intilish, ijobiy tafakkurni shakllantirish va emotsiyalarni nazorat qilish sifatleri o'ziga xos yordamchi vosita sifatida xizmat qilar ekan hamda o'smir yoshlarning subyektiv kechinmalari bilan bog'liq ekanligi aniqlandi. O'smirlarni virtual olam ta'siridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari tahlil qilinib, bunda viloyatlarning markazida yashovchi o'smirlarga qaraganda viloyatlarga bo'ysunuvchi tumanlarda istiqomat qiluvchi qishloq o'smir yoshlarida virtual olamdagi destruktiv ta'sirlarga berilish quyi-roq ekanligi yaqqol namoyon bo'ldi. O'smirlarni virtual olam ta'siridan himoyalashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan shaxslilik xususiyatlari o'zaro bog'liqlikni aks ettirib, yengib o'tuvchi xulq-atvori, virtual olamdan chiqish sifatlarini baholash, internetga qaramlikni oldini olish yo'llari va shaxs xarakter aksentuatsiyasi kabi

omillar quyilashgan sari, o'smir yoshlarda virtual olamdan saqlanish salbiy jihatdan shakllanishidan darak berar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абраменкова В. Ребёнок в «заэкране». Кромешный мир компьютерных игр / В. Абраменкова. – Москва Книга, 2009. – 112 с.
2. Абрамов М.Г. Интернет как инструмент трансформации личности / М.Г. Абрамов // Экология и жизнь. – 2006. - №5. – С. 38 – 41.
3. Алтухов Н. И. Зависимость от компьютерной виртуальной реальности Текст. / Н. И. Алтухов, К. Ю. Галкин // XIII съезд психиатров России: (материалы съезда). М., 2000. – С. 285 – 286.
4. Арестова О.Н. Коммуникация в компьютерных сетях: психологические детерминанты и последствия Текст. / О. Н. Арестова, Л. Н Бабанин, А. Е. Войскунский // Вестн. Моск. Ун-та. Психология. 1996. - № 4. - С.14 -20.

ALISHER NAVOIYNING MA'RIFIY-MADANIY, PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK QARASHLARI

*Hamroyeva A.F.,
Navoiy Innovatsiyalar Universiteti talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Alisher Navoiyning ma'rifiy-madaniy, pedagogik va psixologik qarashlari tahlil qilinadi. Navoiy o'z asarlarida insonni nafaqat ilm-fan, balki ma'naviy va axloqiy jihatdan ham tarbiyalash zarurligini ta'kidlagan. Uning pedagogik qarashlari yoshlarni faqat bilim olishga emas, balki ma'naviy barkamollikka intilishlariga qaratilgan. Navoiy psixologik nuqtai nazardan inson qalbini, uning ruhiy holatini va ehtiyojlarini yoritgan. U ma'rifat, madaniyat va tarbiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ajratib ko'rsatgan va ilm olish bilan birga axloqiy qadriyatlar muhimligini ta'kidlagan. Bu maqola Navoiyning asarlaridagi pedagogik va psixologik g'oyalarini o'rganib, ularning bugungi kunda ta'lim va tarbiya tizimidagi ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, ma'rifat, madaniyat, pedagogika, psixologiya, axloq, tarbiya, ma'naviyat, ma'naviy barkamollik, ta'lim-tarbiya.

Alisher Navoiy, o'zining buyuk adabiy merosi bilan nafaqat o'zbek, balki jahon adabiyotining ajralmas qismiga aylangan bir shoir, faylasuf, davlat arbobi va ma'rifatparvar sifatida tarixda qolgan. Uning asarlarida insoniylik, ma'rifat, madaniyat, axloqiy me'yorlar, tarbiya va psixologiya kabi g'oyalar chuqur izlanishlarga asoslangan. Navoiyning ma'rifiy-madaniy va pedagogik-psixologik qarashlari ham zamonasi, ham hozirgi kunda ahamiyatini yo'qotmagan qadriyatlar tizimini o'z ichiga oladi. Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlaridagi ma'rifiy, madaniy, pedagogik va psixologik qarashlar tahlil qilinadi.

1. Ma'rifiy-Madaniy Qarashlar

Navoiy o'z asarlarida ma'rifatni insoniyatni uyg'otish, ruhiy va madaniy rivojlanishga olib boruvchi asosiy vosita sifatida ko'radi. Uning fikriga ko'ra, ma'rifat insonning qalbini yorituvchi nurdir, uning eng oliy saodati va baxtiga yetishishining yo'lidir. "Ma'rifat — insonning eng buyuk boyligi, ilm esa

insonning haqiqiy sohibi" degan fikri o'ziga xos bir pedagogik g'oyani ifodalaydi. U, shuningdek, ilmning rivoji va madaniyatning o'sishining bir-biri bilan bog'liq ekanligini ta'kidlagan. Ma'rifat nafaqat bilish, balki axloqiy va ma'naviy fazilatlarga erishish, insonni yuqori ruhiy fazilatlar bilan to'ldirishdir.

Navoiyning "Mahbubul-qulub" va "Xamsa" kabi asarlarida ilmga bo'lgan mehr va ehtiros, bilimni kengaytirish zarurati haqida keng mulohazalar mavjud. U, o'z davrida jahonning turli xalqlari o'rtasidagi madaniy aloqalarni rivojlantirish va ilm-fan sohalarini rivojlantirishni ta'lim olishni mas'uliyat deb bilgan.

2. Pedagogik Qarashlar

Navoiyning pedagogik qarashlari ko'plab asarlarida, ayniqsa, yoshlarni tarbiyalash va ularga axloqiy fazilatlarni singdirish masalasida o'z aksini topadi. U yoshlarni faqat bilim bilan ta'minlashni emas, balki ularning axloqiy jihatdan kamol topishlarini ham ta'kidlaydi. Navoiyning fikricha, har bir insonni tarbiyalashda axloqiy qadriyatlar, mardlik, sabr-toqat, adolat va mehr-oqibat asosiy o'rin tutadi.

Shuningdek, Navoiy o'zining pedagogik qarashlarida yoshlar uchun o'rnak bo'lish, ular uchun haqiqiy maqsadni ko'rsatish, ularning ongini, qalbini to'g'ri yo'nalishga boshlashning ahamiyatini e'tirof etgan. Uning fikricha, bilim olish, axloqiy tarbiya va ma'naviy o'sish o'rtasida yaqin bog'liqlik mavjud.

3. Psixologik Qarashlar

Navoiyning psixologik qarashlari insonning ruhiy holati, qalb va ongning ishlash mexanizmlari haqida ko'plab qimmatli mulohazalar beradi. U inson qalbini, uning ehtiyojlarini, shuningdek, ijtimoiy va psixologik rivojlanishning muhim jihatlarini chuqur tahlil qilgan. Navoiy, o'z asarlarida, inson ruhining farqlanishini, ijtimoiy va psixologik omillarning uning shaxsiy rivojlanishiga ta'sirini ko'rsatgan.

Navoiyning "Xamsa" asarida kishining ichki kurashlari, qalbdagi qarama-qarshiliklar va ruhiy holatlarning psixologik tasviri sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. U insonning ichki dunyosini yoritishda o'sha davrning psixologiyasini yoritishga intilgan va inson ruhining boyligi, ehtiyojlari, shaxsiyati haqida ko'plab nazariyalar yaratgan. Psixologik qarashlari orqali Navoiy insonning o'zini tanib olishiga, ijtimoiy va shaxsiy hayotidagi rollarini anglashiga, o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyojni ko'rsatgan.

4. Navoiy va Zamonaviy Ta'lim-Tarbiya

Alisher Navoiy ta'lim va tarbiya jarayonlarida hozirgi zamon pedagogikasiga juda katta ta'sir ko'rsatgan. Uning insonparvarlikka asoslangan ta'lim-tarbiya g'oyalari bugungi kunda ham ahamiyatli bo'lib qolmoqda. Yoshlarni faqat bilim olishga emas, balki ma'naviy va axloqiy o'sishga ham yo'naltirish kerakligi, shuningdek, ularni psixologik va ijtimoiy jihatdan o'ziga xos shaxslar sifatida tarbiyalash zarurligi Navoiyning asosiy tamoyillaridan biridir.

Navoiyning pedagogik-psixologik qarashlari hozirgi ta'lim tizimida, yoshlarni nafaqat bilim olish, balki to'g'ri axloqiy va ma'naviy qadriyatlar asosida tarbiyalash zaruriyatini namoyon etadi.

Xulosa

Alisher Navoiy o'zining ma'rifiy-madaniy, pedagogik va psixologik qarashlarida insonning ma'naviy barkamolligi, ilm va axloqning uyg'unligi, tarbiya va ta'limning hamohangligi kabi g'oyalarni ilgari surgan. Uning fikricha, har bir inson o'zini va atrofdagi dunyoni anglab yetishish, bilim va axloqni birlashtirib, yuqori ma'naviy darajaga erishishi kerak. Bu g'oyalar faqat uning zamonasi uchun emas, balki bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy, A. (1982). Xamsa. Toshkent: Adiblar nashriyoti.
2. Islomov, M. (1997). Alisher Navoiy: Ma'rifiy-madaniy qarashlari. Toshkent: Akademnashr.
3. Yusupov, S. (2004). Navoiy va uning pedagogik g'oyalari. Toshkent: Sharq.
4. Kamolov, M. (2010). Alisher Navoiyning psixologik qarashlari. Toshkent: Fan va texnologiya.

VOYAGA YETMAGAN YOSHLARNI TARBIYALASHDA SOG'LOM G'OYALARNI SINGDIRISHNING OMILLARI VA O'RNI

Ernazarov U.E.,

Toshkent shahar Sergeli tumanni ishlab chiqarish PO FMB 1-sonli ichki ishlar bo'limi surishtiruv guruxi surishtiruvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim jarayonida o'smirlarni vatanpavarlik ruhida tarbiyalashda sog'lom g'oyalarni singdirishning ijtimoiy psixologik mexanizmlari bugungi kunning dolzarb vazifalardan biriga aylanganligi haqida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy-iqtisodiy, axborot, ma'naviy-ma'rifiy, intellektual, texnologiyalar, qobiliyat, ijtimoiy psixologik, motivatsiya.

Dunyoning taniqli siyosiy arboblardan biri Maxatma Gandi shunday yozgan edi: "Men uyimning darvoza va eshiklarini mahkam berkitib o'tira olmayman. Chunki unga toza havo kirib turishi kerak. Va shu barobarida eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib, xonadonimni ag'dar-to'ntar qilib, o'zimni yiqitib tashlashini ham hohlamayman". Bu falsafiy so'zlarni bugungi axborot xurujlari va yod g'oyalarning turli yo'llar bilan mamlakatimizga u yoki bu mintaqada asrlar mobaynida shakllangan qadriyatlar, urf-odatlar, e'tiqod shakllariga va ta'lim-tarbiya tizimiga salbiy yoki ijobiy ta'siri jarayonlari ma'nosida qo'llash ham mumkin. Sanoati va yuqori texnologiyalari rivojlanayotgan jamiyatda odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy muhitini yaxshilanishi to'kin hayotga erishishga bo'lgan shaxsiy intilishi ularning asl qadriyatlarga, jumladan, oila va nikohga, yoshlar tarbiyasiga bo'lgan munosabatlarida keskin inqirozni keltirib chiqarmoqda. Bugungi kunda bu holat gedonistik psixologiyaning asosi deb baholanadi, uning oqibati jamiyatda qator ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarayotganligini ochiq e'tirof etadi. Gedonezmning ma'nosi, shaxs va uning xulq-atvori motivlarida faqat nimalardandir lazzatlanish, qoniqish olish va o'zidagi ichki ruhiy iztiroblardan holi bo'lishga intilish ustivor bo'ladi. Aslida insonning to'q va farovon hayotga intilishi, yaxshi yashashni

xoxlagani ayb emas, lekin bunday to'kinchilik insoniylik qoidalariga zid bo'lishi mumkin emas. Insoniyatni tashvish va xavotirga solgan narsa shuki, bunday ong va shuurdagi o'zgarishlar ba'zi bir evropa xalqlarining eng zarur va muhim qadriyatlariga nisbatan salbiy munosabatlarda ifodalanadi. Masalan, Evropada tug'ilayotgan bolalarning har uchtasidan bittasi nikohsiz tug'ilayotganligi, tug'ilishning keskin kamayib ketganligini, umuman ayollar o'zidan sog'lom zurriyod qoldirishni istamayotganligi, ijtimoiy yashash tarzi yaxshi bo'la turib farzand tug'ilishi va uni tarbiyalashga sarflanadigan xarajatlardan qochayotganligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bunday salbiy g'oyalar yoshlarimizning ayrimlarida kuzatilishi juda achinarli albatta va bunday illatlarni oldini olish uchun har bir shaxsga psixologik himoya zarur. Psixologik himoya bo'lishi uchun yoshlarda mustaqil fikr bo'lishi lozim. Darhaqiqat, birinchi Prezidentimiz I.Karimov "Milliy g'oya va istiqloq mafkurasi haqida gap borar ekan, biz nihoyatda keng qamrovli, murakkab, ser-qirra, insoniyat tarixida aniq va mukammal ifodasi, tugal namunasi hali-xanuz yaratilmagan tushunchalarni o'zimizga tasavvur qilishimiz kerak, deb o'ylayman. Bu tushunchalar Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi yuksak g'oyalarning ma'no-mazmunini teran anglab etishga xizmat qiladi. Bu mafkura xalqni xalq, millatni millat, uning sha'nu sharafi, or-nomusi, ishonch-e'tiqodini ifodalaydigan, jamiyatimizning o'ziga xos taraqqiyot yo'li, turmush tarzi, tub manfaatlariga tayangan holda muttasil rivojlanib, takomillashib boradigan g'oyalar tizimidir." deb ta'kidlaydilar

Shunday ekan milliy g'oya mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 33.500 million aholining 60 foizidan ortig'ini 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etishini inobatga oladigan bo'lsak yoshlarimizning maqsad-muddalari, istiqbolda tinch va farovon yashashiga kafolat beruvchi g'oyaviy kuch bo'lib, u millatni millat, xalqni xalq etib birlashtiruvchi kuchli omildan biridir. Bugungi kunda milliy g'oya, va mafkura targ'iboti bilan keng jamoatchilik shug'ullanmoqda, ayniqsa, xalq ta'lim tizimida bir qator ilmiy manbalar, darsliklar yaratilib, o'quv jarayonlarida qo'llanilishi va yoshlarni o'z Vataniga sodiq, mard, fidoyi, yuksak ma'naviy fazilatlar egasi bo'lishga undamoqda.

Yuqoridagi fikrlarimiz misolida yoshlarimizga ezgu g'oyalarni targ'ibot tashviqot qilishda quyidagi usullardan foydalanish yaxshi samara berish mumkin:

–ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot orqali hamma oilada, mahallada, keng jamoatchilikda axborot tarmoqlari, jamoat tashkilotlari orqali uzatishi targ'ibot va tashviqot ham ta'lim-tarbiyaning bir ko'rinishidir, agarda to'g'ri targ'ib qilinsa, yoshlarni buzg'unchi g'oyalardan asraydi, o'z qarashlarini o'zgartiradi;

–ijtimoiy so'rovlar orqali yoshlarni fikrini o'rganib borish, ular bildirgan fikr-mulohazalari asosida mafkuraviy targ'ibotni olib borish mumkin. Bunga asosan quyidagi uchta omilga ahamiyat berish zarur.

–birinchi omil-so'rovda ishtirok etayotganlarni mazkur so'rovdan ijtimoiy manfaatdorligini,

–ikkinchi omil bahs-munozaraga sabab bo'ladigan vaziyat,

–uchinchi omil-ishtirok etayotganlar mazkur fikrga nisbatan aniq qarashlari bo'lishi kerak;

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki ommaviy axborot vositasi orqali yoshlar fikriga tez va kuchli ta'sir eta olish. Chunki har bir oilada ommaviy axborot vositalari xabarlaridan foydalaniladi va insonlarning ma'lumot olish manbai bo'lgan bu vosita orqali yoshlarimizga milliy g'oyalarni singdirish qulayroqdir. Badiiy adabiyot orqali ham yoshlarimizga sabr-qanoat, halollik, vatanparvarlik, sadoqat kabi fazilatlarni qalblarga singdirish yaxshi samara beradi deb uylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ochildiyev A.S. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. –Toshkent: Muharrir, 2009. yil.
2. Jakbarov M. Komil inson g'oyasi: tarixiy-falsafiy tahlil. – Toshkent: 2000.
3. Fel'dshteyn D.I. O'smir davri taraqqiyoti. -M. MGU, 1996.yil.

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA INSONIYLIK VA MULOQOT MADANIYATI G'OYALARINING ILGARI SURILGANLIGI

**Latibjonov R.A.,
Andijon viloyati PMM katta o'qituvchisi**

Аннотация: в статье анализируется пропаганда идей гуманизма и культуры диалога в творчестве Алишера Навои. Великий мыслитель широко освещал в своих трудах роль искренности между людьми, нравственных качеств, культуры речи в развитии общества. В творчестве Навои понятие человечности трактуется во взаимосвязи с личностными качествами, моралью и общественными отношениями. В статье также анализируется актуальность этих идей для современного общества и психологии.

Ключевые слова: Алишер Навои, гуманизм, культура общения, моральные качества, этикет, общество, культура речи.

Annotation: the article analyzes the propaganda of ideas of humanism and the culture of dialogue in the works of Alisher Navoi. The great thinker widely covered in his works the role of sincerity between people, moral qualities, and the culture of speech in the development of society. In Navoi's works, the concept of humanity is interpreted in connection with personal qualities, morality, and social relations. The article also analyzes the relevance of these ideas for modern society and psychology.

Keywords: Alisher Navoi, humanism, culture of communication, moral qualities, etiquette, society, culture of speech.

Alisher Navoiy – Sharq adabiyoti va falsafasining yirik namoyandalaridan biri bo'lib, uning ijodi inson ruhiyati, axloqiy tarbiya va muloqot madaniyati masalalarini chuqur o'z ichiga oladi. U insoniylikni komillik mezoni sifatida ko'rib, buni jamiyat taraqqiyotining asosiy shartlaridan biri deb hisoblagan[1]. "Xamsa" turkumidagi asarlarida insoniylik va muloqot madaniyati haqida chuqur falsafiy fikrlar ilgari surilgan bo'lib, bu qadriyatlar bugungi kunda ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Navoiy asarlarida insoniylik tushunchasi. Navoiy insoniylikni nafaqat xulq-atvor, balki shaxsning ichki kamoloti sifatida ham talqin qiladi. U "Mahbub ul-

qulub" asarida inson axloqining asosiy mezonlari sifatida adolat, sadoqat, muruvvat va halollikni ilgari suradi[2]. Navoiy fikricha, inson faqatgina ilm va ma'rifat orqali haqiqiy insoniylikka erishishi mumkin. Shuningdek, "Sab'ai Sayyor" dostonida ham insoniylik tushunchasi qahramonlar taqdiri orqali aks ettiriladi. Asarda taqdir, sabr-toqat, mehr-muruvvat va insoniy fazilatlarning jamiyatdagi o'rni chuqur yoritilgan. Navoiy fikricha, insoniylik faqatgina individual fazilat emas, balki jamiyat taraqqiyotining asosi hisoblanadi[3].

Muloqot madaniyatining Navoiy asarlaridagi ifodasi. Navoiy muloqot madaniyatini insonlar o'rtasidagi muhim ijtimoiy ko'nikma sifatida talqin qiladi. U "Hayrat ul-abror" asarida yaxshi so'z va xushmuomalalikning inson hayotidagi ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Asar qahramonlari til madaniyati va muloqotning ijtimoiy muvozanatni saqlashdagi o'rnini ifodalaydi[4].

"Farhod va Shirin" dostonida esa notiqlik san'ati va muloqot madaniyatining inson munosabatlaridagi o'rni yuksak baholanadi. Asardagi qahramonlar o'zaro muloqot orqali bir-birini tushunish, to'g'ri qaror qabul qilish va mojarolarning oldini olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa, Navoiy nazarida, har qanday jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi[5].

Insoniylik va muloqot madaniyati zamonaviy psixologiya nuqtai nazaridan. Bugungi psixologiya insoniylik va muloqot madaniyatini shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy muvaffaqiyatning asosiy omillari sifatida ko'rib chiqadi. Emotsional intellekt, empatiya va notiqlik san'ati zamonaviy jamiyatda insonlar o'rtasidagi muloqotni samarali qilishda muhim rol o'ynaydi[6].

Shuningdek, zamonaviy jamiyatda konfliktlarning oldini olish, madaniyatlararo muloqotni yo'lga qo'yish va insonlar o'rtasida o'zaro hurmat muhitini yaratishda Alisher Navoiy ilgari surgan g'oyalarning ahamiyati katta. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, insoniylik va muloqot madaniyatini shakllantirish yoshlar tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Navoiy fikricha, insoniylik va nutq madaniyati insonni komillikka eltuvchi yo'ldir va bu tamoyillar bugungi globalizatsiya sharoitida ham muhim ahamiyat kasb etadi[7].

Xulosa

Alisher Navoiy asarlarida insoniylik va muloqot madaniyati g'oyalari chuqur tahlil qilingan bo'lib, ular inson ruhiyatining barkamolligi va jamiyatdagi uyg'unlikni ta'minlashda asosiy omillardan biri sifatida talqin etiladi. Navoiyning ushbu g'oyalari bugungi kunda ham ijtimoiy munosabatlar, ta'lim va shaxsiy taraqqiyotda katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy, A. "Xamsa". - Toshkent: Fan, 1991.
2. Navoiy, A. "Mahbub ul-qulub". - Toshkent: Ma'naviyat, 2010.
3. Navoiy, A. "Sab'ai Sayyor". - Toshkent: Sharq, 2005.
4. Navoiy, A. "Hayrat ul-abror". - Toshkent: Sharq, 2005.
5. Navoiy, A. "Farhod va Shirin". - Toshkent: Fan, 1998.
6. G'afurov, A. "Navoiy asarlarida insoniylik konsepsiyasi". - Toshkent: Ma'naviyat, 2015.

O'QITUVCHILARNI EMOTSIONAL INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISHDA FANLARARO INTEGRATSIYA TUSHUNCHASI

Rustamova M.T.,

Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada fanlararo integratsiya va psixologiyaning rivojlanish sohalari taraqqiyoti muammolari va yechimlari, g'oyasi, ta'lim muassasasining hozirgi bosqichi hamda integratsiya atamasi mazmun va mohiyat haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Integratsiya, sivilizatsiya, platforma, obyektivlik, psixologiya, taraqqiyot, ijtimoiy, referent, ijtimoiy-iqtisodiy.

Аннотация. В данной статье приводятся сведения о проблемах и решениях развития междисциплинарной интеграции и развития психологии, идеи, современного этапа образовательного учреждения, а также содержание и сущность термина интеграция.

Ключевые слова: Интеграция, цивилизация, платформа, объективность, психология, развитие, социальные, референт, социально-экономические.

Annotation. This article provides information on the problems and solutions of the development of interdisciplinary integration and the development of psychology, the idea, the current stage of the educational institution and the content and essence of the term integration.

Key words: Integration, civilization, platform, objectivity, psychology, development, social, referent, socio-economic.

XXI asrda O'zbekistonda psixologiya fanlarining istiqboli alohida ahamiyat kashf etadi. Chunki, u yoki bu fanning o'tmishini, shu fanlar mutaxassislari tomonidan yaratilgan ilmiy qarashlar tarixini o'rganadigan bo'lsak, u fanlarning integratsiyada, yurtdoshlarimiz tomonidan bajarilgan ilmiy izlanishlar, u yoki bu fan yutuqlarini hayotga joriy etilishi borasida, hozirgi zamon psixologiyasi ta'limotlariga oid mislsiz ishlarning amalga oshirilganligini ko'rishimiz mumkin. Respublikamizda olib borilayotgan turli islohotlar bugungi kunda yosh avloddan ijobiy xulq- atvor me'yorlari va qoidalarini, kasb- hunar, malaka va ko'nikmalarini har tomonlama puxta egallab borishni talab qiladi. Arastu ta'kidlagani kabi "munosib odam bo'lmoq,-fazilatlar egasi- fozil bo'lmoq demakdir"

Shuni ta'kidlash lozimki, XXI asr insonlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanish davri hisoblanadi. Bas shunday ekan, sotsiologiya va psixologiya, matematika fanlarining o'zaro integratsiyasi asosida ijtimoiy muammo va masalalarni tezkorlik va obyektivlik bilan hal qilishga yordam beradigan matematik modellar turkumini yaratish davr talabidir. Bunday integratsion modellar tizimi orqali sotsial-psixologik masalalarni yechishda ilmiy-amaliy imkoniyatlar yaratiladi.

"Integratsiya" atamasi mazmun va mohiyat jihatdan uzoq tarixga ega. "Integratsiya" – lotincha «integration» so'zidan olingan bo'lib, "integr" – "to'liq, yaxlit", "bir butun" degan ma'nolarni anglatadi. Bugungi kunga kelib, kishilar integratsiya jarayonining mohiyatini yaxshi anglashi, uning rivojlantiruvchi

funksiyalaridan foydalana olishlari natijasidagina muhim ilmiy muammolarni hal qilishda unga ehtiyoj sezmoqdalar. Biz integratsiya bir nechta o'quv predmeti materiallarini metodikaning vazifasi va yagona maqsadiga tabiiy bo'ysundirish asosida tuzish usuli yoki predmetlararo bog'lanishning eng yuqori darajasi, umummetodologik prinsiplar asosida muammoni kompleks o'rganish yo'li deb hisobladik. Unga bir butun bilimlar «monoliti»ni yaratishga imkon beruvchi vosita, atrof-muhit haqida yaxlit tasavvurni yaratishda bilimlarni yaqinlashtiruvchi, umumiy platformani belgilovchi omil deya ta'rif berish maqsadga muvofiqdir.

Integratsiya g'oyasi – ta'lim muassasasi taraqqiyotining hozirgi bosqichida eng istiqbolli g'oyalardan hisoblanadi. Bir tomondan, o'quv soatlarining qisqarib borishi sharoitlarida fanlararo integratsiya dars doirasida didaktik maqsadlarga erishishga imkon beradigan resurs bo'lib qolishi mumkin. Boshqa tomondan esa, fanlararo aloqalardan foydalanish talaba va o'quvchining o'ziga atrofda dunyoni turli-tumanlikda va yaxlitlikda bilish imkonini beradi.

“Biz o'z tariximizni xolisona va haqqoniy baholab, ma'naviy merosimizni boyitish va rivojlantirishga o'z hissamizni qo'shishimiz, shu asosda bugungi jahon ilmu fani va madaniyatining yuksak cho'qqilarini egallashdek buyuk vazifaga har tomonlama munosib va qodir bo'lishimiz darkor”. Buning uchun bizda yetarli asos, buyuk o'tmishimiz, ulkan ilmiy merosimiz bor. O'tmish va kelajak haqida, shuningdek, boshqa fanlar yutuqlari haqida to'g'ri bilim va tasavvurga ega bo'lsak, fanlararo integratsiyadan psixologik ta'limotlarni rivojlantirish uchun oqilona xulosalar chiqarib, uni keng ilmiy jamoatchilik hukmiga havola etsak, bu ayni vaqtda fan taraqqiyotiga qo'shilgan munosib hissa bo'ladi.

Biz qadriyatlarimizni qadrlay olish sharoitida yashab ijod etayotgan ekanmiz, qator allomalarimizning fanlar integratsiyasida ijod etganlarini unutishimiz mumkin emas, albatta. Allomalarimiz eng kamida uch-to'rt fanlar integratsiyasida ijod etib, faqat ulug' g'oyalarni bunyod etib, jahon fani taraqqiyoti va sivilizatsiyasiga katta hissa qo'shganlar va bu borada bir-birlarini kamsitib yoki ayblagan emaslar.

Fanlararo integratsiyada, psixologiya fanlari sohalari taraqqiyoti uchun ma'naviy asos, ildiz bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan, milliy qadriyatlarimizga oid ma'lumotlar, milliy mafkura chig'irig'idan o'tkazilib, psixologik tahlil qilinib, sharhlanib, o'quvchilar e'tiboriga xavola etilsa, bu o'quvchilarda o'z o'tmishi, yurti, fanidan fahrlanish, g'urur hissini shakllantiradi. Bu esa, mutaxassislar tomonidan fanni o'rganish va uni rivojlantirish uchun kuchli ichki, shaxsiy ahamiyatli motiv bo'lib xizmat qiladi. Bunday motiv, O'zbekistonda mazkur fan rivojlanishida hal qiluvchi kuch hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlar shundan dalolat berayaptiki, turli xil fanlarning, shu jumladan, sotsiologiya va psixologiya fanlarining egizak bo'lishi muhim va nozik muammolarni hal etishda qo'l kelar ekan. O'z-o'zidan ravshanki, sotsiologiya va psixologiyaning bir-biri bilan chambarchas aloqasi mavjudligini ilg'or, taniqli sotsiologlar va psixologlar ta'kidlab, tasdiqlab kelishgan. Ilg'or psixologlarning fikricha, psixologik tadqiqotlar ta'lim va tarbiya ishida yangilikning keng miqyosda qidirilishini ta'minlaydigan yo'nalishda olib borilishi kerak. Psixologiya

oldidagi muhim vazifalarga jumladan, kishining tarbiyasi va ruhiy jihatdan rivojlanishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ochib bergan holda talim va tarbiya jarayonida uning shaxsini shakllantirishning psixologik asoslarini ko'rsatib berish; odamlarning yoshi va individual xususiyatlari o'rtasidagi nisbatni o'rganish va shu kabilar kiradi.

Sotsiologiyada va psixologiyada odamlarning o'zaro yoqtirish tuyg'ulari asosidagi birlashuvlarini referent guruhlar atamasi orqali o'rganiladi. Hayotda insonlar ikki, uch, uzog'i bilan to'rt kishilik ko'ngilga yaqin odamlardan iborat o'zaro ahil kichik guruhlariga birlashadilar, hamda mazkur guruhlar doirasida kasbiy, maishiy va ijtimoiy masalalarni o'zaro hamkorlikda hal etib yashaydilar. Odamlarning o'zlariga mos odamlarni topib birlashishlari maktabgacha tarbiya muassasalaridan boshlanib, keksa yoshga etganlarida ham uzluksiz davom etadi. Odamlarning bunday yoqtirib birlashish holatlari oxir – oqibatda, o'zaro do'stlik darajasiga o'sib chiqishi ko'p martalab kuzatilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, fanlararo integratsiya bu albatta taraqqiyot, sivilizatsiya, samaradorlik posbonidir bunga shubha bo'lishi mumkin emas. Biroq, bir fan sohibi, boshqa fan yutuqlariga asoslanib o'z sohasini rivojlantirishga intilsa, albatta qandaydir og'ish va cheklanishlarga yo'l qo'yishi mumkin. Eng keraklisi – bu yo'lda soflik, poklik haqiqatgo'ylik, adolatga bo'ysunishi, bir fan sohasi sohibi boshqa fan sohasi sohibiga hayrixohlik, maslahat berishi, yordam qo'lini cho'zishidir. Faqat shundagina fanlararo integratsiya o'z mazmunini yo'qotmaydi, degan fikrdamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islom Karimov. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”, Toshkent “Ma'naviyat” 2010.
2. Mavlonova R.Raxmonqulova N. Boshlang'ich ta'limning integratsiyalashgan pedagogikasi . T.: O'qituvchi, 2006.
3. Социальная психология: История, теория, эмпирические исследования. Под ред е. С. Кузмина, В. е. Семенова Л. Г. У. 1979.

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNI MILLIY MADANIY VA MA'NAVIY – AXLOQIY AN'ANALARI RUHIDA TARBIYALASH

Rahmatova N.S.,
Navoiy innovatsiya universiteti o'qituvchisi,
Nurmamatova S.J.,
NIU talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalashga qaratilgan bo'lib , bolalarni xalqning boy milliy madaniy tarixiy merosi va ma'naviy – axloqiy an'analarni ruhida tarbiyalash va bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllatirish.

Kalit so'zlar: ta'lim –tarbiya, pedagogik-psixologik, ma'naviy –axloqiy, maktabgacha ta'lim tizimida.

Abstract: This article is aimed at educating the younger generation as well-rounded individuals, raising children in the spirit of the rich national cultural and historical heritage and spiritual and moral traditions of the people, and forming national patriotism in children.

Keywords: education, pedagogical and psychological, spiritual and moral, in the preschool education system.

Mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalarga muvofiq kadrlar tayyorlashning mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish, xalqaro standartlar darajasida oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashga zarur shart-sharoitlar yaratish dolzarblik kasb etmoqda.

Prezident Sh.M.Mirziyoev ham "Oldimizga yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalar turibdi", deya jamiyatimiz hayotida ro'y berayotgan barcha o'zgarishlarning pedagogik-psixologik mohiyatini bo'lg'usi mutaxassislar tomonidan o'zlashtirilishiga ko'mak beruvchi ilmiy manbalarning ahamiyatini yana bir marotaba ta'kidlab o'tdi.

Yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalashga qaratilgan, ta'lim-tarbiya borasida yaratilgan tajribalarga nazariy va metodologik manbalarga qaratilgan, O'rta Osiyo va jahon tan olgan buyuk mutaffakir olimlarning asrlari va ta'lim – tarbiyaning umumiy qonuniyatlariga asoslanadi. Maktabgacha ta'lim bosqichi uzluksiz ta'limning eng muhim ma'suliyatli bola tarbiyasi va ta'lim olishi shakllanadigan bosqichi hisoblanadi. Maktabgacha ta'limning asosiy vazifalari bolalarni xalqning boy milliy madaniy tarixiy merosi va ma'naviy –axloqiy an'alarini ruhida tarbiyalash bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini o'qishga intilish shakllantirib ularni muntazam ravishda ta'lim jarayoniga tayyorlash bolalarning tafakkurini rivojlantirish o'zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish bolalarning jismoniy va ruhiy sog'ligini ta'minlashdan iborat.

Maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan modernizatsiyaviy o'zgarishlar tarbiyachiga maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishning shakl va usullarini erkin tanlash imkoniyatini yaratdi. Bugungi zamonaviy ta'lim sohasidagi asosiy natija berilgan bilimlarni tarbiyalanuvchilar qay darajda o'zlashtirib olgani bu uning rivojlanishiga shaxsda integrative xislatlarning shakllanishiga qanchalik xizmat qilagani bilan belgilanadi.

Zamonaviy maktabgacha ta'lim tashkilotlari bunyod etilayotgani ta'lim-tarbiya jarayonida tub o'zgarishlar bo'layotgani kadr salohiyati va ma'lumoti kundan kun oshirilayotgani maktabgacha ta'lim tizimi elektron va raqamli iqtisodiyotga aylantirayotgan sohadagi olib borilayotgan islohatlar va rivojlanish sanaladi. Maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni ilg'or pedagog va axborot kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etish va maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini va samaradorligini ta'minlash .

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish maqsadida turli shakldagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini barpo etish, ularni yuqori malakali zamonaviy fikrlaydigan tarbiyachilar va mutaxassislar bilan ta'minlash maktabgacha ta'lim sifatini oshirish ta'lim – tarbiya jarayonida ilg'or etishga qaratilgan keng ko'lamli islohatlar amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 30-sentabrda PF-5198-sonli Farmoni
2. Xasanboeva O, "Maktabgacha tarbiya pedagogikasi", Toshkent 2006 yil.
3. Shodmonova Sh, "Maktabgacha pedagogika" Toshkent 2008 yil.
4. Qurbonov N.M. Milliy tarbiya T.: Ma'naviyat, 2007 yil
5. "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" Toshkent, "O'zbekiston" 2000 yil.
6. Jumaboev M. "O'zbek bolalar adabiyoti", Toshkent, "O'zbekiston" 2002y.

ALISHER NAVOIY IJODIDA KO'NGIL VA JONNING BOG'LIQLIGI, ULAR ORASIDAGI MUNOSABATLARNING PSIXOLOGOK QARASHLAR

*Rahmatova N.S.,
Navoiy innovatsiya universiteti o'qituvchisi,
Farhodova S.Q.,
MIU talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada, inson ruhning butun tana bo'ylab tarqalganligi, biroq asosiysi yurakda joylashganligi, inson o'lishi mumkin, lekin uning yuragidagi ruh hech qachon o'lmaydi, degan fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Jon – inson qudrati, "dur" va "guhar" – jon, "sadaf" va "kon", "ko'ngil qushi".

Аннотация: В данной статье излагается идея о том, что душа человека распределена по всему телу, но основное ее местонахождение находится в сердце, и что человек может умереть, но душа в его сердце никогда не умирает.

Ключевые слова: Душа - человеческая сила, «дур» и «гухар» - душа, «садаф» и «мое», «птица сердца».

Abstract: This article presents the ideas that the human soul is distributed throughout the body, but the main one is located in the heart, a person can die, but the soul in his heart never dies.

Keywords: Soul - human power, "dur" and "guhar" - soul, "sadaf" and "mine", "bird of the heart".

Alisher Navoiyning asarlarining mavzulari rang-barang va serqirra. Har biri o'quvchini ma'nolar olamiga olib kiradi, inson kamoloti borasidagi o'gitlaridan o'ziga kerakli xulosalar chiqarib olishiga turtki beradi. Navoiy o'z asarlarida inson shaxsini yuksaklarga ko'taradi, insonparvarlikni, odamiylikni, ezgulikni,

xalqparvarlikni ulug'laydi. Davlatimiz rahbarining "Biz yaratayotgan yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini ko'ramiz", degan da'vati tom ma'noda ulug' bobomiz g'oyalarini yoshlar orasida keng targ'ib etish vazifasini kun tartibiga qo'yadi. Mamlakatimizda Uchinchi Renessans davriga poydevor qo'yilayotgan hozirgi pallada Navoiy asarlari milliy g'oya atrofida jipslashishga, milliy ruhning yuksalishiga xizmat qilishi tabiiy. Shoir "Hayrat ul-abror" dostonida "Naf'ing agar xalqqa beshakdurur, Bilki, bu naf' o'zingga ko'prakdurur", deb aytadi. Yurtimizdagi yangilanish jarayonlariga daxldorlik hissi bilan yashamoq, bu borada davlatimiz yuritayotgan puxta o'ylangan siyosatni hayotga tatbiq etishda tashabbuskorlik, avvalo, o'zimiz, oilamiz manfaatiga xizmat qilishini unutmasligimiz kerak.

Shahobiddin Suhravardiyning "Avorif ul-maorif" asarida esa bu borada shunday deyiladi: "Ruh yaratilgan bir javhardir. Faqat u yaratilganlarning eng latifi, gavharlarning eng tozasi va eng nurlisi. G'ayb olami u orqali ayonlashadi, haqiqat ahliga kashf uning soyasida bilinadi".

Badiiy ijodda jon – uluhiyat, erkinlik, chegarasizlik ma'nosida qo'llaniladi. Xuddi shunday mohiyat ko'ngil obrazida ham mujassamlashgan. Shuning uchun she'riyatda ko'p hollarda jon va ko'ngil teng qo'llaniladi. Alisher Navoiy ijodida ham ko'ngil va jonning bog'liqligi, ular orasidagi munosabat qayta-qayta talqin etilgan. Ularda shoir ishq qiynoqlaridan zorlangan, ba'zan xasta, ba'zan telba, gohida o'zini butkul unutgan jonu ko'ngilning tasvirlarini yuksak badiiyat bilan ifodalaydi:

Menda bir o'tdurki, gar dam ursam, aflok o'rtanur,

Asrasam ko'nglumda, jonu jismi g'amnok o'rtanur.

O't – ishq yolqini, lirik qahramon ko'nglini shu qadar egallaganki, "dam ursa" falak, ko'nglida asrasa, «jonu jismi g'amnok»i o'rtanib yonadi. Yoki:

Jon ko'ngul necha dedi:asrali o'zni, kelgach ul

Vah, yana qo'zg'alishtilar ko'rgach oni ichin aro, –

deya shoir jon va ko'ngilning ishq ichra tengligini, yor ishtiyoqida har ikkalasi ham barobar mas'ulligini ta'kidlaydi. Xo'sh, she'riyatda ishq iztiroblarini tortishda nega jon va ko'ngil teng tasvirlanadi? Sharq shoirlari, aslida, bu tasvirlar orqali nimani nazarda tutishgan? Bunga oydinlik kiritish uchun jon va ko'ngil haqidagi qarashlar va ularning haqiqatini bilish lozim.

Qadimgi xalqlar madaniyati, dunyoqarashini o'rgangan olim E.Taylor ilohiy hayot uchun yaratilgan inson joni yurakda yashaydi, ruh butun tana bo'ylab tarqalgan, biroq asosiysi yurakda joylashgan, inson o'lishi mumkin, lekin uning yuragidagi ruh hech qachon o'lmaydi, deb yozadi. Imom G'azzoliy bu haqda: "Ruh latif jismdurki, manbai jismoniy qalbning tarnovlaridir", – deb yozadi. Shahobiddin Suhravardiy ham shu kabi "Ruhi hayvoniy qalbdan qaynoqlangan, his va harakat kuchini ifodalaydigan latif bir jismdir", degan fikrni aytadi. Shayx Ibrohim Haqqiy esa "Qalbning maqomi va markazi yurakdir. Buning o'rtasida siyoh bir nuqta borki, aql yetmas bir sirdir, sirlarning oynasidir. Buning siri inson haqiqatidir", – deya ruhni yurak ichida joylashgan qora nuqta deydi. Turk olimi

Mahmet Bayrondor “Mutasavviflarga ko‘ra, ikki turli ruh bordir. Birinchisi hayvoniy ruhdur, joyi qorajigarda. Ikkinchisi haqiqiy ruhdur, maskani qalbdadir. Ya‘ni qalb ko‘zida mujassam erur. Asos hayot manbai ana shu qalb ko‘zidir, issiqlik quvvatiga egadir. Barcha vujud a‘zolari issiqlik quvvatini undan olur. Uning issiqlik quvvati tugashi bilan vujud ham faoliyatdan to‘xtar, ya‘ni o‘lar”, – deb yozadi.

Demak, jon ko‘ngil ichida yashar ekan, ko‘ngil tirikligi, xohishi va maqsadi o‘z-o‘zidan jonga ham daxldor bo‘ladi. Bu haqiqatlar mumtoz badiiy merosimizda, xususan, she‘riyatda o‘ziga xos ifodalangan. Chunonchi, buyuk mutasavvif Ahmad Yassaviy bir hikmatida:

G‘avvos bahriga kirdim, vujud shahrini kezdin,

Durni sadafda ko‘rdim, guharni kon ichinda, –

deb yozadi. Hikmatda nazarda tutilgan “dur” va “guhar” – jon, “sadaf” va “kon” – ko‘ngil ma‘nosini ifoda etadi. Zero, “vujud shahri”da gavhar misol qiymatli narsa – jon bo‘lsa, o‘zida turli sifat va fe‘llar, his va hollarni jamlagani bois ko‘ngilga “sadaf”, “kon” tashbehi mos keladi. Aynan shunga o‘xshash fikrni Yunus Emro she‘rlarida ham ko‘rish mumkin. U bir she‘rida “Ki gavhar ko‘nglingdadir, o‘ylaki ul ummondadir”, – deb yozadi.

Navoiyning ko‘pgina g‘azallarida jon ham, ko‘ngil ham qushga o‘xshatiladi. Bunday paytda “jon qushi” va “ko‘ngil qushi” bir tushunchani – inson ruhini ifoda etadi. Qushning qanot qoqib, kengliklarda erkin sayr aylashini e‘tiborga olsak, ruhning ham ozodlik va hurlik istagi insonni tobelik iskanjasidan qutulishga – yuksaklikka undaydi.

Bo‘ldi ravzan-ravzan ul qotil hadangidin ko‘ngul,

Jon qushi chiqmoqqa har yo‘l angla har ravzan manga.

Jon ko‘ngil ichra yashirin bo‘lganligi sabab shoir ko‘ngilni qafasga, jonni esa qushga tashbeh etgan. Boshqa g‘azalda esa ko‘krak qafasga, ko‘ngilni qushga o‘xshatib, shunday yozadi:

O‘qi rashkidin erur ko‘ksum aro ko‘nglum qushi,

Ul kabutarkim, qabaq ichinda qilg‘ay iztirob.

Umuman, bunday misollar ko‘ngil va jonning bir-biriga bog‘liqligini e‘tirof etadi. Biri inson umrini, biri esa mazmunini tashkil etar ekan, jonu ko‘ngilni ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Shuning uchun shoirlar insonning ichki tuyg‘ulari, kayfiyat va hollarini ifodalashda jon va ko‘ngilni teng tutishadi. Bu da‘voni Alisher Navoiy she‘rlari ham to‘la ma‘noda tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik. 16-jild. □ T.: “Fan”, 2000. □ B. 26.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik. 14-jild. T.: “Fan”, 1998. – B. 83.
3. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. Asarlar. O‘n besh jildlik. 13-jild. – T.: “Badiiy adabiy

ALISHER NAVOIY ASARLARI ORQALI O'SMIRLARDA MILLIY IDENTIVLIK INTEGRATSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Qahharova M.L.,
Navoiy Innovatsiyalar Universiteti o'qituvchisi

*Zevar kishiga ne toju ne afsar bil,
Ul zevar adab birla hayo darxal bil.
Har kimki adabsizdur ishin abtar bil,
Alqissa, eranlarga adab zevar bil.*

Alisher Navoiy.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hazrat Navoiy asarlarida milliy identivlikni o'smirlarda shakllantirishning ijtimoiy-psixologik tamoyillari o'rganib chiqilgan. Milliy identivlikni shakllantirishda shaxs uchun ahamiyatli bo'lgan fazilatlar va bu borada Navoiyning psixologik qarashlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: milliy identivlik, o'smirlik, fazilat, komil inson, sadoqat, sabr, mutafakkir, milliy qadriyat.

Аннотация: В статье рассматриваются социально-психологические основы формирования национальной идентичности подростков в творчестве Хазрата Навои. Изучены качества, важные для человека в формировании национальной идентичности, и психологические взгляды Навои по этому поводу.

Ключевые слова: национальная идентичность, юность, добродетель, совершенный человек, верность, терпение, мыслитель, национальная ценность.

Abstract: This article examines the socio-psychological principles of the formation of national identity in adolescents in the works of Hazrat Navoi. The qualities that are important for a person in the formation of national identity and Navoi's psychological views on this issue are studied.

Keywords: national identity, adolescence, virtue, perfect person, loyalty, patience, thinker, national value.

Respublikamizda so'nggi yillarda yoshlarni umuminsoniy fazilatlarga ega barkamol shaxs etib tarbiyalash g'oyalari asosida shakllantirishning zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi: «Yoshlarning ma'naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko'maklashish...» [1] orqali mamlakat istiqboli va intellektual zahirasi bo'lgan yoshlarni «Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiya» [2] da ko'rsatilgan kompetentsiyaviy yondashuvga ko'ra milliy fazilatlatlarni tarkib toptirish vazifalari belgilanganligi ularda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillarini ilmiy o'rganishda yetarli asos bo'la oladi. Buning natijasida yoshlarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish, ijtimoiy faolligini oshirish, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalaridagi ishtirokini kuchaytirish, ularning ta'lim olish tartibi, ta'lim sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Albatta bularning barchasi ertamiz egalariga baxtli va farovon kelajakni yaratish, bu sohada ularning o'rni beqiyosligini o'zlariga ham anglatishdir. O'smirlarda milliy identivlikni shakllantirishda Alisher Navoiy

asarlarining o'zni beqiyosdir. Milliy identivlik shaxs va jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu jarayon xalqning umumiy madaniy qadriyatlari, til, urf-odatlar va tarixiy an'analarga asoslanadi. Bizningcha, milliy identivlik o'z madaniy o'ziga xosligini tushunish orqali shaxsning o'z-o'zini anglashiga yordam beradi. Milliy identivlikni rivojlantirish uchun ta'lim tizimida milliy qadriyatlarga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi Hazrat Mir Alisher Navoiy har bir yosh qatlami uchun tengsiz hikmatlari, dostonlariyu g'azallari bilan butun dunyo tamaddunida yuksak va o'chmas iz qoldirgan mutafakkirdir. Mutaffakkir iborasi ham Hazrat Navoiyga nisbatan qo'llanilganda shuni bilib olmog'imiz lozimki, Mutafakkir so'zining ma'nosi tafakkur sohibi, keng va chuqur salohiyatga ega bolgan kishi degani. Bu ish har qanday iqtidorli qalam ahlining ham qo'lidan kelavermaydi. Shuning uchun dunyoda shoir-u yozuvchi ko'p o'tgan bo'lsa-da, ulardan juda oz qismigina bu sharaflil nomga loyiq ko'rilgan.

Shoirning nazdida, umr inson uchun berilgan eng qimmatli hadya. Yashashning o'zi baholab bo'lmaydigan ne'mat. U mehnat qilib topiladigan mol-dunyo ham, barcha harakatlar umrning bezagi bo'lishini, insonlar o'rtasidagi mehr-u muhabbat rishtalarini mustahkamlash uchun xizmat qilishini istaydi:

Moldin umrung'a osoyish agar yetmas, ne sud,
Nuh umrin hosil etsang, ganji Qorun qozg'anib.

Ya'ni yiqqan mol-dunyongdan senga tinchlik kelmasa, Nuh (a.s.) ning ming yillik umricha yashab, Qorun kabi xazina yiqqaningdan nima foyda! Shoir aytmoqchiki, yashashdan maqsad –hayotning qadrini anglash, insoniyatga foydakeltirish. Agar shunday bo'lmasa, uzoq yashash, cheksiz mol-dunyodan mutlaqo foyda yo'q. Alisher Navoiy umrning bezagi poklik, vafo ekanini ta'kidlaganlar [3].

Mutafakkir adib, birinchidan, chuqur bilim, keng dunyoqarash, katta hayotiy tajribaga ega bo'lishi, ikkinchidan, hayot, inson va umrning ma'no-mazmuni, ezgulik va yovuzlik, muhabbat va nafrat, halol va haram, fan va baqo, nafosat va qabohat, do'stlik va dushmanlik, diyonat va xiyonat kabi azaliy hamda abadiy tushunchalarning mohiyatini teran anglab etishi va falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qila olishi, uchinchidan, fikr-mulohazalarini turli badiiy tasvir vositalari yordamida aniq, lo'nda va ta'sirchan ifodalash mahoratini egallashi kerak. Bu esa hamma ijodkorlarga ham nasib etavermaydigan buyuk maqom. Navoiy asarlarini o'qib milliy identivlik uning asarlarida bosh g'oya balki hayot yo'li ham ushbu identivlik orqali kamolot bosqichiga ko'tarilganligini har birimiz his qilamiz. Bugun boshqa yosh davrlardan ko'ra o'zining fiziologik qolaversa ma'naviy o'zgarishlari bilan ahamiyatli bo'lgan "inqiroz davri" deb ataladigan o'smirlik davridagi yoshlarda Hazrat navoiy asarlarini o'qib o'zlikni anglash qiyin emas. Sababi Navoiy bobomiz asarlarida bosh g'oya milliy identivlik ya'ni Shaxsiy tajriba yordamida o'zlikni anglashga qaratilgan deb bimalol aytaolamiz. Milliy identivlik iborasi haqida u o'zi nima u bizga nima beraoladi shu to'xtalishimiz lozim. Milliy identivlikning rivojlanishi shaxsning ijtimoiy moslashuvchanligi va o'z jamiyatidagi faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu jarayon nafaqat

shaxsning ichki psixologik dunyosiga, balki jamiyatning umumiy ma'naviy muhitiga ham ta'sir qiladi. Shaxs o'z milliy identivligini anglaganida, u jamiyatdagi o'z o'rnini, rolini va mas'uliyatini chuqurroq his etadi. Bu esa ijtimoiy birlikni mustahkamlash, madaniy xilma-xillikni hurmat qilish va milliy qadriyatlarni asrab-avaylashga yordam beradi. Shu ma'nda nafat buyuk adibning hayot yo'li ham ibrat bo'laoladi. Xususan biz fikr yuritayotganimiz o'smirlik yillarida Alisher Navoiy juda katta ishlarni qilaolganligi ham hayot yo'li ham juda sermazmunli ibrat bo'lsa arzigulik ekanligini ko'rsatib beradi. Alisher Navoiy o'smirlik yillarida o'zi sevgan shoirlarning 50 ming baytdan ortiq she'rlarini yod bilgan, turkiy tilda yozgan she'rlariga Navoiy Forsiy tildagi she'rlariga Foni deb taxallus qo'yadi. Bolalikdanoq yosh Alisher Farididdin Attorning „Mantiqut-tayr“ asarini yod olgan, Sharafiddin Ali Yazdiy nazariga tushgan, Mavlono Lutfiy yosh shoir iste'dodiga yuqori baho bergan, Kamol Turbatiy e'tirofini qozongan. Sayyid Hasan Ardasher, Pahlavon Muhammad kabi ustozlardan ta'lim olgan, Abdurahmon Jomiy bilan ijodiy hamkorlikda bo'lganligining o'zi ham shaxs kamolotida bolalik xususan o'smirlikda milliy identivlik integratsiyasining ijtimoiy va psixologik omillari shakllanishi dolzarbligini ko'rsatib beradi.

G'azal mulkining sultoni, ulug' mutafakkir bobomiz hazrat Alisher Navoiy hikmatlarida, dostonlarida bu g'oyada asosiy o'rin odob-axloq masalasi ekanini ko'rishimiz mumkin. Psixologik nuqtayi nazarlarini shaxs o'zi o'zligini anglashi kerakligi insonni tabiatdagi voqea-hodisaga ibrat ko'zi bilan qarashga chorlaydi.

Tuxm yerga tushib chechak bo'ldi

Qurt jondin kechib ipak bo'ldi.

Lola Tuxmicha g'ayrating yo'qmu ?!

Pilla qurticha Himmating yo'qmu?

Hazrat nigohida eng avvalo ikki dunyo saodati ota rizoligini topmoq, Onani e'zozlamoq ekanligi esa qadriyatlarimizni qanchhalik go'zalligi bu borada hattoki, tuganmas bitmas baxt sohibi bo'lish mumkinligini izohlaydi: Ushbu she'ri bilan o'smirlik davridanoq Mavlono Lutfiy nazariga tushgan yosh shoir nafaqat yozdi umr bo'yi bu hislatni o'z hayotida ham bu g'oyani ilgari surdi. Shu fikrlari o'z umr yo'lida ham aks etgani uchun biz hali hanuz Navoiyni so'z mulkining sultoni deb bilsak ajab emas.

Boshni fido ayla, ato qoshig'a

Jismni qil sadqa ano boshig'a.

Ikki jahoningga tilarsen fazo-

Hosil etti ushbu ikkisidin rizo.

Tun-u kunningga aylagin nur fosh,

Birisin oy angla, birisin quyosh.

So'zlaridan chekma qalam tashqari,

Xatlaridan chiqma qadam tashqari,

Bo'lsun adab birla bori xizimating.

Ham qil adab "dol"i kibi qomating.

Nafaqat ulug' shoir asarlarida yaqinlarga muhabbat, insonni e'zozlash balki shukr hissi insonlarda qadriyat sifatida ko'rilish tarafdori bo'lgan.

Shuningdek ulug' bobomiz kamtarlik, ehson qilish, hilm (muloyimlik), sabr kabi hislatlar insonni ulug'likka yetkazishi va bu amallar orqali inson komillikka erishmog'i mumkinligini ta'kidlaydi.

Har qanday insonlarga ezgulik ulashuvchi fazilatlarni alqaydi har bir mo'min uchun hayotida bo'lishi kerak deb hisoblaydi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Buyuk bobomiz Navoiy ham o'z davriga mos ravishda milliy identivlikni rivojlantirish jarayoni shaxs va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni mustahkamlovchi va xalqning o'ziga xosligini saqlab qoluvchi asosiy omildir. Ushbu jarayon psixologik jihatdan shaxsning o'z-o'zini anglash, ijtimoiy identifikatsiya va hissiy bog'liqlik kabi mexanizmlarga asoslanadi. Shaxsning o'z milliy xotirasi va qadriyatlariga nisbatan hurmat va sodiqligini shakllantirish orqali milliy identivlik ijtimoiy birdamlik va barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega deb hisoblaganlariga amin bo'lishimiz mumkin.

Milliy identivlikning shakllanishida tarbiya va ta'lim tizimi markaziy rol o'ynaydi. Yosh avlodning milliy qadriyatlarni qabul qilishi va ularga hurmatni shakllantirishi uchun oila, maktab va madaniy muassasalar integratsiyalashgan holda ishlashi zarur. Shu bilan birga, davlat siyosati milliy identivlikni ommalashtirish va himoya qilish uchun milliy tarix, madaniyat va urf-odatlarini faol targ'ib qilish strategiyalarini ishlab chiqishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ibratli hikoyatlar va Hislatli hikmatlar A.Tilavov, I. Saydullayev.
2. Imom Buxoriy nomidagi Toshkeny Islom Instituti "Tillar" kafedrası katta o'qituvchisi Faxriddin Yernazarov
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmon
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. 1059-son. 2019-yil 31-dekabr. <https://lex.uz/docs/4676839>

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA KITOB O'QISHNI INSONLARGA RIVOJLANTIRUVCHI PSIXOLOGIK TA'SIR XUSUSIYATLARI TO'G'RISIDAGI QARASHLAR

**Soliyev M.T.,
Andijon viloyati PMM o'qituvchisi**

Аннотация: в статье анализируется влияние чтения на психологическое развитие человека в произведениях Алишера Навои. Считается, что чтение книг может развивать мышление человека, формировать эмоциональный интеллект и влиять на личностный рост. Взгляды Навои сопоставляются с современными психологическими принципами и изучается, как чтение способствует духовному и интеллектуальному развитию человека.

Ключевые слова: Алишер Навои, чтение, психологическое воздействие, мышление, эмоциональный интеллект, память, развитие личности, нравственное воспитание, современная психология.

Annotation: the article analyzes the influence of reading on the psychological development of a person in the works of Alisher Navoi. It is believed that reading books can develop a person's thinking, form emotional intelligence and influence personal growth. Navoi's views are compared with modern psychological principles and it is studied how reading contributes to the spiritual and intellectual development of a person.

Keywords: Alisher Navoi, reading, psychological impact, thinking, emotional intelligence, memory, personality development, moral education, modern psychology.

Alisher Navoiy ijodi Sharq madaniyati va adabiyotining eng yuksak namunalaridan biri bo'lib, uning asarlarida inson ma'naviyati, tafakkuri va intellektual rivojlanishi bilan bog'liq fikrlar muhim o'rin egallaydi. U kitob va bilim inson ruhiyatini shakllantirishda muhim omil ekanini ta'kidlagan. Ushbu maqolada Alisher Navoiy asarlarida kitob o'qishning inson psixologiyasiga ta'siri, tafakkur va ruhiy rivojlanishga qo'shgan hissi tahlil qilinadi.

Navoiy asarlarida kitobning ahamiyati. Navoiy kitobni bilim manbai, ma'naviy poklanish vositasi va inson tafakkurini yuksaltiruvchi muhim vosita sifatida ulug'lagan[1]. Uning fikricha, o'qish insonning ruhiy olamini boyitadi, fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va jamiyatda komil inson sifatida shakllanishiga yordam beradi. "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Saddi Iskandariy" kabi asarlarida bilim olish, o'qish va tafakkur jarayonining inson hayotiga ta'siri keng yoritilgan[2].

Kitob o'qishning psixologik ta'siri

Emotsional intellektni rivojlantirish. Navoiy o'z asarlarida kitob o'qish insonning hissiy dunyosini boyitishini ta'kidlaydi. Inson kitob orqali boshqalar his-tuyg'ularini anglashni o'rganadi, o'zini va atrofdagilarni yaxshiroq tushunadi[3]. Bu zamonaviy psixologiyada "emotsional intellekt" tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, insonning o'z his-tuyg'ularini nazorat qilish va boshqalar bilan hamkorlik qilish qobiliyatini oshiradi.

Xotira va tafakkurni rivojlantirish. Kitob o'qish insonning tafakkur jarayonlariga bevosita ta'sir qiladi. Alisher Navoiy bilim olish va fikrlash faoliyatini inson kamolotining ajralmas qismi sifatida ko'rsatgan[4]. Kitob mutolaasi mantiqiy tafakkurni rivojlantiradi, xotirani mustahkamlaydi va yangi bilimlarni qabul qilish qobiliyatini oshiradi.

Shaxsiy rivojlanish va o'zini anglash. Navoiy asarlarida kitob inson shaxsiy rivojlanishining muhim omili ekanligi ta'kidlanadi. Mutolaa insonning o'zini anglashiga, ichki dunyosini tartibga solishiga va hayotga ongli yondashishiga yordam beradi[5]. Zamonaviy psixologiya ham kitob o'qish insonda refleksiya va o'z-o'zini tushunish jarayonlarini rivojlantirishini tasdiqlaydi.

Navoiy asarlarida kitob o'qish va axloqiy tarbiya

Kitob o'qish nafaqat intellektual rivojlanish, balki axloqiy tarbiyaning ham muhim qismi ekanligini Navoiy o'z asarlarida ta'kidlagan. U insonning ma'naviy pokligi, odob-axloqi va jamiyatdagi o'rnini belgilashda kitobning ahamiyatini ulug'lagan[6]. Uning fikricha, yaxshi kitob insonni yuksak maqsadlar sari yo'naltiradi, yomon kitob esa inson ruhiyatiga salbiy ta'sir qiladi.

Zamonaviy psixologiya va Navoiy qarashlarining uyg'unligi

Bugungi psixologiya fanida kitob o'qish inson ruhiy holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan isbotlangan. O'qish stressni kamaytirish, diqqatni jamlash, kreativ fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi[7]. Navoiy asarlarida ilgari surilgan fikrlar hozirgi zamon psixologik yondashuvlari bilan uyg'unlik kasb etadi.

Xulosa

Alisher Navoiy asarlarida kitob o'qishning inson tafakkurini shakllantirish, hissiy va ruhiy rivojlanishiga ta'siri chuqur tahlil qilingan. Kitob insonni komillikka yetaklaydi, uning dunyoqarashini kengaytiradi va ma'naviy yuksalishiga xizmat qiladi. Navoiy ilgari surgan fikrlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, zamonaviy psixologiya va pedagogika bilan uyg'un tarzda talqin etilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy, A. "Xayrat ul-abror". - Toshkent: Fan, 1992.
2. Saidov, A. "Alisher Navoiy falsafiy merosi". - Toshkent: Ma'naviyat, 2007.
3. Zohidov, H. "Sharq mutafakkirlarining axloqiy qarashlari". - Toshkent: O'zbekiston, 2015.
4. Jalolov, J. "Psixologiya asoslari". - Toshkent: Universitet, 2010.
5. Vygotskiy, L.S. "Psixologiya va tafakkur nazariyasi". - Moskva: Pedagogika, 1986.
6. Bandura, A. "Ijtimoiy kognitiv nazariya". - Nyu-York: Psychology Press, 2006.
7. Maslow, A. "Motivatsiya va shaxs rivojlanishi". - Moskva: Eksmo, 2003.

ALISHER NAVOIYNING "XAYRAT UL-ABROR" ASARIDAGI PSIXOLOGIK QARASHLAR

**Soliyev M.T.,
Andijon viloyati PMM o'qituvchisi**

Аннотация: в данной статье анализируются психологические взгляды, отраженные в произведении Алишера Навои "Хайрат ул-аброр". В произведении освещаются вопросы психологии человека, моральных качеств, борьбы между разумом и страстями, эмоциональных состояний и мотивации. Также рассматривается связь идей Навои с современными принципами психологии. В статье обсуждается формирование человеческого мышления, моральное воспитание и значение социально-психологических подходов.

Ключевые слова: Алишер Навои, Хайрат ул-аброр, психологические взгляды, психология человека, моральное воспитание, мотивация, самоконтроль, мышление, борьба разума и страстей, социальная психология.

Annotation: this article analyzes the psychological views reflected in the work of Alisher Navoi "Khairat ul-Abror". The work highlights issues of human psychology, moral qualities, the struggle between reason and passions, emotional states and motivation. It also examines the connection of Navoi's ideas with modern principles of psychology. The article discusses the formation of human thinking, moral education and the importance of socio-psychological approaches.

Keywords: Alisher Navoi, Khairat ul-Abror, psychological views, human psychology, moral education, motivation, self-control, thinking, the struggle between reason and passions, social psychology.

Alisher Navoiy Sharq falsafasi va adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo'lib, uning "Xayrat ul-abror" asari inson ruhiyati, axloqiy fazilatlar va psixologik holatlarni tahlil qilishga bag'ishlangan muhim manbalardan biridir. Ushbu maqolada Navoiy asarida ilgari surilgan psixologik qarashlar, inson ruhiyati va axloqiy tarbiya masalalari hamda bu fikrlarning zamonaviy psixologiya bilan bog'liqligi o'rganiladi.

"Xayrat ul-abror" asarining umumiy mazmuni. "Xayrat ul-abror" — bu Alisher Navoiyning "Xamsa" turkumidagi birinchi doston bo'lib, u axloqiy-falsafiy yo'nalishda yozilgan. Asar insoniy fazilatlar, yaxshi va yomon xulq-atvor, nafs va aql o'rtasidagi kurash kabi mavzularni qamrab oladi. Doston 64 bobdan iborat bo'lib, unda axloqiy va falsafiy masalalar hikoyalar orqali bayon etiladi[1].

Asarda inson ruhiyati va psixologik jihatlar

Inson tabiatining ikki qutbliligi. Navoiy inson tabiatini ezgulik va yovuzlik, aql va nafs o'rtasidagi kurash sifatida tasvirlaydi. Bu jihat psixologiyaning id, ego va superego tushunchalariga yaqin bo'lib, insonning ichki nizolari va ma'naviy kamolotga intilishi bilan bog'liq[2]. Navoiy bu qarama-qarshilik orqali inson hayotining asosiy mohiyatini tushuntirishga harakat qiladi.

Axloqiy tarbiya va inson tafakkuri. Navoiy inson tafakkurining shakllanishida axloqiy tarbiya muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. U inson ruhiyatini shakllantirishda ta'lim va tarbiyaning ta'sirini batafsil yoritib beradi[3]. Axloqiy tarbiya insonning tafakkur jarayoniga ta'sir qilib, uni ezgulik sari yo'naltiradi.

Hissiy holatlar va ularning inson hayotiga ta'siri. Asarda insonning shodlik, g'am, qo'rquv, umid va ma'naviy halovat kabi holatlari batafsil tasvirlanadi. Bu jihat psixologiyada emotsional intellekt tushunchasi bilan bog'liq bo'lib, insonning his-tuyg'ularini idrok etishi va boshqarishi muhim ekanligini ko'rsatadi[4]. Navoiy insonning hissiy muvozanatini saqlashi uning hayotdagi muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qilishi haqida fikr yuritadi.

Asarning zamonaviy psixologiya bilan bog'liqligi

Motivatsiya va o'zini anglash. Navoiy inson motivatsiyasining asosi sifatida bilim olish va ruhiy poklanishni ko'rsatadi. Bugungi kunda bu tamoyillar shaxsiy rivojlanish psixologiyasining muhim yo'nalishlaridan biridir[5]. Zamonaviy

psixologiyada ham insonning ichki motivatsiyasi uning hayotdagi muvaffaqiyatiga bevosita bog'liqligi ta'kidlanadi.

O'zini boshqarish va irodaviy sifatlar. Asarda inson o'z nafsini boshqarishi va irodasini mustahkamlashi kerakligi haqida ko'plab fikrlar bildiriladi. Zamonaviy psixologiyada bu o'zini boshqarish (self-regulation) tushunchasi bilan bog'liq[6]. Navoiy insonning maqsad sari intilishida irodaning muhimligini ta'kidlab, bu orqali inson o'z hayotini ijobiy yo'nalishga burishi mumkinligini tushuntiradi.

"Xayrat ul-abror" va zamonaviy ijtimoiy-psixologik qarashlar. Navoiy o'z asarida insonni faqat individuallik emas, balki jamiyatning bir qismi sifatida ham ko'radi. U ijtimoiy munosabatlar, insonning jamiyatdagi o'rnini va uning atrofdagilarga bo'lgan munosabatlarini tahlil qiladi. Bugungi ijtimoiy psixologiyada ham insonning ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi va guruh ichida o'zini tutishi muhim tadqiqot mavzularidan biridir[7].

Xulosa

Alisher Navoiyning "Xayrat ul-abror" asari inson ruhiyati va axloqiy kamolot masalalarini chuqur tahlil qilgan muhim manbalardan biri hisoblanadi. Asarda ilgari surilgan psixologik qarashlar zamonaviy psixologiya nazariyalari bilan hamohang bo'lib, inson tafakkuri, his-tuyg'ulari va axloqiy tarbiyasini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu asar nafaqat adabiy meros sifatida, balki inson psixologiyasini chuqur anglash uchun ham katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy, A. "Xayrat ul-abror". - Toshkent: Fan, 1992.
2. Zohidov, H. "Alisher Navoiy ijodining falsafiy asoslari". - Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Saidov, A. "Sharq mutafakkirlarining axloqiy qarashlari". - Toshkent: O'zbekiston, 2015.
4. Jalolov, J. "Psixologiya asoslari". - Toshkent: Universitet, 2010.
5. Vygotskiy, L.S. "Psixologiya va tafakkur nazariyasi". - Moskva: Pedagogika, 1986.
6. Maslow, A. "Motivatsiya va shaxs rivojlanishi". - Moskva: Eksmo, 2003.
7. Bandura, A. "Ijtimoiy kognitiv nazariya". - Nyu-York: Psychology Press, 2006.

ALISHER NAVOIYNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK QARASHLARI

*Nabiyeva X.,
Andijon viloyati PMM o'qituvchisi*

Annotatsiya: Tadqiqot davomida Navoiy asarlaridagi inson ma'naviy kamoloti va ta'limiy yondashuvlar o'rganiladi. Bu qarashlarning hozirgi ta'lim tizimiga ta'siri va ularning zamonaviy pedagogik jarayondagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiy, madaniyat, ma'rifat, pedagogika, psixologiya, tarbiya, ta'lim, inson ruhiyati, zamonaviy ta'lim.

Alisher Navoiy o'zbek madaniyati, adabiyoti va ilm-fan taraqqiyotida o'chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkir, shoir va davlat arbobidir. U o'zining

asarlari orqali insonning ma'naviy-axloqiy yetukligini, ta'lim-tarbiyaning ahamiyatini va madaniyatning inson hayotidagi rolini chuqur tahlil qilgan. Uning madaniy-ma'rifiy, pedagogik va psixologik qarashlari bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Alisher Navoiyning Madaniy-Ma'rifiy Qarashlari

Alisher Navoiy madaniyat va ma'rifatni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ko'rgan. Uning asarlarida ilm-fan, adabiyot, san'at va ma'naviyatning inson hayotidagi o'rni keng yoritilgan.

Ilm va Ma'rifatning Muhimligi

- Alisher Navoiy ilmni inson hayotining eng muhim boyligi deb bilgan va insonni ilmi bo'lishga undagan.

- "Mahbub ul-qulub" asarida bilim insonni yuksak darajaga ko'tarishi, uni ezgulik sari yetaklashi haqida fikr yuritadi.

- Ilmsiz jamiyat taraqqiy eta olmasligini, inson ma'rifatsiz johil va ojiz bo'lishini ta'kidlaydi.

Adabiyot va San'atni Rivojlantirish

- Navoiy o'zbek adabiyotini yuksaltirish uchun forsiy til ustuvor bo'lgan davrda o'zbek tilini rivojlantirdi va uning adabiy tildagi nufuzini mustahkamladi.

- Uning "Xamsa" dostonlarida adabiyot orqali jamiyatni tarbiyalash, ezgulikka yo'naltirish g'oyalari ilgari surilgan.

- U musiqa, me'morchilik, tasviriy san'at kabi sohalarning ham inson ruhiyatiga ijobiy ta'sirini ta'kidlagan.

Axloqiy Yetuklik va Komil Inson Tushunchasi

- Axloqiy poklik va komillik inson hayotining eng muhim jihatlaridan biri ekanligini uqtirgan.

- Insonparvarlik, adolat, saxovat, halollik kabi fazilatlarni ulug'lagan.

- Yolg'on, hasad, manmanlik kabi illatlardan qochish lozimligini targ'ib qilgan.

Alisher Navoiyning Pedagogik Qarashlari

Alisher Navoiy ta'lim va tarbiyaning inson hayotidagi ahamiyatini chuqur anglab, o'z asarlarida pedagogik g'oyalarni ilgari surgan.

Ta'limning Muhimligi

- Inson bilimli bo'lsa, u o'z jamiyatiga foyda keltiradi, deb hisoblagan.

- "Mahbub ul-qulub"da ta'lim-tarbiyaning insonni baxtli qilishdagi o'rni haqida so'z yuritadi.

- Ilm olish va uni boshqalarga o'rgatish eng ulug' fazilatlardan biri ekanligini uqtirgan.

Ustoz va Shogird Munosabatlari

- Ustozni hurmat qilish, undan ilmu hikmat o'rganish muhim ekanligini ta'kidlagan.

- Yaxshi ustoz shogirdiga nafaqat bilim, balki axloqiy tarbiya ham berishi kerakligini uqtirgan.

- Ustozning mas'uliyati katta bo'lib, shogirdiga mehr bilan yondashishi lozimligini ta'kidlagan.

Tarbiyaning Asosiy Qoidolari

- Bola tarbiyasida ota-onaning o'zni muhimligini ta'kidlaydi.
- Yosh avlodni go'zal axloq, halollik va ilm bilan tarbiyalash kerakligini uqtiradi.
- Komil inson bo'lish uchun bilim va tarbiya zarurligini o'z asarlarida keng yoritgan.

Alisher Navoiyning Psixologik Qarashlari

Navoiy asarlarida inson ruhiyati, tafakkuri va xulq-atvoriga oid qimmatli fikrlar mavjud. U insonning ichki dunyosini chuqur tahlil qilgan va psixologik jihatlarni ham yoritgan.

Inson Tafakkuri va Ruhiyati

- Inson tafakkuri va ruhiyati tarbiya orqali shakllanishini uqtirgan.
- "Mahbub ul-qulub" asarida insonning xulq-atvori, xarakteri va ruhiy holati haqida qimmatli fikrlar bildirgan.
- Yaxshi so'z va ezgu amallar inson ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan.

Xulq-Atvor va Hissiyotlar

- Inson harakatlari va hissiyotlari uning ichki dunyosining aksidir.
- Adolat, mehr-muruvvat, sabr-toqat kabi xislatlar insonni baxtli qiladi.
- Hasislik, kibr, manmanlik kabi illatlardan tiyilish kerakligini uqtiradi.

Inson va Jamiyat Munosabatlari

- Har bir inson jamiyatga foyda keltirishi lozim.
- Yaxshi odamlar bilan do'stlashish, ilmiy va axloqli kishilar davrasida bo'lish insonni kamolga yetaklaydi.
- Ustoz-shogird munosabatlari haqida ham aniq fikrlar bildirgan.

Alisher Navoiy madaniy-ma'rifiy, pedagogik va psixologik qarashlari bilan nafaqat o'z davrida, balki hozirgi zamonda ham dolzarb hisoblanadi. Uning fikrlari insoniylik, ta'lim, tarbiya va jamiyat taraqqiyotida muhim o'rin tutadi.

Uning asarlari har bir insonni ilm olishga, yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo'lishga, o'z jamiyatiga foyda keltirishga undaydi. Bu jihatlari Navoiy merosini abadiy va bebaho qiladigan asosiy omillardir.

Xulosa

Navoiy pedagogik qarashlari bugungi ta'lim tizimi uchun ham muhimdir. Uning inson axloqiy va ilmiy kamolotiga oid qarashlarini hozirgi pedagogik jarayonga integratsiya qilish tavsiya etiladi. Bundan tashqari, Navoiy asarlari asosida ma'naviyat va ta'limni uyg'unlashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni davom ettirish lozim.

Zamonaviy ta'lim tizimida Navoiyning ta'lim va tarbiyaga oid qarashlaridan samarali foydalanish, uning pedagogik merosini keng targ'ib qilish, shuningdek, psixologik va axloqiy ta'lim dasturlarida Navoiy tamoyillarini qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. -Toshkent: G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at nashriyoti", 1989.

2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 16-jild. -Toshkent: Fan, 2000.
3. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 9-jild. -Toshkent: Fan, 1992.
4. Islamov O'. Alisher Navoiy asarlarida nutq madaniyati talqini: filol. fan. nom. dissertatsiya avtoreferati. -Toshkent: 2011, -B.29.
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 14-jild. -Toshkent: Fan, 1998.
6. Navoiy asarlari lug'ati. -Toshkent: G'.G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at nashriyoti", 1972.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1V jild. -Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2007.

**TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIDA TALABALARNING
AXLOQIY – IRODAVIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA
ALISHER NAVOIY ASARLARINING O'RNI**

*Ro'ziyeva N.A.,
Navoiy innovatsiya universiteti o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim va tarbiya jarayonlarini to'g'ri tashkil etish uchun ajdodlardan o'rnak olib ularning yozib qoldirgan meroslariga ehtiyoj sezamiz. Sharqona ta'lim va tarbiya dunyo miqyosida ham alohida o'ringa ega.

Kalit so'zlar: o'dob-axloqi, yurish-turishi, ta'lim – tarbiya, sharq madaniyatida, pedagogik-psixologik, insonparvarlik, mehr-oqibat.

Аннотация: В данной статье для правильной организации воспитательно-воспитательных процессов мы на примере предков рассматриваем необходимость наследия, оставленного предками. Восточное образование занимает особое место в мире.

Ключевые слова: манеры, поведение, образование - воспитание, в восточной культуре, педагогико-психологический, гуманитарный, доброта.

Abstract: In this article, we see the need to follow the example of our ancestors and use their written heritage to properly organize the processes of education and upbringing. Eastern education and upbringing also have a special place in the world.

Keywords: etiquette, behavior, education - upbringing, in Eastern culture, pedagogical-psychological, humanism, kindness.

Kirish. Har qanday davlatning tarixiy taraqqiyot yo'lidan ma'lumki, yurtning jadal rivojlanishi, muayyan yutuqlarga erishishi, xalqning farovon bo'lishi o'sha davlatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi va kelajagiga beriladigan e'tibor darajasiga bog'liq. Shu ma'noda, O'zbekistonda yoshlar masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Globallashuv asri bo'lgan bugungi kunda ta'lim-tarbiya masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bizga ma'lumki, ta'lim - tarbiya masalasi sharq xalqlarida doimo yetakchilik qilgan va o'z qiymatini hech yo'qotmagan. Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning o'dob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining

talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan.[1]

Darhaqiqat yoshlarimizga ta'lim berish bilan birga tarbiya jarayonini ham olib borishimiz lozim. Qachonki yoshlarimizning tarbiyasida salbiy harakatlarni ko'rmasak ta'lim berishda qiyinchiliklarga uchramaymiz.

Tarbiya jarayonlarini to'g'ri tashkil etish uchun ajdodlardan o'rnak olib ularning yozib qoldirgan meroslariga ehtiyoj sezamiz. Sharqona ta'lim va tarbiya dunyo miqyosida ham alohida o'ringa ega. Sharq madaniyatida ta'lim-tarbiya masalalari yoritilgan ta'limiy tarbiyaviy ruhdagi asarlar Mir Alisher Navoiy nomi bilan bog'liqdir. Navoiy ijodi haqida so'z borar ekan, uning bashariyat uchun qoldirgan bebaho merosi nafaqat adabiy yoki diniy, balki ilmiy ahamiyatga ham ega ekanligini e'tirof etmay bo'lmas. Navoiy o'z asarlarida axloqiy qarashlarini yaxshi fazilatlar bilan birga yomon illatlarni ham ko'rsatish orqali ifoda etadi. Uning nazdida insoniylik yaxshi g'oyalarga amal qilish va uni targ'ib etish bilan bog'liqdir, turli illatlar esa odamni insoniylikdan uzoqlashtiradi. Navoiy yoshlarni tarbiyalash ishiga alohida e'tibor berdi. U bolalarni ilm-hunarni, mehnatni sevishtga undab, o'rganilgan ilm va hunarni xalq, vatan yo'lida sarf qilish zarurligini uqtirdi.

Ulug' mutafakkir asarlari turli ilmlar bilan bir qatorda pedagogik-psixologik masalalarga ham boy bo'lib, kuchli didaktik ta'sirga ega. Didaktik asarlar adib merosining katta qismini tashkil etgan, ularda axloq-odob masalalari, bola shaxsini shakllantirishda tarbiyaning ahamiyati, komil insonni tarbiyalash, o'z-o'zini boshqarish va rivojlanish bosqichlariga xos xususiyatlarning shaxs kamolotidagi o'rni, shaxslararo munosabatlar, nizolarni hal etish usullari, shaxs ruhiyatiga doir jihatlar haqida so'z boradi.

Prezident Sh.M.Mirziyoev ham "Oldimizga yoshlarga tarbiya berish, psixologiya va boshqa turli sohalarda kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'yicha murakkab vazifalar turibdi", deya jamiyatimiz hayotida ro'y berayotgan barcha o'zgarishlarning pedagogik-psixologik mohiyatini bo'lg'usi mutaxassislar tomonidan o'zlashtirilishiga ko'mak beruvchi ilmiy manbalarning ahamiyatini yana bir marotaba ta'kidlab o'tadi. Shundan anglaymizki nafaqat ilmiy manbalar balki, ma'naviy badiiy asarlar ham yoshlarning axloqiy jihatdan yetuk shaxs bo'lib shakllanishiga yordam beradi.

Navoiy o'z asarlarida insonning axloqiy yuksakligini, irodaviy mustahkamlikni, adolat va haqiqatni qadrlashni o'rgatadi. Uning asarlari nafaqat badiiy yuksaklikni, balki axloqiy va ijtimoiy masalalarni ham o'z ichiga oladi, bu esa talabalarga to'g'ri hayot yo'lini tanlashda yordam beradi. Navoiy asarlari o'qib o'rganish orqali talabalarda quyidagi axloqiy-irodaviy fazilatlar shakllanishi mumkin:

Adolat va haqiqat: Navoiy adolatni eng oliy fazilat sifatida ko'rsatadi. Uning asarlarida odil insonning hurmati va qiymati doimo yuqori bo'ladi. Bu talabalarga haqiqatni izlash va adolatli bo'lishni o'rgatadi.

Insonlarga muhabbat: Shoir asarlarida insonparvarlik, mehr-oqibat va o'zaro hurmat mavzulari alohida o'rin tutadi. Bu talabalarga boshqalarga yordam berish, insoniyatga muhabbat bilan qarashni o'rgatadi.

Irodaviy mustahkamlik: Xususan, "Xamsa" asarida va boshqa asarlarida qat'iyat va sabr-toqatni ulug'laydi. Bu talabalarga o'z maqsadlariga erishish uchun kuchli iroda va sabr-toqat bilan harakat qilishni o'rgatadi.

O'rnak olish: Shoir o'zining shaxsiy hayoti va faoliyati bilan o'rnak bo'lishni ko'zlagan. Uning asarlarida ta'lim olish, mehnat qilish va doimo rivojlanishga intilish kabi fazilatlar ta'kidlanadi, bu talabalarga ma'naviy yuksalishga ilhom beradi.

Yuksak ma'naviyat: Navoiy ma'naviy boylikni moddiy boylikdan yuqori qo'ygan va insonni ma'naviy jihatdan yuksaltirishni ta'lim jarayonining eng muhim maqsadi sifatida belgilagan. Uning asarlari talabalarga ma'naviy qadriyatlarni anglash va ular bilan yashashni o'rgatadi.[5]

Navoiy asarlari, ayniqsa, ta'lim muassasalarida talabalarga yaxshi axloqiy fazilatlarni o'rgatishda samarali vosita sifatida foydalanilishi mumkin. Uning nasihati, uning izdoshlari tomonidan o'zlashtirilganda, yoshlarning to'g'ri yo'lni tanlashiga, axloqiy va ma'naviy jihatdan barkamol insonlar bo'lib yetishishiga yordam beradi. Shoir asarlarida yoshlarning xulq-atvoridagi sifatlar ko'plab tarbiyaviy, axloqiy va ma'naviy jihatlar yoritilgan. U o'z asarlarida yoshlarni to'g'ri yo'lga solish, iymonli, vatanparvar va odobli bo'lishga undaydi. Aytishimiz mumkinki, asarlardagi xulq-atvor sifatleri bo'lgan odob axloq o'zini tutishi, boshqalar bilan muloqot jarayonida hurmat e'tibor qozonishiga, axloqiy jihatdan pokiza bo'lishga, to'g'ri yo'lda yurishi kerakligi shu bilan birga iymonli bo'lishi yoshlarni hayotdagi turli sinovlardan o'tishga, yoshlarning mukammal rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Navoiy, yoshlarni mehnatsevar, qat'iyatli va jonkuyar bo'lishga chaqiradi. Mehnat orqali inson o'z maqsadlariga erishishi va haqiqiy baxtni topishi mumkin. Shuningdek shoir bilimni orttirish va unga doimiy ravishda intilishning ahamiyatini yuqori baholaydi. U yoshlarni ilmga, ilm-fanga qiziqishga undaydi va bu yo'lda sabr-toqatli bo'lishni targ'ib qiladi. Vatanni sevish, unga xizmat qilish, yoshlarni o'z yurtiga hurmat ko'rsatish va uni himoya qilishni tarbiyalashda Navoiy juda katta ahamiyat beradi. Do'stlar o'rtasidagi samimiy, to'g'ri munosabatlarni rivojlantirish, yoshlarni bir-biriga yordam berishga, yomonlikdan uzoq turishga chaqiradi. yoshlarni hayotdagi sinovlarga sabrli bo'lishga undaydi. U, muvaffaqiyatga erishish uchun qat'iyat va mehnat qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Axloqiy irodaviy sifatlar — bu insonning axloqiy jihatdan to'g'ri va xato, yaxshilik va yomonlik, adolat va notinchlikni ajrata olish qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan xususiyatlar. Bularning asosiy maqsadi odamning o'zini va boshqalarni hurmat qilish, yaxshi niyat va mehnat bilan harakat qilishdir.[3] Bugungi kun yoshlarida ham javobgarlik, sabr-toqat, adolat, xushmuomalalik, saqodat kabi axloqiy irodaviy sifatlar shakllantirishda Navoiy asarlari yetakchilik qiladi. Bu sifatlar insonning o'zini va jamiyatni rivojlantirishga yordam beradi. Har bir inson o'z axloqiy irodasini shakllantirish va yaxshilashga harakat qilishi kerak.

Shoir yana bir qancha axloqiy-irodaviy fazilatlarni oiladagi tarbiya misolida ta'kidlaydi. Yoshlarni ota-onaning xizmatini bajarishga, ularni hurmat qilishga, ularga nisbatan hamisha mehr-muhabbatli bo'lishga chaqiradi, ota-onani oy va quyosh deb ta'riflaydi: Boshni fido ayla ato qoshig'a, Jismni qil sadqa ano boshig'a... Tun-kununga aylagali nurposh, Birisin oy angla, birisin quyosh.[2]

“Hayrat ul-abror”ning o'ninchi maqoloti rostgo'ylik, halollik va to'g'rilikka bag'ishlangan. Navoiy unda kishilarni rostgo'y va to'g'ri bo'lishga undaydi, yolg'onchilik va egrilikning zararli oqibatlarini keskin tanqid etadi. Shoir yolg'on so'zlashning yomon oqibatini “Sher bilan Durroj” masalida ovchining tuzog'iga tushgan Durroj timsolida hikoya qiladi.[4]

Navoiy yaramas odat va xulq-atvorlarni shafqatsiz qoralashi, oliyjanob insoniy fazilatlarni qadrlashi, bolalarni o'qish, o'rganish va yuksak odobli, a'lo xulqli bo'lishga chaqirishi katta ahamiyatga ega bo'lib, bolalar tarbiyasining shakllanishida juda muhimdir. Uning bir qator axloqiy-ta'limiy qarashlari hozirgi kunda ham o'z qadr-qimmatini saqlab kelmoqda.

Xulosa. Shoir asarlarida tarbiya, axloqiy qadriyatlar va ma'naviyat muhim o'rin tutadi. Shu o'rinda shuni aytishimiz mumkinki, Alisher Navoiy asarlarida ta'lim va tarbiyaning bunday mushtarak nuqtalarini ko'plab guvohi bo'lishimiz mumkin. Bu hol shoirning aynan ta'lim-tarbiya borasida ham nasihatimiz mav'izalar bitganligidan darak beradi. Bunday ruhdagi mav'izalar kitobxonga ulkan ma'naviy ozuqa berishi, shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston respublikasi prezidentining qarori, 26.03.2021 yildagi PQ-5040-sot
2. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror, MAT., 7-jild. – T. 1991.
3. Alisher Navoiy. Hikmatlar. O'zbekiston. – T. 2011.
4. Ibrohim Haqqul. Navoiyga qaytish. Fan. – T. 2007.
5. Sirojiddinov Sh. Alisher Navoiy. Manbalarining qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili. Akadem.nashr. – T. 2011.

SHARQ ALLOMALARI ASARLARIDA O'SMIRLARDA MILLIY IDENTIVLIK INTEGRATSIYASINING IJTIMOIIY PSIXOLOGIK OMILLARI

Qahharova M.L.,

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti o'qituvchisi,

Marifova O.N.,

Navoiy Innovatsiyalar Universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada siz o'smir yoshidagi o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun ularda identivlik integratsiyasini shakllantirishning ijtimoiy- psixologik omillarini shakllantirishning psixologik omillarini Sharq allomalari asarlari orqali tahlil qilinadi. Bundan tashqari, milliy identivlik shakllanishining ijtimoiy psixologik omillari va ular asosida olimlar tomonidan ishlab chiqilgan xulosalar borasida tavsiyalar berilgan.

Аннотация: В данной статье анализируются психологические факторы формирования социальных и психологических факторов формирования идентичности через труды восточных учёных с целью устранения трудностей, возникающих в процессе обучения и воспитания школьников-подростков. возраст. Кроме того, даны рекомендации относительно социально-психологических факторов формирования национальной идентичности и выводы, разработанные учеными на их основе.

Annotation: in this article you will analyze the psychological factors of the formation of socio - psychological factors of the integration of identity in them through the works of eastern allomas in order to overcome the difficulties encountered in the process of education and upbringing of adolescent students. In addition, recommendations have been made regarding the social psychological factors of the formation of national identity and the conclusions developed by scientists on their basis.

Kalit soʻzlar: oʻspirin, psixologik omillar, olimlar, taʼlim, tarbiya, psixologiya, shaxsiyat, shaxsiyat, shaxsiyat.

Key words: adolescent, psychological factors, scientists, education, upbringing, psychology, identity, person, individual.

Ключевые слова: подросток, психологические факторы, ученые, образование, воспитание, психология, идентичность, личность, личность.

Bugungi zamonaviy dunyoda, oʻsmirlar orasida tarbiyaning umumiy ijtimoiy vazifasi-yosh avlodda bilim, koʻnikma, ijtimoiy tajriba va axloq normalarini shakllantirishdan iborat. Har qanday shaxs ijtimoiy muhitning unga yuklagan yangi roli - institut talabasi, ota-ona, rahbar va shu kabi rollarni ijro etishga oʻtganida oʻzini dastlab "yaxshi" his qiladi. Lekin asta-sekinlik bilan shaxsning oʻzi haqidagi tasavvurlari ushbu rollarni oʻziga singdiradi va bu rollarni eplash-eplamasligiga qarab shaxsning "Men" konsepsiyasida oʻzgarishlar yuzaga keladi. Shaxsning individuallik va identivlik xususiyatlarini talqin qilish. Eʼtibor berish kerakki, sinaluvchi ijtimoiy rollar (oʻquvchi, talaba, farzand, qiz bola, yigit va boshqalar) rasmiy biografik xarakteristikalaridan boshqa, oʻziga xosliklarni ham keltirganmi (masalan: lider, optimist, qobiliyatli inson...) yoki u oddiy ijtimoiy hayot mahsulimi. Aynan shu oʻrinda, sinaluvchiga hech kimga oʻxshamaydigan individualliklari (oʻziga xosliklari) ni javoblari orasidan koʻrib chiqish va yana qoʻshimcha ravishda chuqurroq oʻylab koʻrish tavsiya etilishi kerak (bunga yana alohida 1 daqiqa vaqt berilishi ham mumkin). Sinaluvchining faqat ijtimoiy, rasmiy, biografik rollarini keltirgan boʻlishi, u insonning oʻzida boshqa narsa koʻrmasligi, muammo va oʻylantiradigan masalalarni niqoblashi yoki ularni bir chetga surib qoʻyganligi belgisidir. Shuningdek, har xil koʻrinishga ega lekin bitta mavzu (muammo yoki masala)ga taqaluvchi javoblarni topish orqali sinaluvchini muammosini topishga harakat qilishi kerak.

Oʻzbekiston yoshlari orasida milliy identifikatsiyaning shakllanishi va integratsiyasi masalalari ijtimoiy-psixologik nuqtayi nazardan dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Milliy identifikatsiya jamiyatdagi har bir individning oʻz millati va madaniy merosiga boʻlgan oʻziga xos munosabati, oʻzligini anglash

jarayoni va milliy o'ziga xoslikning mustahkamlanishidir. Har bir millatning boy madaniy merosi va an'analari yosh avlodni tarbiyalashda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Oila va ta'lim muassasalarida milliy qadriyatlarni o'rgatish yoshlarda milliy o'zlikni anglashga yordam beradi. Ta'lim milliy o'ziga xoslikni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Darsliklar, tarixiy va adabiy manbalar milliy o'zlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak va shuningdek, oila milliy qadriyatlarni shakllantirishda va ularni keyingi avlodga yetkazishda asosiy institut hisoblanadi. Ota-onalar tomonidan milliy merosga hurmat uyg'otilishi bolalarning identifikatsiyasini mustahkamlaydi. Bobokalonimiz Abu Ali ibn Sinoning oilaviy munosabatlar haqida aytgan fikrlari bag'oyat qimmatlidir. Olim "Tadbir-al-manozil" asarida oilada er va xotinning yaxshi sifatlarini sanab o'tadi. Ularning shaxsiy namunalari bola uchun o'rnak bo'lib uning kelajak taqdirini belgilashda muhimligini alohida ta'kidlaydi. Ibn Sinoning fikricha, tarbiyachi faqat so'zdagina nasihatgo'ylik bilan tarbiyalamasdan, balki amalda ham bolalarga o'z xulqi bilan ta'sir qilishi kerak. U ota-onaning bolalar bilan olib boriladigan suhbatining sharti to'g'risida mulohaza yuritib: "Siz gaplashish, fikr olishda xayrixohlik talablariga rioya qilgan holda ish ko'rsangiz, yo'ldan adashmaysiz va to'siqlarga duch kelmaysiz"-deya aytib o'tgan. Va bundan tashqari, Abdurauf Fitrat aytganidek, avlodni tarbiyalash insoniyatning xizmatidir. Qachonki biz yaxshi axloq egasi bo'lgan farzandlarni tarbiyalasak, shundagina bo'yimizdagi bu xizmat majburiyati soqit bo'ladi. Kimki, badaxloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga xizmat emas, balki dushmanlik qilgan bo'ladi. Jamiyat ularning farzandlaridan bezor bo'ladi. Xush va yaxshi axloqqa ega bo'lgan farzand, xushaxloq imyon sohibi bo'lgan ota-onalardan bo'ladi, agarda ota-ona axloqsiz bo'lsalar, ularning tarbiyalari soyasida o'sgan farzand ham badaxloq bo'ladi", – deya bola tarbiyasida ota-onalarning namuna bo'lishi haqida qimmatli fikrni ilgari surgan.

Media va ommaviy axborot vositalari milliy qahramonlar va tarixiy hodisalarni targ'ib qilish orqali yoshlar orasida milliy g'ururni kuchaytirishi mumkin. Globalizatsiya jarayonida yoshlar boshqa millatlar madaniyatini o'rganadi, bu esa o'z milliy qadriyatlariga tanqidiy yondashuvni shakllantirishi mumkin. Shu sababli, o'z milliy madaniyatining ahamiyatini tushunishga yo'naltirilgan ijtimoiy-psixologik chora-tadbirlar muhimdir. Bundan tashqari, bizda til omili ham bor, bunda ona tilining saqlanishi va rivojlanishi milliy identifikatsiyaning asosi hisoblanadi. Ona tilida erkin muloqot qilish yoshlarning o'z milliylikni anglashga yordam beradi. Mahalliy jamiyat va do'stlar davrasi yoshlarda milliy o'zlikni mustahkamlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy muhitda milliy qadriyatlar targ'ib qilinsa, bu integratsiya jarayonini tezlashtiradi. Mutafakkir Yusuf Xos Xojib Qutadg'u bilig asarida bola tarbiyasi haqida to'xtalib: —Farzand qanchalik bilimli, aqlli-hushli bo'lsa, ota-onaning yuzi shunchalik yorug' bo'ladi. U bola tarbiyasida otaning mas'uliyatiga alohida e'tibor qaratadi. Bunda ota ona bolasini nazorat qilib, har xil hunarlar o'rgatsa, hulqi go'zal bo'lishi uchun farzandiga bilim sirlarini o'rgatib borsa bola haqiqiy insoniy fazilatlarga ega bo'ladi.

Ulug' bobokolonimiz Farobiyning fikricha bola tarbiyasi bir maqsadga qaratilgan holda olib borilmog'i va u aqliy va axloqiy tarbiya birligidan iborat bo'lmog'i lozim degan xulosa kelib chiqadi va o'z ahamiyatini kasb etadi.

Ibn Sino oilada bola tarbiyasi ancha murakkab va nozik bo'lib, uni bolaning yoshligidan boshlash va izchillik bilan olib borish lozimligini ta'kidlaydi. U ona allasining tarbiyaviy ahamiyati haqida to'xtalib, alla ikki vazifani bajaradi, deydi.

Birinchisi, uni tebratish orqali bolaga jismoniy orom bag'ishlanadi; ikkinchisi, beshikni bir maromda tebratishdan onaning mehri jo'sh uradi, bolasiga bo'lgan muhabbatidan onaning orzu-umidi yurak to'ridan chin dildan aytiladi.

Milliy identifikatsiya integratsiyasi ijtimoiy-psixologik omillar orqali mustahkamlanadi. Shu omillarni hisobga olib, yoshlar orasida milliy o'zlikni targ'ib qilish nafaqat milliy birlikni mustahkamlash, balki jamiyatda barqarorlikni ta'minlash uchun muhimdir.

O'smirda milliy tarbiya shakllanishidapsixologik va ijtimoiy-psixologik nazariyalar va konsepsiyalarni tadqiqotchi Y.V.Subbotskiyning maktabgacha yoshdagi bolalarning axloqiy rivojlanishining genezisi haqidagi nazariy konstruksiyasi, S.G.Yakobsonning shaxs o'zini-o'zi tartibga solishda axloqiy tanlovning psixologik tabiati nazariyasi, L.S.Vigotskiyning tarbiya masalasida madaniy-tarixiy konsepsiyasi, A.N.Leontiev, A.V.Zaporojes, D.B.Elkoninlarning bola tarbiyasida uning psixik rivojlanishi nazariyasi, P.Y.Galperinning inson faoliyatining tizimli bosqichma-bosqich shakllanish konsepsiyasi, B.G.Ananov, K.K.Platonov, S.L.Rubinshteynlarning shaxsni rivojlanishida sub'ekt-faoliyat yondashuvi, G.Olportning shaxs yetukligi konsepsiyasi kabilardir. Mazkur konsepsiya va yondashuvlar asosida ular o'smirda milliy tarbiya shakllanishinigg ijtimoiy psixologik omillarini ochib berishga xarakat qilishdi. O'smirlik davrida tengdoshlar guruhi ta'siri kuchayadi. Tengdoshlar bilan muloqot, ularning fikri, qadriyatlari va xatti-harakatlari o'smirning o'zini anglashi va identifikatsiyasiga ta'sir qiladi. Tengdoshlar guruhiga mansublik hissi o'smirda o'zini xavfsiz va qabul qilingan his qilishga yordam beradi. Bundan tashqari, o'smir yashayotgan jamiyatning madaniy qadriyatlari, norma va an'analari ham identivlik shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Jamiyatning o'smirlarga bo'lgan munosabati, ularga qo'yiladigan talablar va imkoniyatlar o'smirning o'ziga bo'lgan munosabati va identifikatsiyasiga ta'sir qiladi. Oila o'smirning shaxs sifatida shakllanishida birinchi va eng muhim ijtimoiy muhitdir. Ota-onalarning tarbiyasi, oilaviy qadriyatlar, oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar o'smirning o'ziga bo'lgan ishonchi, o'zini qabul qilishi va identifikatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Qo'llab-quvvatlovchi va mehrga boy oilaviy muhit o'smirning identivlik integratsiyasini osonlashtiradi. O'smirlarda identivlik integratsiyasi murakkab jarayon bo'lib, unga ko'plab ijtimoiy-psixologik omillar ta'sir qiladi. Bu omillar o'smirning o'zini anglashi, qadriyatlari, e'tiqodlari va kelajakdagi rejalari shakllanishida muhim rol o'ynaydi. O'smirlik davrida boshdan kechiriladigan turli xil tajribalar, muvaffaqiyatlar va muvaffaqiyatsizliklar, yutuqlar va qiyinchiliklar o'smirning o'zini anglashi va identifikatsiyasini shakllantiradi. Bu tajribalar o'smirning o'ziga bo'lgan ishonchi, mustaqilligi va o'zini qabul qilishiga ta'sir ko'rsatadi. O'smirlik

davrida boshdan kechiriladigan turli xil tajribalar, muvaffaqiyatlar va muvaffaqiyatsizliklar, yutuqlar va qiyinchiliklar o'smirning o'zini anglashi va identifikatsiyasini shakllantiradi. Bu tajribalar o'smirning o'ziga bo'lgan ishonchi, mustaqilligi va o'zini qabul qilishiga ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari ta'lim muassasasi ham muhim rol o'ynaydi, maktab muhiti, o'qituvchilar bilan munosabatlar va o'quv jarayonidagi muvaffaqiyatlar ham o'smirning o'zini anglashi va identifikatsiyasiga ta'sir qiladi. Televidenie, internet va ijtimoiy tarmoqlar o'smirlarga turli xil rollar, qadriyatlar va turmush tarzlarini namoyish etadi. Bu ta'sirlar o'smirning o'ziga bo'lgan munosabati va identifikatsiyasini shakllantirishi mumkin. Bu omillar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, o'smirning identivlik integratsiyasiga murakkab ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon individual bo'lib, har bir o'smirda turlicha kechishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O'smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. "Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.
2. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 600.
3. Z.Elov. Qobiliyatning shaxs psixologiyasidagi o'rni va danning-kryuger effektipedagogik mahorat 2021/10/30 Номер 5 Страницы 143-144
4. Олимов Л.Я, Махмудова, М. Психодиагностикани автоматлаштириш ва фанни ўқитишда инновацион педагогик ва ахборот-коммуникацион технологиялардан фойдаланишнинг ўзига хослиги. Масофавий таълимни ташкил этишнинг педагогик-психологик жиҳатлари мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуман материали. Тошкент., 2021. –Б. 489-493.
5. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnostics. O'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.
6. Elov.Z.S. Qadimgi xalqlar urf-odatlari va rivojlangan jamiyatda ўз жонига қасд қилишнинг ижтимоий психологик сабаблари. Тарих ва бугун "Science and Education" Scientific Journal / ISSN 2181-0842 March 2022 / Volume 3 Issue 3 www.openscience.uz 681 (қадимги халқлар урф-одатлари ва бугунги замон) Jamiyat va innovasiyalar. 10.2021 169-173.

PEDAGOG-XODIMLARNING BOSHQARUVDA METOKOGNITIV PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Raximov Z.J.,

Navoiy Innovatsiyalar universiteti bo'lim boshlig'i

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim jarayonida boshqaruv metodlaridan samarali foydalanishda psixologning ijodiy faoliyati va jihatlarga e'tibor berishning ta'lim jarayonidagi ahamiyati haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Metod, ijodiy muhit, muomala, qadr-qimmat, e'tibor, psixik jarayon, motiv, ijtimoiy psixologik, motivatsiya.

Аннотация. В данной статье даётся характеристика психологических сторонах создания творческой среды и их влияние в управление педагогического коллектива общеобразовательных школ

Ключевые слова: Метод, творческая среда, общение, ценность, внимание, психический процесс, мотив, социально - психологически, мотивация

Annotation. In this article is spoken about psychological quality in management pedagogical society in secondary schools and pay attention to these qualities in educational process.

Key words: Method, creative environment, motivation, psychological process, social- psychological, attention.

Umumta'lim maktab boshqaruvida mas'uliyatli va keng qamrovli vazifalarni amalga oshirish strategik ta'lim boshqarivini talab etadi. Chunki, samarali boshqaruv asosida ta'lim muassasasining nufuzi, salohiyati, bu ta'lim muassasida tahsil olayotgan yosh avlodning har sohada (fan bo'yicha bilimlar bellashuvi, sport, san'at va hokazo) erishgan yutuqlari asosiy o'rinni egallashi bilan bir qatorda bu yutuqlarning boshida turgan ta'lim muassasasi rahbari va pedagogik jamoaning ham qanday faoliyat olib borayotganliklari muhim ahamiyatga ega.

Umumta'lim maktablarida boshqaruv faoliyatini yuritayotgan rahbar avvalo keng pedagogik - psixologik bilimlarga ega bo'lishi, kompetentli, o'z-o'zini doimo nazorat qila oladigan, rahbarlik faoliyati jarayonida mavjud huquqiy-me'yoriy mezonlarga tayanadigan va bugungi kundagi innovatsion jarayonlarga asoslanadigan mutaxassis bo'lishi maqsadga muvofiq. Bu jarayonlar umumta'lim maktablarida faoliyat olib borayotgan pedagoglarning ijodiy faoliyati bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Innovatsion jarayonlarni ta'lim muassasasi pedagoglarining ijodiy faoliyatisiz va bunda psixologik yondashuvlarsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Buning uchun rahbar pedagogik jamoani boshqaruvida ijodiy muhit yaratishning psixologik jihatlarini bilishi va buni amalga oshirish uchun boshqaruv metodlaridan oqilona foydalana olish mahoratiga ham ega bo'lishi kerak.

Boshqaruv metodlaridan samarali foydalanish pedagogik jamoaning ijodiy faoliyatini kengaytirib ishchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

P.X.Djurayev, S.T.Turg'unov, N.Q.Ahmedovlarning "Ta'lim boshqaruvi" nomli o'quv qo'llanmasida zamonaviy ijtimoiy - iqtisodiy shart-sharoitlarda umumiy o'rta ta'lim muassasalarini boshqarishda ko'p darajada mos keladigan metodlarning to'rtta asosiy guruhi ko'rsatib berilgan. Bular: Iqtisodiy, tashkiliy, ma'muriy, ijtimoiy psixologik va axborotlar to'plash metodlari hisoblanadi.

Boshqaruvda iqtisodiy metodning jamoada ijodiy muhit yaratishdagi bog'liqlik tomoni shundaki, bu metod orqali muassasaning iqtisodiy ko'rsatkichlarining yig'indisini tavsiflash bilan bir qatorda pedagoglarning zamonaviy talablar darajasida faoliyat ko'rsatishlari uchun sharoitlar yaratadi. Ya'ni, ta'lim muassasasi faoliyatini takomillashtirish va innovatsion jarayonlarni kuchaytirish, xodimlarning innovatsin faoliyatlarini tashkil etish, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining faolliklarini rivojlantirishda foydalaniladi.

Ikkinchi metod bu tashkiliy-ma'muriy metoddir. Bu metod orqali esa qarorlar, buyruqlar, farmoyishlar va ko'rsatmalar tayyorlash, ularni o'z vaqtida tegishli shaxslarga yetkazish va bajarilishini nazorat qilish orqali ta'sir ko'rsatish bilan birgalikda belgilangan maqsadlarga erishishda jamoada mavjud bo'lishi zarur bo'lgan o'zaro munosabatlar, aloqalar, tashkiliy barqarorlik, intizom, o'zaro mutanosiblik va kelishuvchanlik, tartiblilik hamda uzluksiz rivojlanishni huquqiy va me'yoriy hujjatlarga mos ravishda ta'minlashdan iborat. Jamoada jodiy muhit bo'lishi uchun esa o'zaro munosabatlar juda muhim.

Pedagogik jamoani boshqaruvidagi ijtimoiy-psixologik metodlar esa jamoada ijodiy muhit yaratishning asosi bo'ladi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki, bu metod jamoa xodimlarining bemalol, erkin harakat qilishi, o'z-o'zini namoyon qilishi, tegishli jarayonlarda erkin ishtirok etishi, fikr bildirishi uchun sharoit yaratib ijodiy faoliyatlarini o'stiradi. Demak, sog'lom muhitda sog'lom fikr va sog'lom dunyoqarash va e'tiqod shakllanadi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib, pedagogik jamoani boshqaruvida ijodiy muhit yaratishning psixologik jihatlari bo'yicha o'z fikr va tavsiyalarimizni bayon qilamiz. Bular:

- moddiy va ma'naviy rag'batdan o'z o'rnida foydalanish;
- pedagogik jamoa o'rtasida musobaqalar, ko'rik tanlovlar tashkil etish;
- boshqaruv muomalasining mexanizmlaridan samarali foydalana olish;
- pedagog xodimlarning faoliyat motivlarini kuchaytirish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, pedagogik jamoani boshqaruvida ijodiy muhit yaratishning psixologik jihatlarga e'tibor berish, boshqaruv metodlaridan oqilona va samarali foydalanish pedagogik jamoada ish unumini oshirib ijodiy faoliyatlarini kengaytirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Islom Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch", Toshkent "Ma'naviyat" 2010
2. R.S. Nemov. "Psixologiya", Kniga 2. Moskva, Vlados, IMPE im. A.S. Griboyedova, 2001
3. Djurayev R.X., Turg'unov S.T., Axmedova N.Q. Ta'lim boshqaruvi (nazariya va amaliyot masalalari). Toshkent - 2013

ALISHER NAVOIY ASARLARIDA BILISH JARAYONLARINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK QARASHLARI

***Xudoyberdiyeva J.A.,
Andijon viloyati PMM o'qituvchisi***

Аннотация. В данной статье рассматриваются психологико-педагогические взгляды Алишера Навои на процесс познания. Великий мыслитель в своих произведениях уделял особое внимание развитию человеческого разума, значению образования и воспитания. В статье анализируются педагогические принципы Навои, такие как уважение к учителю, связь науки с нравственным воспитанием и важность

практического применения знаний. Также исследуются психологические аспекты процесса познания, включая этапы усвоения знаний, роль памяти и мотивации. Подчеркивается актуальность взглядов Навои в современной системе образования.

Ключевые слова. Алишер Навои, процесс познания, педагогика, психология, образование, мышление, нравственное воспитание, наука, учитель-наставник, человеческий разум, мировоззрение, духовность, социальное сознание, интеллектуальное развитие.

Annotation. This article explores Alisher Navoi's psychological and pedagogical views on the process of cognition. The great thinker devoted special attention in his works to the development of human intellect, the importance of education, and moral upbringing. The article analyzes Navoi's pedagogical principles, such as respect for teachers, the connection between science and moral education, and the importance of practical application of knowledge. Additionally, the psychological aspects of the cognitive process are examined, including the stages of knowledge acquisition, the role of memory, and motivation. The relevance of Navoi's views in the modern education system is emphasized.

Keywords. Alisher Navoi, cognitive process, pedagogy, psychology, education, thinking, moral upbringing, science, teacher-mentor, human intellect, worldview, spirituality, social consciousness, intellectual development.

Bilish jarayoni inson tafakkurining rivojlanishiga xizmat qiladi. Navoiy insonni "tafakkur gavhari bilan yuksaladigan mavjudot" deb ta'riflaydi[2].

Asosiy g'oyalar:

Ilm – insonning eng buyuk boyligi.

Tafakkur va bilish insonni mukammallikka yetaklaydi.

Bilimsiz inson hayot yo'lida adashishi mumkin.

Taniqli olim M. Rahimov ham Navoiy ijodidagi tafakkur va bilish jarayonining tahlilini berib, uning pedagogik qarashlari bugungi kun ta'lim tizimi uchun ham muhim ekanini ta'kidlaydi[3]. Navoiy asarlarida ta'lim-tarbiyaning asosiy tamoyillari belgilangan bo'lib, ularning zamonaviy ta'lim tizimidagi dolzarbligi hali ham yuqori.

Navoiy ilgari surgan asosiy pedagogik tamoyillar:

Ilmga muhabbat uyg'otish – inson qalbida bilimga ishtiyoq bo'lishi kerak[4].

Ustoz va murabbiy hurmati – ilm olishda ustoz muhim o'rin tutadi[5].

Nazariya va amaliyot uyg'unligi – faqat nazariya emas, balki hayotiy tajriba ham muhimdir.

Axloqiy tarbiya – inson nafaqat bilimli, balki odobli bo'lishi lozim[6].

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi ham aynan Navoiy ilgari surgan pedagogik tamoyillar asosida rivojlantirilmoqda[7].

Navoiy inson tafakkuri va aqliy rivojlanishini o'rganib, quyidagi psixologik jihatlarga e'tibor qaratgan:

Bilish jarayonining psixologik xususiyatlari:

Aql va fahm – insonning asosiy quroli[8]. Bilish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshadi – inson avval bilishga intiladi, keyin bilim egallaydi va uni

qo'llaydi[9]. Tarbiyaning psixologik ta'siri – inson yoshligidan axloqiy va aqliy jihatdan shakllanadi[7]. Zamonaviy psixologiya fani ham bilish jarayonining Navoiy ta'kidlagan omillar bilan chambarchas bog'liqligini tasdiqlaydi[9].

Navoiy asarlaridan kelib chiqadigan ta'limiy saboqlar:

O'quvchilarga ilmga muhabbatni shakllantirish.

Ustozlarga hurmat hissini rivojlantirish.

Ilmni hayotiy tajribaga bog'lash.

Axloqiy tarbiyani ta'lim bilan uyg'un olib borish.

Xulosa

Alisher Navoiy asarlarida bilish jarayoni keng yoritilib, ta'lim va tarbiyaning ahamiyati chuqur o'rganilgan. U insonning tafakkuri va aql-idrokini rivojlantirish, bilim olishning zaruriyati hamda pedagogik tamoyillar haqida qimmatli fikrlarni ilgari surgan. Bugungi kunda ham uning bu qarashlari o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, ta'lim tizimining muhim nazariy asoslaridan biri bo'lib xizmat qiladi[8].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Navoiy, A. (1499). Mahbub ul-Qulub.
2. Navoiy, A. (1483). Xamsa.
3. Rahimov, M. (2010). O'zbek adabiyoti va pedagogika. Toshkent: O'zbekiston.
4. G'afurov, B. (2003). Alisher Navoiy: Tafakkur va Ma'naviyat. Toshkent: Ma'naviyat.
5. Karimov, I. (1997). Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Sharq.
6. Hasanov, S. (2018). Psixologiya asoslari. Toshkent: O'zbekiston.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi "Ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyasi" qarori.
8. Nazarov, R. (2015). Ta'lim va tarbiya nazariyalari. Toshkent: Ilm Ziyo.

NAVOIY ASARLARIDA "O'QITUVCHI KASBIY FAOLIYAT SAMARADORLIGINI METOKOGNITIV OMILLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI"

Raximov Z.J.,

Navoiy Innovatsiyalar universiteti bo'lim boshlig'i

Annotatsiya: Ushbu maqolada Navoiy asarlari orqali o'qituvchi kasbining metokognitiv omillar asosida rivojlanishi uchun zarur bo'lgan pedagogik-psixologik omillar keltirilgan.

Аннотация: В данной диссертации представлены педагогические и психологические факторы, необходимые для развития профессии учителя на основе метакогнитивных факторов через творчество Навои.

Abstract: This thesis presents the pedagogical and psychological factors necessary for the development of the teaching profession based on metacognitive factors through the works of Navoi.

Kalit soʻzlar: Mir Alisher Navoiy, oʻqituvchi, bilim, tajriba, taʼlim, oʻquvchi, psixologik maslahat.

Ключевые слова: Мир Алишер Навои, педагог, знания, опыт, образование, студент, психологическое консультирование.

Keywords: Mir Alisher Navoi, teacher, knowledge, experience, education, student, psychological counseling.

Respublikamizda bugungi kunda har bir sohada keng koʻlamli islohotlar boʻlmoqda-ki, bularning hammasi el-yurt manfaati uchun xizmat qilmoqda. Yangi Oʻzbekistonimizda oʻqituvchi shaxsiga hurmat-eʼtibor har qachongidan kuchaydi. Bularning hammasi yurtimiz egalariga sifatli taʼlim berish, ularni har tomonlama salohiyatli qilish uchun saʼy-harakatlar namunasi desak mubologʻa boʻlmaydi. Prezidentimiz doimo oʻqituvchilar va ular faoliyatini ragʻbatlantirish masalasini doimo birinchi oʻrindagi masala sifatida qoʻygan va bugungi kunda oʻqituvchilarning kayfiyati taʼlim tizimidagi oʻz oʻrnini egallashga harakatidan ham bilishimiz mumkin-ki, oʻqituvchilar bugun har qachongidan koʻproq oʻzlarini har tomonlama rivojlantirishga zamon talablariga mos taʼlim-tarbiya berishga harakat qilmoqda. Prezedentimiz Shavkat Miromonovich taʼriflari bilan aytganda “Sizlar dunyodagi eng bebaho boylik va boqiy merosni yaratish, uni xalqimizga, unib-oʻsib kelayotgan yosh avlodimizga bezavol yetkazish yoʻlida chinakam fidoyilik koʻrsatib mehnat qilayotgan ulugʻ insonlarsiz. Bu ulkan boylik - aql-zakovat va ilm, bu oʻlmas meros — yaxshi tarbiyadir”[1].

Muallimlik – nihoyatda zahmatli, mashaqqatli kasb. Buni ayni sohada ishlagan va shu kasb nonini yeb koʻrgan insongina chuqur anglaydi. Men davlatimiz rahbari mehnat faoliyatini dastlab oʻqituvchilikdan boshlaganini juda yaxshi xotirlayman. Shu bois bu soha-ning juda koʻp ijobiy qirralarini ham, muammoli jihatlarini ham yaxshi biladilar. Mana sakkiz yildirki, taʼlim bilan bogʻliq biron bir masala u kishining eʼtiboridan chetda qolgani yoʻq. Taʼlim tizimidagi ogʻriqli nuqtalarni butun vujudi bilan his etgani uchun ham Prezident quyidagi fikrlarni bayon qildi [2]. “Yangilangan Konstitutsiyamizda dunyodagi moʻtabar shaxs – oʻqituvchi maqomini alohida mustahkamlash, bu kasb-ni jamiyatdagi eng obroʻli ishga aylantirish mening necha yillik orzuyim, kerak boʻlsa, armonim edi. Chunki oʻzim ham koʻp yillar shu sohada ishlaganman. Oʻqituvchi mehnati qanchalik ogʻir va mashaqqatli ekanini yaxshi bilaman. Afsuski, ana shunday sharaflı va oliyanob kasb egalariga biz yaqin oʻtmishda yetarlicha hurmat va eʼtibor qarata olmadik. Yana bir bor aytaman: qancha islohot qilmaylik, birinchi navbatda oʻqituvchining bilim va kasb mahoratini oshirmas ekanmiz, sifatli taʼlimni taʼminlay olmaymiz. Bu – ayni haqiqat. Shu bois yurtimizda keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimiz rahbarining yurtimizdagi taʼlim – tarbiyaga boʻlgan eʼtibori, talablari ham har qachongidan kuchaydi. Bu talabda albatta, birinchi oʻrinda bu sohaning asosi deb oʻqituvchi shaxsidir. Oʻqituvchi buning uchun metokognitiv omillarni oʻzlashtirmogʻi lozim. Xoʻsh dastavval metakognitsiya atamasiga izoh beradigan boʻlsak, aslida bu ibora metakognitsiya bu oʻz oʻrganish jarayonini tushunish va

nazorat qilish qobiliyatidir [3]. O'qituvchi metakognitiv omillarni rivojlantirish orqali o'z pedagogik faoliyatini yaxshilashi mumkin.

Nafaqat yurtimizda balki bugungi kunda xorij mamalakatlar Koreya, Finlandiya, Germaniya kabi ta'lim sohasida ko'plab e'tiroflarga saab bo'layotgan mamlakatlar ta'lim tizimlariga e'tibor beradigan bo'lsak aynan o'qituvchi shaxsida metokognitsiya jarayoni kuchli ekanligini ko'rsatadi. Biz bu xususiyatlarini bugungi kun o'qituvchilariga yetkazishda Hazrat Mir Alisher Navoiy asarlarini o'rgansak, yoki hayot yo'liga nazar tashlasak bu borada ko'plab g'oyalarni o'zlashtirishimiz mumkin. Sababiki, Mir Alisher Navoiy dahosi nafaqat asarlari balki o'z ilmi tarbiyasi bilan ajralib turadigan metokognitiv omillarni o'rganishda buyuk namuna sifatida ko'rsata olamiz. Hazrat Mir Alisher Navoiyning ijodida aynan o'qituvchi kasbiy faoliyatining samaradorligini metakognitiv omillar asosida takomillashtirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari haqida batafsil bayon qilingan maxsus bir bob yoki qism aynan topish mushkul bo'lishi mumkin, Navoiyning asarlarida ta'lim, tarbiya, inson tafakkuri, ma'naviyat va o'qituvchining o'quvchi bilan o'zaro munosabati haqidagi qadriyatlar bugungi kun o'qituvchisining oldida turgan ko'plab vazifalarni bajara olishida yordamchi bo'la olishi va kasbiy faoliyatiga doir qimmatli fikrlarni o'z ichiga olgan g'oyalarni juda ko'p o'rinlarda ko'rishimiz mumkin. Navoiyning asarlarida ta'lim, tarbiya, bilim va axloqiy o'sish masalalari markaziy o'rin tutadi, bu esa o'qituvchining faoliyatini samarali tashkil etish uchun muhim pedagogik-psixologik mexanizmlar taqdim etadi.

Navoiyning asarlaridagi o'qituvchilik faoliyatiga oid asosiy g'oyalar sifatida: Navoiyning "Xamsa" asarlarida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlar, rahbarlik va bilim berish jarayonidagi axloqiy masalalar haqida ko'p qaydlar mavjud. O'qituvchi o'z o'quvchisiga nafaqat bilim beradi u shaxs sifatida o'rnak namuna balki ma'naviyatni ham berishi lozim. Buning uchun eng avvalo o'qituvchi tarbiyali, bilimli bo'lmog'i lozim. Navoiyning asarlarida o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilish, o'zini-o'zi anglash va doimiy ravishda o'z faoliyatini rivojlantirish zarurligi ko'rsatiladi. Masalan, Navoiyning "Mahbubul-qulub" asarida insonning o'zini anglash va o'z qobiliyatlarini rivojlantirish zarurligi haqida fikrlar mavjud. Demak ushbu asardagi fikrlarni o'rganib chiqsak, kuzatishimiz mumkinki, o'qituvchi o'z faoliyatini doimiy ravishda baholab, metodlarni yangilab borishi kerakligini anglatadi. Bu har birimizga a'yon chunki globallashtirish jarayoni ham shuni talab qiladi. O'qituvchining axloqiy mas'uliyati masalasi ham Hazrat Navoiyning asarlarida o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi axloqiy mas'uliyatga alohida e'tibor berishi uning pedagogik-psixologik mexanizmlarini tushunishga yordam beradi. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarining ma'naviy va axloqiy shakllanishiga ham javobgardir. Bu metakognitiv jarayonni o'z ichiga oladi, chunki o'qituvchi o'quvchilarning ruhiy holatini kuzatib, o'z faoliyatini doimiy tahlil qilib, moslashuvchan bo'lishi kerak. Navoiyning asarlarida o'qituvchi doimiy ravishda o'z bilim va tajribasini oshirishi kerakligi haqida fikrlar mavjud. Masalan, uning "Nasoyihul-muluk" asarida o'qituvchining bilim va tajribasini oshirish, yangi

bilimlarni izlash va o'z faoliyatini yaxshilash zarurligi ta'kidlanadi. Bu metakognitiv yondashuvlar bilan uyg'unlashadi, chunki o'qituvchi doimiy ravishda o'zining ishlash usullarini tahlil qilib, eng samarali va to'g'ri usullarni tanlash zarur.

Navoiyning asarlarida o'qituvchining kasbiy faoliyatini takomillashtirish uchun quyidagi mexanizmlar keltirilgan bulardan biri endi o'qituvchida nafaqat pedagogik mahorat balki, ruhiy savodxonlik ham bo'lishi kerakligini ko'rishimiz mumkin. O'qituvchi o'quvchilarning ruhiy holatini tushunib, ular bilan muloqot qilishda ehtiyotkorlikni o'rgatadi. Bu psixologik omil o'qituvchining pedagogik uslublarini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. O'qituvchi o'zining axloqiy mas'uliyatini anglab, o'quvchilarga ma'naviy-axloqiy saboqlar berish kerakligini ta'kidlaydi. Bu, o'z navbatida, pedagogik jarayondagi samaradorlikni oshiradi.

Alisher Navoiyning asarlarida o'qituvchining o'z pedagogik usullarini doimiy ravishda yangilab borish zarurligi ta'kidlanadi. Bu albatta bugungi kunda yangi metodlarga ochiqlik va o'qituvchining doimiy rivojlanishini anglatadi. Ya'ni ilm kishisi doimo yangilik izlashdan to'xtamasligi lozim.

Quyoshliq istasang kasbi kamol et,

Kamol aro kasb etarsen bemalol et.

Ma'nosi: Agar quyoshlikni istasang kasbi kamol et Kamolotga erishay desang ilm olishda malollanmagin baytlarini o'zi ham olim hech qachon ilm olishdan malollanmasligi kerakligi yangi bilimlarni olish zarurligini ko'rsatib beradi.[5].

Navoiyning asarlarida o'qituvchi kasbiy faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ko'plab psixologik va pedagogik mexanizmlar mavjud. Metakognitiv yondashuvlar, o'z faoliyatini tahlil qilish va o'qituvchining ruhiy holatini kuzatish, axloqiy mas'uliyatni anglash kabi masalalar Navoiyning asarlarida alohida o'rin tutadi. O'qituvchi bu mexanizmlarni o'z faoliyatiga tatbiq etish orqali o'z samaradorligini oshirishi mumkin.

Bundan tashqari O'qituvchining darslarni qanday olib borayotganini va o'quvchilarni qanday o'rgatishni o'z-o'zini baholash orqali aniqlashi, dars davomida o'qituvchi o'zining pedagogik texnikalari va usullarini tahlil qilish, ularni kerak bo'lsa o'zgartirishi, o'qituvchining o'quvchilarning fikrlarini tahlil qilish va yangi usullarni izlash, o'z bilim va tajribalarini doimiy yangilashi lozim. "Farxod va Shirin" dostonida inson egallagan bilimlarida chegaralanib qolmasligi kerakligi haqidagi bayt uchraydi.

Quyosh yanglig' yorug' ra'y muniri,

Vale andin yoruq mofizzamiri [6].

Xulosa qilib aytishimiz mukinki, o'qituvchining pedagogik-psixologik mexanizmlari uning samarali faoliyatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Motivatsiya: O'qituvchining o'z faoliyatiga bo'lgan motivatsiyasi, o'quvchilarga bo'lgan ishtiyoqi.

O'quvchi bilan muloqot: O'qituvchi o'zini va o'quvchini qanday his-tuyg'ularda va qanday darajada anglash va ularga ta'sir qilishni bilishi kerak.

O'zgarishlarga moslashish: O'qituvchi yangi pedagogik yondashuvlar va texnologiyalarga qanday moslashishi va ularni o'z faoliyatida qanday qo'llashi kerakligini tushunish.

Stressni boshqarish: O'qituvchi o'zining psixologik holatini nazorat qilishi, stress va charchoqni boshqarishi zarur.

Navoiyning asarlarida o'qituvchi kasbiy faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ko'plab psixologik va pedagogik mexanizmlar mavjud. Metakognitiv yondashuvlar, o'z faoliyatini tahlil qilish va o'qituvchining ruhiy holatini kuzatish, axloqiy mas'uliyatni anglash kabi masalalar Navoiyning asarlarida alohida o'rin tutadi. O'qituvchi bu mexanizmlarni o'z faoliyatiga tatbiq etish orqali o'z samaradorligini oshirishi mumkin.

Kengaytirilgan metakognitiv mashqlar: O'qituvchilar uchun o'z faoliyatini tahlil qilish va refleksiya qilishga yordam beradigan treninglar tashkil qilish.

Psixologik qo'llab-quvvatlash: O'qituvchilarni stress va emotsional yuki kamaytirish uchun psixologik maslahat va treninglar tashkil etish.

Innovatsion yondashuvlar: Yangi pedagogik texnologiyalarni va metodlarni o'zlashtirish, ular orqali dars jarayonlarini takomillashtirish.

Ushbu mexanizmlar o'qituvchining kasbiy faoliyatini yuqori darajada tashkil etishga yordam beradi va o'qituvchilarning o'qish samaradorligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Prezidentning bayram tabrigi: 1 oktabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni umumxalq bayrami 2024-yil 30-sentyabr.
2. Prezidentning bayram tabrigi: 1 oktabr — O'qituvchi va murabbiylar kuni umumxalq bayrami 2024-yil 30-sentyabr.
3. Nega bizga metakognitsiya kerak - Akme.uz
4. "Ibratli hikoyatlar va Hislatli hikmatlar" Sano-standart nashriyoti.T-2016.
5. "Ibratli hikoyatlar va Hislatli hikmatlar" Sano-standart nashriyoti.T-2016.
6. Salimov Oqil, Akademik "Jadid" gazetasining 2024-yil 4-oktyabrdagi 41-sonida

MUNDARIJA

KIRISH SO'ZI	3
1-SHO'BA: ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI	

<i>Mardonov U.R.</i>	Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonidagi obrazlar va hikoyatlarning badiiy xususiyatlari	6
<i>G'ulomova N.S., Safarova M.G'.</i>	Alisher Navoiy hikmatlari haqida	8
<i>Mambetova T.M.</i>	Alisher Navoiy merosining ilmiy, ma'naviy ahamiyati	11
<i>Ro'ziyeva L.I.</i>	Navoiy merosining jahon tamadduniga qo'shgan hissasi	14
<i>Karimqulov S.S.</i>	Alisher Navoiy: Buyuk mutafakkir va atoqli shoirning tilshunoslikka qo'shgan hissasi	16
<i>Axmedova Z.A.</i>	Alisher Navoiy merosining jahon tamaddunidagi o'rni	19
<i>Hakimova D.</i>	Alisher Navoiy g'azallarida ifodalangan "Nafs" konseptining lisoniy voqelanishi	21
<i>Raxmonova Sh.K.</i>	Alisher Navoiy va uning ijodining jahon adabiyotidagi o'rni	26
<i>Запунова Г.Т.</i>	Роль литературного наследия Алишера Навои в мировой культуре	27

2-SHO'BA: ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI

<i>Kuychiyeva M., Madolimov F., Mamasodiqova S.</i>	Alisher Navoiy Xamsa dostonlar to'plamining xorijiy tillarga tarjima qilinishi va tarixiy, madaniy va adabiy ahamiyati	31
<i>Кадиров К.Н.</i>	Проблемы преподавания произведений Алишера Навои в системе образования	34
<i>Yusupova U.A.</i>	Alisher Navoiy asarlarining xorijiy tillarga tarjimai va chet ellarda o'rganilishi	37
<i>Ravshanova O.S.</i>	Alisher Navoiy asarlarining xorijiy tillarga tarjimai va chet ellarda o'rganilishi	42
<i>Усмонова Г.</i>	Дунё тан олган мутафаккир	44
<i>Berdiyeva R.A., Xolova N.S.</i>	Alisher Navoiy asarlarining chet ellarda o'rganilishi	47
<i>Mamuriva M.A., Shanazarova N.X.</i>	Alisher Navoiy va uning musiqa haqidagi qarashlari	49
<i>Hodiyeva Yu.Yu.</i>	Exploration of navoi's works abroad	51
<i>Erkaboyeva S.Yu.</i>	A Navoiy's poems as extra-curricular activities for	54

	schoolchildren	
--	----------------	--

3-SHO'BA: TA'LIM TIZIMIDA NAVOIY ASARLARINI O'QITISH MUAMMOLARI

Salayev J.K.	Alisher Navoiy ijodida o'qituvchi-murabbiyning o'rni	57
Sabirova N.E.	Navoiy ijodida folkloristik unsurlar	60
Усманова Р.М.	Взгляды Алишера Навои на лингвистику и язык произведений	63
Astanaqulov K.M.	Boshlang'ich ta'limda Navoiy asarlarini qo'llash	66
Tuxfatullina D.T.	Umumta'lim maktabi o'qituvchilariga uzluksiz metodik xizmat ko'rsatishning faollik asoslangan texnologiyalarni takomillashtirish	69
G'ulomova N.S.	Yangi tipdagi Alisher Navoiy korpusining imkoniyatlari	74
Суванова М.Х.	Алишер Навоий асарларида комил инсон ғоясининг улуғланиши	79
Karimova N.R.	Boshlang'ich ta'limda Alisher Navoiy asarlaridan foydalanishning ahamiyati	81
Хамидова Г.Ю.	Алишера Навои - символ прогресса своей эпохи	83
Quvonov Z.	"Xamsa" va qiyosiy adabiyotshunoslik	86
Xasanova Sh.B.	Ta'lim jarayonida A.Navoiy merosidan foydalanish	90
Turakulova M.	Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" va "Mahbub ul-qulub" asarlarida ta'lim-tarbiya masalalari	93
Xayitov M.M.	Alisher Navoiy adabiy- ilmiy merosi har bir sohani o'zida mujassam qilgan bebaho boylik	96
Niyozova G.E.	Alisher Navoiy ijodini o'qitishda va o'rganishda innovatsion yondashuv	99
Murtazoyeva S.M.	Kodlash va madaniyat: Navoiy asarlarini raqamli shaklda saqlash texnologiyalari	104
Tuxfatullina D.T.	Designing formative assessments for grammar competence in high school learners	106
Qalandarova G.A.	Navoiydan adolatni o'rganaylik	109
Baymenova B.B.	Ta'lim tizimida Navoiy asarlarini o'qitish muammolari	111
Kadirova Sh.B.	Alisher Navoiyning ijodida ta'limiy va tarbiyaviy qarashlari	114
Iskandarova D.T.	Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda Alisher Navoiy asarlarining o'rni	116

4-SHO'BA: ALISHER NAVOIYNING TILSHUNOSLIKKA DOIR QARASHLARI VA BUYUK SHOIR ASARLARINING TILI. NAVOIY POETIKASI.

<i>Абдуллаева М.</i>	Алишер Навоийнинг инсонпарварлик ғояларидан мактабгача таълим тизимида фойдаланиш	119
<i>Djurayeva P.S.</i>	Alisher Navoiy va abay qunanbayo'g'lining ijodiy hayot yo'llari	122
<i>Fayziyeva M.</i>	Alisher Navoiy va uning ma'rifiy-madaniy qarashlari	126
<i>Boboqulov J.Q.</i>	Alisher Navoiy va uning falsafiy qarashlari	128
<i>Ravshanova O.S.</i>	Alisher Navoiy va o'zbek tilining rivojlanishidagi o'rni	131
<i>Usmonova D.N.</i>	Alisher Navoiy va o'zbek tilining rivojlanishidagi o'rni	133
<i>Abdullayev U.</i>	Halima Ahmedova she'riyatining sintaktik jihatidan ifodalanishi	135
<i>Farmonova D.M., Raximova M.T.</i>	Alisher Navoiyning tilshunoslikka doir qarashlari	138
<i>Turakulova M.U.</i>	Integrative approaches to teaching Navoi's works	140

5-SHO'BA: ALISHER NAVOIYNING MA'RIFIY-MADANIY, PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK QARASHLARI.

<i>Azizova Q.M.</i>	Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" asarida ma'rifiy, madaniy, pedagogik va psixologik qarashlar	143
<i>Хаматова Г.К.</i>	Экономическая рента	145
<i>Norova N.N.</i>	Alisher Navoiyning "Sabbai sayyor" asarida ma'rifiy, madaniy, pedagogik va psixologik qarashlar	150
<i>Usmonov M.</i>	Alisher Navoiyning samarqanddagi siyosiy va davlat faoliyatini boshqarishdagi o'rni	153
<i>To'rayeva D.I.</i>	Alisher Navoiy asarlarida musiqa ilmining rivojlanishi va tutgan o'rni	157
<i>Pozilova D.I.</i>	Alisher Navoiyning ma'rifiy-madaniy, pedagogik-psixologik qarashlarini zamonaviy taxlili	161
<i>Dusanov E.A.</i>	O'smir yoshlar o'rtasida kiber jinoyat sodir qilishning oldini olish bo'yicha ijtimoiy-psixologik mexanizmlar	163
<i>Hamroyeva A.F.</i>	Alisher Navoiyning ma'rifiy-madaniy, pedagogik-psixologik qarashlari	167
<i>Ernazarov U.E.</i>	Voyaga yetmagan yoshlarni tarbiyalashda sog'lom g'oyalarni singdirishning omillari va o'rni	169
<i>Latibjonov R.A.</i>	Alisher Navoiy asarlarida insoniylik va muloqot madaniyati g'oyalarining ilgari surilganligi	171
<i>Rustamova M.T.</i>	O'qituvchilarni emotsional intellektini	173

	rivojlantirishda fanlararo integratsiya tushunchasi	
Rahmatova N.S., Nurmamatova S.J.	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni milliy madaniy va ma'naviy – axloqiy an'analari ruhida tarbiyalash	175
Rahmatova N.S., Farhodova S.Q.	Alisher Navoiy ijodida ko'ngil va jonning bog'liqligi, ular orasidagi munosabatlarning psixologik qarashlar	177
Qahharova M.L.	Alisher Navoiy asarlari orqali o'smirlarda milliy identivlik integratsiyasini shakllantirish	180
Soliyev M.T.	Alisher Navoiy asarlarida kitob o'qishni insonlarga rivojlantiruvchi psixologik ta'sir xususiyatlari to'g'risidagi qarashlar	183
Soliyev M.T.	Alisher Navoiyning "Xayrat ul-abror" asaridagi psixologik qarashlar	185
Nabiyeva X.	Alisher Navoiyning pedagogik-psixologik qarashlari	187
Ro'ziyeva N.A.	Ta'lim va tarbiya jarayonida talabalarning axloqiy – irodaviy fazilatlarini shakllantirishda Alisher Navoiy asarlarining o'rni	190
Qahharova M.L., Marifova O.N.	Sharq allomalari asarlarida o'smirlarda milliy identivlik integratsiyasining ijtimoiy psixologik omillari	193
Raximov Z.J.	Pedagog-xodimlarning boshqaruvda metokognitiv pedagogik-psixologik mexanizmlari	197
Xudoyberdiyeva J.A.	Alisher Navoiy asarlarida bilish jarayonlarining psixologik-pedagogik qarashlari	199
Raximov Z.J.	Navoiy asarlarida "O'qituvchi kasbiy faoliyat samaradorligini metokognitiv omillar asosida takomillashtirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari"	201

**“ALISHER NAVOIY MEROSINING ILMIY, MA'NAVIY AHAMIYATI”
MAVZUSIDAGI**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
MATERIALLARI**

2025-yil 21-fevral.

Texnik muharrir: JalilovD.J.

«Qo'ldovli yangi obod» x/κ matbaa bo'limida chop etildi.
Adadi 100 nusxa. Buyurtma №30. hajmi 210 bet. Format A5. 2025-yil.